TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MASHRAB
SO‘FI OLLOYOR

8





MASHRAB

SO‘FI OLLOYOR





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 34

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Karomat Mullaxo‘jayeva, Rashid Zohidov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.


Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8722-5-7

© **“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022**

MASHRAB





MASHRAB SOG'INCHI

O'zbek mumtoz she'riyatiga yangi ruh, yangi ohang va yangicha badiiy talqinlar bilan kirib kelgan Rahimbobo Mashrab o'z shaxsi va qismatini kayhoniy ko'lamda mukammal tasvirlashga muvaffaq bo'lgan ulkan san'atkordir.

Mashrabning hayot yo'li haqidagi ma'lumotlar bizgacha afsonalarga yo'g'rilib yetib keldi. Shoir haqida batafsil ma'lumot olish mumkin bo'lgan muhim manba, bu — xalq kitobi — "Qissayi Mashrab" "Devonayi Mashrab"dir. Unda shoir Mashrab xalq orzusidagi, idealidagi Mashrab bilan qorishib, uyg'unlashtirib tasvirlangan. Shu bois Mashrab shaxsi, uning biografiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar hamon bahslar doirasidan chiqib ketolmaydi. Hatto shoirning tug'ilgan yili haqida ham Mashrab hayoti va ijodi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar bir xil fikrda emas. "Mabdayi nur" va "Kimyo" asarlarining ayrim olimlar tomonidan Mashrabga nisbat berilishi, boshqa olimlarning bu faktni inkor etib yangi ilmiy dalil va talqinlarni o'rtaga tashlashlari hamon davom etmoqda.

Mashrabshunoslikda shoir tug'ilgan yili haqidagi bahslar ham tugamagan. Uning tug'ilgan yiliga oid sanalar sifatida 1640-, 1653-, 1657-yillar ko'rsatilgan. Har bir tadqiqotchi o'z fikrlarini asoslash uchun shoir yashagan davrdagi tarixiy voqealarga, shoir hayotida ro'y bergan muayyan hodisaga hamda tazkiralardagi ma'lumotlarga yoxud shoirning biror she'ridagi faktga tayanib ish ko'radi. Ayni kunlarda ham Rahimbobo Mashrabning tug'ilgan yili sifatida ikki sana — 1640-yil yoki 1653-yil ko'rsatiladi. Demak, mashrabshunoslikda bu masalada tadqiqotlarni nihoyasiga yetkazish zarurati mavjud.

Mashrabning hayot yo'li va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni beruvchi muhim manba — "Devonayi Mashrab" qissasidir.

Xalq kitoblari yo'lida bitilgan ushbu asarda Rahimbobo Mashrab haqidagi hikoyat va rivoyatlar muayyan syujetga moslashtirilib nasriy yo'lda hikoya qilinadi. Bugun Mashrab qalamiga mansub deb hisoblanayotgan she'rlar ushbu hikoyalar bilan ba'zan uyg'un, ba'zan esa alohida — voqealarga bog'lanmagan holatda kiritilgan. "Devonayi Mashrab" asarining turli nomlardagi nusxalari mavjud. Jumladan, ular xalq orasida "Devoni Mashrab", "Eshon Shoh Mashrabi devonayi Namangoniy", keyinchalik "Qissai Mashrab" nomlari bilan shuhrat topgan. Ushbu kitoblar umumiy ma'noda bir-biridan keskin farq qilmaydi. Ularning boshlanishi va yakunlanishi bir xil, ya'ni asarlarda bayonning boshlanishi va yakuniy qismi bir-biridan farq qilmaydi. Ushbu nusxalarda shoir hayotiga oid ayrim voqealarning tushib qolishi yoki voqealar bayonidagi ketma-ketlikning o'zgarganligini kuzatish mumkin. Biroq asarlarning barchasi Rahimbobo Mashrabning hayot yo'lini, uning she'rlarini tiklashga imkon beradi.

Mashrabning hayot yo'li, ijodiy merosi bo'yicha XX–XXI asrlarda ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Bu borada A.Fitrat, G'.G'ulom, V.Abdullayev, I.Sulton, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, I.Abdullayev, M.Zokiriy, J.Yusupov, N.Komilov, G'. Salomov, I.Haqqul, V.Rahmonov, D.Hamroyeva, E.Rabbimov, A. Jumanazar, M.Hoshimxonov kabi olimlar va adabiyotshunoslarning xizmatlarini e'tirof etish muhim. Ayniqsa, mustaqillik yillari Mashrab haqidagi haqiqatni aytishga, uning asarlari mohiyatini chuqurroq anglash va tushuntirishga keng yo'l ochildi. Bugun Mashrab she'riyati butun mukammalligi bilan tadqiq etilishi zarur.

Mashrab she'riyati janr jihatidan ham boy. Uning, ayniqsa, g'azallari va mustazodlari o'z ohangi bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarining xalq orasida keng yoyilishida, sevib o'qilishida va qo'shiq qilib kuylanishida mana shu mashrabona ohangning o'rni ham muhimdir. Aytish mumkinki, Mashrab mumtoz she'riyatimiz tarixida eng ko'p mustazod yozgan shoirlardan. Mashrabning oxirgi marta she'rlari chop etilgan "Devon"ga (J.Yusupov nashrga tayyorlagan, 2006-y.) uch yuzga yaqin (ikki yuz to'qson to'qqizta) g'azal, yigirmadan ortiq mustazod, to'rtta murabba', saksonga yaqin muxammas, yettita musaddas, ikkita musabba', bitta musam-

man, shuningdek, masnaviy hamda fardlar, to‘rtliklar kiritilgan. Mashrab she’riyatidagi diltortar ohanglar to‘qmag‘iz ma’noga ega ekanligi bois o‘lmasdir. Shoir har bir she’rining hayoti bor, bu hayotning ichida Mashrab degan zotning dunyosi pinhon. Bu hayot, bu dunyo ma’rifat, irfon bilan uyg‘unlashgani bois go‘zal. Bu hayot kabi uni aks ettirgan she’r go‘zal. Biz ko‘pincha, Mashrab she’rlaridagi jazbaga, jununvorlikka e’tibor qaratamiz. Bu, albatta, xato emas. Bu g‘aybiy ilhom shoirning e’tiqodi, juda katta bilimi bilan qorishib ketgan. Mashrab she’rlarini din, tasavvuf, irfon kabi muhim masalalar mohiyatini bilmasdan turib to‘g‘ri tushunish, anglash mumkin emas. Ayni paytda, ularni anglash uchun ko‘ngilda zarracha bo‘lsa-da ishqning uchquni bo‘lmog‘i zarur. *Dilda darding bo‘lmasa, / Sardaftarimni kavlama,* — degan shoir, aslida, kitobxondan — suhbatdoshdan shuni talab qilmaganmi?

Mashrab g‘azallari mavzusi, mazmuni haqida so‘z ketganda, uning insonga, dunyoga va Allohga muhabbati haqida aytilgan fikrlar uchraydi. Albatta, she’rlarga mana shu muhabbatlar nuqtayi nazaridan yondashganida ham kitobxon o‘zi uchun nimanidir topgandek bo‘lar. Ammo bunday g‘azallarni to‘g‘ri idrok etish, tushunish va his qilish uchun Mashrabning tafakkur tarzi to‘g‘ri tushunilsa, uning badiiy talqinlaridan topgan zavq ham o‘zgacha — juda baland bo‘ladi. Zero, Mashrab olam, odam va Allohni uyg‘unlikda idrok etadi. Ilohiy muhabbatni tasvirlashni olam va odamga oid masalalar bilan boshlasa, majoziy muhabbatni Allohning yaratig‘i bo‘lgan inson, uning ruhoniy ma’noda Haqqa yaqinligini anglashga, dunyoning esa o‘tkinchiligiga qaratadi. Ayniqsa, ishqning bunday sir-sinoatini shoir “qildi ishq” radifli bir g‘azalida izchil tasvirlab bergan:

Lomakonning shahrida oshiqni shaydo qildi ishq,
Anbiyo-yu avliyolarni huvaydo qildi ishq.
Mustafoning nuridin yozildi shamsi vaz-zuho,
Nuriga sajda qilib, ma’niyni paydo qildi ishq.
Jilvasini ko‘rsatib zohirda elga rang-barang
Or-u nomusdin kechib olamg‘a g‘avg‘o qildi ishq...

Shayx Shibliy, shayx Attor ul "Analxaq" suhbatin
Qurdi, ichdi bodani, Mansurni dordo qildi ishq... .

Ishq mavzusidagi she'rlarida Mashrab mumtoz adabiyotda mavjud qiyoslardan unumli foydalanar ekan, ishqni kimyoga o'xshatib, uning mohiyatiga chuqurroq kirib boradi. Jumladan: *Kimyodur ishq, anqodur topib bo'lmas ani, / Kimga tushdi, bo'ldi ul dunyoyi uqbodin judo.* Oshiqni ikki dunyodan judo qilgan bu ishq uni Haqqa yovuqlashtiradigan bir qudratli kuch. Bu kabi baytlarga asoslanib, aytish mumkinki, Mashrab she'rlarini o'rganishda, ularni tahlil qilishda uning o'z she'rlari ham muayyan ma'noda ochqich vazifasini o'tashi mumkin.

Shoir she'rlaridagi solik-oshiqning maqsadi — u dunyo ham, bu dunyo ham emas, balki Haqning jamoli, ana shu jamolga yetishish. Shu jihatdan qaralganda, Mashrab she'rlarida bu dunyo, u dunyo, oshiq, uning yori — Haq timsollari yetakchilik qiladi.

Bir she'rida shoir: *Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur Mashrabo*, deyish bilan dunyoning, aniqrog'i, dunyolarning ta'rifini berib qo'ygandek. Bu o'rinda g'alat - xato sifati bilan baholangan makonlar boshqa she'rlarda sivo, mosivolloh ifodalari bilan beriladiki, bular Mashrabning so'fiyona olamini, ruhoniyatini kashf etishda alohida o'rin tutadi. Bu kayfiyat, bunday ruh Mashrab she'rlarining katta qismida uchraydi.

Shoir dunyo va Haq olamlarini tushuntirishda talavvun va tamkin mavhumlaridan ham foydalangan. Jumladan, bir g'azalida: *Vaqti talavvundin o'tubman mujdayi tamkin manam...* misralarini o'qiymiz. Bu o'rinda *talavvun* orqali hoy-u havaslar domi bo'lgan o'zgaruvchan — rangin dunyo ifodalangan bo'lsa, *tamkin* vositasida shoir Haqqa yetishgan solik ruhiga ishora qiladi.

Mashrab tasavvufiy qarashlarining badiiy talqini bir tomondan, payg'ambarlar qismati va ularga yuklangan vazifalar, jumladan, ishq tufayli ko'kka ko'tarilgan Iso alayhissalom, Tur tog'iga chiqqan diydortalab Muso alayhissalom, Me'roj kechasi Yaratuvchi huzurida turgan Muhammad s.a.v.ning holi, ular boshidan kechirgan voqealar orqali tasvirlansa, boshqa tarafdan, afsonaviy Farhod-u Majnun hamda Boyazid Bistomiy, Shayx Shibliy,

Fariduddin Attor, Shams Tabriziy Bahouddin Naqshband, Ibrohim Adham, Mansur Halloj kabi ilmi irfon ahlining nomlari tez-tez uchraydi. Ayniqsa, Mansur Halloj, Ibrohim Adham nomlarining Mashrab she'rlarida tez-tez uchrashi, shoirning ularni o'ziga ideal deb bilishi hamda o'zi tanlagan Haq yo'lni — o'z qismatini ularning qismati orqali tushuntirishida qo'l kelgan: *Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,/ Charx urub, yig'lab turarman ushbu dam dor oldida* va yoki: *Ming shukr xudoyimg'a Mansurg'a qo'shuldum man, / Ul ro'yi siyahlarkim Mansurni o'ldurg'on.*

Mashrabning beqiyos ruhoniyatini ochib beradigan g'azallaridagi yana bir mavzu — uning dunyolarga sig'masligidir. Shoirning bu masalaga daxldor "sig'madim", "sig'mamdur" radifli g'azallari bor. Jumladan, "sig'mamdur" radifli g'azalida shoir o'zining dunyolarga sig'masligini asoslash uchun majnunvor ruhiga Majnunni qiyos qilib keltiradi. Lekin Majnun kun kechirgan dasht-u sahrolarga o'zining sig'masligini shunday izohlaydi: *Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur, / Dilim daryoyi nurdur, mavj urub dunyog'a sig'mamdur.* G'azal solik-oshiq ruhoniyatidagi tadrijiy evrilishlarni diniy-tasavvufiy talqinlarda yoritib, oxir-oqibat uning na bu dunyoga va na u dunyoga sig'masligi bilan yakunlanadi: *Mudom miskin erurman chun g'uloming — Mashrabingdurman, / Mani bechora bu dunyo bilan uqbog'a sig'mamdur.*

Hech bir makon-u zamonlarga sig'maydigan bunday ruhoniyatning sir-sinoatlari shoirning boshqa g'azallarida ochiladi. Bu hol ichra yashashning asli sababi — sog'inch, aniqrog'i, ilohiy sog'inch. Mashrab she'rlarida mavlono Rumiyning "Naynoma"sida bitilgan sog'inchining nafasi — o'z manshaasi — Ilohiy olamni sog'inib intilayotgan odamning ruhoniyati yashaydi: *Shajarlar — xoma, daryolar — siyoh-u yer-u ko'k — sahfa,/ Raqam qilsam ado bo'lmas g'aming, bisyor sog'indim.* Sog'inchning bunday go'zal tasvirini shoir Qur'oni karimdagi oyatlardan topgan. Luqmon surasida: "Agar yer yuzidagi bor dov-daraxtlar qalamlar bo'lib, dengiz (siyoh bo'lsa va) undan so'ng yana yetti dengiz yordamga kelsa, Ollohning so'zlari tugab-bitmas. Albatta, Olloh qudrat va hikmat egasidir"(31:27), — degan oyatni o'qiymiz.

Ko‘rinib turibdiki, Mashrab she’riyatining ildizlari ilohiy-irfoniy manbalarga tutash. Shu bois ham ular inson ruhoniy olamini butun mukammalligi bilan ochib berishga xizmat qiladi va ayni paytda, she’rxonning ma’naviy kamoloti, tarbiyasi yo‘lida xizmat qiladi. Mashrabning ilohiy muhabbatga yo‘g‘rilgan, bir qarashda majnunvor kayfiyatdagi bu she’rlari insonni hayotdan uzib qo‘ymaydi, dunyoda muayyan tartib bilan yashashga, or-nomusini, g‘ururini toptamasdan, Tangri buyurgan ne’matlarni, xususan, eng oliy ne’mat — umrni, ota-onani, yaqinlarni qadrlab yashashga o‘rgatadi.

Kechav-u kunduz agar Qur’on tilovat aylasang,
Shabni ro‘z aylab mudom taqvo-yu toat aylasang,
Misli Hotamdek bo‘lub xayr-u saxovat aylasang,
Ka’bayi maqsudni ming bor ziyorat aylasang,
To otang rozi emas, tavbang qabul bo‘lmas sani.

Shoir ko‘p hollarda to‘g‘ri yashash, halol kun ko‘rish uchun anbiyo-yu avliyolar hayotini ibrat qilib ko‘rsatadi. Ayniqsa, muxammaslarda biz Rasulullоh hayot yo‘li, u zotga oid juda ko‘p ma’lumotlarning badiiy talqinga ko‘chganligi, hayotning, tiriklikning mohiyati ana shu zot timsolida hayratlanarli darajadagi taqdim etilganiga guvoh bo‘lamiz.

Islom tarixidan bizga ma’lum bo‘lgan payg‘ambarlarning har biriga xos fazilat, sifat va a’mollarning badiiy talqinlari ham faqat inson kamoloti uchun xizmat qilgan. Ular kitobxonning o‘zini anglashi, dunyoni tanishi, tiriklikning mohiyatini tushunishi va albatta, Haq yo‘liga o‘tishiga ko‘mak beradigan go‘zal she’rlardir.

Aytish mumkinki, Mashrab she’riyati dunyoni kayhoniy andozalarda idrok etishga o‘rgatadigan, insonning irfoniy kamoloti uchun xizmat qiladigan, chuqur ildizlarga ega, beqiyos ohangdagi katta she’riyatdir.

Karomat Mullaxo‘jayeva,
filologiya fanlari nomzodi

G‘AZALLAR

Bismillahir rohmanir rohiym

* * *

Qori muflis sahl erurkim podshoning oldida,
Siynayi daftarni ochmang dil siyoning oldida.

Man tasadduqi o‘shandoq oli himmatlar bo‘lay,
Ikki olam bir qadamdur avliyoning oldida.

Rahmatanlilolamiynning ummati bo‘lsang agar,
Rohi aslingdin gapurma ro‘siyoning oldida.

Kimki johildir nasihat bersang anga saxt yetar,
Ikki dunyo nur bo‘lur sohibduoning oldida.

Domani davlatni tutganlar bilur bu ma’nini,
Yaxshi so‘zni so‘zlamang baxti qaroning oldida.

Mashrabo, har qayga borsang izlagil ganji nihon
Ro‘zi Mahshar qurb topgaysan Xudoning oldida.

* * *

Men nola qilay shom-u sahar dod, eshigingda,
Jonimni beray, sho‘xi parizod, eshigingda.

Ul lolav-u rayhonu suman, toza qizil gul,
Ham sarv bukuldi, qadi shamshod, eshigingda.

Xo‘boni jahon bo‘lsa taqi Yusufi Kan’on,
Sulton-u amir bandayi, ozod eshigingda.

Zulfing seni bu jonima yuz domi balodur,
Jonim qushi sayd o‘ldi chu sayyod eshigingda.

Olam borisi lazzati husningni topibdur,
Giryon-u fig‘on, nola-vu faryod eshigingda.

Savdoyi muhabbatga tushubman sani izlab,
O‘ldurdi g‘aming, ko‘zlari jallod, eshigingda.

Ashkim to‘kubon hajr-u g‘amingda kecha-kunduz,
Vayrona vatan — manzili obod eshigingda.

Ul husni jamoling o‘ti Mashrabg‘a tushubdur,
Parvonasifat kuydi, parizod, eshigingda.

* * *

Jumlayi maqsudni san zoti Ollohdin tila,
Sen gadosan, hojatingni shay'nanlillohdin tila.

Va'da qilg'ondurki: Hech mo'mindin zoye' qo'ymayin,
Oncha hojatingni san ajran jamilodin tila.

Gar inoyat qilmasa qilg'on namozing nodurust,
Hosili uqboni sen ul fayzi Ollohdin tila.

Rabbiyal a'lo debon boshingni qo'yg'il sajdaga,
Takya qilg'il Ka'bag'a, ajringni Ollohdin tila.

Chun Xalil otashga kirg'il, butga sajda qilmag'il,
Ganji dilni kotibi nahni qasamnodin tila.

Oni bir oti Same'dur, yona bir oti Basir,
San duoning fathini alhamdulillohdin tila.

Qo'l uzotsang, Mashrabo, ul domani Ahmadga ur,
Jo'ybori peshaga qo'l solma, daryodin tila.

* * *

Tushti savdoyi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg‘a qoshima.

Vah, muhabbat ko‘yida qon yig‘ladim,
Yetti iqlim g‘arq bo‘ldi yoshima.

Sajda aylar zohid ul mehrobiga,
Man qilurman sajda egma qoshima.

Qil hazar, albatta, jonon, qahrdin,
Uzr-u zorim sanga — bag‘ri toshima.

Muhtasib to‘kturdi soqiy bodasin,
Yetmadi aqli aning sirdoshima.

Kunda yuz ming jabr qilsang o‘rgulay,
Qo‘y qarab g‘am toshini bardoshima.

Mashrabi devonani hayron qilib,
Ne sababdin kelmading bir qoshima?

* * *

Sansan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

G‘am shomi firoqingda kabob etti falakni,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Nogah sari zulfung sori bo‘ldum sanga moyil,
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma.

La’ling g‘amidan ko‘nglum erur g‘uncha kabi qon,
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma.

Zahri g‘ami hajring meni o‘ldurg‘ali yetti,
Ey labshakarim, xoh inon, xoh inonma.

Mashrab kabi ko‘yingda bo‘lub barqi tajalliy,
Qolmay asarim, xoh inon, xoh inonma.

* * *

Har kishining dardi bo‘lsa yig‘lasun yor oldida,
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.

Andalibi benavodek nola-vu afg‘on ila,
Aylanib sayrab yurarman ayni gulzor oldida.

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,
Charx urub yig‘lab turarman ushbu dam dor oldida.

Har kishi bir jur’aye no‘sh aylasa bu bodadin,
Ul qiyomatda qilur arzini Jabbor oldida.

Telba Mashrab, qilmag‘il sirringni zohidga ayon,
Aytib-aytib yig‘lagaysan, oshiqi zor, oldida.

* * *

Asli davlat din erur, mardi badavlatman dema,
Dilda ma'ni bo'lmasa ahli haqiqatman dema.

Gar saxovating jahonni tutsa chun Xotam sifat,
Ish riyodin xoli yo'q, sohib saxovatman dema.

Qatrayi obi maniyga mouman lozim emas,
Mujtahidni o'g'li bo'lsang, bekuduratman dema.

San nasab bozoriga solma o'zungni, ey aziz,
Mahzi taqlid birlan avlodi Muhammadman dema.

Mutaqqiy bo'lmoq, bu yo'lda nafsni o'ldurmoq kerak,
Zindalikda o'lmasang, ahli tariqatman dema.

Yer yuzining toatin qilganda ojizlikni tut,
Dilni naxvatdin aritgin, ahli toatman dema.

Muhtasibi nafs bo'lsang, dilni shirkatdin arit,
San bu nodonlik bilan sohib nasihatman dema.

Haft iqlim bo'lsa farmoningga chun naqshi nigin,
Talxiyi jonkadalik bordur, bashavkatman dema.

Bandalikda mustaqim bo'l, gardaningni anga ber,
San adam yo'lini tutgil, ahli xizmatman dema.

Qo'p, jahonda akbari qil, nafs birla san urush,
To Sirotdin o'tmasang, ahli salomatman dema.

Ne dilovarlarni yiqqan naqdini olganda bil,
Mushti xokiy bebizoatsan, bahimmatman dema.

Misli Yahyo yig'lagil shom-u sahar motam bilan,
Diydadin xun to'kkil-u, ahli nadomatman dema.

Xastadil Mashrabning asrorini bilsang, ey hakim,
Bul xatarlik yo'ldasan, sohibkaromatman dema.

* * *

Ey sabo, g‘ambodadurman bistarimni kavlama,
Chun shafaq oludaman, xokistarimni kavlama.

Har zamone Laylidin manga kitobatlar kelur,
Sanki Majnun bo‘lmasang, sardaftarimni kavlama.

Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,
Eyki, mahram bo‘lmasang, chashmi tarimchi kavlama.

To kishiga dard tegmay, bo‘lmadi bag‘ri kabob,
Dilda darding bo‘lmasa, dardi sarimni kavlama.

Hajr toshidin sarofat boshig‘a yetgan o‘zum,
Kishtiyi motamdadurman, langarimni kavlama.

To bir ummat yo‘lg‘a kirguncha jigarxun bo‘ldilar,
Ummat ersang jon fido qil, Sarvarimni kavlama.

Yetti do‘zax o‘rtanur aftodalarning ohidin,
Otashi hajrida kuygan mijmarimni kavlama.

Lomakonni shahrini bir hu bilan sayr ayladim,
Jabrail, borg‘il nari, bol-u parimni kavlama.

Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,
Ma’rifatdin bexabarsan, daftarimni kavlama.

Duri daryoyi maoniy bo‘ldi chun Mashrab, vale,
Diydabiyno bo‘lmasang, ko‘z gavharimni, kavlama.

* * *

Netay, ey do‘stlar, bo‘lmay yuzi sham’ig‘a parvona,
Tuman ming ishva birlan ko‘nglum oldi sho‘xi jonona.

Nasimi yetsa ko‘yidin bo‘lur gulzor sahrolar,
Tushar olamg‘a ohim o‘tidin bir ra’di barqona.

Bo‘lubdurman hamadin, hur bo‘lsun yo pari bo‘lsun
Jami’yi mahliqolardin aning ishqida begona.

Ne tong rahmi kelib bersa mani maxmuri hayrong‘a
O‘shal husn ahli shohi ishq mayidin qatra paymona.

Erur zuhd ahli xursand, soyayi qaddida arjumand,
Muhabbat ahli ishq sahrosida majruhi devona.

Tilab haqdin kecha-kunduz boshimni sajdadin olmam,
Murodim ishq eli xoki tanimdin qilsa paymona.

Tariyqi ishq aro noyob agar, Mashrabki, bir joning,
Yo‘lida, bo‘lsa ming joning, fido qil sheri mardona.

* * *

Ma'rifatning gulzori Mullo Bozor devona.
Oshiqlarning sardori Mullo Bozor devona.

Yo'qtur aslo kiynasi bahri urfon siynasi,
Nuri Haq oyinasi, Mullo Bozor devona.

Joylaridur Namangan, Haq yo'lida jon bergan,
Muridlarini sevgan Mullo Bozor devona.

Ichlaridur to'la nur, pirlaridur Bahodur,
Buxoroda ul mashhur, Mullo Bozor devona.

Mashrab o'zi devona, ishq o'tig'a parvona,
Yo'l yurodur sarsona, Mullo Bozor devona.

* * *

Banogoh uchradi dilbar kulub mastona-mastona,
Tavozu' birla taklif ayladi ul so'yi mayxona.

Ko'zi xunxor, labi la'li aksiki maydin lolagun erdi
Ki, man qonlar yutarman o'lgucha paymona-paymona.

Xayoli qomati birlanki, man umrumni o'tkardim,
Mani barcha xaloyiq, deydilar: "Devona-devona".

Bihamdulloh, ko'ngulni mosuvodin man sivo qildim,
Aning mehrini sevdim, o'zgadin begona-begona.

Qilib orzu shu dilbarni tilarman kecha-vu kunduz,
Aning yodini aylarman yurub haryona-haryona.

Ko'ngulda g'ussa ko'p, hamdard birla hamdamim yo'qdur,
Raqiblar o'rtasida telbaman javlona-javlona.

Boshim ketsa yo'lidan emdi, Mashrab, qaytarim yo'qdur,
Bu jonimni nisor aylay sanga mardona-mardona.

* * *

Dil ani derlarki, hargiz mojarosi bo‘lmasa,
Ko‘r ani derlarki, bas, chashmi binosi bo‘lmasa.

Jannat ul-firdavsni muft bersa, bu yo‘lda izlama,
Xayr ani derlarki, arzandek riyosi bo‘lmasa.

Xobgohim Arsh edi, munda g‘alat tushtum, darig‘,
Nur bo‘lur erdimki, nafsi ajdahosi bo‘lmasa.

Dedi payg‘ambar bu so‘zni, Mashrabo, bosidq eshit:
“Do‘zaxi derlar ani tarsi Xudosi bo‘lmasa”.

* * *

Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,
Surarman ko‘zlarimga xoki dar ohista-ohista.

O‘tar bir-bir bosib ul sho‘x, boqmas bevafolikdin,
Erur andoq vafosizumr o‘tar ohista-ohista.

Kichiklikda, nigorim, achchig‘ aytsa ayb ermasdur,
Ki, faslida bo‘lur shirin samar ohista-ohista.

Jamoling barkamol o‘ldi, bo‘lur bir-bir xating paydo,
Bahor o‘lsa o‘sarlar sabzalar ohista-ohista.

Borur miskin bu Mashrab gul yuzingni ko‘rgali, ammo
Ko‘rolmay orazing yig‘lab turar ohista-ohista.

* * *

Sahro yuzi ko‘karmas to yoz bo‘lmaguncha,
Bulbul tarannum etmas to g‘uncha kulmaguncha.

Ko‘zdin chunon suv to‘kg‘il, iymoning bahra olsun,
Bog‘-u chaman ko‘karmas, yomg‘ur quyulmaguncha.

Makri raqib birlan hasrat o‘tiga tushtum,
G‘am rishtasi uzulmas to yor kelmaguncha.

Yuz yil tirik yurusang, oxir bir kun o‘lursan,
Afsus ilan ketursan to vosil o‘lmaguncha.

Ey Mashrabi qalandar, yaxshig‘a banda bo‘lg‘il,
Holvoyitar bo‘lmas shakkar qo‘shulmaguncha.

* * *

Sanam yuzini ko‘rsatur oshiqi mubtalosig‘a,
G‘am bilan bo‘(l)g‘on ado Majnuni benavosig‘a.

Tolibi ishq o‘lay desang himmati Adhami kerak,
Zarra qachon yetar vale vasli sanam orosig‘a?

Yop yuzini ko‘ray desang, vasli bila bo‘lay desang,
Rozi kerak qazosig‘a, sabr kerak balosig‘a.

O‘tti jahondin avliyo, murshid-u orif, anbiyo,
Bo‘lmadilar fireftaye dunyoni mojarosig‘a.

Vosili haq bo‘lay desang, ishq-u muhabbat hosil et,
O‘rta havovu kibr uyin sham’i yuzin ziyosig‘a.

Kuysa muhabbat o‘tig‘a fisq-u fujur gunohlaring,
Xilvat etib kelur o‘zi ko‘ngulni xonaqosig‘a.

Mashrabi benavodu(r)man, arzi dilimni aytayin:
Tarahhum ayla, ey pari ishqingni bul gadosig‘a.

* * *

Ko‘nglumni berdim san bevafog‘a,
Kuydi yurokim jabr-u jafog‘a.

Ey nozaninim, rahm ayla, manga,
Qoldim sani deb yuz ming balog‘a.

Mehnat chekarman, rohat ko‘ray deb,
Qilsang jafolar, yig‘lay Xudog‘a.

Bemori ishqing bo‘ldim, netarman,
Sobir — balog‘a, rozi — qazog‘a.

Mujgoning o‘qi o‘tti yurakdin,
Nogoh sovuq so‘z tushdi apog‘a.

Mashrab sani deb kechdi jahondin,
Rahm ayla, shoho, muflis gadog‘a.

* * *

Ko‘rsat jamoling mastonalarg‘a,
Ishqingda kuygan parvonalarg‘a.

Mandin duodur, sandin ijobat,
Jonim tasadduq jononalarg‘a.

Ey ko‘ngli qattig‘, rahm aylamaysan,
Qilg‘il nazar san bechoralarg‘a.

Kuygan g‘aribman, shafqat qil oxir,
Ko‘yingda yurgan devonalarg‘a.

Mashrab sani deb kechti jahondin,
Boshini qo‘ydi ostonalarg‘a.

* * *

Devonadurman sham'i sharar jilva sanamg'a,
Qurbon bo'lay otashkadayi shu'la adamg'a.

Zebo sanamim boda ichib, yuzini ochib,
O't qo'ydi parizod gulistoni Iramg'a.

Bir hu bila man Laylini hayron qilayozdim,
Devonalig'im shona urar zulfi sanamg'a.

Yuz jonim agar bo'lsa anga hech ayamasman,
Man talpinibon jon berayin qoshi qalamg'a.

Zohidki agar ichsa edi bodayi ma'shuq,
Sarmast bo'lubon bormas edi Makka — haramg'a.

Mashrab, ne balodur shikani turrayi kokul,
Barbod o'ladur kishvari din ushbu hashamg'a.

* * *

Arzimni aytay bodi sabog‘a,
Bizdin duolar ul dilrabog‘a.

Ko‘zlari Cho‘lpon, sarvi xiromon,
Zulfi parishon, qoshi qarog‘a.

Qomati larzon, va’dasi yolg‘on,
Turmadi hargiz ahd-u vafog‘a.

Uchdi ko‘zimdin ul pari yanglig‘,
Tashladi ketti turli balog‘a.

Shohi mukarram, shohi muazzam,
Qilmadi shafqat muflis gadog‘a.

Qildik ikovlon bir ahd-u paymon,
Har kim yomondur, soldim Xudog‘a.

Dardi firoqing‘ ayladi bemor,
Qayg‘a borayin emdi davog‘a.

Hajringda qildim tinmay fig‘onlar,
Yetti bu nolam arz-u samog‘a.

Qilg‘il tarahhum, ey yori jonim,
Loyiq emasman jabr-u jafog‘a.

Dard-u alamdin bol-u par aylab,
Shahboz ko‘nglum uchdi samog‘a.

Yo‘l bermadilar manga raqiblar,
Chiqdim bosh olib bul Karbalog‘a.

Ey yori badahd, bemehr ekansan,
Rahm aylamaysan man mubtalog‘a.

Dard-u g‘am ichra sarg‘aydi yuzum,
Rang bergusidur bu kahrabog‘a.

Ey bag‘ri toshim, hajringda kuydum,
Topshurdum oxir, qodir Xudog‘a.

Ey jonajonim, ko‘rsam jamoling,
Jonim tasadduq san xush adog‘a.

Ishqingda kuydum, ey sarvinozim,
Bir marhamat qil man benavog‘a.

Dilxasta Mashrab qilmasmu faryod,
Jallod ko‘zlar olsa arog‘a.

* * *

To kiydi qizil o‘zini zebo qilayin deb,
O‘t yoqdi jahon mulkida g‘avg‘o qilayin deb,

Mastona xirom etti-yu ko‘rguzdi qadini,
Mandek necha devonani shaydo qilayin deb.

Zebo sanamim gul yuzidin parda ko‘tardi,
Olam hama ko‘z bo‘ldi tamosho qilayin deb.

Zulfini tarab, qosh uchurub jilvalar etti,
Oshubi balo, fitnani barpo qilayin deb.

To ayladim oldig‘a borib arzi niyozim,
Chin soldi jabinig‘a tamanno qilayin deb.

Mastona samand sekrata keldi shahi xunrez,
Shamshiri jafoni yana burro qilayin deb.

Ko‘p yilki bu qul xizmatini qilmadi barjo.
Keldiki g‘azab birlanchu sazo qilayin deb.

Boshimni kesib olg‘il-u xushhol bo‘lub ket,
Qonimni to‘kub lolayi sahro qilayin deb.

Xanjar qo‘lida Mashrabin o‘ldurg‘ali keldi,
G‘avg‘oyi qiyomatni huvaydo qilayin deb.

* * *

G‘am biyobonida qoldim, yig‘ladim ko‘p yor deb,
Oh urub, faryod etib, bulbuldayin gulzor deb.

Kecha-vu kunduz kuyarman ishq o‘tig‘a doimo,
Darbadar izlab yururman sohibi asror deb.

Lashkari g‘am ham sinuq ko‘nglumni afgor ayladi,
To davosiz dardga qoldim, ojiz-u bemor deb.

Garchi osiyman, emasman rahmatingdin noumid,
Har na qilsa erki bor ul, bandasi nochor deb.

Mag‘firatlik bir egam deb bo‘lma g‘ofil, Mashrabo,
Garchi g‘ofirdurki, yo‘qdur mehribon, Jabbor deb.

* * *

Doimo yoding bilan yurdum chu sargardon bo‘lub,
Oh-u faryod aylabon hajringda chun jo‘yon bo‘lub.

Har qayon yurdum so‘rog‘ing topmadim, ey gul’uzor,
Aylanib keldim yana g‘am uyig‘a hayron bo‘lub.

Tinmayin qon yig‘ladim ko‘yida, rahm etgaymu deb,
Iltifote qilmay o‘tti ul pari javlon bo‘lub.

Dog‘i hajring kuydurub bag‘rimni, ey nomehribon,
Jola yanglig‘ ko‘zlarimdin oqti qon boron bo‘lub.

Arzi holim kimga aytay, mehribonim yo‘q maning,
Kim quloq solib eshitkay, holima giryon bo‘lub?

Za’farondek sarg‘ayib qoldim firoqing cho‘lida,
O‘lgum emdi poymoli lashkari hijron bo‘lub.

Kipriking novaklari ko‘ksumni aylab yoralar,
G‘amzalik qilg‘on nigohing o‘tti bir paykon bo‘lub.

Bo‘lma g‘ofil, Mashrabo, emdi yarog‘ing to‘g‘rila,
Dam-badam vaqti safardur, qolma boarmon bo‘lub.

* * *

Setor ila savti navo aylaganing xo‘b,
Xo‘blar ichida masnadi joh aylaganing xo‘b.

Bir bokiraye hur-u pari husniga tarjih,
Ishrat samaniga minibon haydaganing xo‘b.

Pargor bo‘lub gavhari daryoyi muhabbat,
Bir nuktaga jon gavharini bog‘laganing xo‘b.

Gar bod masal charx urub, Mashrabi miskin,
Mastona qaro ko‘zda nigoh aylaganing xo‘b.

* * *

Hech kima ma'lum emas holi parishonim maning,
Osmonni tiyra qildi oh-u afg'onim maning.

Man nechuk shod etmayin bul xasta ko'nglumni bukun,
Keldi holimni so'rab ul sho'x jononim maning.

Ey sitamgar, kelgilu emdi shahid etgil mani,
Mavj ursun Karbalo dashtida bul qonim maning.

Chun Surayyo bormusan, aflokdin bolomusan,
Bu falakda ko'rmadim, ey ko'zi cho'lponim maning.

Noz-u istig'no bilan kelgil, maning holimni so'r,
Termulib doim yo'lingda chashmi giryonim maning.

Tobakay jabr-u sitam birlan yurursan, ey rafiq,
Chiqti, Mashrab, ushbu g'amdin bul aziz jonim maning.

* * *

Tun-u kun kabi yuzungga yarashib tushubdi xoling,
Yuragimda jo qilibman rishtayi qadi niholing.

Manga ichmag-u yemak yo‘q, yana kulmak, o‘ynamak yo‘q,
O‘zga zikrini demak yo‘q, xob-u rohatim xayoling.

Sanamo, nechuk shirinsan, oy-u kun ota-onangmu?
U jahonni kuydurubdur, bu jahonda yo‘q misoling.

G‘ami ishqdin bu Mashrab bo‘sag‘angga bosh qo‘yubdur,
Qiladur fig‘oni zore, demading nechukdu(r) holing.

* * *

Ofati jonim, ul sanam, qoshi qarosini ko‘rung,
Ikki yuziga cho‘lg‘anib zulfi siyosini ko‘rung.

Hur-u paridin tozadur, shams-u qamar hijildadur,
Kim ani ko‘rsa bandadur, husni ziyosini ko‘rung.

Goh yorim qizil kiyib, qirmizi sochbog‘in solib,
Noz-u karashmalar qilib, ahdi vafosini ko‘rung.

Goh qoshini chu yo etib, kifrik o‘qi birlan otib,
Jodu ko‘zini o‘ynatib, makr-u balosini ko‘rung.

Mashrabi benavodu(r)man, vasli uchun gadodu(r)man,
Hajr o‘tig‘a kuyodu(r)man, yor jafosini ko‘rung.

* * *

Oxirimni dard-u g‘amga oshno qildi bu dard,
Yig‘lamay naylayki, ro‘zimni siyo qildi bu dard.

Kiyibon egnima, qon yig‘layki, motamlik libos,
Ne dilovarlarni yer ichra fano qildi bu dard.

Baxtqarolig‘ mundin o‘tmas, toleyim bo‘ldi zabun,
Man vafo qildim tama’, qaytib jafo qildi bu dard.

Yog‘durub boshimg‘a har soat lahadning gardini,
Ko‘r bu holim: g‘amzada baxti qaro qildi bu dard.

Hamnafaslardin judo aylab musibat shahriga,
Oshnolarni manga nooshno qildi bu dard.

Qayg‘ulik boshimga har dam ko‘hi g‘amni ortturub,
Misli Adhamdek jahondin mosuvo qildi bu dard.

Ichkanim zahroba bo‘ldi, kiyganim bo‘ldi kafan,
Boshima to‘qquz falakni osiyo qildi bu dard.

G‘ussadin o‘rtandi Mashrab, so‘rmading ahvolini,
Do‘st-dushmanga mani angushtnamo qildi bu dard.

* * *

Yo Ilohil-olamiyn zikri sano Sandin madad,
Tavba qildim man bukun fag‘firlano Sandin madad.

Tavba qildim man bukun qilg‘an gunohim ko‘p erur,
Afu qilg‘il Xoliqi arz-u samo Sandin madad.

Haybatindin kufr ahlin titratib qonin to‘kar,
Kufr elini yo‘lg‘a solg‘on Murtazo, Sandin madad.

Xatmi avlodi Rasuli anbiyoyi mursalin,
Ahli avlodi shahidi Karbalo, Sandin madad.

Ka’bani bunyod qilg‘on boz Ibrohim Xalil,
Xazinadori loyazol, ey Xizr ato, Sandin madad.

Mashrabo, o‘tg‘il bu yo‘ldin nola aylab subh-u shom,
Tong-a ul Ro‘zi qiyomat, Mustafo, Sandin madad.

* * *

Ko‘rundi ko‘z qarosig‘a magar xayli parizode,
Shafaq tutti jahonni, keldi yo bir qaddi shamshode,

Charog‘on bo‘ldi dunyo, yo magar keldi maning yorim,
Biyobon bo‘ldi bog‘-u bo‘stoni xurramobode.

Hujumi g‘am qilib barbod, keldi bir nasimi xush,
Magap ozoda yorim, do‘stlar, ishq etti bunyode.

Agar ul shohi xoqon qatlima lashkar chekib kelsa,
Yurokim chok etib aylay ani oldida ham dode.

Bahoriston bo‘ldi, rang-barang gullar bo‘lib paydo,
Xazon etmak uchun, do‘stlar, iloho, kelmagay bode.

Necha yillar yotibman qor-u yomg‘ur ostida doim,
Parizodim, malikam qilmadi lekin meni yode.

Arig‘ yo‘lg‘a o‘zungni olki, Mashrab, o‘tti umrung, lek
Murod-u maqsadig‘a yetmadi hargiz xarobote.

* * *

Jafo qilding bu jonimg‘a, vafoni ko‘rmadim hargiz,
Bu olamda o‘zumdek mubtaloni ko‘rmadim hargiz.

Muhabbat yo‘liga qo‘ydim qadam, holim zabun bo‘ldi,
Bag‘ayraz mehnat-u dard-u baloni ko‘rmadim hargiz.

Tabibo, muddate bo‘ldiki, man dardiga hamdamman,
Uzuldi rishtayi jonim, davoni ko‘rmadim hargiz.

Hamma suvratparast bo‘ldi fash-u dastorig‘a mag‘rur,
Ki, zohid ichra mutloq beriyoni ko‘rmadim hargiz.

Musibat seylining barbodi bo‘ldum ko‘hna dunyoda,
Qo‘limni tutgudek bir oshnoni ko‘rmadim hargiz.

Yetushti bastalik korimg‘a, bilmamdur ilojini,
Adashgan yerda so‘rgan rahnamoni ko‘rmadim hargiz.

Yozildi taxtayi iqbolima sardaftari g‘urbat,
Talab vaqtida bir sohibduoni ko‘rmadim hargiz.

Jarohatlig‘ dilimning zaxmini har kimga ko‘rsattim,
Ajab tole’ zabundurman, shifoni ko‘rmadim hargiz.

Buzulgan xotirim hargiz jahonda ko‘rmadi shodiy,
Jahon ayvonida g‘ayraz jafoni ko‘rmadim hargiz?

Jahonni tark qildim, Mashrabo, Ibrohimi Adhamdek,
Saropo dard ko‘rdim, muddaoni ko‘rmadim hargiz.

* * *

Men nechuk yurgum bu g‘urbatxonada dildorsiz,
Umr emas oshiqqa, gar bir lahza bo‘lsa yorsiz.

Mehnatin ko‘ngliga xo‘ qilgan kishilardin so‘rang,
Hech ilme siynaga jo bo‘lmadi takrorsiz.

Darbadar bo‘ldum, jahonni ko‘p tamosho ayladim,
Hech gulni ko‘rmadim olamda bo‘lgay xorsiz.

Ko‘ngul oldurg‘on kishilardin biling dil rozini,
Buki — har kim ko‘ngul oldi, ul emas ozorsiz.

Kavlama bag‘rimni, ko‘nglumni parishon aylama,
Telmurub qoldi ko‘zum yo‘lida ul diydorsiz.

Munda o‘rtangan ko‘ngul, oxir yetar maqsudig‘a,
Hech bulbul bo‘lmag‘ay olam aro gulzorsiz.

Kimiyoning tolibi bo‘lgan kishi jondin kechar,
Hech ganje ko‘rmadim olamda bo‘lg‘ay morsiz.

Uchramay ketti o‘shal mahvashga rozi dil desam,
Topmadim hargiz ani yolg‘uz, dame ag‘yorsiz.

Mashrabo, vaqti nadomatdur, birodarlar qani?
Istiqomat qilma dunyoda pariruxsorsiz.

* * *

Kokulung anbardur jon ichinda, jonon qiz,
Ko‘zlaring axtardur ro‘yi mohi tobon qiz.

Lablaring erur la’ldek, yuzlaring qizil guldek,
Barcha sanga quldek xizmatingda farmon qiz.

Bir ko‘rub sani zolim, qolmadi maning holim,
Tang bo‘lubdur ahvolim, bilmading-ku, nodon qiz?

Orazing — ochilg‘an gul, sochlaring erur sunbul,
Tishlaring misoli dur, lablaringda pinhon qiz.

Kokulungni o‘rganda, burqa’ boshga qo‘yganda,
Jonim o‘rtanur tanda, oftobi davron qiz.

Oy yuzingni ko‘rganda, lablaringni so‘rganda,
Mashrabing bo‘lur banda, la’li shakkarafshon qiz.

* * *

Jahonda topmadim hamdard, qoldim notavon, yolg‘uz,
Saropo g‘am savodi ichra qolmishman nihon yolg‘uz.

Ko‘zung yag‘mo qilur bekas ko‘ngulni, hech ajab ermas,
Qaroqchi qo‘rqitur har yerda topsa korvon yolg‘uz.

Necha mandekni gardun mubtaloyi dard-u g‘am qildi,
Demam muncha jafoni manga qildi osmon yolg‘uz.

Saning ta’rifinga har band-bandim nolalap qilmish,
Qachon asrori ishqing ayta olg‘ay har zabon yolg‘uz?

Otarlar har tarafdin sho‘xlar mujgonlaridin o‘q,
Qilibdurlar mening ko‘ksumni har yondin nishon yolg‘uz.

Bukun, do‘stlar, matoyi sabr-u oromimni oldurdum,
Qilolmas hifz mahzun bo‘lsa roviy doston yolg‘uz.

Man, ey Mashrab,
saning ko‘yung sorig‘a bormog‘im mushkul,
Ne bo‘lg‘ay gar o‘zung kulbamg‘a
bo‘lsang mehmon yolg‘uz?

* * *

Barchalar yondi gunohdin, manki yonmasman hanuz,
Xobi g‘aflatdan uyondi, man uyonmasman hanuz.

Tavbayi tavfiq bilan yig‘lab turarlar zor-zor,
Oxirat a’molin aytib man qutulmasman hanuz.

Bandalarkim, lutfinga har suyonib o‘lturur,
Bedavo nafsimni izlab man suyonmasman hanuz.

Orif-u sodiq hama pandi nasihat oldilar,
Barcha panding oldilar, pandingni olmasman hanuz.

Bandalik qilsang takabbur qilma, Shayton fe’lidur,
Man takabburdin zamone xoliy ermasman hanuz.

Bandalik qilmay Azozil bo‘ldi sarkash amriga,
Rondayi dargoh bo‘ldi, manki yonmasman hanuz.

Dunyoni ko‘p yig‘di Qorun, ketti ul yer qa’riga,
Dunyodin bir dam zamon ko‘ngul uzolmasman hanuz.

Banda bo‘lsang, Mashrabo, kechkil havoyi hirsdin,
Kechdi barcha hirsidin, hargiz kecholmasman hanuz.

* * *

Tushti ishqing, ey pari, aqlimni hayron ayladi,
Hajring o‘ti kuydurub, bag‘rimni biryon ayladi.

Ey nigoro, orzuyi orazing vasling tilab,
G‘unchadek la’ling g‘ami ashkim to‘la qon ayladi.

Goh-gohe rahm etib, bandang sari qilg‘il nazar,
Oshiqing jondin kechib, o‘zini qurbon ayladi.

Doimo ishqingda yig‘larman saning, ey nozanin,
Gar bu kun kim yig‘lar ersa, tong-la xandon ayladi.

Qatrayi vahdat mayidin lutf ila qildi karam,
Zavq-u shavqidin berib olamda sulton ayladi.

Ey birodarlarki, mandin ofiyat ko‘z tutmangiz,
Bir pari aqlim olib ko‘yida nolon ayladi.

Soqiyi piri mug‘on sundi sharobi antahur,
Mosuvo aylab hamadin, mushkul oson ayladi.

Bir masaldur: dunyoning osoyishi kofirg‘amish,
Bu jahonni oshiqig‘a chohi zindon ayladi.

Xalqi olam, ey parivash, oshno bo‘lg‘ach sanga,
Mashrabingni boshig‘a, ko‘p tiriboron ayladi.

* * *

Bul g‘ariblik g‘urbati ko‘nglumga ko‘p kor ayladi,
Qildi bag‘rim poralar, jonimni afgor ayladi.

Yordi ko‘ksum, ezdi bag‘rim, oh, bu dardi firoq,
O‘rtadi miskin tanim, yer birlan hamvor ayladi.

Jomi g‘urbatdin ichib qildim g‘ariblik ixtiyor,
Ne jafolar jonima ul chashmi xummor ayladi.

Telba bo‘ldum, harza yurdum, bilmadim nuqsonimi,
Oqibat ishqing mani rasvoyi bozor ayladi.

Noumid bo‘lma agarchi osiysan, ey Mashrabo,
Bahri rahmat osi qullarga sazovor ayladi.

* * *

Kecha bazmingdin yiroq ishq ahli chandon yig‘ladi,
Kuydi ham parvona-vu sham’i shabiston yig‘ladi.

Sog‘inib Yusufni Ya’qub yig‘ladi shom-u sahar,
To musofir bo‘ldi Yusuf ahli Kan’on yig‘ladi.

Soqiy sung‘onda, surohiy dam-badam faryod etib,
Ahli majlis oldida yosh o‘rnig‘a qon yig‘ladi.

Hajr shomi kuyganimg‘a kuydi-yu o‘rtandi barq,
Ham mani dardi dilimga charxi gardon yig‘ladi.

Har tikan g‘am tog‘ida sanchib oyog‘im qildi qon,
Manga yor rahm aylamas, xori mug‘ilon yig‘ladi.

Bo‘lmasun ogah kishi holi dilimdin xalq aro,
Garchi kuldi og‘zimiz, ammo dil-u jon yig‘ladi.

Mashrabo, gar jon yaqosin chok-chok etsam ne tong,
Kim, falak ham javri ul sarvi xiromon yig‘ladi.

* * *

Kel, ey dilbar, yuzung ochg‘il, tasadduqdur bu jon emdi,
Firoqingda ado bo‘ldi, kuyub bul ustuxon emdi.

Nechuk aylay, birodarlar, bo‘lubman zor-u sargardon,
Davosiz dardga uchrabman, o‘larman begumon emdi.

Jahonda hech kishi bormu judolig‘din ado bo‘lg‘on,
Yetibdur xalquma jonim, manga yo‘q mehribon emdi.

Nechuk toqat qilay, dilbarki, sansiz man bu dunyoda,
Chiqar ko‘ksumdin ohim ham turolmas osmon emdi.

Ketibon mehribon dilbar, yurak bag‘rim kabob etti,
Yetolmasman nigorimga na aylay jovidon emdi.

Tushubdur ko‘ngluma darding, kima aytib, kima yig‘lay,
Lahad ichra ketar bo‘ldum, yurokim to‘la qon emdi.

Kel ey Mashrab, judolig‘ dardidin ko‘p shikvalar qilding,
Yetibdur sanga bul navbat, ketar yaxshi-yomon emdi.

* * *

Mani davron bu kun dard-u alamga mubtalo qildi,
Parivash nozaninlar birla yor-u oshno qildi.

"Alif"dek jon arosinda niholi qomatin asrab,
G'amidin oqibat qaddimni "nun" yanglig' duto qildi.

Birodar, san bukun mandin umidi oqibat qilma,
Yurak bagrim oqib ko'zdin, ajal yuzini vo qildi.

Kishiga ayta olmay boshga tushgan tab'i holimni,
Bu hasrat bora-bora o'zini bag'rimga jo qildi.

Bu holimg'a, tarahhum qilg'udek bir mehribonim yo'q,
Mani bechora qildi, zor qildi, benavo qildi.

Bu beshavqat falak soldi maning boshimg'a bu savdolar,
Chu andin neki keldi, bori taqdiri Xudo qildi.

Xaloyiq duni ham bo'lsam ham jahon ichra g'animatman,
Bu kun yo tong-la ayturlarki, Mashrab ham qazo qildi.

* * *

Nogoh ko‘runub ko‘zlarin shahlo boqa qoldi,
Parda ko‘tarib, qoshini ul dam qoqa qoldi.

Oshiq ekanimni bilib ul dilbari ra’no,
Aqlimni olib, jonima o‘tlar yoqa qoldi.

Ruhum eritib yoshini, vah-vah, yuzi otash,
Ishq chaqmog‘ini jonima, naylay, chaqa qoldi.

Tarsobachani ko‘rdimu din ketti qo‘lumdin,
Qil sajda debon bo‘ynuma zunnor toqa qoldi.

Men oning uchun kecha-vu kunduz yugururman.
Yorim kelibon birgina holim so‘ra qoldi.

Aydi: “Ne tilarsan?”dedim: “Sham’i jamoling!”
Ko‘rsatti yuzin, maqsud hosil eta qoldi.

Mashrab bu jahonda yurubon topmadi bir mard,
Yuz shukrki, oning bilan ulfat bo‘la qoldi.

* * *

Namangon shahridin do‘stlar, maning yoronlarim keldi,
Otam birlan onamni bilguchi mehmonlarim keldi.

Shijoat bobida har qaysisi bir Rustam-u Suhrob,
Adolat taxtig‘a mingan bu kun sultonlarim keldi.

Inoyatli, diyonatli yana ham murshidi komil,
Hama orif, hama solih, hama irfonlarim keldi.

Alarning xoki poyi ko‘zlarimga to‘tiyo, Mashrab,
Charog‘imni munavvar qilguchi xoqonlarim keldi.

* * *

Oq yuzungda xol-u xat ko‘z ko‘rmag‘aydi koshki,
Ko‘ngluma yuz dog‘i g‘amni qo‘ymag‘aydi koshki.

Ishq ho‘ aylagach, ketti futur din uyidin,
Bodani beg‘ash ko‘rubon sunmag‘aydi koshki.

Chun Namangandin xo‘tan parvoz aylab murg‘i ruh,
Donayi xolin ko‘rubon qo‘nmag‘aydi koshki.

Yo jilva birla boqti, ruh-u jon bo‘ldi kabob,
Bu jafolarni boshimg‘a solmag‘aydi koshki.

Ayriliqning dardidin jonim kuyodur yo magar,
Dog‘i hasratdan bu jonim kuymag‘aydi koshki.

Koshki, jonimni olsa, dog‘i hasrat qo‘ymasa,
Ushbu dog‘i ayrilig‘ni ko‘rmag‘aydi koshki.

Mashrabo, yor xizmatini ayla jon-u dil bilan,
Ushbu davron ham g‘animat bo‘lmag‘aydi koshki.

* * *

Kimga aytib yig‘layin nozuk adoning dardini,
Xonavayron aylagan nooshnoning dardini.

Dilni berdim anga man g‘ayraz jafosin ko‘rmadim,
Aytib-aytib yig‘layin ul bevafoning dardini.

Umrum oxir bo‘ldi yetmay domanining gardiga,
Kimga aytib, kimga yig‘lay dilraboning dardini?

Darbadar ovoraman, kuydi dilim axgarsifat,
Baxti qaro yaxshi bilur baxti qaroning dardini.

Osmon besar bo‘lur aytsam alamlik doston,
Har kishiga ayta bilmam rahnamoning dardini.

Dasht-u sahrolar kuyar Majnunni(ng) tortgan ohidin,
Besarupolar bilur sohibazoning dardini.

Norasolarg‘a suxan qilma, xatodur, Mashrabo,
Bilmas har kim Choryori bosafoning dardini.

* * *

Sen ey zohid, borib mehrobg‘a qil nozuk adolig‘ni,
Jahonda ko‘rmadim hargiz kishi sandek riyolig‘ni.

Zalolatpeshalig‘ni ahli dunlar sandin o‘rgangay,
Munofiq, badpisandlig‘ ham ta’magir ro‘siyolig‘ni.

Riyo toat qilib kunduzlari o‘zni debon murshid,
Kechadin tong qadar qilg‘ung o‘zungdek yuz qarolig‘ni!

Ayo Mashrab, dedi zohid, gunohing behisob ermish,
Agar afv aylasa Sattor, kechar sonsiz gunolig‘ni.

* * *

Kel, ey dilbar, bayon aylay sanga bir-bir judolig‘ni,
Ki, shoyad rahm etib solsang o‘zungga oshnolig‘ni.

Tamomiy xonumonimdin kechibon bir sani derman,
O‘zungdin o‘zga bilmaydur, o‘zing bilg‘il judolig‘ni.

Ki, sandin o‘zgani demam, qasam billoh jonimg‘a,
Jafolar aylama, ey moh, manga berg‘il safolig‘ni.

Sulaymon taxtig‘a, Jamshidning jomig‘a bermasman,
Qo‘lumda kosayi cho‘bin, sanga qilsam gadolig‘ni.

Ayo ey rahmsiz zolim, jafojo‘, ko‘zlari jallod,
Nigoro, Mashrabingga qilmag‘aysan bevafolig‘ni.

* * *

G‘amza kofir, ishva jodu, jilva qolmoqim qani?
Ko‘zi yag‘mo, kifriki o‘q, jola qalpoqim qani?

Tiyri mujgon g‘amzasi ko‘p yor uchun devonaman,
Asli qolmoq, zodi qirg‘iz, lola paypoqim qani?

G‘unchayi gullar ochilmay za’faron qildi xazon,
Dod etar gul g‘unchasig‘a, yosumansoqim qani?

Dog‘-u dog‘ ustidadur, bag‘rim qizil qon ashkdin,
Siymtan ruxsorayi, tannuqra burg‘oqim qani?

Yor, Mashrab, ishq o‘tini, qo‘ydi jonim uzrakim,
Cho‘q-cho‘q etti ko‘nglum otashpora chaqmoqim qani?

* * *

Man kimga aytay, do‘stlarim, devona qildi ishq mani,
Sadpora qildi yurakim, devona qildi ishq mani.

Tun-kechalar dod aylasam, har dam sani yod aylasam,
Ishqingda faryod aylasam, devona qildi ishq mani.

Shom-u sahar giryon bo‘lay, yo‘lungda sargardon bo‘lay,
Oxir sanga qurbon bo‘lay, devona qildi ishq mani.

Hamdam bo‘lay mayxonaga, sokin bo‘lay butxonaga,
Boshim qo‘yay ostonaga, devona qildi ishq mani.

Ishq ahliga hamdam bo‘lay, Haq yo‘liga mahkam bo‘lay,
Dargohiga mahram bo‘lay, devona qildi ishq mani.

Devonayi shaydo bo‘lay, man tolibi Mavlo bo‘lay,
Xalq eliga rasvo bo‘lay, devona qildi ishq mani.

Mashrabga qil lutf-u karam, vahdat sharobin dambadam,
Ey sohibi Lavh-u Qalam, devona qildi ishq mani.

* * *

Oshiq uldur to diliga saqlasa asrorni,
Barham ursa yo‘liga olamda yo‘q-u borni.

To o‘zungga dard tegmay, aylanib kelmas davo,
Bas, bu ma’nodin hakimlar ko‘p so‘rar bemorni.

Garchi osiyman aning dargohidin navmid emam,
Bir gul uchun suv berurlar sad hazoron xorni.

Oxiri manzilga yetmasdur, kuduratlik ko‘ngul,
Dilga jo bermoq na hojat dushmani g‘addorni.

To dilingga ma’rifatdin nuri iymon bo‘lmasa,
Sufilar, bir hug‘a almashlang ani — dastorni.

Xotiri pokingni mashg‘ul qilma hargiz dunyog‘a,
Dil g‘uboroluda bo‘ldi ul ko‘rolmas yorni.

Avliyolardek muazzam bo‘layin desang vale,
Mashrabo, hech kanda qilma dildin istig‘forni.

* * *

Do‘stlar, yaxshi demanglar olami berohni,
Misli ul yo‘ldin adashgan fosiqi gumrohni.

Moli mulk-u joni jonon saltanat barbod urub,
Dunyodin parvosi yo‘qtur murshidi Ollohni.

Demagil hushyor yig‘lar oxiratning xavfidin,
Mard kerak bilgay bu yo‘lda mardi dil ogohni.

Al-tavilun ahmaqun ul ham hadisda bor ekan,
Mustafo al-fitnatun der odami ko‘tohni.

Man tasadduqi o‘shandog‘ oli himmatlar bo‘lay,
Ikki olam o‘rtanur dildan chiqarsa ohni.

Avliyolardek muazzam bo‘layin desang bu kun,
Mashrabo, qo‘yma tilingdin lahza bismillohni.

* * *

Ey sanam, hajring g‘amida diyda giryon bo‘lg‘usi,
Ko‘rmasam bir dam yuzungni yuragim qon bo‘lg‘usi.

Mardumoni ko‘zlaring bir kofiri berahm erur,
Garchi tarso ko‘rsa ham ul dam musulmon bo‘lg‘usi.

Anbarin zulfung tarab boqsang, nigoro, har taraf,
Jam’ ko‘ngul bir qarab yuz ming parishon bo‘lg‘usi.

Qomatingni ko‘rsalar Mahsharda inson-u malak,
Hur-u g‘ilmonlar bo‘lub jam’ barcha hayron bo‘lg‘usi.

Qatrayi ashkim agar tomsa yuzumg‘a, Mashrabo,
Tashnalik vaqtida bilsang rohati jon bo‘lg‘usi.

* * *

Ma'rifat bozorining devonasi,
Bul haqiqat ishqining mayxonasi.

Oh urub chiqsa jahonni kuydirur,
Oshiq ahlin ziynati — sarmoyasi.

Ikki dunyoni ko'zumg'a ilmadim,
Manki ul diydorning hayronasi.

Ayladi ko'ngulni uyini xarob,
Bul erur tan mulkining vayronasi.

Mosuvoni tark qildim ishqida,
Bul jahon-u ul jahon begonasi.

Mashrabi devonani hayron etib
Qaddi mavzun, egma qoshning qorasi.

* * *

Qachon bo‘lg‘ayki ko‘rgaymen o‘shandog‘ mohi anqoni?
Aning oldida ochsam daftari inna fatahnoni.

O‘shandog‘ komilening soyasida aylagil orzu,
Talab qilsang durust qil, hosili dunyo-vu uqboni.

Bayon qilsam chidolmas otashimg‘a suri Isrofil,
Maqomi Muhammaddin oyati nasran minallohni.

Uleki soyayi rahmatga kirdi, g‘arqi nur bo‘ldi,
Ne bilsun bebasorat va’dayi mulkan kubaroni.

Tamannoyi tiriklik sud etmasdur ro‘zi Mahsharda,
Desang yuz til bila yo laylatan kuntu turaboni.

Xayoli fosid andeshlar imonning qasdidadurlar,
San-u manga ochib qo‘ymabturlar nahni qasamnoni.

Gunohing marhamidur, bandalarga koni istig‘for,
Ko‘ngulga keltirur komil kishi astag‘firulloni.

Guzargohi adamning benihoyat karvoni bor,
Qani mardon-u marde vaqti o‘tmay qilsa savdoni.

Kishining bo‘lsa imoni dilidin tarsi kam bo‘lmas,
Diliga naqsh etar har soat ajran aziymoni.

Maqomi mohi nurdin nasib etgil bu Mashrabga,
Haqiqat ishtahosidin yutay haftod daryoni.

* * *

Emdi keldim man muhabbat ganjini vo qilgani,
Toki ko‘z ochtimki man Arshni tamosho qilgani.

O‘zgalar qadrin na bilsun sanda ul ko‘z bo‘lmasa,
Yetti lak yil bo‘ldi biz xalq tarkidunyo qilgani.

Dilda so‘fiymizki, avsofi haqiqat bizdadur,
Botinin obod etib, zohirni rasvo qilgani.

Yosumandin shavq o‘tig‘a bo‘ ushatgan xalqmiz,
Muddate bo‘ldi Muhammad mehrini jo qilgani.

Man eshittim aksari rohi haqiqat bor emish,
Anda sarmast boraman man misni tillo qilgani.

Jabraildek Mustafoning mulkiga mazbut edim,
Lomakonning suyidin komimg‘a halvo qilgani.

Mashrabo, sarmastlardek har zamon qaynar dilim,
Boz keldim oxirat yo‘linda savdo qilgani.

* * *

Bandamen dersen tilingda zikri Subhoning qani?
Dast xoliy borasan bul xayr-u ehsoning qani?

Aylading barbod umrung aysh-u ishratlar bilan,
Oxirat vahmini qilg‘on chashmi giryoning qani?

San yotarsan doimo chun xobi g‘aflatlar bilan,
Uyg‘onib tun kechalarda xatmi Qur’oning qani?

Haq taolo amri birlan kelsa Azroil sanga,
Qabz etar joningni bir kun fikri iymoning qani?

Bir qarish yetti qarilik, emdi topmassan iloj,
Ul yigitlik vaqtiga qilg‘on pushaymoning qani?

Mashrabo, bas, bo‘lma g‘ofil bul tiriklik vaqtida,
Kecha-kunduz yig‘labon qilg‘on munojoting qani?

* * *

Ey nigoro, man saning yoring bo‘lay,
Bandayi ul qaddi raftoring bo‘lay.

Sham’i husnung aylanib parvonavor,
Man fidoyi sham’i ruxsoring bo‘lay.

Bir ko‘rub Majnun kabi Laylivashim,
To qiyomat man saning zoring bo‘lay.

Tun-u kun ishqingda sargardon bo‘lub,
Bulbuli sarmasti gulzoring bo‘lay.

Xatt-u xoling dom bo‘ldi jonima,
Sayd o‘lub har dam giriftoring bo‘lay.

Husn bozorida, ey Yusuf sifat,
Jon bilan har dam xaridoring bo‘lay.

Holi zorimni ko‘rub, ey nozanin,
Hech demaydursanki, g‘amxoring bo‘lay.

Ko‘z yoshini oquzub Mashrab qulung,
Muntaziri mahvi diydoring bo‘lay.

* * *

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!
Bo‘lmasa qoshimda jonon bul jahonni na qilay?!

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak,
Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz Bihisht-u Do‘zaxin?
Bo‘lmasa vasli manga, ikki jahonni na qilay?!

Arshning kungurasin ustiga qo‘ydum oyog‘im,
Lomakondin joy olibman bu makonni na qilay?!

Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom,
Oshkoro bo‘lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Bir Xudodin o‘zgasi barcha g‘alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo‘lsa qo‘lumda, ul tikonni na qilay?!

* * *

Yorning ko‘yida man javlon qilay,
Itlariga qo‘shulub afg‘on qilay.

Koshki bu kulbayi ahzon aro,
Itlarini bir kuni mehmon qilay.

Yor qilg‘on zaxm bitmas, ey tabib,
Dema manga: dardinga darmon qilay.

Oqizib ko‘zdin sirishkim beadad,
Xaymayi aflokni vayron qilay.

Kes boshimni xanjari nozing bilan,
Sandin o‘zga kimga sargardon qilay?

Zulfi mushkiningni tasvir aylabon,
Bul varaqni sahfai rayhon qilay.

Ishqi kuydursa bu oshiq ko‘nglini,
Siyna ichra o‘t nechuk pinhon qilay?

Gul yuzin ko‘rsatti, o‘ldurdi mani,
Yorni jism orasinda jon qilay.

Mashrabo, bir qatra totsam jomidin,
O‘zimi ishq ahliga sulton qilay.

* * *

Ko‘ngul vujudini buzgan o‘ziga nola qilay,
Boshimni sajdaga qo‘yib Xudoga nola qilay.

Manga bu g‘amni solibon raqibni shod etting,
Qo‘lumga xanjar olib bu yurakni pora qilay.

Saning uchun ne balo, mehnat-u alam ko‘rdum,
Raqib rizosiga boqsangki, man na chora qilay?

Kel emdi, Mashrabi oshiq, o‘ziga zore qil,
Tarahhum etmasa dilbarki, kimga nola qilay?!

* * *

Musoday tiyg‘i ravon bergilki nopaydo bo‘lay,
Ma’rifat fathini och, ko‘ngulga man go‘yo bo‘lay.

Tark etibman mol-u jonimni bukun Adham kabi,
G‘ayrate ko‘nglumg‘a bergil, mardi shaydullo bo‘lay.

Ko‘p yomonlarning birisi man, Iloho, yaxshi qil,
Ilmi ladunni maning ko‘nglumga sol, daryo bo‘lay.

Bul qaro yuzum oqarg‘ay deb kelibman Ka’bag‘a,
Bir nigohe aylagil, zoti Jamolullo bo‘lay.

Mo‘min-u kofir Aning dargohidin navmed emas,
Bir nigohe aylagil hamrohi Baytullo bo‘lay.

Zotidin o‘zga digar abyoti yo‘q Mashrabni boz,
Chun o‘qubman oyati Qur’onni Zotullo bo‘lay.

* * *

Dilbar ko‘yida vash-shamsi vaz-zuho o‘quy,
Maqbul bo‘lsa hamdinga lahni ulo o‘quy.

Majnunsifat firoq dashtida zor yig‘ladim,
Dard-u g‘aming, Laylivashim, layl-u nahor o‘quy.

Qosh-u ko‘zungni hajrida, ey mehri mohjabin,
Ashkim suvini oqizib fayzi bahor o‘quy.

Shavqi muhabbatingda kezib Balx shahrini,
Xatti shahidlikni ko‘rib oshkor o‘quy.

Firoq qissasi Mashrab fikrida erur,
Mastona Balx shahrida beixtiyor o‘quy.

* * *

Da'viyi ishq etgali Majnuni benavo kerak,
O'zini xoki po etib darbadari gado kerak.

Shom-u sahar fig'on etib, ertani kechga qo'ymayin,
Orifi Haq bo'lay desang Adg'ami benavo kerak.

Ham jahdi ham jadal qilib, yorning vaslini tilab,
Tun kechalar uyg'onibon, shom-u sahar duo kerak.

Qilmadi bir sahar tilim dunyoyi foniyni talab,
Kimki talab qilur ani boshig'a yuz balo kerak.

Chiqti Rasul Me'roja shab, Jabrail ergasholmadi,
Mashrab, bu sirni bilg'ali ofati billoh kerak.

* * *

Oxirat yo‘li xatardur himmati a’lo kerak.
To lahadga kirmag‘uncha oh vovaylo kerak.

Taqdiri Ollohga dast ursa kishi dasti kuyar,
Bandaga doim ibodat xolisanlilloh kerak.

Zotini izlar kishiga rahnamun topmoq mahol,
Kimki Haqni izlasa, dasti ani bolo kerak.

To Shuayb dargohig‘a bormay Muso yo‘l topmadi,
To sani misdinki tillo qilg‘uchi Muso kerak.

Ohi sarding bo‘lsa, Mashrab, oh urub Mahsharni buz,
Mohiyi bahri Haqiqatga o‘shal daryo kerak.

* * *

Ey musulmonlar, qazo topsam kerak,
Nuri Haqdin kimiyo topsam kerak.

Man shahid o'lsam kafanga chulg'amang,
Ushbu dalqimdin shifo topsam kerak.

Dori Mansuri analhaq joyidur,
Bosh berib yuz ming nido topsam kerak.

Rabbano inna zalamnoni o'qub,
Nash'ayi qol-u balo topsam kerak.

Ba'di margim man g'arib-u xastani
Band-bandimdin judo topsam kerak.

Onayi zorimg'a bermang xabar,
Balx shahrida qazo topsam kerak.

Mashrabi sho'rida Mahmud ilkida,
Pirim amrini bajo topsam kerak.

* * *

Olami ruhonilarga oshno bo‘lmoq kerak,
Tark etib yo‘lida jonin, mosivo bo‘lmoq kerak.

Ko‘zi yo‘q a’mo na bilsun yuraturg‘on yo‘lini,
Yo‘lni bilmas omilarg‘a rahnamo bo‘lmoq kerak.

To‘tiyo nofe’ qilur gar ko‘zdakim bo‘lsa g‘ubor,
Ko‘tarib ko‘zdin g‘uborin to‘tiyo bo‘lmoq kerak.

Avliyolar nisbati shuldur agar bilsang buni:
O‘ziga dard-u digarlarga davo bo‘lmoq kerak.

Mardi haqning suhbatiga bir zamon kirgan kishi,
Bir nafas birlan vujudi kimiyo bo‘lmoq kerak.

Avliyolardek muazzam bo‘layin degan kishi,
Mashrabi sho‘ridadek sohib azo bo‘lmoq kerak.

* * *

Kel, ey jismim, shahodat tiyg‘iga emdi yaro bo‘lg‘il,
Husayn ibn Alidek san shahidi Karbalo bo‘lg‘il.

Kirib bul jismi zorimg‘a farog‘at ko‘rmagan jonim,
Xudodin bul ajal keldi, sanam emdi rizo bo‘lg‘il.

Ki bul dunyoyi foniyning jafosidin xalos etgil,
Xudoning vaslini izlab hamadin mosuvo bo‘lg‘il.

Xudo yo‘lida, ey jallod, manga xanjarni tezroq ur,
Haqingga bir duo aylay: sanam mardi Xudo bo‘lg‘il.

Ajoyib xushmuborak bul o‘lumkim, boshima tushti,
Xudo yo‘lida bir jon, ming agar jondur, fido bo‘lg‘il.

Kel, ey qobiz, manga o‘lmakni ta’xir aylama hargiz,
Fido ettim bu jonimni, ki ma’muri qazo bo‘lg‘il.

Bu Mashrab dori dunyodin shahodat oliya izlab,
Qiyomat tongi otg‘onda Xudoga dodxoh bo‘lg‘il.

* * *

Xudovando, tilim og‘ushtayi hamd-u sano qilg‘il,
O‘zungdin o‘zgani mehrin bu ko‘nglumdin judo qilg‘il.

Yaratting, jism-u jon berding mani bechora bandangga
Yurakim dardiga lutfung bilan, yo Rab, davo qilg‘il.

Yigitlikni agarchi mahvi g‘aflat birlan o‘tkardim,
Iloho, qomatimni yaxshilar birlan duto qilg‘il.

Agar dor ul-fanodin oxirat sorig‘a azm etsam,
Charog‘i nuri iymon birla qabrimni ziyo qilg‘il.

Sirot al-mustaqiym otlig‘ guzargohingdin o‘tkargil,
Mani gumrohg‘a, yo Rab, rahmatingni rahnamo qilg‘il.

Ki zohid zuhd ilan mag‘rur, bu Mashrab jurm ila ma’yub,
Iloho, rahmatingni soyayi yavm ul-jazo qilg‘il.

* * *

Zikriyodek hu bilan ko‘ngulni san me’mor qil,
Bandasan toatni az bahri Xudo bisyor qil.

Shamsi Tabriziyga qul bo‘ldung, haqiqatdin gapur,
Hamchunon Mavloyi Rumiydek muni izhor qil.

Ahli ma’no suhbatidin ruh osoyish topar,
Norasolar oldida harfingni san inkor qil.

Qomating xam ayladi vahmi Qiyomat hamchu nun,
To‘shayi rohingni az xuni jigar tayyor qil.

Qatra rahmat haft dari Do‘zaxni nochiz aylagay,
Masti g‘aflatlarni, yo pirim, bukun hushyor yil.

Haqni dargohiga beto‘sha yetolmas, Mashrabo,
Har gunoh qilsang, azizim, so‘ngra istig‘for qil.

* * *

Manga irshod bersang, Odam-u Havvoni hozir qil,
G‘arib-u xastaman, Nuhi nabiyulloni hozir qil.

Kirib Namrud o‘tig‘a qildilar otashni gulzor,
Haqiqat yo‘lini topgan Xalilulloni hozir qil.

Tanini raxna qildi garmi motam kayfiyat ichra,
Maqomi sabrda Ayyubdek dononi hozir qil.

Boshig‘a arra keldi, zikri Haqdin bo‘lmadi g‘ofil,
Xudoning oshiqi ul ruhi Zikriyoni hozir qil.

Mudom ummat uchun diyda xunoluda erdilar,
Muhammad — Ahmad ul ruhi Xabibulloni hozir qil.

Hasan birlan Husayinning ruhidin doim madad izlab,
Muhammad ko‘zining oqi o‘shal zahroni hozir qil.

Alarni hozir etgil, so‘ngra xat bergil bu Mashrabga,
Maqomi nurdin eshoni ahlulloni hozir qil.

* * *

Ko‘ngul dardini bir ko‘ngli buzulg‘an yordin so‘rg‘il,
Bu ishq o‘tig‘a kuyganni dili afgordin so‘rg‘il.

Sani hajringni, ey jonim, ne til birlan bayon aylay,
Ki, har shab diydadin xunoba to‘k, bedordin so‘rg‘il.

Banogoh mehribondin judo bo‘lgan kishi holin,
Sahar oh-u fig‘on aylab maningdek zordin so‘rg‘il.

Shahidi ishq bo‘lg‘an oshiqi bechora ahvolin,
O‘shal dam Mansuri maston osilg‘an dordin so‘rg‘il.

Bu Mashrab qon yutub har dam to‘kar xunobayi hasrat,
Ki xo‘blar ajrini Mahshar kuni Sattordin so‘rg‘il.

* * *

Tashna keldim sandin izlab gavhari obi zulol,
Piri komilsan, haqiqat bobida daryoyi hol.

Ikki olam naqdi oldingda muyassardur saning,
Zindalaring boshidur yo'lingda bo'lgan poymol.

Baxt qarolar podshohiman, dilimni kavlama,
Qaddi xam bo'lgan, jafo ko'rgan o'zum monandi dol.

Xoksori ko'yi irfoning bo'lubman, rahm qil,
Chunki daryodin judo bo'ldi ko'karmasdur nihol.

Ikki dunyodin ko'zum yumdum saning zavqing bilan,
Asl umidim shul erur — so'rg'il Mahsharda
ko'rgayman jamol.

Navjuvon umrim xazon bo'ldi muhabbat dardidin,
Yetmadim maqsudima dog' ayladi vaqti zavol.

Xotirimg'a himmati Adhamni kelturdum bu kun,
Kim Xudotarsdur anga darkor emas mol-u manol.

Otashi ishq oldida xasdur jahannam g'am yema,
Yuz xatardin o'tkazur har bandani qurbi Jalol.

Ostoningga kelibman rohi navmidiy emas,
Yo Abul Qosim, mani ummat degin, dastimni ol.

Noma o'ng qo'ldin yuborgil Mashrabi sho'ridaga,
Avval-u oxirni qilgan vaqti Mahsharda savol.

* * *

Yer uzra ochilg‘on yo‘q dahr ichra saningdek gul,
Ham obi hayot la’ling, ham huqqa ichinda mul.

Bir sarv erur bo‘ying, sarv uzra ajab uyung,
La’lingni xayol etti gul shoxidagi bulbul.

Sha’m uchida yuzung o‘t, o‘t ichra sochingdur dud,
Bo‘yodi jahonni but—o‘t uzra soching sunbul.

Axtarmu falak uzra, gavharmu tabaq uzra,
Sargashta falak uzra sadqangga yig‘ibdur pul.

Ko‘nglum it erur andoq, ketmas eshikingdinkim,
Zanjiri muhabbatdin bo‘ynig‘a solibsan g‘ul.

Man — qatra-vu san — daryo, bahringda fano bo‘lsam,
Ne ayb maning juzvim ko‘rganda desa el kull.

Ko‘k xoki rahing o‘lsun, oy-kun sipahing bo‘lsun
Haq shoh-u gadolarni mehringga qilibdur qul.

Oy-kunda samon rangi — ishqing sitamidur shul.
Ul bargi xazon rangi, Mashrabki, sani asrab

Tegrangda hisor o‘lsun, Mashrabki sani asrab,
Badxoh raqibalarni ko‘rsa o‘qubon to‘rt “qul”.

* * *

Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Og‘izdin dur sochay desang, sharobi ishq ichay desang,
Yomonlardin qochay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Fasod ahlin quvay desang, ketiga bir uray, desang,
Bu dargohdin suray desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Riyozatsiz bo‘lay desang, tanim ozod yuray desang,
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Razolat kuyduray desang, zalolat o‘lduray desang,
Hammasin supuray desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Guharrezlik qilay desang, hammani kulduray desang.
Chu Mashrabdek bo‘lay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

* * *

Banda ranjur bo‘lmagin, chun dilda asroring manam,
Shohi vaqtiman holiyo, yo‘qung bilan boring manam.

Ko‘p gunohi beadad qilsang bu kun san manga qoch,
Rahmatim bisyordur, xo‘p bilki, Jabboring manam.

Har kishidan san sitam ko‘rsang, manga arzingni ayt,
Umr savdosini nobud qilma bozoring manam.

Yetti Do‘zax taftidin zinhor-hargiz qo‘rqmagil,
Himmatingni tut baland Jannatda gulzoring manam.

Man saning ko‘nglungda bo‘lsam Do‘zax ham qilmas asar,
Ham Sirot ustiga po qo‘ysangki, kirdoring manam.

Onaning qornida erding, sanga jon bergan o‘zum,
San maning yodimda bo‘l, oxir xaridoring manam.

Man yaqinman, gardaningni raglaridin ham yaqin,
G‘oyib-u hozirda yod etgilki, Sattoring manam.

Tong-la go‘r ostig‘a chun murdangni tanho qo‘ysalar,
Qo‘rqmagin chun go‘rdin yaxshi xabardoring manam.

Ota-onangdin ulug‘roq mehriboningman sani,
Jumlani rahmatga yetkurganki G‘afforing manam.

Chun nido keldiki: Mashrab, bo‘lmagin navmed, boz,
Har takallum aylasang og‘zingda guftoring manam.

* * *

Maqsudi Haqning asliyam, ore, manam, manam, manam.
Sohibi nuri fazliyam, ore, manam, manam, manam.

Qatrani man guhar qilay, xor-u xaseni zar qilay,
Jumlani boxabar qilay, ore, manam, manam, manam.

Zoti uchun qatl bo‘lay, otashida Xalil bo‘lay,
Ko‘yida Jabrail bo‘lay, ore, manam, manam, manam.

Ko‘rini man bino qilay, murdaga jon ato qilay,
Zotiga oshno qilay, ore, manam, manam, manam.

Ko‘si muhabbatiy uray, jumlani nurga to‘lduray,
Yetti falakni kuyduray, ore, manam, manam, manam.

To‘boni sarnigun qilay, rofizini junun qilay,
Bangini rahnamun qilay, ore, manam, manam, manam.

Ishqini zulfiqoriman, Mashrabi beqarori man,
Xizr-u Masehni yoriman, ore, manam, manam, manam.

* * *

Jamoling ko‘rgali keldim, ayo ey mehribon onam,
Maning uchun ado bo‘lg‘an yurag-u bag‘ri qon onam.

Xo‘tan dashtiga tushtum bul falakning gardishi birlan,
Eshitkil arzi holimni, man aytay sanga, jon onam.

Ajoyib mehribonimsan, maning oromi jonimsan,
Murodi du jahonimsan, bihishti jovidon onam.

Mani bir jodu ko‘zluk bul jahon ichra xarob etti,
Qadi sarv-u sanavbar, qoshlari misli kamon, onam.

Boshimga tushti savdosi, bo‘libman bulbuli shaydo,
Shabistoni jahonda qumridek shakkarfishon onam.

Bu ishq o‘ti xarob etti, yurak-bag‘rim kabob etti,
Mani xoki turob etti yuzi mohi tobon onam.

Sani ko‘p intizor ettim firoq o‘tig‘ga, ey Ka’bam,
Tavofi Ka’bayi maqsuda keldim dilkashon onam.

Iloho, afv qilg‘aysan bu Mashrabning gunohini,
Tufayli onayi zorim, g‘arib-u notavon onam.

* * *

Ishq o‘tig‘a o‘rtanib devona bo‘lgan o‘zginam,
Kuya-kuya kul bo‘lub biryona bo‘lgan o‘zginam.

Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar
Mansuri Xallojdek dorga osilgan o‘zginam.

Kuya-kuya kul bo‘lub dunyoda o‘tgan bormukin,
Ishq yo‘lida ming o‘lub ming tirilgan o‘zginam.

Chok siynamni qilib Mahsharda aylarman fig‘on,
Ul kuni diydor deb Mahsharni buzgan o‘zginam.

Ul Sirot ul-mustaqiym oldida barcha yig‘lashur,
Ishqni rahbar qilibon andin o‘tgan o‘zginam.

* * *

Suzuk ko‘zlu, sarig‘ sadbarg yuzungni, dilrabo, ko‘rsam,
Yuzungdin yuz o‘gurmasman, agar yuz ming balo ko‘rsam.

Mani oshiq, sani ma’shuq ki derlar ushbu olamda,
Nasib o‘lmish manga davlat, firoqing o‘tida kuysam.

Chunonam ko‘ngli qattiqsan, biram holimni so‘rmassan,
Jamolingga to‘yolmasman boshingdin yuz ming o‘rgulsam.

Nechuk bedodlig‘ ish bo‘ldiki, man sandin judo bo‘ldum?
Jafolarniki man tortib, na mushkuldur qarab qolsam.

Sadafsiz dur, tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar yo‘qdur,
Toparmanmu visolingni jahonni istabon yursam?

Labing — la’l-u xating — Xizr-u yuzung — monandi Yusufdur,
Zulayxodek kuyub-yonib bu ishq ichra ado bo‘lsam.

O‘shal Majnuni shaydodek biyobonlar aro man ham,
Ko‘yungda dam-badam yonib, qani Laylo deb oh ursam.

Kel, ey Mashrab, ko‘zung yo‘llarda qoldi termulub, naylay,
Qani ul xoki poying, ko‘zlarimga to‘tiyo qilsam.

* * *

Setorim toriga jon rishtasidin tor eshib cholsam,
Ani xush nolasidin bevafoning ko‘nglini olsam.

Maqom olib maqom ichra maqomin dilga jo qilsam,
Muhabbat sozig‘a sozlab man oning oldida cholsam.

Maqomlarning atosini “Husayniy”-u “Ajam” derlar,
Bulardin ham yuqori pardayida “Chorgoh” cholsam.

“Bayod”i dilbarimni yodida cholsam payo-paykim
Ki, ko‘ngul benavo bo‘lg‘onidin aylab “Navo” cholsam.

Arolab cholsam “Ushshoq”-u, g‘azalni soza yetkursam,
Saharlarda qo‘pub mashshoqlardin purziyo cholsam.

Kel, ey Mashrab, qadah sung‘il, bo‘loyin mast-mustag‘raq,
Bir ilkg‘a kosayi tanbur, birig‘a jomni olsam.

* * *

Mani devona qildi u pari raftor qomat ham,
Bu kun kelmam o‘zumga balki fardoyi qiyomat ham.

Maning holi tabohimni muhabbat ahli, ko‘rganda,
Pushaymonlar qilib ishqdin, yana aylar nadomat dam.

Mani g‘am birlan o‘ldurding firoqing o‘tig‘a tashlab,
Ne bo‘lg‘ay emdi men o‘lsam, chu san bo‘lg‘il salomat ham.

Ayo dilbar, raqibim ul haramg‘a aylama mahram,
Maning holimg‘a rahm aylab, karam qilg‘il, karomat ham.

Ki, so‘rmas, Mashrabo, hech kim sani, ore, ajab ermas,
Yuzumni bosti bori mehnat-u gardi malomat ham.

* * *

To Adam sahrosidin baxti qaro kelturmisham,
Nomayi a'molima yuz ming xato kelturmisham.

Qatraye kim — obi rahmat manga no'sh aylar Xizir,
Holi Musoyi kalimga man aso kelturmisham.

Dardi bedarmonga uchrabman, tabibim yo'q mani,
Hayyi dono zoti Bechundin shifo kelturmisham.

Sunbuli gesuyi vallayl o'qubon, ey Ahmado,
El najoti ro'siyohga anbiyo kelturmisham.

Tashnalab qolgan o'shal mardi Xudodin o'rgulay,
Motami afg'oni dashti Karbalo kelturmisham.

Mashrabi devona bildi bir oting Hayyi qadim,
Hazratingdin kecha-kunduz ming duo kelturmisham.

* * *

Qaysi kun bo‘lg‘oyki man Makkada ma’vo aylasam,
Ka’bayi maqsudga borib, manzili jo aylasam.

Har birodarni ko‘rubon boshidin ming o‘rgulub,
Xoki poyin surmayi bul chashmi biyno aylasam.

Ba’d’azon borib Habibi Hazrati Haq yonida,
Zohir-u botin gunohimni tavallo aylasam.

Haq taolo sun’idin Arshi a’lo ustida,
Man jamoli hazratim rasmi tamosho aylasam.

Xonaqo suhbatda o‘ltursam birodarlar bilan,
Gar Xudo tavfiq bersa, yodi Mavlo aylasam.

Qutbi olam g‘avs ul-A’zam rasmi islomim, pirim,
Mashrabo, qilsa nazar xizmatni bajo aylasam.

* * *

On qadar nurga to‘libman, osmonga sig‘madim,
Toqi Arsh-u Kursi-yu Lavh-u Jinonga sig‘madim.

Kimga soyam tushsa bir nuri yaqin bo‘ldi u ham,
Daftari ruhi qudsdurman, do‘zax-u zabonga sig‘madim.

Jannat-u Kavsar manam, ham Do‘zax-u Saqar manam,
Bir o‘zumdurman bu dam, haft osmonga sig‘madim.

Soyayi Odamg‘a keldim, nuri ma’ni izladim,
Jannat ul-Firdavsidek oliy makonga sig‘madim.

Bor edim Nuh vaqtida, g‘arq etmadi to‘foni ham,
Hamrahi Muso bo‘lub Turi Sinonga sig‘madim.

Elli(k) yil Iso bilan yurdum o‘lukni tirguzub,
Boisi bir nuktadin Mashrab zamonga sig‘madim.

* * *

Zebo sanamim yo‘l uza ko‘rgach tura qoldim,
Nazzorasidin mahv o‘lubon o‘ltura qoldim.

Sayyora sifat kecha tong otguncha yugurdim,
Yuz shukrki, oydek yuzini bir ko‘ra qoldim.

Majlisda aning sham’i jamolin ko‘rubon,
Parvona masal o‘tqa o‘zumni ura qoldim.

To sham’i visolingga yetolguncha raqiblar,
Ishqing o‘tida bol-u parim kuydura qoldim.

Maygun labidin bersa sanam jur’aye boda,
Jon naqdini ilkimg‘a olibon bera qoldim.

May tutti sanam lutf ila Mashrabga bayakbor,
Darhol olib man qo‘lidan sipqora qoldim.

* * *

Nogoh ko‘rubon mahvi jamoling bo‘la qoldim,
Oydek yuzunga boqdim-u qurbon bo‘la qoldim.

O‘tdek tutashib kuydi yurokim bila jonim,
Parvonadayin o‘tqa o‘zumni ura qoldim.

Yuz noz ila chiqdi sanamim maykadasidin,
Bir g‘amzasiga din bila imon bera qoldim.

Ko‘rdumki ajab ishvagar-u dilbari tannoz,
Devona bo‘lub ishqida o‘tdek yona qoldim.

Dildor jamolini ko‘rub, ishqi yo‘linda,
Gulgun yonibon mahvi tamosho bo‘la qoldim.

Hojat emas ul Ka’bavu butxonag‘a bormoq,
Men gavhari maqsud olayin deb yona qoldim.

Mashrab boshig‘a tushti o‘shal kun g‘ami dildor,
Shaydoyi bo‘lub jumla havasdin qola qoldim.

* * *

Qildi menga bir jilvaye nogoh boqa qoldim,
Ul jilvasig‘a din ila dunyo sota qoldim.

Ma’shuq dedi: “Bovar emas manga bu ishqing”,
G‘ayrat tig‘i birlan yuragimni ocha qoldim.

Arz ustidan ul Arshg‘acha shahbozini ko‘rgach,
Tan shahrida ul jon qushidek tolpina qoldim.

G‘am tog‘ida Farhod sifat emganur erdim,
Boshimg‘a balo teshasi tegdi, yota qoldim.

Mashrab, yo‘lida turfa parishon yurur erdim,
Ul moh chiqibon parda ko‘tarildi, boqa qoldim.

* * *

Dunyog‘a kelib loyig‘a bilmay bota qoldim,
Darmon yo‘qidin necha og‘iz so‘z qota qoldim.

Ko‘rdumki ani dushmani ruh-u tan ekandur,
Lo o‘qi bilan ikki ko‘zig‘a ota qoldim.

Mayxonag‘a kirdim, bila qoldim kuyarimni,
Masjidga kirib zohidi yaxdek qota qoldim.

Zohid, manga bir shishada may, sanga namozing,
Ming taqvini bir kosayi mayga sota qoldim.

Vahdat mayini piri muton ilkidin ichtim,
Mansur kabi boshimi dorg‘a tuta qoldim.

To telbalig‘im shuhrati olamni tutubdur,
Bir jilvasig‘a ikki jahondin o‘ta qoldim.

Ayb aylamangiz Mashrabi bexudni, yoronlar,
Naylayki, bu g‘urbat ko‘chasidin o‘ta qoldim.

* * *

Azaldin to abad, do‘stlar, hamisha oh deb keldim,
Tilimda rabbiyal a’lo, yana Olloh deb keldim.

Ki san avlodi Payg‘ambar, otingdur hazrati Ofoq,
Ki navmid qo‘ymag‘aylarkim, ulug‘ dargoh deb keldim.

Azaldin manga soldi ushbu o‘tni, ey musulmonlar,
Aning uchun kuyarman tun-u kun yuz oh deb keldim.

Hidoyat ko‘rguzing, Ofoq xojam, pushti panohim siz,
Adashgan, yo‘lda qolganman, g‘aribga roh deb keldim.

Kel, ey Mashrab, umid etgilki, afv etgay gunohingni,
Hasan birlan Husaynim hurmati ul shoh deb keldim.

* * *

Tamosho aylamaka go‘shayedin anjuman keldim,
Surudi bulbuli sho‘ridadek so‘yi chaman keldim.

Agar Ya’qubdek qon yig‘lasam, ayb aylamang zinhor,
Firoqi dardi Yusufni chekib bayt ul-hazan keldim.

Shahidoni Xo‘tanni tavf etarga, ey musulmonlar,
Chu lola domani sahro tutub dashti Xo‘tan keldim.

Jahon shayx-u kibori, olim-u mufti-yu qozisi —
Hama kom topti dunyoda, barahna, bevatan keldim.

Qadah maxmuridurman to‘ldurub kelturg‘il, ey soqiy,
Sharobi qirmizi no‘sh etgali xushki dahan keldim.

Mayi vahdat to‘la berg‘il mani Mashrabg‘a, ey soqiy,
Sivo mulkda saydemanki, gulguni pirahan keldim.

* * *

Ishqing o‘tig‘a kuygoli keldim,
Oydek yuzungni ko‘rg‘oli keldim.

Savdoyi zulfing tushdi boshimg‘a,
Sandin davosin so‘rgoli keldim.

Bahringga kirdim g‘avvos bo‘lay deb,
Bir durri maqsud olg‘oli keldim.

Ey gul’uzorim, oy yuzli yorim
Mahvi jamoling bo‘lgoli keldim.

Qofila ketti, manzilg‘a yetti,
Man ham taraddud ko‘rgoli keldim.

Soqiy, qadahni qilg‘il muhayyo,
Vahdat mayidin ichg‘oli keldim.

Rahmat eshikin Mashrabg‘a ochg‘il,
Ishqing ko‘yida o‘lg‘oli keldim.

* * *

Jonon, yuzungni ko‘rg‘oli keldim,
Shakkar labingni so‘rg‘oli keldim.

O‘tdek tutoshib yondi yurokim,
Kuya-kuya kul bo‘lg‘oli keldim.

Ey mohi tobon, zulfi parishon,
Oydek yuzingni ko‘rg‘oli keldim.

Sham’i jamoling parvona qildi,
O‘tg‘a o‘zumni urg‘oli keldim.

Man sari boqg‘il, ey gul’uzorim,
Rozi dilimni ochg‘oli keldim.

Ey to‘rayi husn, bandang bo‘loyin,
Eshigingga qul bo‘lg‘oli keldim.

Mashrabg‘a tegdi kosayi davron,
Besh kun jahonda turg‘oli keldim.

* * *

Tavofi ostoningga g‘arib-u notavon keldim,
Umid aylab madad sandin ba chashmi xunfishon keldim.

Talab aylab visolingni, ko‘rarman deb jamolingni,
Bo‘lub bulbuli noloni, qilib oh-u fig‘on keldim.

Qalam yozg‘on ekan manga buni nahni qasamnoda,
Muhabbat tig‘i andozi bilan chun bag‘ri qon keldim.

Yurubdur darbadar yig‘lab, bo‘lub labtashna bul Mashrab,
Sharobi ma’rifat izlab chu lola bag‘ri qon keldim.

* * *

Man erdim bulbuli go‘yo, fig‘on birlan chaman keldim,
Yurakda dard ko‘pdur, gulizori yosuman keldim.

Maning oshufta ko‘nglum g‘unchadek hargiz ochilmaydur,
Yurakdin g‘am ketar deb bu sababdin man Xo‘tan keldim.

Yurakdin oh tortar barcha toliblar ham armonda,
Muyassar bo‘lmadi maqsud, yana qaytib vatan keldim.

Bu Mashrab so‘zini durdonayi qimmatbaho derlar,
Jamiyi xalq aro so‘z bobida sohib suxan keldim.

* * *

Ey sanam, ishqing o‘tida man tamom yonmoq edim,
Misli parvona boshingdin yuz gez aylanmoq edim.

Bu muhabbat dashtida bir necha yurdum oy-u yil,
Yuguruk tozing bilan yilqingni qaytarmoq edim.

Aytibon hamdu sano qaddimni etmishman qiyom,
Necha yil layl-u nahor vasfingni man aytmoq edim.

Dahr bog‘ida saning ovozayi husning uchun,
Mili Iskandar olib, tablingni man qoqmoq edim.

Mashrabo, umrung Xo‘tan dashtida o‘tti qon yutub,
Yunus ul batni samak o‘lg‘anda man qarmoq edim.

* * *

Saning vaslingni, ey jonon, mane afgor sog‘indim,
Shabi hijronda qoldim, partavi diydor sog‘indim.

Xazon toroj aylab bag‘rimi pomoli g‘am qildi,
Bahor bo‘stonidek, dilbar, guli ruxsor sog‘indim.

O‘lar holatdaman, boshim sari qilg‘il qadam ranja,
Ki diydoring qiyomat qolmasun, zinhor sog‘indim.

Kechalar uyqu yo‘q, kunduz xayoloting bilan o‘tdi,
Ba qalbi botin-u zohirda ham bedor sog‘indim.

Ko‘ngulda yo‘q edi sandin judolik, lek naylarman,
Mukaddar ilkidin bo‘ldi bu ish, nochor sog‘indim.

Shajarlar — xoma, daryolar — siyoh-u yer-u ko‘k — sahfa.
Raqam qilsam ado bo‘lmas g‘aming, bisyor sog‘indim.

Qulung Mashrabni, jonon, shafqat ilan bir so‘rab kelgil,
Ki, san murshidi komil, mahrami asror sog‘indim.

* * *

Birodarlar, man ushbu kecha Majnundin nazar topdim,
Tun o‘tguncha riyozat birla olamdin xabar topdim.

O‘shal mahvashni yod aylab, g‘am-u qayg‘u ziyod aylab,
Na aqlimdin nishon ko‘rdum, na hushumdin asar topdim,

Maningdek talxkom-u benasib dunyoda o‘tgan yo‘q,
Shakar og‘zimg‘a soldim, zahri qotildin batar topdim.

Bu dahri bevafog‘a Hech ko‘ngul bermang, ayo do‘stlar,
Ki, man foniy jahonni misli abri darguzar topdim.

Vujudi ushbu olam bir kecha-kunduzdin ortiq yo‘q,
Charoki dunyoda bir shams ko‘rdum, bir qamar topdim.

Nadomat ashki to‘foni boshimdin chun o‘tub ketti,
Balig‘ qornidag‘i Yunus kabi bahr ichra bar topdim.

Nigorimdin vafo, na do‘stlardin daf’i g‘am ko‘rdum,
Ki, har kimdin umidi manfaat qildim, zarar topdim.

Netay, Mashrab, bu yo‘lda manga Hech kim bo‘lmadi rahbar,
Adashtim, yo‘l yiturdim, na payom-u na xabar topdim.

* * *

Hamdamim yo‘q, vodarig‘o, dur tushubdur manzilim,
Chun ko‘karganda xazon keldi, qurubdur hosilim.

Hech kimi mandek parishon-u alamlik bo‘lmasun,
Umrum o‘tti hech kushod bo‘lmas maning bul mushkulim.

Chun xazon keldi bahorimdin sira topmay xabar,
Oxiri vaqtim ko‘karganda quridi hosilim.

Qay biri xoshok kabi girdobi bo‘lgayman bukun?
Yuz nasihatdin tuzalmaydur bu nafsi johilim.

Mardum ozori bo‘lub, bo‘ldum zabun man oqibat,
Ko‘p yamon qildi jahonda bul maning achchig‘ tilim.

Ajdahoning zahridin badtar-u, bilgil, ganda so‘z,
Hamnishini badga uchrabdurki ruhi qobilim.

Boraman, Mashrab, bu g‘urbatxonadan hayron bo‘lub,
Bir alifdin o‘tmag‘aydur to maning bul tahsilim.

* * *

Dunyo sarig‘a bir kelibon g‘am zada kettim,
Bir lahza dam olmay turubon lahzada kettim.

Bir mushfiqi hamroz jahon ichra topolmay,
Hasrat o‘tidin kuydim-u motamzada kettim.

Surtmay bu qaro yuzni borib ravzalarig‘a,
Armonda yurib lek buzug‘ kulbada kettim.

Har jon kelar-u ketgusidur bilsam oni ham,
Ketmascha yurubon yana g‘urbatzada kettim.

Horis bo‘lubon dunyoda yurdi necha gumroh
Uryon kelibon munda, yana arbada kettim.

G‘ofil kishilar kecha-yu kunduz tilagay mol,
Dunyo ila dinni sotibon g‘amzada kettim.

To yorini xayol ayladi Mashrab, ko‘zin ochdi,
Yuz dard-u alam birlaki mehnatzada kettim.

* * *

Ketti qaror-u sabr-u hush, qolmadi tanda toqatim,
Tun-kun ila ziyodadur mehnat-u dard-u ofatim.

Oh urubon qayon ketay, tog‘-u tosha boshim uray,
Boshima ming balo-yu g‘am — kunda turur alomatim.

Zarracha qolmadi yurak, kuydi-yu bo‘ldi ham ado,
Ko‘zdagi yosh-u rangi zard — ushbu erur halovatim.

Hoji-yu muftini yig‘ib, omi-yu shayx ham murid,
Barchasidin yuz o‘gurub, ishqi erur malomatim.

Barchaga mol-u johini, ne’mat-u mulk-u joyini,
Manga berubdur ohini, ushbu turur salobatim.

Ishq emas balo ekan, mehnat-u dard-u oh ekan,
Mashrabi benavo ekan, kun-kundin ortar ofatim.

* * *

To olami zohirg‘a kelib man guzar ettim,
Tark ayladimu jumlani qat’iy nazar ettim.

Ahvoli dilim ayg‘oli bir mahrame topmay,
Zulmungni qarindosh-u g‘amingni padar ettim.

Bir qushki cho‘loq san sari parvoz etayin deb,
Hajr o‘qlarini jonga suqub bol-u par ettim.

Dushmanga chu harb etmak uchun chora topolmay,
Do‘stum qo‘lini tuttimu tiyg‘-u tabar ettim.

G‘am shomida qalbimga guzor etti xayoling,
Ko‘z yoshi — yurak qoni bilan mohazar ettim.

Savdoyi sari zulfing uchun necha mahaldur,
Jon kishvarini buzdimu zer-u zabar ettim.

Bir martabada turmas uchun shoh ila darvesh,
Bas jandani kiydim, o‘zimni darbadar ettim.

Ko‘tahnazar el bilmasa deb xasta bu Mashrab,
Ming ma’nini bir nukta bilan muxtasar ettim.

* * *

Netgum sanamo, ishqing o‘tida vatan ettim,
Har tori mo‘yim sham’ kabi shu’lazan ettim.

Qon yig‘ladi ko‘z, qoldi tanim qon arasinda,
Har qatrayi tan tog‘ida la’li Yaman ettim.

G‘am tog‘in alam teshasi birlan qozadurman,
O‘lguncha, xayolingni uyub Ko‘hkan ettim.

Jannat bilan Kavsar suvini og‘zima olmay,
La’ling g‘ami zahr erdiki, shahdi dahan ettim.

O‘tlar tutoshur gar nafas ursam hama jong‘a,
Ishq ahlig‘a o‘tlug‘ yurakimni chaman ettim.

Sayd o‘lg‘usi har kim kelur oldimg‘a, qutulmas,
Nevchunki ko‘ngul shu’lasi birlan rasan ettim.

Sabr ayladi ul gulshani ishq ichra navolar,
Har bulbul-u to‘ti edi zog‘-u zag‘an ettim.

Mashrab tanining zaxmlari bo‘ldi gulafshon,
O‘ldum g‘ami ishqingda chu guldin kafan ettim.

* * *

Dil dashtida g‘am ohularig‘a vatan ettim,
G‘amzang o‘qi to lolalar ochti, chaman ettim.

Ishq ahli mening sori kelurg‘a bu erur yo‘l,
Har yerda tarab gullari erdi vatan ettim.

Nayson kabi ko‘zdin yog‘adur ashki ravonim,
Sadqangga yurak qonini la’li Yaman ettim.

Mehring qushi ko‘nglum qushidin ajramasun deb,
Jon rishtasi birlan oyog‘idan rasan ettim.

Jonimg‘a nigohing o‘qidin gullar ochilsa,
Sayrimg‘a qachon nastaran-u yosuman ettim?

Rasvolig‘ o‘tin balki o‘zumg‘a yoqadurman.
Jismimg‘a samandar kabi o‘t pirahan ettim.

Mashrab, bu so‘zing topdi saning bo‘yi shahodat,
Qonlig‘ tanima ishq libosin kafan ettim.

* * *

O‘shal ro‘ziki man sandin judolig‘ ixtiyor ettim,
Chiqib sahrog‘a Majnunlig‘ shiorin oshkor ettim.

Qaro qilsa falak baxtim bilan bul ro‘zgorimni,
Saning dard-u g‘aming siynam ichinda e’tibor ettim.

Mane aftodavu bedil, g‘aribi dog‘i hijronman,
O‘zimg‘a ofarin derman, sani ko‘rmay qaror ettim.

Maning, jono, g‘amingdin digar hech kim —
munisim yo‘qdur,
Kim aylar iltifote, man diyoringga guzor ettim.

O‘yulsin ko‘z jamolingdin digar yuzga nigoh etsa,
Kuyub qolsun yurak-bag‘rimki, sandin o‘zga yor ettim.

Jamoling sog‘inib ko‘zlarda zarra nur qolg‘on yo‘q,
Ajab yo‘q, zor qolg‘on kifrikimni ashkbor ettim.

Erurman oshiqing, xalqi jahon derlar mani Mashrab,
Nechunkim manzilimni soyayi parvardigor ettim.

* * *

Yetti daryog‘a qo‘shuldi obi chashmi himmatim,
Necha Majnung‘a sabaq berdi dilimda hayratim.

Domanimdin tortti, dunyoni ko‘ring duni dag‘al,
Varna Arshning ustida erdi kamoli minnatim.

Xuni g‘arq birlan ado, qildim, base Mansurman,
Ohi sardim bo‘ldi savmim, ham fig‘onim toatim.

Garchi zohir xushk xok-u bebizotman bukun,
Muso-vu Isoni davronig‘a bordur nisbatim.

Ey safobaxsh, nafsi fir’avnimg‘a bir shamshir ur,
Toki hamrohi Muso bo‘lsin maning bul xislatim.

Umr azal dor ul-baqo, dayri fanoga turg‘ali,
Loladek bir soati yo‘qdir maning Hech fursatim.

Pokbozam, xoriji dunyoyi uqbodin judo,
Suratim garchi bashar keldi, malakdur siyratim.

Necha Mansur o‘ldi irshodmand muhabbat yo‘lida,
Manga ham dori qurulg‘onda yetar bu qismatim.

Hech bilolmayman o‘zimni qaysi qavmiyman bukun,
Lekin Arsh ustida Jibrildur maning hamsuhbatim.

Mashrabo, oxir sanga yuz ming biyobon tay urub,
Bo‘lmadi bir pashshayi log‘archa aknun xizmatim.

* * *

Jumla xalq, toatdadur, man, bas xato qildim, Karim,
Neklarning xokini diydamga jo qildim, Karim.

Bir duo aylang, manga hojatbaror bo‘lg‘aymukin,
Dilsiyolarni o‘zimga oshino qildim, Karim.

Obi rahmat yoki bo‘lgay yoki bo‘lmas har taraf,
Ro‘siyohlik birlan yuzumni qaro qildim, Karim.

San agar rahmat bilan Mashrab gunohin yopmasang,
Ro‘zi Mahsharda bu jonimga jafo qildim, Karim.

* * *

Zaminni chok etib bag‘rig‘a chiqtim, osmon kettim,
Falakni tay urub Arshdin o‘tub man Lomakon kettim.

Kelurdim Lomakondin sayr etib dorulbaqo uzra,
Qarore topmadim, gohi u yon, gohi bu yon kettim.

Tijoratni kabob aylab, tilab ul xoli ruxsorin,
Yamandin sayr etib bir lahza man Hinduston kettim.

Dekanda necha yillar istiqomat ayladim, turdim,
Tamomiy rasmi kofirlarni ko‘rdim, Isfahon kettim.

Madinani tavof aylab, yana ul obi Zam-zamni,
Kelib sizlarga uchrabman, duo olib amon kettim.

Xurosonning havosi yaxshi, ammo odami kofir,
Hirotni tay urub, Mashhaddin o‘ttum, man Eron kettim.

Xalaf, Shervon bilan Shomi sharifning odamin ko‘rdim,
Buxoro shahrig‘a borib, o‘tub man Toshkon kettim.

Kelibman Shohimardon Sherimardonni tavof aylab,
Saripul-u Shivirg‘on, Andijondin man Ho‘qon kettim.

Qarore topmadim ro‘yi zaminda, Mashrabo hargiz,
Falakni tay urib o‘ttumki, man chun Lomakon kettim.

* * *

Adam iqlimidin keldim, tamoshoyi jahon ko‘rdum,
Ko‘zum g‘ayrat bila ochtim, hama ayni ayon ko‘rdum.

Yurub bodi sabodek har taraf olamda sargardon,
Chamanda bulbul-u goh yosuman ham arg‘uvon ko‘rdum.

Xudoning qudrati ko‘ptur jahonda har taraf boqsam,
Birovni ham gado, ham birni man shohi shahon ko‘rdum.

G‘urure davlate shohiy o‘tar chun barqi bir soat,
Faqiri benavolig‘ni ajoyib, xo‘b amon ko‘rdum.

Hayotingni g‘animat bil necha kun ushbu olamda,
Ki, vaqti navbahor o‘tti, yana vaqti xazon ko‘rdum.

Nashot-u ayshi olamni baqosi yo‘q erur aslo,
Birovni hasrat-u g‘amda, birovni shodmon ko‘rdum.

Agar Jannat tilar bo‘lsang saharlik ista, ey Mashrab,
Saharxezning makonini Bihishti jovidon ko‘rdum.

* * *

Shohi jahonim, ishqingda o‘ldum,
Oromi jonim, ishqingda o‘ldum.

Kimdin o‘rganding muncha jafoni,
Ey nuktadonim, ishqingda o‘ldum.

To qoba qavsayn sharhi qoshingdur,
Abro‘ kamonim, ishqingda o‘ldum.

Qaqnusga o‘xshab nola qilurman,
O‘rtandi jonim, ishqingda o‘ldum.

Bir rahm qilg‘il, holimni so‘rg‘il,
Nomehribonim, ishqingda o‘ldum.

Yorim sanga man chokar bo‘loyin,
Sohibqironim, ishqingda o‘ldum.

Mashrabga bir boq, jon labg‘a yetti,
Ruhi ravonim, ishqingda o‘ldum.

* * *

Saning ishqingda, ey dilbar, ajab devonalo bo‘ldum,
Bu olamda xaloyiqg‘a ajab afsonalo bo‘ldum.

Asosi saltanat birlan parivashlar shahanshohi,
Tarahhum aylagil manga, eshiklarda gado bo‘ldum.

So‘roqlab vasli diydoring jamiyi xalqdin so‘rdum,
Emish: “Jo‘yanda yobanda”ki man topmay gado bo‘ldum.

Nigoro, xanjari qoshing dilim sadporalar qildi,
To‘kub qonim yuzung ko‘rmay shahidi Karbalo bo‘ldum.

Alifdek qomatin dilbar qilib xam bodani sundi,
O‘shal maydin ichib be nuqtasidek zeri po bo‘ldum.

Bu Mashrab dardini, yo Rab, ki hech kim boshig‘a solma,
Davo aylang bu dardimga ki muhtoji shifo bo‘ldum.

* * *

Nigorim, gul'uzoringni ko'rolmay mubtalo bo'ldum,
Sharobi la'ling ichtim, san sanamg'a oshino bo'ldum.

Tarahhum qil, ayo dilbar, qulingga ko'p jafo qilma,
O'zingga oshno qilding, g'arib-u benavo bo'ldum.

Yuzing guldur, mujovir ko'zlaring mastonadur, jonon,
Yurokim poralar bo'ldi, shahidi Karbalo bo'ldum.

Talab bozorig'a kirdim, tabibi ishqdin so'rdim,
Ki, dardimg'a davo topmay, bu dardi bedavo bo'ldum.

Ayo dilbar, kelib ayla bu Mashrab so'zini tahqiq,
Yo'lungga jon fido qildimki, ishqqa muqtado bo'ldum.

* * *

O‘shal kun sanga, ey sho‘xi sitamgar, oshno bo‘ldum,
Davosiz dardi bedarmonga oxir mubtalo bo‘ldum.

Ba bozori muhabbat gavhari qimmatbaho erdim,
Raqiblar oldida misli sadafdek kambaho bo‘ldum.

Qalandarvor hajringda navo-yu nolalar qildim,
Saning dard-u g‘amingdin, ey pari paykar, ado bo‘ldum.

O‘shal kun sanga paymon bog‘ladim, ey sho‘xi beparvo,
Tamomiy hamnishin-u oshnolardin judo bo‘ldum.

Muhabbat o‘ti kuydurdi yurak-bag‘rimni, ey Mashrab,
Kuyub kul bo‘ldi jismim, nest bo‘ldum, zeri po bo‘ldum.

* * *

Ko‘rdum yuzungni devona bo‘ldum,
Aql-u hushumdin begona bo‘ldim.

Tortib jafolar o‘lsam ko‘yingda,
Tonmasman aslo – mardona bo‘ldum.

Kavsar sharobi yodimga kelmas,
La’li labingdan mastona bo‘ldum.

Yumdum ko‘zumni sandin bo‘lakdin,
Kechtim, baridan begona bo‘ldum.

Ko‘rdum tushumda sham’i jamoling,
Kuydum charx urub parvona bo‘ldum.

Ishqing mayig‘a pur bo‘ldi jismim,
Ham soqi-yu ham paymona bo‘ldum.

Bir qatra erdim cho‘mdum dengizga,
Kirdim sadafg‘a — durdona bo‘ldum.

Kuydurmasa o‘t, bo‘lmas yog‘och cho‘g‘,
Ishq o‘ti birlan hamxona bo‘ldum.

Bo‘ldum fano man tufrog‘ ichinda,
Bir dona erdim, ming dona bo‘ldum.

Ul yuz o‘tida bud bo‘ldi nobud,
Obod edim man vayrona bo‘ldum.

Kuymas dedilar ma'murayi ganj,
Ishqin o'tida so'zona bo'ldum.

Tegdi ko'zingdan jonimg'a ming o'q,
Dasht erdim avval, gulxona bo'ldum.

Bir necha yildur yordin judoman,
Topmay man oni hayrona bo'ldum.

Sangi malomat tegdi boshimg'a,
Yaxshi-yomong'a afsona bo'ldum.

Mashrabg'a may sun mayxona ichra,
Kechtim hamadin rindona bo'ldum.

* * *

Ayo dilbar, sani ko‘rdum, base man mubtalo bo‘ldum,
Sani ko‘yungda, ey barno, giriftori balo bo‘ldim.

Xadangi novaki mujgonlaring har dam tegib o‘tti,
Qizil qonimg‘a bulg‘onib, shahidi Karbalo bo‘ldum.

Hayotim orazingga sarf qildim, bilmading ammo,
Sani deb man hamisha din-u dunyodin sivo bo‘ldum.

Maningdek oshiq-u dilxastaye hech bo‘lmasun, yo Rab,
Nechuk ko‘ngul uzay sandin, azaldin oshno bo‘ldum.

Nisori maqdamingga, ko‘yunga boshim fido qildim,
Ki, tiyg‘i xanjaring tegdi bu jonimdin judo bo‘ldum.

Yururman justujo‘ aylab kecha-kunduz firoqingda,
Visolingdin xabar topmay eshiklarda gado bo‘ldum.

Bu Mashrabg‘a tarahhum aylag‘il, ey dilbari zebo,
Firoqingda aziyatlar ko‘rib, bas, benavo bo‘ldum.

* * *

Bazmi sham'ingdin zamona ichra bir giryon o'zum,
Doimo parvonadek sham' o'tig'a so'zon o'zum.

Kahrabo ermish jahon davrida afg'on aylagan,
Chun faloxun doimo sargashtayi davron o'zum.

Shohlik birlan gadolik, bil barobardur manga,
Gohi hajringda gado, vaslingda goh sulton o'zum.

Chin aro ko'rgach xadangi novaki qosh yosini,
Siynachok o'lg'an shahidi tiyri bepaykon o'zum.

Dargahi vasling tilab ayb etma, afg'on aylasam,
Mashrabi sargashtayi g'amdiydayi hijron o'zum.

* * *

Gulshan-u bog‘i dahr aro bulbuli nag‘magar o‘zum.
Bir buti bebadal uchun oshiqi darbadar o‘zum.

Ko‘yungg‘a, dam-badam, borib, navha vu zorlar qilib,
Shom-u sahar fig‘on etib, hofizi xush asar o‘zum.

Yo shahi mehribonmusan, yo mahi osmonmusan,
Yer bila ko‘kni kuydurub kavkaba-vu qamar o‘zum.

Jomi mayi luob ichib, Majnuni benavo bo‘lub,
Noz-u karashmalar qilib, Layliyi ishvagar o‘zum.

Sham’i jamoling o‘rtadi jon-u dilimni, ey sanam,
Bol-u parimni kuydurub, bedili navhagar o‘zum.

Vaslingni istab, ey sanam, kecha-yu kunduzi mudom,
Vaqti saharda tur deding, doiyayi sahar o‘zum.

Xisravi komron bo‘lub, Rustami Doston bo‘lub,
Bir zo‘r pahlavon bo‘lub, Hamzayi raxnagar o‘zum.

Olimi nuktadon manam, piri hidoyaxon manam,
Shuhrati she’r bobida Mashrabi mo‘tabar o‘zum.

* * *

Hajr-u firoqing o‘tida oshiqi beqaror o‘zum,
Oy yuzung ishtiyoqida oshiqi xoksor o‘zum.

Xol-u xatingni ko‘rmasam, yo‘qtur qarorim, ey sanam,
Ishqing o‘tig‘a man kuyub so‘xtayi dilfigor o‘zum.

Iso chiqib havo uza ko‘rmadi ma’shuqin yuzini,
Ikki jahon ichinda bil, sanga giriftor o‘zum.

Yuzungni ko‘rmasam agar, bo‘lmag‘ay erdim intizor,
Rahm aylagil bu holima, oshiqi bemador o‘zum.

Kuydi yurokim o‘rtanib jabr-u sitamlaring bilan,
Ohima jovidon kuyar, otashi tobdor o‘zum.

Ko‘ksuma xanjaring tegib, oh ila Arshni kuydurub,
Qonima jism-u jon bo‘yab gulshani lolazor o‘zum.

Chin-u Namangan ichida yurdi Rahimbobo so‘rab,
Topmadi bir hodiyini, tolibi roh-baror o‘zum.

Maxfi(y) Zulayxo doimo Yusufg‘a intizor edi,
Ikki jahonda yorini izlagan oshkor o‘zum.

Har nafasiki manda bor bo‘ldi madad Ofoq Xo‘jam,
Bo‘lmasa bir quruq yog‘och, dashtida ko‘hsor o‘zum.

Quddisa sirruh-u Xo‘jam otimi Mashrab dedilar,
Qoshg‘ar-u Yorkan(d) ichida sohibi guftor o‘zum.

* * *

Dunyoni pushtipo urub Adhami benavo o‘zum,
Avji falakda yurugon kavkabi purziyo o‘zum.

Banda — umam, Umam o‘zum, na minnat o‘zgadin taqi
Yo‘qtur tabiba hojatim, dardima ham davo o‘zum.

Man tilabon diydorini ko‘hi Tur uzra dam-badam,
Musolayin aso olib tunqotari Xudo o‘zum.

Kufr ila din mazhabida hech kima yo‘qtur nisbatim,
Ham sanam-u ham oshiq-u ham shah-u ham gado o‘zum.

Majnuni benavo demang, layl-u nahorda bo‘zlasam,
Laylisini so‘rog‘lag‘an Majnuni benavo o‘zum.

Hur-u Bihisht-u Kavsaring — ko‘zima bir quruq rabot,
Vaslinga yo‘l topay desam, rahra-vu rahnamo o‘zum.

Asli nasibim so‘rasang, bir qora qulni o‘g‘liman,
Bahri muhabbat ichida gavhari bebaho o‘zum.

Mashrabi Mahdi(y) aytadur: olami bevafo aro,
Bir buti bebadal uchun oshiqi mubtalo o‘zum.

* * *

Angla bu so‘zni, ey sanam, oshiqi muddao o‘zum,
Asli dilida dardi ko‘p, dunyoda bedavo o‘zum.

Elni sazoyi qilmag‘il, yolg‘uz o‘zumni aylag‘il,
Yurdumu ko‘rdum hamani, dunyoda purgunoh o‘zum.

Dunyog‘a barcha maxluqung bir kelibon bir ketadur.
Kunda mani ming o‘ldurur, pursho‘r-u purjafo o‘zum.

Zohid eliga fosiq-u, gumrah-u, osi, purgunoh,
Haqni qoshida martabam — ummati Mustafo o‘zum.

Oshiq erursan, ey rafiq, qo‘rqmaki jonni vahmidan.
Qilsa madad o‘zi vale, dardima ham shifo o‘zum.

Qatrayi may toturmasang, ol bu jonimni, ey sanam,
Sansiz bu dunyo ichida o‘lmakima rizo o‘zum.

Parda ko‘targil, ey sanam, rozi dilimni aytayin,
Barcha oshiqlar oldida avvali dodxoh o‘zum.

Yostanib eshikin pirim, soldi bozori ko‘yiga,
So‘ramading nechuk faqir, Mashrabi xokipo o‘zum.

* * *

Masti jomi vahdatam, jono, sanga man zor o‘zum,
Shoribi xamri alastam oshiqi diydor o‘zum.

“Robbi arni” dedi Musoyi kalim hech yetmadi,
Ishqidin nolon bo‘lubon kechalar bedor o‘zum.

Ul Xalilullohni soldi o‘tg‘a Namrudi la’in,
Sayrar erdim ul zamon bulbuli afgor o‘zum.

Yusufi zindonig‘a bo‘ldi muyassar toj-u taxt,
Hasratida misli Ya’qub diydasi xunbor o‘zum.

Yetti g‘abrodin o‘tub, to‘qqiz falakdin ham taqi,
Qurbi Haqni ko‘zlagan ul Ahmadi Muxtor o‘zum.

Birligingga man sig‘indim, yo Ahad, Sandin madad,
Mashrab aytur: yo Iloho barchadin bezor o‘zum.

* * *

Ishq vodisidan bir kecha man hay-hayelab o‘ttum,
Monandi nayiston gulig‘a o‘t qalab o‘ttum.

Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur,
Mino tog‘idin akka sifat hakkalab o‘ttum.

Ottim fashi dastorini devonalig‘ aylab,
Parvonasifat jonimi o‘tqa qalab o‘ttum.

Bildimki vafosi yo‘q ekan ushbu jahonni,
Mardona bo‘lub, balki, etak siltalab o‘ttum.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,
“Borg‘il nari!” deb ketig‘a bir shattalab o‘ttum.

Bildimki oni dushmani makkorayi ayyor
Lo tirnog‘i birlan yuzini tirmalab o‘ttum.

Mardoni xudo dediki: “Dunyo mayi achchig‘”,
Achchig‘ligini bilmak uchun bir yalab o‘ttum.

Nafs kofiri birlan tun-u kun qildim urushni,
Tonho qilichi birlan urub, qiymalab o‘ttum.

Xomush pichog‘in har dam oning bo‘g‘zig‘a qo‘ydum,
Cho‘g‘ nayzasi birlan ko‘zini nayzalab o‘ttum.

Devonayi Mashrab, bu so‘zing dardga davodur,
Oshiq elini ko‘nglig‘a bir o‘t qalab o‘ttum.

* * *

Bir dame forig‘i andeshayi g‘am bo‘lmadim,
Lahzayi ruhonilar qavmig‘a hamdam bo‘lmadim.

Ayting-ayting, bandani Xoliq o‘zi bandam desun,
To o‘zi bandam demay hargiz mukarram bo‘lmadim.

Bir xase cho‘pni ko‘rung Haq zikrini bisyor der,
Man nechuk johildurman xasdin muazzam bo‘lmadim.

Bexabarlikda umur chun zoye o‘tti, Mashrabo,
Vo darig‘o, umrum o‘tti diyda purnam bo‘lmadim.

* * *

Dunyog‘a kelib ranj-u baloni ko‘rub o‘ttum,
Yuz ranj-u balo shiddatidin o‘rgulub o‘ttum.

Dunyog‘a ko‘ngul bersa kishi bo‘lg‘usi rasvo,
Bu foni jahon mulkiga shatto urub o‘ttum.

Bildim man oni dushmani makkor ekanini,
Mardona bo‘lub belga etak qisturub o‘ttum.

Jon olg‘uchi Azroil emas, ul O‘zi, bilg‘il,
Nevchunki, aning birla man ulfat bo‘lub o‘ttum.

Mashrab, sani deb ushbu jahondin ko‘ngul uzdi,
Devona bo‘lub ondin eshokim surub o‘ttum.

* * *

Qalandar Mashrabingman, ikki olamni tepib o‘ttum,
Bihisht-u hur-u g‘ilmoning puchak pulg‘a sotib o‘ttum.

Na aylay obi Kavsarni, nigorim bo‘lmasa soqiy,
Xarobot ichra bordum, qatra may ondin totib o‘ttum.

Ayo do‘zax, mani kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz,
Tamug‘din ishq o‘ti purzo‘r, aning zahrin yutib o‘ttum.

Ki jon olg‘uchini ko‘rdum, dedim: “Olg‘il bu jonimni”,
Ajal qochdi urub-quvlab man oni qo‘rqitib o‘ttum.

Solib bozori ishqingga matoyi jism-u jonimni,
Xaridor so‘rmadi hargiz bu jonimdin kechib o‘ttum.

Visol ayyomi bo‘lg‘onda, ko‘rung, baxti siyohimni,
Boshimg‘a kelsa yorim — man yotib uxlab bo‘kib o‘ttum.

Kuyub o‘tg‘on mani — devona Mashrabni so‘rar bo‘lsang,
Na yerda ahli dard topdim, ko‘zum yoshin sepib o‘ttum.

* * *

Vaqti talavvundin o‘tubman mujdayi tamkin manam,
Kayfiyatni izlagan holoki tajridin manam.

Naqshi davlat muhrini nafsimg‘a bosti chun ajal,
Shams Tabriziy manam, gohi Jaloliddin manam.

Xilvati rohi vatan topdim, nishonim qolmadi,
Goh Najmiddin manam, gohi Bahoviddin manam.

Hosilim dunyo-vu uqbodin ki har so‘ keldi, bas,
Bir nazar holimg‘a qilg‘il, ruhi Shamsiddin manam.

Chun xamir bo‘ldi bu xokim sho‘rishi Mahshar bilan,
Tashla dildin fikratingni, shayxi Majdiddin manam.

Mashrabi devonadurman hech kishi bilmas mani,
Gohi komil, gohi fozil, gohi chun mo‘min manam.

* * *

Ichib jomi muhabbatdin hadisi shakkaridinman,
O‘zining qudratin ochqon Xudoning daftaridinman.

Tanobi xalqani solg‘il maning bo‘ynumga, ey jallod,
Kishi bilmas maning qadrim, bu konning gavharidinman.

Duri fayz ayladim maqsud, budimni ayladim nobud,
Kushandam bo‘ldi ul Mahmud, ki Jannat Kavsaridinman.

Tamom a’zolarim motamda dardimning balandidan,
Kuyarsan Jabrail, borg‘il, ki ishq payg‘ambaridinman.

Muhabbat yo‘lig‘a qo‘ydum qadam, kuydi kafi poyim,
Maning aybimni qilmanglar, man ul kuyganlaridinman.

Tajarrud pesha Iysoman, tajalliy yori Musoman,
Alining qo‘liga bergan Muhammad xanjaridinman.

Maning ko‘nglumdadur to‘fon, ki, Nuh andin etar armon,
Ki Do‘zax uchquni kim, uchqunining axgaridinman.

Bu Mashrab so‘zini har dam qilib tafsiri illalloh,
Miyoni lo-vu illo harfining aslilaridinman.

* * *

Qarorim yo‘q ko‘ngulda lahzaye, sarsona Mashrabman,
Quyundek sham’i husning aylanib, parvona Mashrabman.

Jahonda har na borimni yo‘lida ayladim barbod,
Paridur yo malak, ondin bo‘lak rindona Mashrabman.

Ishimdir faqr yo‘lin tay qilib qat’i taalluqdin,
Ichibman tun-u kun may, tolibi mayxona Mashrabman.

Mani zohir ko‘z ila ko‘rgan el o‘zda gumon aylar.
Vale el ichra o‘zdin, barchadin begona Mashrabman.

Sarosar sayr etibon har tarafga dasht-u sahroni,
O‘zidin bexabar ham hushi yo‘q, devona Mashrabman.

Chu manda sodavashlig‘ vaz’idin bir o‘zga sir yo‘qdur,
Ochuq a’zo, yoruq tan, xalq aro vayrona Mashrabman.

Topibon o‘z yo‘lung, tark ayla zohidlik yo‘lin, Mashrab,
Muhabbat jomidin to may ichib mastona Mashrabman.

* * *

Na holatdur, ayo do‘stlar, ajab hayrona Mashrabman,
Ko‘rolmay gul’uzorimni, base, giryona Mashrabman.

Qalandarvor yig‘larman eshiklarda fig‘on aylab,
Xaloyiqqa bu olamda base afsona Mashrabman.

Nazokatlik nigorimdin o‘shal soat judo bo‘ldum,
Kuyub hijron o‘tida doimo so‘zona Mashrabman.

Man unga dardi zor aytib — eshitib yig‘layin, derman.
Ko‘ray deb ul vafodorim yurub jo‘yona Mashrabman.

Falakning jabri ko‘ksimda, alam uzra alamlardur,
Tarahhum aylabo ko‘rgil, jarohatxona Mashrabman.

Maning ko‘nglum qizil gul g‘unchasidek tah-batah qondur,
Ochilmasdan xazon bo‘lg‘on chu motamxona Mashrabman.

Visolingni tilab Mashrab yetubdur xalquma jonim,
Kecha-kunduz qarorim yo‘q, ajab sarsona Mashrabman.

* * *

Ajab pardanishin bir maxliqo dilbarga uchrabman,
Uzub bo‘lmas ko‘ngul andin pari paykarga uchrabman.

Yonib har boqishingdan jon qutulmas, ko‘zlari jallod,
Qizil qon to‘kkuchi kifriklari xanjarga uchrabman.

Ko‘rundi bir pari, aqlimni oldi, man nechuk aylay?
Fusungar, makri ko‘p, ayyora jodugarga uchrabman.

Niholi rishtayi mehri maning jonimg‘a chulg‘onmish,
Ko‘ngul bog‘ida o‘sgan sabzayi ar-arga uchrabman.

Ko‘rub holimni rahm aylab suv o‘ldi tog‘lar yig‘lab,
Netay, hech rahmi kelmas, rahmi yo‘q kofarga uchrabman.

Azobi saxti Mahshar osilarga bir kuni kelmish,
Manga bir kunda yuz Mahshar qilur dilbarga uchrabman.

Bu Mashrab nolasini ayb qilmang, ey musulmonlar,
Nechuk sham’i guzida, kokili ajdarga uchrabman.

* * *

Mani mubtalo na aylay hamadin sivo tushubman,
Yuragimni o‘rtadi g‘am, ki balog‘a vo tushubman.

Dili mijmarimdur otash, uradur sharora holo,
Bu xarob dahr aro man yana gumroh tushubman.

Nafasim-u ruhi pokim, nazarimda obi xokim,
Mani dardli siynachokim, nafasi Iso tushubman.

Bu nadomatimni ko‘rgil, mani intizora rahm et,
Bu alamni kishtasig‘a man noravo tushubman.

Man uchun tuzatti mulke bu jasadni podshohim,
Bu tanimni mulkig‘a man yana podsho tushubman.

Dedi, Mashrabo, talabdin sira qolma ganj bisyor,
Ki hazor davlatingga dili Zikriyo tushubman.

* * *

Jamoling sog‘inib shom-u sahar man zor yig‘larman,
Junun sahrosida devona-majnunvor yig‘larman.

Sanga rozi dilim izhor etib so‘ylar majolim yo‘q,
Parishon hol-u sargardon-u dilafgor yig‘larman.

Yuzing shams-u zuho, mohi munavvar, ey pari paykar,
Labing la’l-u lisoning shahd-u shakkarvor, yig‘larman.

Xating bog‘-u bahor-u lola-vu sarvi suman erdi
Ki, man chun bulbuli sho‘ridayi gulzor yig‘larman.

Ko‘zumdin mavj urub selobi ashkim to‘la qon oqti,
Agar yodimga tushsang, ey pariruxsor, yig‘larman.

Ko‘ray deb orzu aylab jamolingni man, ey zebo,
Turubdurman eshigingda, ayo g‘amxor, yig‘larman.

Ilohiy mag‘firat daryosidin Mashrabni shodob et,
Hamisha, shay’anlilloh, deb qalandarvor yig‘larman.

* * *

Firoqing o‘tida, ey gul’uzor, yig‘larman.
Tilab visolingni tunlar zor-zor yig‘larman.

Netay, na chora qilay, vaslingga yetolmasman,
Firoqing dashtida chu abri navbahor, yig‘larman.

Gahi tushumda ko‘rub gul yuzung Zulayxodek,
Dilimni pora qilib lolazor yig‘larman.

G‘arib-u bekas-u bechora hamdamim yo‘qdur,
Tushub bul g‘amzada ko‘nglumg‘a yor yig‘larman.

Qani musohibi hamdam, qani qadrdonlar,
Qani muhibb-u qani do‘st-yor, yig‘larman.

So‘rog‘ladim bu jahon mulkini saropoyin
Topilmadi ki saningdek nigor, yig‘larman.

Qayon boray, tugatay kimga aytibon dardim,
Yurokim o‘rtanibon pursharor yig‘larman.

Tavakkal ayla xudo qismatig‘a, ey Mashrab,
Tanimda jon boricha intizor yig‘larman,

* * *

Ishqing o‘tig‘a o‘rtab har dam chu kuyay derman,
Ul sham’i jamolingga parvona bo‘lay derman.

Mujgoning o‘qin otib, qonimni to‘kar bo‘lsang,
Qonim bila, ey jono, olamni bo‘yay derman.

Yuzing bilan qoshingdin o‘zgacha nazar solsam,
Xanjar olibon qo‘lga ko‘zumni o‘yay derman.

Rahm aylasa gar dilbar ham ochsa niqobini,
Men xastasiman, do‘stlar, to‘yguncha ko‘ray derman.

Man dashti muhabbatda tashna bo‘lubon yurdum,
Sun vasl sharobidin, ey soqiy, to‘yay derman.

Mashrab sani deb, dilbar, kechti ikki olamdin,
Rahm aylagil, ey jono, vaslingga yetay derman.

* * *

Ul dilbari ra'noni man yor tutay derman.
May bersa agar ondin bir qatra totay derman.

Jannat bilan Rizvonin ham hur ila g'ilmonin,
Balki obi hayvonin bir pulga sotay derman.

Olam hama laylidur tun qoshi qarosidek,
Boqib yuziga, oydek raxshona ketay derman.

Ishq yo'lida ul zohid oshiqqa qilur ta'na,
Bir o'q bilan man oni ondin yo'qatay derman.

Hu desam, analhaq deb, olam borisi Haq der,
Mansur kabi boshimni dor uzra tutay derman.

Do'zax o'ti suv bo'lg'ay ishqing o'tidin, Mashrab,
Ishqing o'tidin tashlab oni qurutay derman.

* * *

Dargohinga bir ojizi afgor kelibman.
Arzi dilimi aytgali chun zor kelibman.

Yo‘qdur mani ilkimda sanga tuhfayi loyiq,
Juz zilli gunah, el ichida xor kelibman.

Rad qilma, qabul aylaki, sharmandalig‘imdin,
Rasvoyi jahon, ko‘cha-vu bozor kelibman.

Bozori jahon ichra kelib shahri adamdin,
Jon naqdi bilan sanga xaridor kelibman.

Lutf birla karam aylavu dardimg‘a davo qil,
Darmon tilabon man sanga bemor kelibman.

Zoriyi tavallo qiladur Mashrabi miskin,
Och pardanikim tolibi diydor kelibman.

* * *

Bul musofir shahrida har dam tutoshib yonaman,
Har qayon borsam bukun yo‘ldan adoshib boraman.

Na otam bor, na onam bor — hech kishim yo‘qdur maning,
Har tagi devorlarga zor-u sargardonaman.

Ne gunoh qildim, Xudo, dunyoda man bo‘ldum g‘arib,
Har qayerda bekas-u bechoraga hamxonaman.

Dog‘lar qo‘ydi yurakka bu falakni gardishi,
Qismatim andog‘ ekan, man jumladin begonaman.

Bul yaqomni chok etib, faryod-u afg‘on aylaram,
Barchani bag‘ri butun-u man dili sadporaman.

Endi, Mashrab, qul ekansan, qismating buldur saning,
Shukrilillah, hamma yerda men tolibi durdonaman.

* * *

Ko‘zum yo‘llarda qoldi, kelmadi dildor, naylarman?
Bo‘lubman muntazir, ko‘rguzmadi diydor, naylarman?

Ul oyning itlari qilsa sado, jonim umid aylar,
Qaro baxtim emastur uyqudin bedor, naylarman?

Saney beishqlar bazmida behimmatlar as’hobing,
Mani miskin eshiking oldida chun zor, naylarman?

Samovoti falakka ra’di ohimni ravon qilsam,
Haroratdin kul o‘lg‘ay gumbadi davvor, naylarman?

Bu kecha kelmasa, tong-la tirik yurmak ne imkondur,
Manga motam tutub yig‘lar dar-u devor, naylarman?

Namozi shomdin to subh yo‘lungga men boqib qoldim,
To‘la hasrat bo‘lub turdum, dili afgor, naylarman?

Alam bir rang-u hasrat o‘zga, dog‘i hajr bir boshqa,
Bu Mashrab bir sari tanho g‘ami bisyor, naylarman?

* * *

Tinmayin yurdum bu g‘am dashtida hayronlik bilan,
Oxir umrum o‘tti, sad afsus, nodonlik bilan.

Bir guli shodim ochilmay baxt gulistoni aro,
Hayf, umrum oqibat o‘tti parishonlik bilan.

Baski ilmi hol-u qolning yo‘lida qilsang amal,
Ushbu mullolar bari buxl-u havodorlik bilan.

Necha mullo ilm o‘qub, rohi shayotinni topib,
Chun ribo-vu rishvani yerlar xushdorlik bilan.

Rost so‘z aytsang alarga zarra qilmaslar qabul,
“Kufr aytting!” deb urarlar necha ozorlik bilan.

Mashrabo, har bir so‘zungdur gavhari qimmatbaho,
Aytma bul so‘zlarni har nokasga nodonlik bilan.

* * *

Ming taloq etgan bu dunyoni qalandar mastman,
Sar basahro bosh urib Majnuni besar mastman.

Daftar ochmang Ro'zi Mahsharda mani mast oldida,
So'rma ahvolimni hargiz, ey birodar, mastman.

Tashnaman, bexudlug'umdin du jahong'a sig'madim,
Chunki kim uyg'otsa ko'rsun Ro'zi Mahshar mastman.

Mujdayi Ro'zi Jazoda xalq shaqoat izlasa,
Charx urarman oh urub peshi Payambar mastman.

Mastligim Ro'zi azaldindur haqiqat shahrida,
Ishkami modarga kelgan, manki modar mastman.

Davlati uqbo agar bilsang maning dastimdadur,
Sad hazoron ursalar boshimg'a xanjar mastman.

Jannat ul-Firdavsini hargiz nazarga ilmadim,
Mashrabi vaqtman, ki man bahavzi kavsar mastman.

* * *

Jilva qilursan ming noz birlan,
Faryod etarman ovoz birlan.

Zulmingdin o‘ldum, zolim sifatlig‘,
Rahm aylamaysan e’zoz birlan.

Kofir qiliqlik ko‘nglumni olding,
Jon qushi uchdi parvoz birlan.

Guldek egilib kirsang eshikdin.
Devona qilding yuz noz birlan.

Mashrab g‘aribing kuydi g‘amingdin.
Nola qilibdur qish-yoz birlan.

* * *

Bu olamda o‘zumdek siynasi afgor topmasman,
Ki, rozim aytg‘ali bir mahrami asror topmasman.

Firoqing dashtida izlab mudomo zori sargardon,
Labing zilolidin paymonayi sarshor topmasman.

G‘ami ishqing mani oxir yurokim ayladi sad chok,
Visoling zavqini bir lahzaye, bir bor topmasman.

Tamomiy rozi dilimni demakka izladim mahram,
Bu sahroyi Xo‘tan kezib dili xushyor topmasman.

Biyobon bulbulidek, Mashrabo, hech yo‘qtur oromim,
Qo‘nay desam chamanda bir guli bexor topmasman.

* * *

Ey sanami pariliqo, jilvagari jahonmusan?
Obi hayot — lablaring, dilbari xush zabonmusan?

Oyinayi jamolinga onchaki intizor edim,
Bir kuni demading manga: "Oshiqi notavonmusan?"

Har kishi sanga bir boqar, suv bo'lubon erib oqar,
Yuzlaring olma, dilyoqar, g'unchayi arg'uvonmusan?

Vaslinga yuz imo qilib, va'dani doimo qilib,
Oxirida jafo qilib, kuydirg'uchi imonmusan?

Ey, so'zlaring bilan saning, xasta ko'ngul farah topar,
Lazzati jon, ey pari, san mevayi bo'stonmusan?

Mashrabing jon fido qilur, kunda tavofi ko'yunga,
So'rmading, ey sitamgarim: "Rangi sarig' samonmusan?"

* * *

O‘lduroyin dermusan yo kuyduroyin dermusan?
Boshima yuz ming balolar kelturoyin dermusan?

Ko‘zlaring jallod etib, mujgonlaring bedod etib,
Kashmiri til birla holimni so‘royin dermusan?

Yuz tuman bog‘i jahon yuzini bir-bir ko‘rsatib,
Ka’bayi ko‘yingga oxir borduroyin dermusan?

Osmondin yerga tashlab, xalq aro rasvo qilib,
Qush kabi bol-u parimni yulduroyin dermusan?

Shohbozi lomakon ko‘ngul qushini ovlabon,
Tabl urub, dolboy qoqibon qo‘nduroyin dermusan?

Man shahidi ishqman, o‘lsam kafang‘a chulg‘amang,
Ul qizil qon birla qo‘ynum to‘lduroyin dermusan?

Mansuri Xallojdek ichib sharobi antahur,
Sudratib dor ostiga olib boroyin dermusan?

Ishq aro dard-u balolarniki solding boshima,
Mashrabingni ishq o‘tida kuyduroyin dermusan?

* * *

Intizoringdin chiqodur jonim, ey jon, qaydasan?
Rahm qil ahvolimi qilg‘on parishon, qaydasan?

Furqatingdin xasta bo‘ldum, tanda toqat qolmadi.
Jon g‘amingda yetti labga, dardga darmon, qaydasan?

Demadingmu, san yoringdin kech bu dam, suyg‘il mani,
Shart-u ahdini unutg‘on ahdi yolg‘on, qaydasan?

Man Zulayxodek fano bo‘ldum firoqing o‘tida
San farog‘at xotiri Yusufi Kan’on, qaydasan?

Mashrabing topqaymu izlab shahr-u sahroni kezib,
Yuzi to‘lg‘on oy kabi, ey ko‘zi cho‘lpon qaydasan?

* * *

Ey maning nozik nihol oromi jonim, qaydasan?
Bu ko‘ngul bo‘stonida g‘uncha dahonim, haydasan?

Necha yillar bul ko‘ngul mushtoq erur diydoringa,
O‘rgulay, ey dilbari shirin zabonim, qaydasan?

Ayrilib man yordin bir necha kun bo‘ldum judo,
Axtarib keldim sani, sarvi ravonim, qaydasan?

Hol-u zorim ko‘p yomondur, kelmasang bir yo‘l so‘rab,
Ey maning xush mehribon—yori jonim, qaydasan?

Ko‘zlarim giryon bo‘lub qoldim bu g‘am sahrosida,
Hasratingda chiqti bul oh-u fig‘onim, qaydasan?

Tashnalabdur Mashrabing, bo‘ldi yurak-bag‘ri kabob,
Furqatingda chashmayi obi ravonim, qaydasan?

* * *

May qatrasidin totg‘ali mastona qilibsan,
Rasvoyi sari ko‘cha-vu butxona qilibsan.

Ul sham’i jamolingg‘a, ayo mohi dilafro‘z,
Yuz ming manidek bandani parvona qilibsan.

Emdi mani savdozadag‘a Ka’ba na darkor?
Tarso-vu juhudlar bila hamxona qilibsan.

Zulfung torig‘a bandayi bechoralar hayron,
Jonona, sari zulfung agar shona qilibsan.

Bir jilvayi husnung bilan chun barqi tajalliy,
Bul Mashrabi bechorani devona qilibsan.

* * *

Bo‘lmasam Majnun, biyobondin nechuk aylay suxan?
Chashma bo‘lsam manki, ummondin nechuk aylay suxan?

Yetganim yo‘q rang-barang olamni bo‘yi ma’niga,
Bir gadodurmanki, sultondin nechuk aylab suxan?

Sad hazoron ilm o‘qub man bir alifga lolman,
Bilmasam tafsiri Qur’ondin nechuk aylay suxan?

Hazrati Nuh kettilar, man ayrilib qoldim darig‘,
Kishti ko‘rmabmanki, to‘fondin nechuk aylay suxan?

Hazrati Odam sotibdur Jannat ul-firdavsni,
Chun yetar bir dona, Rizvondin nechuk aylay suxan?

Himmatim bor erdi, zaxmat bosti, nobud ayladi,
Mo‘r bo‘lmabman, Sulaymondin nechuk aylay suxan?

Kimki kishti darmahal qildi ko‘kardi hosili,
Ekkanim yo‘q dona, borondin nechuk aylay suxan?

Mashrabo, sohibtalablarga gapur dil dardini,
O‘zgalarg‘a ashki mujgondin nechuk aylay suxan?

* * *

Yo‘q parilar ichra, jonon, san kabi shirindahan,
Ko‘zlaring — jallodvash, kifriklaring — tiri kaman.

Bir qadingdek sarv hech bo‘ston ichinda butmag‘ay,
Gul’uzoring gulga o‘xsharmu va yo barg-u suman?

Kimni ko‘rsa oquzodur qonini daryo qilib,
Qaysi jallod bo‘lg‘usi qoshing kabi shamshirzan?

G‘unchayi la’lingga tashbeh aylasa ermas adab,
Haddi ermas sadqanga la’li Badaxshon-u Yaman.

Otashi la’ling ichidin obi hayvon xush yetar,
Huqqayi yoqut ichinda tishlaring durri Adan.

Sunbul o‘lg‘ay zeripo yo za’faron yo udkim,
Barchani abtar qilur ul sunbuli anbarshikan.

Pirahan rashki o‘ti jonimdadur, Tangri uchun,
Jism-u jonim san bilan bo‘lg‘ay qachon, ey siymtan?

Bog‘i ishratda yo‘q ersang — bir tikondur ko‘zga gul,
Gar xayoling o‘lmasa ko‘nglum erur bayt ul-hazan.

Mehr-u moh-u la’l-u gulni ko‘rmasam, ul yuzunga,
Xilvati bo‘lsa, bo‘lub parvona boqsam jon-u tan.

Donayi xoli labing o‘tlug‘ yuzungda, ey pari,
Otashin jismim aro ko‘nglumdadur mushki Xo‘tan.

Rahm qil Mashrab qulunga, xasta-yu zoring saning,
Davlating poyanda qilsun ul Xudoyi zulminan.

* * *

Ming analhaq keladur Mansur osilg‘on dordin,
Har zamon labbayka deb kelgay nido Jabbordin.

Olimi guftor bo‘lma, fozili kirdor bo‘l,
Bandalarni Haq so‘rar Mahshar kuni kirdordin.

Barcha xalq savdosini qildiki, san qolding bu dam,
Kimki kamxarji erur xushk qaytar ul bozordin.

Mori zohir sahl erur nafs ajdahosi oldida,
Mashrabo, qo‘rqmasmusan, ko‘nglungda nafsi mordin.

* * *

Azaldin to abad ko‘nglum qutulmas ishq balosidin,
Yurokim raxnalar bo‘ldi bu ishqning mojarosidin.

Xayolimda saning vasling topolmasman, mani hayron,
Magar vaslingga yetsam piri komilning duosidin.

Eshit arzimni, ey dilbar, yurak-bag‘rim kabob o‘ldi,
Raqiblar shodmon bo‘ldi nigorimning jafosidin.

Sanam, sansiz bu dunyoda tiriklik qilmog‘im mushkul,
Kel, ey ko‘ngul, kecholi bul tiriklikning baqosidin.

Sanam, ishqing o‘ti oxir mani bexonumon etti,
Kuyarman dam-badam tinmay bu dardi bedavosidin.

Xarob o‘ldi maning ko‘nglum, kishim yo‘qturki roz aytsam,
So‘ngaklar raxnalar bo‘ldi dilimning oh-u vosidin.

Sani ishqing bilan yig‘lab, agar mahsharda oh ursam,
Kuyarlar mo‘min-u kofir bu Mashrabning navosidin.

* * *

Ey gul badanim, gul yuzunga banda bo‘loyin,
Qurboni shakar lablari purxanda bo‘loyin,

Ruxsori gulungdin san agar parda ko‘tarsang,
Ko‘nglum ochilib bulbuli nolanda bo‘loyin.

Mastona ko‘zung nogah agar yodima tushsa,
Hu-hu qushidek kechalar go‘yanda bo‘loyin.

Kuydurdi mani bir boqishing, dilbari ra’no,
Hayrat bila man oshiqi sharmanda bo‘loyin.

Pardangni olib man sari gar birgina boqsang,
Ul dam mani motamzada dar xanda bo‘loyin.

Bul Mashrabi bechoraga har kez nazar etsang,
Man bandayi ul nargisi purxanda bo‘loyin.

* * *

Yig‘lasam vaqti duo bo‘lg‘aymukin?
Ko‘z yoshim dardga davo bo‘lg‘aymukin?

Bodayi ishq-u muhabbatdin ichib,
Shavkati dunyo judo bo‘lg‘aymukin?

Yig‘lamoqdin o‘zga imkon qolmadi,
Yordin manga nido bo‘lg‘aymukin?

Qaysi bir dardimni aytay, do‘stlar,
O‘lmayin dardim ado bo‘lg‘aymukin?

Mashrabo, kuydurdi yor, holim xarob,
Arz etarg‘a dodxo bo‘lg‘aymukin?

* * *

Dod aylab yorning ko‘yida yurg‘an bormukin?
Tun saharlarda dili rozini so‘rg‘an bormukin?

Man g‘arib hayron bo‘lub qoldim biyobonlar aro,
Jon chiqar holatda ham yorin suyg‘on bormukin?

Zarrayi ko‘nglum o‘ti chiqsa jahonni kuydirur,
Dargahig‘a bosh qo‘yub, diydor ko‘rg‘an bormukin?

Ul qiyomat dashtida har kim yurur o‘z dardida,
Dod etarman ul zamon arzimni so‘rg‘an bormukin?

May ichib Mashrab azaldin, mast ketti oqibat,
Jonni bermasdin burun, jonong‘a yetg‘an bormukin?

* * *

Yorning ko‘yida o‘lg‘an bormukin?
Bir o‘lub, qayta tirilg‘an bormukin?

Yorning vaslini izlab, charx urub,
Termulub yo‘llarda qolg‘an bormukin?

Qatl qilmoqg‘a hukm etg‘onida,
Yolborib bo‘ynini sung‘an bormukin?

Shohbozi lomakon — sultoni ishq,
Tabl urub dolboyg‘a qo‘ng‘an bormukin?

Necha yil Ofoq Xojam xizmatida,
Shul Xo‘tan dashtida yurg‘an bormukin?

Man kabi tarso-vu rasvolar bo‘lub,
Bo‘ynig‘a zunnor solg‘an bormukin?

Tong-la Mahsharda yig‘ilsa jumla xalq,
Oh urub Mahsharni buzg‘an bormukin?

Kecha-kunduz zor birlan yig‘labon,
Ko‘z yoshi Jayhuncha oqg‘an bormukin?

Dod etar Mashrab Xo‘tan sahrosida,
Bir zamon dodig‘a yetg‘an bormukin?

* * *

Majnun o‘la kezdim necha yil dasht-u biyobon,
Laylini so‘rog‘lab yurudum besar-u samon.

Bul arzi dilimni eshitub, rahm ayla, nigorim,
Vaslingni tilab kimki maningdek sanga hayron?

Yuz jonim agar bo‘lsa saning yo‘lungga ehson,
Xushtur bu gadolig‘, na qilay taxti Sulaymon?

Mast aylag‘ali bul mani — bechora g‘aribni,
Bir g‘amza qilib o‘tti qoshimdin mani jonon.

Husnung sifatini o‘qubon piri mug‘onlar,
Devona bo‘lub belni bukub bo‘ldilar uryon.

Ishqing o‘tidin bul yurakim o‘rtanadi, oh,
Oxir bu tanim bo‘lg‘usi ishq o‘tida biryon.

Hajring g‘amidin boshima yuz javr-u jafodur,
Vaslingga yetay deb kezadurman ko‘zi giryon,

Rahm aylag‘il-u mahrami asror eta ko‘rgil,
San har ne desang man qilayin, banda — bafarmon,

Bechora quling sanga deyur arzi dilini,
Bergil talabimni manga, ey Xoliqi inson.

Soqiyi azaldin mayi bir jur’a totubman,
Basdur manga bul, oning uchun, nash’ayi davron.

Ey dilbari jonon, sani deb xasta bu Mashrab,
Tushti ani boshig‘a bukun mehnati hijron.

* * *

Qonimni to‘kar ermish Balx shahrida Mahmudxon,
Taqdiri azal bo‘lsa, naylay, anga bermay jon?

Ming shukr xudoyimg‘a Mansurg‘a qo‘shuldum man,
Ul ro‘yi siyahlarkim Mansurni o‘ldurg‘on.

Bul ishq yo‘liga kirgan, albatta kechar jondan,
Kechmasa agar jondan, aytgan so‘zidur yolg‘on.

Shirin g‘amida Farhod, tog‘larda etib faryod,
Ishq o‘tida o‘rtanib oxir chu fano bo‘lg‘on.

Ul oshiqi Majnun ham Layliga bo‘lub shaydo,
Cho‘llarda vatan aylab ko‘z yoshi ravon o‘lg‘on.

Ul zori Zulayxo ham Yusufga bo‘lub shaydo,
Ko‘rdungmu xaloyiqg‘a rasvoyi jahon bo‘lg‘on.

Ko‘r Tohir-u Zuhroni xalq ichra bo‘lub mashhur,
Ko‘nglini berib yorg‘a ishqin yo‘lida o‘lg‘on.

Ishq o‘tida o‘rtangan ul Vomiq-u Uzro ham,
Mahshar kuni bo‘lg‘anda Jannatda qilur javlon.

Ko‘r oshiq eranlarni, ey Mashrabi devona,
Kelganda ajal jomi joni bila sipqorg‘on.

* * *

Bir karomat aylag‘il, bedast-u bepoman bukun,
Umrum o‘tti, vo darig‘o, ko‘r-u gumroman bukun.

Yo‘l xatar, manzil yiroq, bezodlig‘, o‘tti umr,
Gohi orif, gohi mo‘min, gohi tarsoman bukun.

Hech bilolmasman o‘zumni qaysi millat xalqiman,
Gohi vosil, gohida mahrumi dargohman bukun.

Mashrabo, inshoyi dil ko‘pdur, qani umri daroz?
Xalq ayturlarki, man mashg‘uli savdoman bukun.

* * *

Zulfining savdosidin ko‘nglum parishondur bukun,
Yor vaslin ko‘rmayin yer birlan yaksondur bukun.

Xalq aro gar shodlig‘lar bor emish, man ko‘rmadim,
Har kishi yuz g‘am bilan choki giribondur bukun.

Gar manga qilsa nazar xurshed derman otini,
Garchi andin bir ko‘runsa mohi tobondur bukun.

Bandidin Farhod qochti g‘am tog‘ida berkinib,
Xasta Majnun ham kezib cho‘llarda sarsondur bukun.

Gar muhabbat birla qilsa bir nazar ul sarvinoz,
Jannat ul-rizvon bo‘lur bul kulba ehzondur bukun.

Itlarig‘a hamdam etti Mashrabi bechorani,
Olloh-olloh, ne ajab lutf-u ehsondur bukun.

* * *

Ishq sargardonidurman, yo‘q manda sabr-u sukun
Toleyim bo‘ldi mani ro‘zi azaldin vojgun.

Bir buzug‘ ovvora ko‘nglumg‘a topalmam mahrame,
Toki singan shishani qaytib qilib bo‘lmas butun.

Dildagi naqdimni man yo‘lungga barbod ayladim,
Ne mashaqqatlarni torttim san guli ra’no uchun.

Dushmani g‘addor dunyo qildi holimni xarob,
Hech mo‘min misli man rasvoyi olam bo‘lmasun.

Do‘stlar holimg‘a yig‘lar, dushmanim ko‘rsa kular,
Dard ko‘p, hamdard yo‘q, dushman qaviy, tole’ zabun.

Yuz jafo boshimg‘a ortturdi, vafoni ko‘rmadim,
Oxiri bori malomat qomatimni qildi nun.

Kecha-kunduz tinmayin ko‘p iztiroblar ayladim,
Rohatim dildin kamaydi, mehnatim bo‘ldi fuzun.

G‘am ko‘zum termulturub qo‘ydi biyobonlar aro,
Qonli yoshim qildi sahrolarni rangin lolagun.

Haq yo‘lini topg‘an hama dunyoni tarkin qildilar,
Qo‘p, sanam tark aylag‘il, ey Mashrabi sohibjunun.

* * *

Bu ishq bozorida har lahza sardaftar bo‘lay derman,
Egam dargohida man mundin ham behtar bo‘lay derman.

Qaysi bir ne’matlaringning shukrini bajo qilay,
Maqomi ko‘hi Tur uzra Muso akbar bo‘lay derman.

O‘shandog‘ piri Kan’onni nafasda begunoh qildi,
Tamomiy piri murshidga o‘zum rahbar bo‘lay derman.

Ki “subhon al-laziy isro”si bul ko‘nglumga jo erdi,
Xudoning do‘sti — payg‘ambardin ham behtar bo‘lay derman.

Kel emdi, tavba qilg‘il, Mashrabo, bul guftugo‘yingdin,
Agarchi osidurman, emdi man sarvar bo‘lay derman.

* * *

Xojalig‘ oson erur, mardi Xudo bo‘lmoq qiyin,
Haq Taoloning o‘zig‘a oshno bo‘lmoq qiyin.

Pirga qo‘l berdim dema, kel, san dilingni sof qil,
Mahzi zohir surat ila begunoh bo‘lmoq qiyin.

Soch-soqoling oqarib, chun eshakning yolidek,
Emdi pirlig‘ keldi mundog‘, podsho bo‘lmoq qiyin.

Ba’zilar mo‘min bo‘lib ummatlig‘ lofini urar,
Lek masti borgohi Mustafo bo‘lmoq qiyin.

Tashla misvok-u fash-u dastorini, Mashrab, bukun,
Dilda darding bo‘lmasa yodi Xudo bo‘lmoq qiyin.

* * *

Hech tuzalmas, bilki, dardi bedavog‘a uchragan,
Beh-u bunyodi qilur qahri Xudog‘a uchragan.

Dil siyoh dunyog‘a hargiz kelmasun, ey jam’iyat,
Qirqar iymonini tiyg‘i avliyog‘a uchragan.

Xizmati komil Sirotdin ham qiyindur, bil muni,
Bir yiqilgan zud qo‘polmas pushti pog‘a uchragan.

Har tuxum bo‘lsa palag‘da jo‘ja andin chiqmag‘ay,
Chun Azozil qavmida qo‘pg‘ay xatog‘a uchragan.

Qo‘rqaman iymon qo‘lingdin ketmasun, ey Mashrabo,
G‘ayriga lab yormag‘ay ul kimiyog‘a uchragan.

* * *

Rahravonlar kettilar, man munda tanho boraman,
Ruhi jumla anbiyoga mag'firatpaxoh boraman.

Ko'p gunoh qildim, yurubman payravi nafsi havo,
Bir Xudodin qo'rqushumdan Ka'batulloh boraman.

Yaxshilar birlan yurub, man nega toat qilmadim,
Naylayin foniy jahondin dasti ko'toh boraman.

Oftobi du jahondin bahra olmay zarraye,
Bu Lahabdek xushk lab az peshi daryo boraman.

Tashnalik odat qilib ol ul Nabiy avlodidin,
Man umed birlan Sharoban antahuro boraman.

Tiyg'i uzlat birla Fir'avn farqini barbod etib,
"Rabbiarni" deb Musodek Turi Sino boraman.

Obro'yi du jahon yaxshi amaldur, Mashrabo,
Man hamon dasti tihiy oxiri dunyo boraman.

* * *

Hojatim bor noravo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?
Dilda dardim bedavo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Bul sababdin dod etarman Xoliqim dargohig‘a,
Yetmasa dodimg‘a Shoh, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Zulmati motamda qoldim bul xatarlik yo‘l aro,
Bekas-u, berahnamo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Vasvas aylabdur la’in Ofoq Xo‘jam mahbubini,
Qilmasam andin judo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Toshkand borib man Azozil birla qilg‘um man masof,
Bermasa yore Xudo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Man duoyi xayr qildim, rahbarim amr ettilar,
Qilmasa Haq mustajob, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Yetmish yillik toat-u xayr-u saxovatlar bilan,
Ketsa mundin ro‘siyo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

Gar umed birlan kelib, ketsa bu Mashrab noumed,
Bo‘lmasa mushkulkusho, man yig‘lamay kim yig‘lasun?

* * *

Ming bashorat tinglagil san mardi sohib kordin,
To xabar topqay diling ul Ahmadi muxtordin.

Ma'nidon xalqlar bilur oyina dilning qadrini,
Dilni bir qilmoq kerak bul diydayi diydordin.

Kunda Haq chorlaydi: ey uftoda bandam munda kel,
Ming bashorat anglag'il oyinayi Jabbordin.

To tirikman yodi ul Mahbubga man foniy bo'lay,
Zikri Haqni dilga olg'an qolmag'ay takrordin.

Kim inoyoti azaldin bir bashorat bo'lmasa,
Man nechuk aylay talab bekor ul jo'ybordin.

Ruhi qobil xalqni ko'rsang dilingdin daftar och,
Bexabarga zarrayi ko'rsatmagil asrordin.

Dargahi Xoliqni, Mashrab, gardini diydangga surt,
Yaxshilik doim talab qilmoq kerak Jabbordin.

* * *

Jonim onam, yig‘lama, bechora onam, qol bukun,
Abri nayson ko‘zlaring, durdona onam, qol bukun.

Chun duoyi xayr etgil, farah bunyod etib,
Ojiz-u bechoraga hamxona, onam, qol bukun.

Xizmati shoista hargiz bo‘lmadi mandin sanga,
Buyrug‘i Jabboridur, mardona onam, qol bukun.

Jon chekib san bir necha farzand kamolin aylading,
Ko‘rmading zarra vafo, giryon onam, qol bukun.

Xalqayi soldi junun bo‘ynumg‘a har yon sudrabon,
Ixtiyorim vojgun, mastona onam, qol bukun.

Kuydi jon-u ustuxonim, koshki kul bo‘lg‘ay edi,
Sham’i dog‘i bo‘ldum-u parvona onam, qol bukun.

Mashrabi bechora pirning xizmatiga oldi yo‘l,
Ka’bam-u qiblam maning, g‘amxona onam, qol bukun.

* * *

Do‘stlarim, man norasolarni raso qildim bu kun,
Muncha bejolarni ko‘rdum, jobajo qildim bu kun.

Surayi Yosin etib xatm, bir Xudo deb yig‘ladim,
Boshimi sajdaga qo‘yub ko‘p duo qildim bu kun.

Arsh-u Kursi, Lavh, Qalamni sayr etib oldim javob,
Man Muhammadni suyub do‘sti Xudo qildim bu kun.

Har kasi nokas bilan o‘zumni man teng etmadim,
Ko‘ngli sevgan bandalarga rahnamo qildim bu kun.

So‘filar mag‘rur erurlar toat-u taqvosiga,
Kimki manga ta’na qildi, ro‘siyo qildim bu kun.

Shohi Ibrohimi Adhamni tushurdim taxtidin,
Yodi Haqni ko‘ngliga soldim, gado qildim bu kun.

Chun Azozildek kishilar o‘zni rasvo ayladi,
Tavqi la’natni aning bo‘yniga jo qildim bu kun.

Har kishi ixlos ila devonani mahkam tutar,
Qo‘l ochib haqqiga oning ko‘p duo qildim bu kun.

Lof urar bo‘lsang bu yo‘lg‘a kirmamag‘il, ey Mashrabo,
Necha yillik beimonni boimon qildim bu kun.

184

Ey kasal, boshingni ur, yoningda Luqmon ketmasun,
Hech kim mandek bu kun choki giribon ketmasun.

Onqadar zikriga moyil bo‘l, agar chin bandasan,
Xonayi ko‘ngulni tang tutma, bu mehmon ketmasun.

Marg osondur bu yo‘lda, bandalik qilmoq qiyin,
Ketsa jon ketsun, vale mo‘mindin iymon ketmasun.

Yo‘lda qolsa, ko‘za sinsa arzaniga arzimas,
Hech kimni ko‘zasi dar zaxmi xumdon ketmasun.

Bandaning aybini kim qildi, Xudo qahr aylagay,
Hech kishi dunyodin ammo g‘arqi isyon ketmasun.

Avvali mo‘min kelib, bir lak muridg‘a qo‘l berib,
Oxiri chu Barsiso hamrohi Shayton ketmasun.

Barcha ish oson erur, Mashrabki, mo‘minlik qiyin,
Beimon hech kim bu dunyodin go‘riston ketmasun.

* * *

Botini sho‘ridalarni kimiyo qil, ey Xudo,
Ko‘zda yoshini duri qimmatbaho qil, ey Xudo.

Himmate bergilki, chun yodingni man doim qilay,
Yo‘l adashgan bandalarni oshno qil, ey Xudo.

San o‘zung bandam debon boqg‘il karam, lutf aylabon,
Nafsi sarkashdin bu bandangni judo qil, ey Xudo.

Bosh ko‘tarmas hujrayi torik — lahaddin ul zamon
Bandalarni hamrahi ul Mustafo qil, ey Xudo,

Mashrabi sho‘rida keldi bosh urub dargohinga,
Yo‘lda qog‘on bandalarni avliyo qil, ey Xudo,

* * *

Ey falak, qilding mani ul mehribonimdin judo,
Bulbuli sho‘rida yanglig‘ gulsitonimdin judo.

Naylayin, qilding mani oxir g‘arib-u benavo,
Mubtaloyi g‘am qilib ko‘ksumda jonimdin judo.

Qumri yanglig‘ bandalik tavqini bo‘ynumg‘a solib,
Termulub hayron edim sarvi ravonimdin judo.

Oh urub qon yig‘lasam, ayb aylamang, ey do‘stlar,
Men bo‘lubman, to‘tiyi shirin zabonimdin judo.

Ko‘h ba ko‘h, sahro ba sahro, Mashrabo, yurmoq nadur,
Chug‘zi bevayronadurman oshyonimdin judo.

* * *

Bulbul erdim qildi g‘am oxir gulistondin judo,
Har so‘ motam birla ko‘rdum shakkaristondin judo.

Siyna chok ettim, maning aybimni qilmang, do‘stlar,
Qildi Ya’qubni falak Xurshidi Kan’ondin judo.

Necha savdolarni ko‘rdi bul maning g‘amlik sarim,
Bo‘lmadim bir soate zulfi parishondin judo.

Norasoning dastiga, yo Rab, bu gavhar tushmasun,
Qadr topmas ul nigin dasti Sulaymondin judo.

Shodmoniy izladim, boshimga g‘am keldi hama,
Bir zamone bo‘lmadim bul oh-u afg‘ondin judo.

Mashrabo, o‘lguncha, dargohida maqsuding budur,
Xotiringni qilmag‘il mundoq pushaymondin judo.

* * *

G‘amza qilib qoshima kel, sanga qilay jonni fido,
Kuydi yurak hajr o‘tida, oh, netayin, bo‘ldum ado.

O‘ldi bu Majnuning xarob, Layli, g‘amingda tinmadi,
To‘ldi yurakka hasrating, kuydi-vu bo‘ldi mubtalo.

Zohidi bahra olmog‘on izzat-u hurmatin tilar,
Toati xushki zuhdig‘a muncha qilib kibr-u havo?

Dod etadurman, ey sanam, bo‘lsa qiyomat ul kuni,
Hammaga marhamat etib, manga bu dardi bedavo.

Bodi xazoni bemahal umruma yetti, naylayin.
Tavba qilib uyalmadim sanga Xudoyi Kibriyo.

Mashrabi beqarori ishq topsa sani so‘rog‘lashib,
Qo‘ysa boshin bo‘sog‘aga hosil o‘lurmu muddao.

* * *

Xush qoling, man emdi ketdim, ey yoronlar, alvido!
Boshima tushdi g‘ariblik, orifonlar alvido!

Bo‘lmag‘ay erdi avalda koshki ayyomi ishq,
Dog‘i hijron o‘rtadi, ey nuktadonlar, alvido!

Keldi ayyomi bahor-u sabza bo‘ldi yer yuzi,
Etti paydo loladek dog‘i nihonlar, alvido!

Gar falak kuydursa mundog‘ necha kunlar aylanib,
Bul jahonda qolmag‘ay nom-u nishonlar, alvido!

Nuri diydam, quvvati jon-u dilimsiz, do‘stlarim,
Yig‘lamoqdin ko‘zlarimdin oqti qonlar, alvido!

Harna bo‘lsa Mashrabi bechoradin aylang bihil,
Xush kalomi bulbuli bog‘i jahonlar, alvido!

* * *

Ko‘nglum olurg‘a ul pari Majnuni shaydo qildilo,
Aql-u hushumni olib behudlug‘ paydo qildilo.

Mastlig‘, behudlig‘ har kimga tegmas, do‘stlar,
May muhabbat ichurib oshiq-u shaydo qildilo.

Kelsa ul nozik badan ming ishva birlan dam-badam,
Jonim olurg‘a dilbarim qosh birlan imo qildilo.

Dardmand o‘ldum yana nomehribonim ishqida,
Shevasini ko‘rsatib oshiqni rasvo qildilo.

Bormu jahonda man kabi ishq bilan harb aylagan,
Ahli dard xalqi kelib bir-bir tamosho qildilo.

Mashrabi Rindi, Umam, ko‘yinda jon bersam na g‘am,
Har gunohe o‘tsa mandin tavbayi oh qildilo.

* * *

Sahar so‘zimg‘a chirmashdimki, qilsam to raqam imlo,
Iki sajda qilib bir boshim ilan, chun qalam imlo.

Boshim birlan yo‘lungda aylanib har dam sujud ettim,
Qarodin bahramand aylab qalam aylar “Sanam” imlo.

Sujudi qoshlaring ishqinda ma’badlar bino qildim,
Gahi insho kaliso ayladim, gahi haram imlo.

Sujudi ishq birlan sharhdin iyhom etib dardim,
Haqiqat tog‘idin oltin quyub qildim diram imlo.

Quyoshlardin sariq bargi xazon sepdim ayog‘ingga,
Bihisht-u husni hurlardin qilib favqi hasham imlo.

Sharobi ma’rifat durdini Mahdiy ilgidin ichdim,
Ki g‘ayri oshnolig‘ nomasin qilmas Umam imlo.

* * *

Qilur Majnun biyobonda nadomat oh-u vovaylo,
Bu ishq bandig'a tushg'onlarni zikri doimo Laylo.

Eshitgach yetti Do'zax vahmidin ko'nglim qachon qo'rqar
Ki, oshiq chashmidin oqsa Do'zax bo'lg'usi daryo.

Ki, Do'zax yig'lab aytur: "Ol bu qulni ushbu hin, yo Rab —
Ki, bizda qolmadi toqat bul oshiq o'tidin aslo".

Kel, ey dilbar, bu holatda beray jonim olur bo'lsang,
G'azab birlan boshim chulg'ab qo'lumni darmahal bog'lo.

Kel, ey Mashrab, umid etgil, Xudoying loyazol ermish,
Inoyat bo'lsa Haqdinkim bo'lursan yor bilan tanho.

* * *

Ey sabo, mandin degil sarvi ravonimg‘a duo,
Gulshani vaslig‘a borsang, mehribonimg‘a duo.

Qomatim nundek bo‘lubtur dog‘i hijroni bila,
Kuydurub a’zoyi borim, dilsitonimg‘a duo.

G‘unchadek labdin takallum aylabon jonim olur,
So‘zlari durr-u guhar shirin zabonimg‘a duo.

Naqdi jonim xirmanin ishq ila toroj aylabon
Man — hazin yuz shukr etib ul rozdonimga duo.

Kor-u borim doimo g‘am birla, Mashrab, muttasil,
Mushkul ishlarni ochar davlatnishonimg‘a duo.

* * *

Ul sho‘xi parivash bilan gar boda ichayno,
Sarxush bo‘lubon shishayi sog‘arni chekayno.

Mahv o‘ldi ko‘ngulki anidek bahim o‘lmas,
Solg‘il nazaring mangaki, qurboning o‘layno.

Oluda bo‘lub bosh-oyog‘im jo‘shi gunahdin,
Rahm aylaki, vah, g‘azabingdin titirayno.

Pomoli chaman sabza sifat bo‘ldi vujudim,
Tashrifi qudumi qadaming fathi etiyno.

Mashrab, turushing misli nasimdur bu jahonda,
Bir damda kelib, sayr qilib, zud ketayno.

* * *

Oshiq barahman o‘lsa, sanam xonasi liqo,
Ma’shuq sham’ esa parvonasi liqo.

Bir dona yozuqni ul damki Odam ayladi,
Isyoni sabab do‘st yuzi xonasi liqo.

Dog‘i otash ruhum o‘rtadi bag‘rim nechuk tutay,
Nargisi may-u otashi paymonasi liqo.

Vah-vah qosh-u ko‘zlaridin mast-u nob o‘lay.
Boqmish yuzumg‘a dilbari jononasi liqo.

Zanjirlarin solib sanamim zulfuni o‘rub,
Bo‘ynumg‘a bog‘la, Mashrabi devonasi liqo.

* * *

Zihi rasvolig‘im olamg‘a soldi sho‘r-u shar tanho,
Nahangi Nuh falak daryosi bo‘ldi, alhazar, tanho.

Bihisht ayvoni-vu toq-u ravoqin orzu qilmay,
Nigorim birla man bir pirahanda, xalqi bar tanho.

Olurg‘a din-u dunyoning matohin orzu qilmay,
Qalandarman jahonni sayr etib qildim safar tanho.

Bari Rum-u Xito boj-u xirojin orzu qilmay,
Chu Simurg‘iki parvoz aylaram bebol-u par tanho.

Shahi ro‘yi zamin-u taxt-u tojin orzu qilmay,
Gadoyi faqr bo‘ldum, sayr etarman bahr-u bar tanho.

Dili tig‘i sitamdin pora bo‘lg‘on xalqni ko‘rdum,
Zulm tug‘yonidin har yon yururlar darbadar tanho.

Nazar to qutbi olam qilmag‘uncha begumon bilg‘il,
Nechuk olg‘ay javohir bahridin sohib nazar tanho.

Balo dashti agarchi purxatardur, yonmag‘il zinhor,
Qadam bul vodig‘a qo‘yg‘il bamisli sheri nar tanho.

Muhabbatdin nasimi subhi sodiq bo‘yi gul istar,
Qani bul bulbuli sho‘ridadin ohi sahar tanho?

Sani ko‘rguncha to, ey nozanin, Tangriga topshurdum,
Mani mundog‘ musofir ayladi davri qamar tanho.

Tilarsan, Mashrabo, jon kulbasinda suhbati ma’shuq,
Kishi mahram bo‘lolmas yorig‘a, bo‘lmas agar tanho.

* * *

Rahravonlar kettilar man qoldim hamrohdin judo,
Chun xaroba shahr o'lurkim odil ul shohdin judo.

Man tasadduqi o'shandog' oli himmatlar bo'lay,
Lahzaye ko'nglini qilsa mehri dunyodin judo.

Noumid bo'lsa muride piridin murtad ketar,
Besamar bo'lg'ay daraxtkim bo'lsa daryodin judo.

Kimyodur ishq, anqodur topib bo'lmas ani,
Kimga tushdi, bo'ldi ul dunyoyi uqbodin judo.

Man o'shal tifliki ming karra sargardoniman,
Hech shogird bo'lmasun bir lahza ustodin judo.

Har qadam qo'ysang o'zungni san Sirot ustida bil,
Qilma dilni soate astag'furillodin judo.

Zulmat afzun bo'lsa gar shamsi jahondin nur ketar,
Diyda qayda, qilsa chun bul misli tillodin judo.

Mashrabo, pir izlagil, andin murodi dil tila,
Bo'lmagil san bir dame oxirgi savdodin judo.

* * *

Ayyuhas-sultoni olam, podshohim, marhabo,
Hazratim, Ollohu akbar, kaj kulohim, marhabo.

Bo'lmag'ay bechoraning ham sandin o'zga chorasi,
Mehribon, Tangrim, Egam, pushti panohim, marhabo.

Qulhu vallohu Ahad otingni ruhum tinglagay,
Duvvum Ollohus-samad Sansan Ilohim, marhabo.

Dog'i hasrat o'rtadi Mashrabni har dam — soati,
Sham'i — San, parvona — man, ey mehribonim, marhabo.

* * *

Agar oshiqlig‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o‘rtar.

Kishiga ishq o‘tidin zarrayi tushsa bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri hamon o‘rtar.

Nechuk toqat qilay, do‘stlar, bu dard birlan bo‘lub hayron,
G‘amim boshqa, alam boshqa, yurakimni nihon o‘rtar.

Mani bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,
“Nigoro!” deb oting aytsam ki, shavqingdin zabon o‘rtar.

Qay-u til birla, ey jono, saning vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni chunon o‘rtar.

Na qattiq kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo‘lmoq,
Maning ohim o‘tig‘a bul zamin-u osmon o‘rtar.

Yurakda dard-u g‘am qat-qat, ki manda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam ishqi bayon o‘rtar.

Bu dard birlan xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmaysan,
Unum chiqsa yurakdin bul tan-u jon, ustixon o‘rtar.

Bu Mashrab dardini, yo Rab, hech kim boshig‘a solma,
Agar Mahsharda oh ursam, Bihishti jovidon o‘rtar.

* * *

Zohid, mani ayb etma, gul yuz-u dudog‘ o‘rtar,
Parvonani ko‘rdungmu, har kecha charog‘ o‘rtar.

Nargiz ko‘zi bir damda jonimni xarob aylar,
La’li labi mayguni dog‘ ustida dog‘ o‘rtar.

Zohid kabi bo‘lg‘onlar, ishq o‘tini ko‘rg‘onlar,
Bul o‘t sori borg‘onda bir damda yirog‘ o‘rtar.

Dilxasta bu Mashrabni har kecha-vu har kunduz,
Goh o‘tli nigoh o‘rtar, goh so‘zi firoq o‘rtar.

* * *

Bir junune manda bor yuz mahsharistonni buzar,
Ul hadis, oyat so‘z munkiri Qur’onni buzar.

Garchi yuz ming g‘ul-u dod ishq langari bo‘lg‘aymu deb,
Barqi maston xez-xezi xayli osmonni buzar.

Kuydirur oshiqning ohi Do‘zax-u haft iqliming,
Bul samandar axgari Lavh-u Qalam — osmonni buzar.

Yordin manga salome ham payom bo‘lg‘aymu deb,
Lashkari fayzi sahar vasvosi Shaytonni buzar.

Mashrabo, san iqtidolik bandalarg‘a ulfat o‘l,
Yaxshi hamroh bo‘lmasa, albatta, iymonni buzar.

* * *

Parda ko‘tarib ul sho‘x, har lahza itob aylar,
Nozi bilan ul dilbar oshiqqa azob aylar.

Kuydirdi mani ishqi, ko‘nglumda aning zavqi,
Hijron o‘tida shavqi bag‘rimni kabob aylar.

Goh g‘amza bilan chiqsa, goh ishvasi bilan boqsa,
Zulf zanjirini har dam bo‘ynumg‘a tanob aylar.

Hushimni tamom oldi, ishq otashig‘a soldi,
Soqiyqadahin sunmay maxmuri sharob aylar.

Qad — sarv-u yuzi — gulzor, Mashrabni qilib afgor,
Ham noz-u itob aylar, ham xonaxarob aylar.

* * *

Shahd-u shakardin ortug‘um, oromi jonim keldilar,
Ko‘ngul uyini ko‘rgali, ruhi ravonim keldilar.

Ketib edi aql-u hushum, bilib tururlar xohishim,
Yo‘qdur alardek hech kishim, shirin zabonim keldilar.

Soqiy, manga sungil qadah, maxmur edim man ishqida,
Shahri vujudim taxtig‘a shohi jahonim keldilar.

Yod aylar erdim goh-goh, kelgaymu deb ul podshoh,
Bo‘ldi yuzum monandi koh, ul dilsitonim keldilar.

Doim manga hayron edim, ishqida sargardon edim,
Man Mashrabi giryon edim, ul yori jonim keldilar.

* * *

Maning oh-u fig‘onimg‘a o‘shal payki sabo yig‘lar,
Taassuf aylabon, bag‘ri kuyub shoh-u gado yig‘lar.

Yurokim porasini tong-la ochsam, xalqqa ko‘rsatsam,
Shafoat aylamasdin ilgari ul Mustafo yig‘lar.

Musibat dostonidin agar daftar ochar bo‘lsam,
Abu Bakr-u Umar, Usmon, Aliy ul-Murtazo yig‘lar.

Bu dunyo g‘urbatidin hech forig‘ bo‘lmadi ko‘nglum,
Biyobonlarda oh ursam, Husayni Karbalo yig‘lar.

O‘shandog‘ toj-u taxtini qo‘yub anvo’yi nuroni,
Sulaymon holatimg‘a Osaf ibni Burxiyo yig‘lar.

O‘shal nozuk adoning hajriga kim mubtalo bo‘lsa,
Saharlar nola aylab, o‘rtanib motamsaro yig‘lar.

Yurakning dardini ochib birovga ko‘rsatib bo‘lmas,
Mani baxti qaroning holiga baxti qaro yig‘lar.

Sinamni chok etib, go‘rdin ko‘tarmas xasta boshimni,
Kuyarlar mo‘min-u kofir, hama vohasrato yig‘lar.

Hama oshiqlaring birlan turarman bir taraf tong-la,
Xudo qozi bo‘lub so‘rsa, bu Mashrab dodxo yig‘lar.

* * *

Bo‘yungni, ey pari, monandayi sarvi raso, derlar,
Malohatlig‘ yuzungni oftobi vaz-zuho derlar.

Tamomi xalqni bir g‘amza birlan band aylabsan,
Saning dastingdin oshiqlar hama “Vo hasrato!” derlar.

Bu noz-u ishva birlan har zamon uydin kulub chiqsang,
Kishi o‘rgulmasa sandin, ani yuzin qaro derlar.

Agar kifrik o‘qi birlan bu qonimni to‘kar bo‘lsang,
Magar ishq yo‘lida o‘lsam, shahidi Karbalo derlar.

Soching zanjiri-la bog‘lab kel emdi ol bu jonimni,
Xudo qozi bo‘lub so‘rsa manikim dodxo, derlar.

Bu so‘zni yig‘lab aydi kecha-kunduz Mashrabi miskin,
Bu olamda meni yuz ming balog‘a mubtalo, derlar.

* * *

Sani Layli-yu ra'nodek ajoyib dilrabo derlar,
Mani Majnuni shaydodek ko'yingda bir gado derlar.

Kecha-kunduz eshigingda fig'on-u nolalar qilsam,
Ki harchandi navo qilsam, xanuzam benavo derlar.

Borib so'rdum tabiblardin: "Bu dardimg'a davo bormu?"
Tabib ayturki: "Ey nodon, bu dardni bedavo, derlar!"

Boqibon ul pari ko'z uchidin yuz noz qilib o'tti,
Ruhi chun ul mahi tobonni anvor ul-hudo derlar.

Tafarruj aylabon nogah nazar qilsa go'ristong'a,
Qo'pub go'rdin hama odam, hama: "Vo hasrato!"derlar.

Qani Layli, qani Majnun, qani Shirin bilan Farhod?
Alar o'tti bu olamdin, bu olam bevafo derlar.

Itini xoki poyiniki Mashrab ko'ziga surtti,
Nido keldiki olamdin bu ko'zga tutiyo derlar.

* * *

Garchi hoil jon esa vasl izlagan jondin kechar,
Kim yuzi-yu ko‘zi o‘tlug‘ xori mujgondin kechar.

Oshiqi sodiq qiyo boqmas parilar husniga,
Tark etib Jannati Rizvon hur-u g‘ilmondin kechar.

Ichmayin Kavsar sharobin og‘zini aylar chuchuk,
Zuhd eli may tobidin, guldek ochilg‘ondin kechar.

Kimki topsa jovidoniy ishq gar, qilmas nazar —
Kim xazondek yuz dinor sovrib — sochilg‘ondin kechar.

Jonibidin o‘zga hayrat bo‘lmag‘ay, ey Mashrabo,
Kimki mayni bir tatur, qaytib ochilg‘ondin kechar.

* * *

Qaysi parining san kabi dilbari gul'uzori bor?
Qaysi chamanning gullarin tiyri mijangcha xori bor?

O'tti jahondin ishq eli, man kabi sanga yo'q gado,
San kabi qayda, ey sanam, ishq elining nigori bor?

Ishq o'tida jism-u tanim surma bo'lubtur o'rtanib,
Surma qilurni istasa, ofati jon xumori bor.

Uchdi nazar qushi ko'rung, qoldi ko'ngulda chohlar,
Ohuyi ishqning ajab lola-vu chashmasori bor.

Mahzun ko'zlarim maning xotami ishq ayladi,
Mashrabi zor ko'nglida jon o'rtaguvchi nori bor.

* * *

Zavqining yo‘liga kirgan sud-u savdodin kechar,
Kim lahad yodiga tushsa ushbu g‘avg‘odin kechar.

Bandalik oson emasdur Haq Taolo yo‘lida,
Yo‘lga kirgan bandalar imruz-u fardodin kechar.

Jon tasadduq aylagil chun Sherimardoni valiy,
Vasli diydorini ko‘rganda bu dunyodin kechar.

Kim qalandarlikni qilsa ushbu yo‘lda ixtiyor,
Misli Adhamdek bo‘lubon mustamand jodin kechar.

Chun kulohi bexudi boshiga kiygan bandalar,
Misli ul Faxriy bo‘lub Firdavsi a’lodin kechar.

Mo‘ysafido, dilsiyosan bo‘lmasa diydangda nur,
Haqni diydorini ko‘rgan bul tamoshodin kechar.

Osmon boshig‘a bo‘lsa osiyo, yo‘qtur g‘ami,
Masti loyaqul bo‘lub kulli ashyodin kechar.

Zulfiqori Haydariy qo‘lig‘a olg‘an bandalar,
Sayri gul barbod etib, ul past-u bolodin kechar.

Oli himmat oldida chun ikki olam bir nafas,
Har kishi Majnunki bo‘ldi, qayda Laylodin kechar?

Ma’nidon bo‘l avval-u oxirki, Mashrab, g‘am yema,
Kimki Shaytonga yaqindur lutfi Mavlodin kechar.

* * *

Na hojat hajji akbar Koshg‘ar uzra mazorim bor,
Ziyoyi chashmima xoki daridin surmazorim bor.

Mijam jorub etib ko‘z kosasidan suv sepay derman,
Bihisht ayvoni yanglig‘ soz etmak ixtiyorim bor.

Manga qismat azaldandur yemak dard-u alamlarni,
Bu ishrat gulshanida zulm elidin g‘amgusorim bor.

Iti ichkan yalog‘ida manga ham to‘ma bergay deb,
Tilab Kavsar sharobin zuhd eli yanglig‘ xumorim bor.

Mani ko‘rsa qochadur shayxulislom Ahraman yanglig‘,
Nechun, bo‘ynumg‘a zulfi tori chirmashg‘an tumorim bor.

Azaldin man dili g‘amgin xaloyiq xaylini sevdim,
Shahid qonini sipqorg‘on shahanshohlardin orim bor.

Tanim tarong‘idur, har yonda yuz ming soyayi ar-ar,
O‘shal oh-u ko‘z-u g‘am tog‘i uzra sarvzorim bor.

Mani Mashrabni bo‘ynini iting zanjirig‘a bog‘lab,
Erur davlat, ayog‘ ostida sudratsang na orim bor.

* * *

Mori bad mandin qocharkim, koni nishtar manda bor,
Battarini xalqdurman, nafsi kofar manda bor.

Har qachon darvozayi margdin omon o‘tsam vale,
Yo‘l xatardur, qo‘rqaman, yuz ming balolar manda bor.

Bas, maning nafsim xudolik da’vi qildi har zamon,
Yo‘lda qolg‘on barhamanman, tashti axgar manda bor.

Chun azaldin, do‘stlar, ishqida kuygan bandaman,
Motamim boshimda ko‘pdur, dog‘i dilbar manda bor.

Otashimni toza qilmanglar, qo‘yinglar, yig‘layin,
O‘rtanib kuygan bu Mashrab dog‘i abtar manda bor.

* * *

Mavji daryoyi talotum sho‘rishi Mahsharcha bor,
Yerga tushsa qatra ashkim baxshishi gavharcha bor.

Gavhari noyobni har kimga zoye’ qilmag‘il,
Haq suxan, bil, bexabarning ko‘ngliga nashtarcha bor.

Man tasadduqi o‘shandoq oli himmatlar bo‘lay,
Zikri Olloh — Zulfiqori chopishi Haydarcha bor.

Har xase cho‘bini ko‘rdum zikrini bisyor der,
Har piri komilki, o‘z qavmiga payg‘ambarcha bor.

Gar o‘zi bir lutf qilsa mo‘ri langni sher qilur,
Pashshayi log‘arni ko‘r, yo‘lida Iskandarcha bor.

Boqmag‘il chashmi haqorat birlan ul somon ko‘rub,
Kim alar botindagi xashmatlari Qaysarcha bor.

Mashrabo, qilma suxan san har nechuk nodonga xayf,
Qadrini bilgan kishiga yoquti ahmarcha bor.

* * *

Setor demang, holi dilim so‘rg‘uchi tanbur,
Ko‘nglum girehin, g‘amlarini surg‘uchi tanbur.

Bir necha raqiblar so‘zidan g‘amzada bo‘lsam,
Hamdard bo‘lub og‘ushima kirg‘uchi tanbur.

Ko‘tohnazar el buni hech qadrini bilmas.
Dargohi azaldin xabare berg‘uchi tanbur.

Gar yor jamolini ko‘rub pardag‘a solsam,
Nag‘masi aning siynaxarosh etguchi tanbur.

Ham yor jamolidek oning nash’asi bordur,
Hayrat o‘tidin mahvi sanam qilg‘uchi tanbur.

Oshiq yuragidin chiqib o‘ttek kelibon ul,
Bir uchqunig‘a jumlani kuydirg‘uchi tanbur.

Mashrabni tamom aqlini olib ul buti xunrez,
Jonimni yoqib siynaxarosh etg‘uchi tanbur.

* * *

Chiqsam ko‘chag‘a shohsuvorim keladur,
Gul g‘unchasidek lola uzorim keladur.

Har yonga boqib, kifrik o‘qin xalqg‘a otibon,
O‘tlarni yoqib jonimg‘a nigorim keladur.

Gulgun labidin ishq mayin elga sunibon,
O‘z mastlig‘idin ko‘zi xumorim keladur.

Jonimg‘a tegib har soridin rashk qilichi,
Mujgon o‘qini har yon otorim keladur.

Kelmay necha kun qayda qaror etti ekankim,
Ko‘nglumdin olib sabr — qarorim keladur.

O‘lmaymu bu dard birla ki, ey yor-u yoronlar,
Har lahzada ming jonim olorim keladur.

Kunduz yo kecha hech mahal kelmagan erdi,
Bul turfa ko‘rung layli-nahorim keladur.

Gul bargi kabi g‘am bilan sarg‘aydi bu Mashrab,
Ne g‘am manga emdi kim u(l) g‘amxorim keladur.

* * *

Gulgun may ichib lola uzorim keladur,
Har yon suzulib ko‘zi xumorim keladur.

Tishlab labini, mujgon o‘qini menga otibon,
Chog‘lab yuragim ko‘nglum olorim keladur.

Zulfini tarab boshdin oyog‘ zevar etibdur,
Sunbul bila gul bog‘-u bahorim keladur.

Ilkida qilich, tiyri sadoqi bilan ul dam,
Chopmay turubon jonim olorim keladur.

Mashrabi bechorani zor notavon aylab,
Ishq o‘tiga kuydurgali yorim keladur.

* * *

Dilbar yuzini ko‘rgali devona kelibdur,
Yuz noz-u karashma bila jonona kelibdur.

Yuz jonim agar bo‘lsa, tasadduq anga aylay,
Raftori bilan ko‘zlari mastona kelibdur.

Devonayi sho‘rida, bu joningni fido qil,
Kokillarikim belina chulg‘ona kelibdur.

Zarroti jahon ichra kuyub tashnalab erdim,
Jonona bo‘lub sohibi paymona kelibdur.

Joningni fido aylagil, ey xastayi Mashrab
Lablari shakar, tishlari durdona kelibdur.

* * *

Ishqingda mani vola-yu hayron yaratibdur,
Tarsobachani g‘orati iymon yaratibdur.

Bu dasht-u biyobonda o‘larman, netay, oxir,
Xoliq mani tashna, sani ummon yaratibdur.

Jonimni olur bo‘lsang, ol, ey dilbari ra’no,
Biz g‘amzadalarni sanga qurbon yaratibdur.

Taqdiri qalam boshima yetti, netayin, oh,
Hajring g‘amida besar-u somon yaratibdur.

Arzimni sanga aytayin, ey shohi jahonim,
Bizlarni gadokim, sani sulton yaratibdur?

Sahroyi g‘am ichra mani hayron-u xarob-u,
Labtashna-vu dilxasta-vu sarson yaratibdur.

Chun ko‘zlarini jodu demak ayni xatodur,
Tangri ani o‘z maylicha maston yaratibdur.

Mastona sifat ishva bilan noz-u karashma,
Parvona sifat sham’ig‘a so‘zon yaratibdur.

Devona-vu Majnun na qilur, yo‘qdur iloji,
Az ro‘zi azal bag‘rini biryon yaratibdur.

Devonayi Mashrab ne demish ersa, yoronlar,
Ayb aylamangizlar, oni nodon yaratibdur.

* * *

Zebo sanamim gulguni zebo yasanibdur,
Qonimni to‘kar, buki qizil to‘n kiyinibdur.

Bilmam yana ul ofati jon qaysi makonda,
Kim birla chog‘ir ichtiki yuzi qizaribdur.

Shahlo ko‘zini jodu demak ayni xatodur,
Tangrim ani o‘z maylicha tanho yaratibdur.

Sochig‘a qiyo solsaki sochbog‘i chiroylik,
Ul kokili laylisi ajoyib yarashibdur.

Tufrog‘im uza lola unar vaqtida, Mashrab,
Kuydurmoq uchun bag‘rima dog‘ing tutoshibdur.

* * *

Huv sadosi dam-badam zoti huvaydodin kelur,
Anglasangiz bu sadoni sho‘ri g‘avg‘odin kelur.

Oy yuzung Toho-vu Sin allamal Qur’on emish,
Auzu billoh ma’nisi inna fatohnodin kelur.

Bandayi farmoni haqsan, aytganini qil qabul,
Ushbu kun yavminnushur nahni qasamnodin kelur.

Har nakim yaxshi-yomon kelsa biling, ey odamiy,
Innamo amvolakum so‘yi huvaydodin kelur.

Sanki Mashrab zotini, so‘rab netarsan otini,
San tilarsan zotini ismi musammodin kelur.

* * *

Latofat bog‘i ichra qomating sarvi xiromondur,
Ko‘ngul qumrisi tinmay doimo dar sho‘r-u afg‘ondur.

Ko‘zung jallodvash, qoshing hilol-u kipriking xanjar,
Labing la’l-u dahoning g‘unchayi sadbargi xandondur.

San, ey zohid, maning dardi dilimni hech bilmassan,
Yurokimga nazar qilsang, tamomi zaxmi paykondur.

Bihisht ichra qadam qo‘ymam yo‘q ersa va’dayi vasling,
Ki, sansiz manga bul jannat bamisli nori so‘zondur.

Ki, sansiz naylayin ushbu jahonni, ey vafodorim,
Azobi qabr hijron dardidin, albatta, osondur.

Umidi ko‘p edi ranjur qildi ishq Mashrabni,
Agar maqsadga yetmay o‘lsa, vovaylo-vu armondur.

* * *

Yetti Do‘zax mardi Haqning oldida gulzordur,
Qo‘l tutarg‘a rahnamo ham mardi sohibkordur.

Gar qo‘lungdin kelsa, hargiz mo‘rchani og‘ritmag‘il,
Ham Xudo bandam demas, har kimki dilozordur.

To tiriksan diydadin har lahza to‘kg‘il obi chashm,
Dilda darding bo‘lmasa, ming toating bekordur.

Bo‘lmag‘il zohidsifat, dunyoda bo‘l mardi faqir,
Kimki ul horis bo‘lub ketti tani murdordur.

Olimi xuddon bo‘lma, olimi kordon bo‘l,
Ro‘zi Mahshar rahnamoying Ahmadi Muxtordur.

San aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas,
San agar xor aylasang, har yerga borsa xordur.

Mashrabo, dargohi Haq chun rohi navmedi emas,
Haq taolo sanga ham bir saqlag‘oni bordur.

* * *

Saning ishqingda, ey dilbar, yurokim tah-batah qondur,
Muhabbat o'tida har dam kuyub ko'nglum parishondur.

Qachon chiqg'ay saning darding yurokimdin, netay, man zor,
Agar shul dard bilan o'lsam, ichimda to'la armondur.

Na bo'lg'ay rahm etib so'rsangki man ko'ngul shikastangni,
Hamisha oshiqi miskin sani ishqingda hayrondur.

So'rarlar ba'zi odamlar: "Bu dardingga davo bormu?"
Man ayturman: "Birodarlar, bu dardi manga darmondur".

Kel, ey Mashrab, bu oshiqlik ishi dushvordur bilsang,
Inoyat bo'lsa gar Haqdinki, har mushkul ish osondur.

* * *

Jahonda hosili dunyo bilan uqbo malomatdur,
Ko'ngulning mulkig'a sarchashmayi a'lo malomatdur.

O'shandog' Mustafo ham bemalomat bo'lmadi hargiz,
Bizingdek osi ummatga o'shal daryo malomatdur.

Malomatdin yetushti Ahmadi Muxtor Me'rojga,
Ko'ngulning qiblasig'a nuri Baytulloh malomatdur.

Biling, xalqi jahon mardud desun aylab ihonatni,
Vale mo'minga toat xolisanilloh malomatdur.

Jahon aybingni qilsun, bir Xudo bandam desun, Mashrab,
Ko'ngulning mavjiga ul Jannat ul-ma'vo malomatdur.

* * *

Qurbon bo‘lubon ko‘zunga kifrik qoqishimdur,
Hayrona bo‘lub yuzunga hayrat boqishimdur.

Miftohi behol ila ochtim eshikingni.
Hurlar bila Jannat sori bormoq na ishimdur.

Anvori tajalli manga sut bo‘ldi g‘izolim,
Furqatda g‘aming — mohazarim yoz-u qishimdur.

Mashrab, bu so‘zung har biri ming ma’ni bayoni,
Bedard kishilar bilmadi, bag‘rim tilishimdur.

* * *

Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog‘a sig‘mamdur.
Dilim daryoyi nurdur, mavj urub dunyog‘a sig‘mamdur.

Shariat ham, tariqat ham haqiqat mandadur mavjud,
Chu sultoni azaldurman, ki Arshi a’log‘a sig‘mamdur.

Xaliloso bu yo‘lda otashi Namrud — me’rojim,
Hamon durr-u haqiqatmanki, har dunyoga sig‘mamdur.

Rizo mulkidaman xalqumni tuttum tig‘i Akbarg‘a,
Bu yo‘lda siynayi poki Zabehullog‘a sig‘mamdur.

Agarchandi ziyorat qilmadim man Ka’bayi zohir,
Tariqat xojisidurmanki, Baytullog‘a sig‘mamdur.

Gahi bo‘ldum faqir-u, gohi shoh-u, goh gadodurman,
Ajab devonaman, fardoki Mahshargohg‘a, sig‘mamdur.

Maqomi hayrat ichra gohi xudman gohi bexudman,
Junun bozorida mastmanki, istig‘nog‘a sig‘mamdur.

Gah o‘rus, gohi cherkas, gohi mo‘min, gohi tarsoman,
Ne kavnayni, miyoni lo-vu illolloga sig‘mamdur.

Mudom miskin erurman chun g‘uloming —
Mashrabingdurman,
Mani bechora bu dunyo bilan uqbog‘a sig‘mamdur.

* * *

Qoshing mehrobi, ey dilbar, meningkim qiblagohimdur,
Yuzung mehri ko'ngulni ravshan etmaklikka mohimdur.

Ibodatning qiyomi — poygohing — xonayi Ka'bam
Izing ul ostoni oliy uzra takyagohimdur.

Iki olam xayoloti menga qotil erur, jono,
Sipohin tortib otlansa, manga yoding panohimdur.

Bu ko'nglum mayl bo'lsa g'ayrining yodini qilmoqqa,
G'aming furqat o'tida harna qilsa o'z gunohimdur.

Vale ko'nglum qabul etmas o'zungdin o'zgani, dilbar,
Sochingning halqasi ul zulmdin oromigohimdur.

Qaro ko'rgan falakda abr ermas, yoqg'ani yomg'ur.
Falak holimg'a yig'lab, ul qarosi dudi ohimdur.

Emastur ustuxon oting oyoq ostida sudralg'on,
G'aming ranji bilan o'lgan mening jismi tabohimdur.

Jafov-u javr ila zulmung manga bedodlar qildi,
Karashmang ko'rsa qatl aylar, demas bu dodxohimdur.

Gunohim g'ayrdin ermas — ko'zumdin, ixtiyorimdin,
Mani bu o'tg'a solgan ixtiyorim ham nigohimdur.

Mani o'ldur yokim tirguz, sanam, lutf-u sitam aylab,
Saningdur ixtiyorim — harna qilsang podshohimdur.

Kecha-kunduz bu Mashrabning xayoli oston ersa,
Visoling davlatin topmoqg'a ul padid rohimdur.

* * *

To xil'ati zohir kiyibon zebi tanimdur,
Rasvo bo'lubon ko'yi malomat vatanimdur.

Yovuq erur andishayi xurshidi jamoling,
Jon gulshanig'a lola-vu sar-vu sumanimdur.

Xanjar mijalar ko'yig'a to tushdi guzorim,
Sar toba qadam zaxmi jafo pirahanimdur.

Bog'i Eram-u sahni gulistoni kerakmas,
Ko'ksumda maning dog'i muhabbat chamanimdur.

Shamshiri jafo ayladi bismil bu boshimni,
Mashrab, sharari ko'yi malomat vatanimdur.

* * *

Eshitti go‘shi dil Ollohi Akbardin bu talqindur,
Ko‘ngul oyina bo‘ldi mahzunlikdin — ganji zarrindur.

Jigarbandim, qo‘lingdin kelsa, bir ko‘ngilni og‘ritma,
Bu ma’nidanki baytulloh derlar qalbi mo‘mindur.

Ochilg‘an gulshan erdim, bog‘i umrumga xazon keldi,
Ki, har sarsabzani obodi chun motamg‘a tobindur.

Rafiqing g‘am bo‘lib tursa, ki rohat ne murod, ey mard?
Jahonni ro‘zgori gohi talx-u gohi shirindur.

Muhammad g‘amga hamdam, ummati ishratni mashg‘uli,
Nechuk daftar ochay xalqi zamona susti dindindur.

Riyozat oftobiga pishurdim mevayi dilni,
Haqiqat yo‘lida Mashrabga yetgan ko‘hi tamkindur.

* * *

Har kishini dardi bo‘lsa, diydasidin nam kelur,
Kimki munda shodlig‘ istar, orqasidin g‘am kelur.

Siynayi daftarni ochsam, yetti Do‘zax ochilur,
Nolishimdin qo‘rqaman, majlisga nomahram kelur.

Odamiyning asli birdur, bir-biridin farqi bor,
Necha qarn o‘tg‘onidin dunyog‘a bir odam kelur.

Yig‘lamoq oson emas, ey san, jigarbandim, eshit,
Mulki dil sadpora bo‘lg‘ach, diydasidin nam kelur.

Mullalar ilmig‘a mag‘rur, omilar isyong‘a g‘arq,
Kas na bilsun, Ro‘zi mahshar kimni toshi kam kelur?

Gar boshing Arshga yetushsa, san o‘zungdin ketmag‘il,
Har daraxtni mevasi ko‘p bo‘lsa, boshi xam kelur.

* * *

Nag‘mayi arg‘uvon chalib dilbari xushnavo kelur.
Lazzati ishqini totib, zikri ila sano kelur.

Asli muhabbat istasang, kulli sivoni tashlag‘il,
Faqr libosini kiyib, darbadari gado kelur.

Ushbu judolig‘ dardini man kimga aytay, do‘stlarim,
Yig‘lamasam, bu holima dardima kim davo kelur?

Ohima Mahsharing bilan ham yetti Do‘zaxing kuyar,
Andin o‘tub bu holima Arsh ustida sado kelur.

Bandayi purgunoh o‘zing, turg‘il, saharda yig‘lag‘il,
Ko‘z yoshingni hurmatidin, dardinga chun davo kelur.

Mashrabi Mahdi Adhamiy xushladi faqr ahlini,
Bandayi Siddiqi, Umam basidqi dil safo kelur.

* * *

Ishq chun har dilg‘a tushsa, avvalo jon o‘rtanur.
Ohi Majnundin hama ko‘h-u biyobon o‘rtanur.

Osaf ibni Burxiyodek olihimmat bo‘lmasa,
Toki Bilqisni ketirguncha Sulaymon o‘rtanur.

Ko‘h-bako‘h ovvoralar aylar yetishgan so‘ngra ishq,
Bo‘ynig‘a zunnor toqg‘on Shayx San’on o‘rtanur.

Noumidlik kufr erur, Mashrab, umid etmoq kerak,
Kim umidin uzdi Haqdin, jon-u imon o‘rtanur.

* * *

Ohi dilimg‘a, zohido, masjid-u minbaring kuyar,
Qochmasang emdi olibon tasbeh-u daftaring kuyar.

Boz ruku’ sajdada g‘ayrati shahparing qoqib,
Man borur yerni ko‘zlama, ey Jabrail, paring kuyar.

Jannat ichinda gul yuzung bo‘lmasa oh tortaman,
To‘bi kuyub fano bo‘lur, chashmayi Kavsaring kuyar.

Bodayi la’l izlasam, yor muyassar aylamas,
Bir nafasimni taftig‘a Do‘zaxi ozaring kuyar.

Mashrabi zor-u notavon ko‘yida lof urmag‘il,
Boadab o‘l bu yo‘l aro boshdin ayoq — baring kuyar.

* * *

Chun ibodat vaqtida mo‘ming‘a fursat e’tibor,
Har dili ranjidag‘a doim qiyomat e’tibor.

Domani davlatni tutgan xalqlardin xolidur,
Vodiyi himmatga kirganlarga toat e’tibor.

Kimki oqil bo‘lsa, ul nangi nomusdin kechar,
Ey birodar, anglagil, har ishga himmat e’tibor.

Bul sutunsiz xonada turmak haqiqatdin xato,
Bexabar suratparastga istiqomat e’tibor.

Orif uldur maqsudi dunyo-vu uqbo bo‘lmasa,
Zohidi xudbinlariga xatti Jannat e’tibor.

Har kishi o‘z jinsini axtarur ul Mahshar kuni,
Ahli g‘aflatlarga doim ahli g‘aflat e’tibor.

Obro‘ iymon bilandur, sa’yi qilmangmu bu vaqt,
Banda Haq yo‘liga po qo‘ydi saodat e’tibor.

Pirga qo‘l bermoq — toqi Arshga qo‘l solmoq erur,
Rishtayi nisbatni tutganlarga xizmat e’tibor.

Kimki tolibdur jahonning borini ortar anga,
Har kishining qurbiga loyiq bu nisbat e’tibor.

Bandalik qilg‘on kishilar toqiyi Arshdin o‘tar,
Emdi qolgan ajnabiylarga hikoyat e’tibor.

Adl-u insofingni qo‘ldin bermagil, ey muntahiy,
Joyi kelsa, ming karomatdin farosat e’tibor.

Mashrabo, rohi haqiqatda ko‘p ermish uqbalar,
Orifi dini Nabiyga yaxshi ummat e’tibor.

* * *

Pashshani fil qilg‘ali biz xalqg‘a himmatdin gapur,
Hoji bo‘lsang yo‘ldagi tortgan riyozatdin gapur.

Man sani dildin so‘rarman, anglag‘il, ey bexabar,
Tilni dilga mustaqim aylab, ibodatdin gapur.

Har kishi suratga mag‘rur bo‘lsa ul murtad ketar,
Bo‘lmag‘il suratg‘a mag‘rur, bizga siyratdin gapur.

Ka’ba ko‘rdingmu, Xudo ko‘rdingmu rost aytgin manga,
Robiadek na’ra tortib hasht Jannatdin gapur.

Yetti daryoni yutubman hanuzam labtashnaman,
Tashnalarni yod qil, avlodi hazratdin gapur.

Jav bilan gandumni narxini so‘rsang dehqonga bor,
Tolibi haq uchrasa anga riyozatdin gapur.

To Xudo amr etmasa hech kimga kor etmas balo,
San agar oqildursan vahmi qiyomatdin gapur.

Tuhfayi sarrishtani so‘rdi imom o‘z qavmidin,
Xofi Bashar naslidin qo‘lg‘on u avratdin gapur.

Tong-la Haq qozi bo‘lub so‘rsa Muhammad sulhgar,
Osi ummat haqqig‘a anda shafoatdin gapur.

G‘orati Shaytondin iymonini eltgan er emish,
Mashrabo, mardona bo‘lg‘il, bul saodatdin gapur.

* * *

Tashlag‘il moumanini qul huvallohdin gapur,
Hol-u qolin tashlag‘il astag‘firullohdin gapur.

Bahri bepoyonda yurdum doimo misli hubob,
Durri maqsud istasang san tahti daryodin gapur.

Odam o‘g‘lig‘a bu dunyo hech vafo qilg‘on emas,
Hosili umrungda qilg‘on zuhdi taqvodin gapur.

Xalq aro umrungni o‘tkarding davomat zuhd ila,
Kaana amvolino deb ham zalamnodin gapur.

Sajdayi but qilma, doim yod qil Tangrini san,
Eski dunyodin gapurma, yangi dunyodin gapur.

Kimki tark etsa bu dunyo, ul topar ham oxirat,
Mashrabo, o‘tkarma umrung ushbu dunyodin gapur.

* * *

Ulug‘ daryoyi rahmatga guhar tomsa xazoyindur,
Saning zoting deganlar otashi Do‘zaxdin emindur.

Ijobat vaqti bul ermishki subhonallaziy isro,
Dilingning nuri ma’muri valazzolin omindur.

Kishi omin desa Haqdin nido kelgay mo‘minga,
La qadi joa amrino nuri valozzolin omindur.

Zamin-u osmon omin bilan qoyim etmish doyim,
Maqomi qoba qavsaynro valazzolin omindur.

Kishi omin desa Haq anga aytur kunda ming labbayk,
Vasallamta inal ma’voyi valazzolin omindur.

Xudo Do‘zaxga kuydurmas vale omin deganlarni,
Dilingga rabbiyal a’lo valazzolin omindur.

Iranlar toptilar omin bilan rohi haqiqatni,
Yana fiho va mo fiho valazzolin omindur.

Muso omin demay nuri tajalliy ko‘rmadi Haqdin,
Yana omanta billoh valazzolin omindur.

Kel, ey Mashrab, duo qilgil tamomiy mubtalolarga,
Ko‘ngulga ayni chun miftoh valazzolin omindur.

* * *

Bu maning boshimga yuz dard-u alam paydo bo‘lur,
Har tarafdan na’rayi vo hasrato paydo bo‘lur.

Gar ayog‘ ostida qolsang, yig‘lag‘il dargohiga,
Donayi xok ostida qolsa, bebaho paydo bo‘lur.

Takya avlodiga qilgan kofiri murtad ketar,
Anglag‘il, asli rasodin noraso paydo bo‘lur.

Mavlaviyg‘a Shams Tabriziy burun aytgan ekan:
Vaqti oxir Mashrabi sohib duo paydo bo‘lur.

* * *

Ko‘ngul zangorini sof aylagan piri mukammildur,
Alarning domanini gardidin ming bir ganj hosildur.

Qilurlar ajdahoyi nafsni tasxir orif xalq,
Jahonning obro‘yi ma’rifat etsang nechuk tildur.

Agar komil bo‘lay desang, dilingdin da’vini gum qil,
Bu davlatni topar har kimki munda ruhi qobildur.

Faromush etmag‘il o‘lmoqni, imondin umiding bor,
Imon etgan kishiga Jannat ul-firdavsi manzildur.

Qilib bo‘lmas bu yo‘lda xonavayronlarning aybini,
Kishi mahbubi din bo‘lsa, anga har ro‘z ming yildur.

Analhaq sirrini har bexabarga aytmagan zinhor,
Xudoning roziga mahram emasdur kimki tangdildur.

Kelibman intizori xoki poying bo‘lg‘ali Mashrab,
Ki sansiz manga dunyo ishrati chun zahri qotildur.

* * *

Shodmonlig‘ izlama, oxir boshingga g‘am kelur,
Odamiyning boshig‘a andishayi motam kelur.

Osmonga yetsa boshing misli Muso xomush o‘l,
Har daraxt purmeva bo‘lg‘an so‘ngra boshi xam kelur.

Odamiyning asli birdur, bir-biridin farqi bor,
Necha qarn o‘tgan sug‘un dunyoga bir odam kelur.

Vahmi Mahshardin gapurmang norasoning oldida,
Go‘shi qarg‘a haq so‘zi, albatta, noforam kelur.

Yig‘lamoq oson emasdur, ey jigarbandim, eshit,
Mulki dil sadpora bo‘lg‘an so‘ng ko‘zingdin nam kelur.

Olimi ilmiga mag‘rur, johili isyonga g‘arq,
Kas ne bilsun, ro‘zi Mahshar kimni toshi kam kelur.

Yoshligingda yo‘lga kirgil, toki topqaysan kamol,
Chun jarohat ko‘hna bo‘lg‘an so‘ngra bemalham kelur.

Mashrabo, siynamdagi dardimni aytsam, Arsh kuyar,
Yo‘l xatardur, qo‘rqaman, majlisga nomahram kelur.

* * *

Kimki mo‘mindur mudom chashmi tari paydo qilur,
Tanki bartarpo‘sh bo‘ldi, langari paydo qilur.

Dushmaning qilsa tavozu’ anga, mag‘rur bo‘lmag‘il,
Xor oyoq ostiga tushsa nashtari paydo qilur.

Garchi nomaqbuldu(r)san, qobil bilan hamxona bo‘l,
Bexabarlar suhbati dardi sari paydo qilur.

Umr sar to po o‘tib ketti, hanuz g‘aflatdasan,
Moh nimdin o‘tti kam-kam log‘ari paydo qilur.

Bas, jahondin ketganingga g‘am yemakim, bul falak,
Sanki ketsang, o‘rninga Iskandari paydo qilur.

Man tasadduqi o‘shandog‘ oliy himmatlar bo‘lay,
Chordevoriy bo‘lib go‘shi kari paydo qilur.

Yetti Do‘zax o‘rtanur g‘ambodalarning ohidin,
Dil siyohning suhbati sho‘r-u shari paydo qilur.

Mashrabo, o‘lguncha san bedast-u polar xoki bo‘l,
Kimiyoga mis qo‘shulsa, javhari paydo qilur.

* * *

Ul agar bir lutf qilsa talxini shirin qilur,
To‘ksa rahmatni Xudo kofirni ham mo‘min qilur.

Qobili ma’niy kerak bag‘ri bu yo‘lga hamnishin,
Necha bir talqin bu yo‘lda, boz yana tamkin qilur.

Mor afyundin batardur norasoning suhbati,
Kimki noqobil bilan yursa dilin chirkin qilur.

Tanda joning borida san domani komilni tut,
Zikri Haqni neklar ko‘nglungga xo‘p talqin qilur.

Oftobi vaqt o‘tti, ruhi Shamsiddinga bor,
Bir nafasda necha sandekni Bahovuddin qilur.

Ma’rifatning tolibi bir lahza beg‘am yo‘q turur,
Bora-bora kohili oxir sani bedin qilur.

Jomayi dastor birlan so‘filik qilmoq mahol,
Bo‘l lahadning gardi yuz ming bandani g‘amgin qilur.

Oftobing o‘tmayin, Mashrab, qo‘pub fikringni qil,
Nek xalqlarning duosi dilni sohib din qilur.

* * *

Malaksan yo bashar, yo hur-u g‘ilmonsan, bilib bo‘lmas,
Bu lutf-u bul nazokat birla sandin ayrilib bo‘lmas.

Ajab berahm dilbarsan, ajab sho‘xi sitamgarsan,
Charog‘i husni ro‘yingdin ko‘ngulni xam qilib bo‘lmas.

Yuzungni oftobini ko‘rub hayron bo‘lub qoldim,
Falakka qo‘l uzotib shamsi anvarni olib bo‘lmas,

Yuzung misli qizil guldur, ko‘ngul chun bulbuli shaydo,
Bu gulni ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo‘lmas.

Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo‘lubsan, bo‘lmag‘il g‘ofil,
Bu g‘aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg‘onib bo‘lmas.

* * *

Maning rozi dili zorim farovondur, bitib bo‘lmas,
Ki ishq afsonasini daftar uzra sharh etib bo‘lmas.

Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar yo‘qdur,
Riyozat chekmaguncha yor vasliga yetib bo‘lmas.

Xadangi tiri mujgoning tegib siynamg‘a jo bo‘ldi,
Ko‘ngulning zaxmini ochib birovga ko‘rsatib bo‘lmas.

O‘shandog‘ Mustafoni ushbu olamdin fano qildi,
Xudog‘a bul sababdin, ey birodar, bahs etib bo‘lmas.

Uzoq ermish o‘shal zebo sanamning qasri, ey Mashrab,
Agar ming yil jadal qilsang, bu manzilga yetib bo‘lmas.

* * *

Agar har qayda bo‘lsam man, ko‘ngul sandin judo bo‘lmas,
Magar ming yil navo qilsam, saning darding ado bo‘lmas.

Tilarman vaslini tinmay necha yillar yurub sarson,
Borib ayting o‘shal yorg‘a judolig‘dek balo bo‘lmas.

Xaloyiqlarki ayturlar: “Bu dardingga davo yo‘qmu?”
O‘zidin o‘zga, ey do‘stlar, manga hech bir davo bo‘lmas.

Manam Mashrab kecha-kunduz firoq dardida yig‘larman,
Magar ma’shuq yuzun ko‘rmoq bu dunyoda ravo bo‘lmas.

* * *

Yetmasa bodi sabo g‘unchag‘a xandon o‘lmas,
Ishqdin topmay asar kabk suxandon o‘lmas.

Gul yuzin ko‘rmaguncha gulshan ichinda bulbul,
Aylanib hargiz o‘shal yerda xushalhon o‘lmas.

Ishq o‘ti zor aylagay ham yana yuzni sariq,
Joni gar kuymasa, oshiq yuragi qon o‘lmas.

Ko‘zi — otash, yuzi — mahvash, so‘zi — dilkash nazari
Tushmaguncha qora tosh la’li Badaxshon o‘lmas.

Ikki zulfi ichidin oy yuzi raxshon o‘lubon,
Sham’i vasl o‘lmasa hijron tuni tobon o‘lmas.

Yig‘lab aytdim: “Manga furqat tunida oy yuzung och!”
Ul dedi: “Mehr yog‘in bo‘lsa, nurafshon o‘lmas”.

Dema: “Vaslim xush agar, hajr alamidin dema so‘z,
Oshiq uldurki xabardori tan-u jon o‘lmas!

Dedim anga: “Netayin, kuydurub o‘ldurdi bu dard,
Bu nechuk dardki, anga xargiz darmon o‘lmas?”

Dedi: Mashrab, sani hijron o‘qi ming pora qilur,
G‘am yema, la’l necha poradur arzon o‘lmas!

* * *

Ishq mazhabig‘a taqvi-yu toat chidayolmas,
Tasbih-u sano, zuhd-u ibodat chidayolmas.

Kim ko‘rsa o‘shal dilbari ra’noni bayakbor,
Betoqat o‘lub, ayshi farog‘at chidayolmas.

Faryod-u fig‘onlar qiladurman kecha-kunduz,
Hayratda qolib qad ila qomat chidayolmas.

Adham sifat ul kirsa kishi faqr yo‘liga,
Osoyish ila xayri saxovat chidayolmas.

Arbobi muhabbatga yetib bo‘yi sanamdin,
Aqli ketibon sabr-u qanoat chidayolmas.

Ey zohid, agar ko‘rsang o‘shal mohliqoni,
Zuhd-u vara’-u kashf-u karomat chidayolmas.

Devona qilur ishqi sanam, vasli chu Majnun,
Nomus-u hayo ayb-u qabohat chidayolmas.

Kim jomi muhabbat mayidin jur’ayi ichsa,
Shohona hasham, izzat-u hurmat chidayolmas.

Bul ishq elining har dam etar valvalasig‘a,
Beshubha biling, dasti irodat chidayolmas.

Mashrab, kelibon ko‘ngul ila raqs-u samo qil,
Ishq mazhabig‘a obi tahorat chidayolmas.

* * *

Xurshid yuzining shu'lasiga jon chidayolmas,
Kofir ko'zining zulmiga imon chidayolmas.

La'li labining ta'rifini sharh qilurg'a,
Ham Lavh-u qalam, kotibi devon chidayolmas.

Ul nozanin ar noz bilan jilvagar o'lsa,
Ko'z solsa anga, oqil-u nodon chidayolmas.

Bul hol ila ul sho'xi parizod guzar etsa,
Hur-u pari-yu odam-u g'ilmon chidayolmas.

Man yutgan alamlarni agar zarraye totsa,
Doroyi jahon Xusravi davron chidayolmas.

Ummonga agar qatrayi ashkim duri tomsa,
Malloh eli-yu donayi marjon chidayolmas.

* * *

Ul ishqi sanam dardiga Haydar chidayolmas,
Qaqnus kuyar-u balki, samandar chidayolmas.

Ma'shuq yuzidin bersa agar zarra ziyoye,
Tog'lar kuyar-u Muso payambar chidayolmas.

Bir jilva qilib chiqsa bu olamga pariro',
Devona bo'lub mo'min-u kofar chidayolmas.

Oshiq elining nolayi faryodin eshitilsa,
Masjid kuyar-u voiz-u minbar chidayolmas.

Ishq abri agar yog'saki daryog'a chu nayson,
Daryo-vu sadaf ham dur-u gavhar chidayolmas.

Mashrab, san agar vasli sanam vasfini aytsang,
Mushkini Xo'tan, sunbul-u anbar chidayolmas.

* * *

Sharh aylasam ishq daftarini jon chidayolmas,
Ham jon-u jahon, odam-u hayvon chidayolmas.

Avrodi muhabbat o'qubon masjida kirsam,
Masjid kuyar-u toqi farozon chidayolmas.

Mayxona kirib vasli sanamdin xabar olsa,
Zohid kuyar-u oqil-u nodon chidayolmas.

Ishq daftardin gar o'qusam sura bayakbor,
Beshubha, biling, oyati Qur'on chidayolmas.

Gar na'ra urub tavsani himmat mina qolsam,
Olamg'a tushub sho'rishi afg'on chidayolmas.

Mashrab, sen agar da'viye ishqi sanam etsang,
Billohki, anga jisming ila jon chidayolmas.

* * *

Dardim o‘tig‘a yori birodar chidayolmas,
Dard ahli yonar, hazrati dovar chidayolmas.

Dardimdin agar zarra asar qilsa falakka,
O‘tlar chaqilur charxi mudavvar chidayolmas.

Ishq gavharini fosh agar qilsam o‘shanda,
Dallol fig‘on aylar-u mushtar chidayolmas.

Bul sirri dilim zohir agar bo‘lsa falakka,
Ul moh kuyar-u, shamsi munavvar chidayolmas.

Ul ro‘zki amal nomasini bersa qo‘lumga,
Ochib o‘qusam majmayi Mahshar chidayolmas.

Dardimni agar solsa tarozuyi amalga,
Oni ko‘rubon mo‘min-u kofar chidayolmas.

Voiz bo‘libon va’z desam masjid eliga,
Va’zim eshitib, masjid-u minbar chidayolmas,

Ash’ori laziz birlan javob aytdi bu Mashrab,
Oni o‘qubon ko‘rsa Muzaffar chidayolmas.

* * *

Chun qo‘lim birlan ayoqim bog‘lamoq hojat emas,
Man o‘lumg‘a rozidurman, turgali toqat emas.

Muncha shiddat birla boshim kesgali zo‘r aylama,
Baski, odam qoni to‘kmak sanga ham toat emas.

Umr chun barqi havodis, g‘ofil odam bilmadi,
Oy-u kun oromiga bir lahzaye fursat emas.

Lashkari xunrez bo‘lsa sabr-u orom qayda bor?!
Majnuni devonalardan shohg‘a rohat emas.

Chun muborak bo‘lsun, ey Mashrab, qizil qoning saning,
Xo‘b ish bo‘ldi sanga, jon berganing ofat emas.

* * *

Otashing soldi maning boshimga savdo, alg‘iyos
Bo‘ldi aybim do‘st-dushmanga huvaydo alg‘iyos.

Boshima endurdi ul motam-musibat ko‘hini,
Xotirimdin chiqti bul dunyo-vu uqbo, alg‘iyos.

Bir madad Sandin tilarman, ey Shahi sohibkaram,
Ko‘rsatib diydoringi qildur tamosho, alg‘iyos.

Jomi vahdatni talab qildim, davomat tashnaman,
Soqiyo keltur sharoban antahuro, alg‘iyos.

No‘sh etib shundoq qadahni masti Rabboniy bo‘lay,
Do‘zax-u Jannatni qilmay asli parvo alg‘iyos.

Bul maning g‘amgin dilimni maxzani asror qil,
To qilay Mahshar kuni pursho‘r-u g‘avg‘o, alg‘iyos.

Oftobi ro‘zi Mahshar bo‘lsa ul vaqtida garm,
Noumedi qilmagin bandangni, Olloh, alg‘iyos.

Har shikastimni durust et lutfi Sattoring bilan,
Har qadamda manga ko‘rsat Ka’batulloh, alg‘iyos.

Mujda yetkurgin qulum deb ul Habibingni haqi,
Avval-u oxirda San holimdin ogoh, alg‘iyos.

Rahm qil kuygan dilabtarlarga keldi yo‘l xatar,
Bir O‘zungsan avval-u oxirda dono, alg‘iyos.

G‘ayrate berginki yig‘lay misli Yahyodek bukun,
Har qadamda hodi bo‘l, ajran aziymo, alg‘iyos.

Qilmagin navmed Mashrabni bu yo‘lda, yo Rahim,
Tark qildim San uchun dunyo-vu uqboni, alg‘iyos.

* * *

Naylayin, dildordin begona bo‘ldum oqibat,
Yuz g‘am-u hasrat bilan hamxona bo‘ldum oqibat.

Bu judolig‘ hasratidin toqat etmay bir zamon,
Hajr jomidin ichib mastona bo‘ldum oqibat.

Necha yil ko‘yida yurdum, yetmadim vasliga hech,
Hajr xamridin ichib devona bo‘ldum oqibat.

Yorning vasliga yetgaymanmu deb shom-u sahar,
O‘rtanib hajr o‘tida parvona bo‘ldum oqibat.

Haddin oshdi bul mening rasvolig‘im olam aro,
Xalqi olam ichra ko‘p afsona bo‘ldum oqibat.

Xonayi ayshi nashotimni hama barbod urub,
Chug‘zdek dar kunji har vayrona bo‘ldum oqibat.

Xonaqo-vu Ka’badin, Mashrab, muroda yetmadim,
May ichibon sokini butxona bo‘ldum oqibat.

* * *

Qildi bu charxi falak rasvoyi davron oqibat,
Bor-u yo‘qum bo‘ldi oxir yerga yakson oqibat.

G‘ussa-vu g‘amdin qutulmaydur g‘arib boshim maning,
Kimni hamdardim, dedim, qildi parishon oqibat.

Oxiri bilmam qayerga eltadur bul motamim,
G‘amdin o‘zga bo‘lmadi dardimga darmon oqibat.

Sarv qomatlarni qaddin charxi gardun qildi xam,
Sherlarning korini marg etti oson oqibat.

O‘rtanurman otashi hijronida misli sipand,
Manga kelganda qurub qoldi guliston oqibat.

Tarki suhbat ayladim hamrohi noqobil bilan,
Rohi obodini tuttum, bo‘ldi vayron oqibat.

Bo‘lmagin past, himmatingni, tut baland chun mo‘ri lang,
O‘zligingdin beri kel, bo‘lgin Sulaymon oqibat.

Vaqti oxir bo‘ldi deb bisyor chu Ya’qub yig‘lag‘il,
Yo‘qlagay shoyad sani Yusufi Kan’on oqibat.

Bemadore bo‘lmag‘ay hargiz ravishi bul jahon,
Hodiye bo‘lg‘ay muyassar rohi inson oqibat.

Mehri ketmaydur dilimdin chiqsa ham jonim maning,
Orzusidir manga ham din-u imon oqibat.

Kimga dard aytayki munda mehribonim bo‘lmasa,
O‘rtadi jonimni kori bopushaymon oqibat.

Xona-xona hasratim mulki dilimda jo‘sh urar,
Qilmadim Arsh ustida bir lahza javlon oqibat,

Jon chiqar vaqtiga yetti ham uzildi tori umr,
Bir so‘rab kelsa na bo‘lg‘ay nomusulmon oqibat.

Vaslig‘a yetmakka oshiqning iloji yo‘q ekan,
Dard bo‘ldi oxiri Mashrabga darmon oqibat.

* * *

Onadin bo‘ldum, jahonda bo‘lmadim shod oqibat,
Yig‘ganim bo‘ldi fano mulkida barbod oqibat.

Dona deb domi muhabbat tushti boshimga maning,
Domi mehnatni ko‘rub yo‘limg‘a sayyod oqibat.

To‘ldi paymonam maning, ko‘yingda jon bermak ishim,
Tig‘i hasratni qo‘yub xalqumg‘a jallod oqibat.

Ustuxonim suda bo‘lg‘uncha saning darding bilan,
Shohsan, arzimga yet, qilsam kerak dod oqibat.

So‘filik oson emasdur, har kishi rost anglasa,
Qo‘ydi yo‘ldin xalqni noloyiq irshod oqibat.

Qolmadi Jamshid-u Skandar, qani Afrosiyob?
Topmadi dasti ajaldin xona obod oqibat.

Mashrabo, nuqson o‘zungda, shoh hidoyatli, vale,
Nafs ham mardud, ham Fir’avn-u Shaddod oqibat.

* * *

Himmatim shul: osi ummatlarni aylay mag‘firat,
Shoyad ul yondin bu mazlumlarga yetgay kayfiyat.

Kimki ummatdur bu yo‘lda niyyati xolis kerak,
Mustafo aytibdurlar: “Do‘zaxga kirgay badniyat”.

Gardanimg‘a langari Shayton tushubdur qo‘rqaman,
Bir girih ko‘nglumg‘a tushti, kimdin izlay ofiyat?

Mavlaviyning bahridin oldim bu Mashrab qatraye,
Qatrani daryog‘a qo‘shmoqg‘a ne bo‘lg‘ay maslahat?

* * *

Namangandan ketar bo‘lsam, mani yo‘qlar kishim bormu?
G‘ariblik shahrida o‘lsam, mani yo‘qlar kishim bormu?

Qani qavm-u qarindoshim, bu yo‘lda bo‘lsa yo‘ldoshim,
Ko‘zimdin oqizib yoshim, mani yo‘qlar kishim bormu?

Muhabbat sharbatin ichtim, qazondek qaynabon toshtim,
Bu foniy dunyodin kechtim, mani yo‘qlar kishim bormu?

Tushubdur boshima savdo, ramuzi ishqdin g‘avg‘o,
O‘ziga ayladi shaydo, mani yo‘qlar kishim bormu?

Turarga toqatim yo‘qtur, yurarga holatim yo‘qtur,
Yurakda ishq o‘ti cho‘qtur, mani yo‘qlar kishim bormu?

Qarorim yo‘q turay desam, Namanganda yuray desam,
Jahonni sayr etib kezsam, mani yo‘qlar kishim bormu?

Bu miskin zor Mashrabni kishi holini bilmaydur,
Bu yerdin bosh olib ketsam, mani yo‘qlar kishim bormu?

* * *

Sani dardingga, ey dilbar, jahonda hech davo bormu?
Yetibdur halquma jonim, maningdek purjafo bormu?

Sanam, ishqing mani oxir bu umrumni xazon etti,
Yurak pora, ko‘zi yoshluk, maningdek benavo bormu?

Agar Mahshar kuni chiqsam, sani ishqingda dod aylab,
Qiyomat qozisi bo‘lsang, saningdek dodxoh bormu?

Hama oshiqlaring ichra erurman zor-u sargardon,
Ki, o‘lg‘on ostoningda maningdek hech gado bormu?

O‘qub ul “Layli-vu Majnun”, eshitgil so‘ngra bul qissam,
Kuyub hajring bilan o‘lg‘on maningdek mubtalo bormu?

O‘shal Farhod bilan Majnun ko‘rub ishqida jon berdi,
Firoqingda ado bo‘lg‘on maningdek mosivo bormu?

Zulayxo birla Yusuf ham chu dunyodin fig‘on aylab,
Qo‘shub bir-biriga oxir, saningdek dilrabo bormu?

Tamomi oshiq-u zohid hama maqsudiga yetti,
Visolingga yetolmay bir maningdek benavo bormu?

Dedim devonalik birlan bu so‘zlarni mane Mashrab,
Xatolarni kechirguchi saningdek podsho bormu?

* * *

Ne savdolar bosha solding, bu savdolar oz o'lmazmu?
Ki band etting ayog'larni, yana bandlar yozilmazmu?

Payomi vasl eshitib man yururman shahrdin shahra,
Sagi dargoh bo'lg'anlar bu saglardin qutulmazmu?

Sari zulfiga band o'lg'on jahon davri tasalsuldur,
Ki asbobi jahon torin birisidin uzulmazmu?

Ki ishq daryosig'a band solmog'ing bisyor mushkuldur,
Ki, toqi ro'yi olam saddi roh etsang surulmazmu?

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin san
Agar bir dilni og'ritsang, yuzar Ka'ba buzulmazmu?

Jununni qo'zg'at, ey Mashrab, bular mahkumi tahqiqdir,
Ki tahqiq sirridin fahm etki, zulfidek tugulmazmu?

* * *

Tiriklikda judo bo‘lg‘an kishi yorini ko‘rgaymu?
Firoqi hasratida ko‘rmayin sarg‘ayib o‘lg‘aymu?

Bo‘lub hayron, kuyub biryon, visolin topmayin giryon,
Bahor ayyomida bulbul kabi gulg‘a qo‘shulg‘aymu?

Nechuk bedodlig‘ ish bo‘ldiki, man sandin judo bo‘ldum,
Oqarg‘an ko‘zlarimg‘a davlati diydor bo‘lg‘aymu?

Man ayturman: “Ko‘ngul uzg‘il!”
Bu ko‘nglum ko‘ngul uzmaydur,
Ko‘ngul ayturki: “Ey nodon, ko‘ngul berg‘an uzulg‘aymu?”

Kel ey soqiy, qadah sung‘il, bo‘layin masti mustag‘raq,
Inoyat bo‘lmasa Sandin, to‘kilg‘an kosa to‘lg‘aymu?

Azaldin oshno bo‘lmoq bataqdiri Xudo, Mashrab,
Bu hijron ilkidin, do‘stlar, g‘arib jomim qutulg‘aymu?

* * *

Maning jonimni kuydurmoq uchun oromijon gulrux,
Dilimni g‘ussadin to‘ldirdi ul nomehribon gulrux.

Ko‘ngul dog‘i ochildi, to‘biyi baxtim samar berdi,
Hidoyat gulshanida andalibi bo‘ston gulrux.

Qadaldi ko‘ksuma tig‘i balo paykoni — mujgoning,
Maning jonimg‘a jon berdiki, ul ofati jon gulrux.

Maningdek necha sargardoni bor yo‘lida o‘ltirgan,
Bo‘lib Majnun bu motam shahrida bexonumon gulrux.

Kamon abro‘larig‘a jon qushi sayd o‘ldi, naylarman,
Ki man, ul sho‘x chashmi fitnayi oxir zamon gulrux.

Muyassar bo‘lmadi manga avval-oxir haqiqatdin,
Qadam qo‘ydi ko‘ngulning kulbasig‘a mehribon gulrux.

Tamosho qilgudek fursat kerak toqat qilib bo‘lsa,
Yuzin ochib takallum ayladi shirin zabon gulrux.

Alamli Mashrab erdim, ul parining dardidin kuydum,
Mani oxir damimda qildi benom-u nishon gulrux.

* * *

Tasaddug‘ing bo‘loyin, ey pari, jamoling och,
Zavoli jon tilasang, husni bezavoling och.

Zilol chashmasidin Xizr topti umri tavil,
Manga baqolig‘ uchun chashmayi ziloling och.

Qad-u yuzungni qilib orzu ko‘ngul qondur,
Bu qonni ko‘rmak uchun g‘unchayi niholing och.

Ki, zulfung bilan qadding misoli jon derlar,
Ki jim, alif bilan nun yuzungda xoling och.

Hiloli iydki bir yil ichida ikki tug‘ar,
Bir oy boshida tug‘ilgan iki hiloling och.

Ko‘ngulning orzusi, ey jon, surohiy-u may derlar,
Maning mufarrahimga la’li bemisoling och.

Kelurmu o‘tru boshimg‘a hajr shomida ul oy,
Qilurg‘a faxr bukun Mashrabingga xoling och.

* * *

Mani ovvora bo‘lg‘ong‘a firoq o‘ti davo ermish,
Kuyub ishqing bilan o‘lmak bu oshiqqa ravo ermish.

Boqibon so‘z qotib o‘tsang mani sargashtag‘a, dilbar,
Na aylay Jannat-u hurni, manga shul muddao ermish.

Ayo olam aro yurgan, jahonni o‘tda kuydurgan,
Tarahhum aylabon ko‘rgil kamina benavo ermish.

Yetibdur halquma jonim, nechunkim sabr etay man zor.
G‘arib jonim olur bo‘lsang, nigoro, marhabo ermish.

Saning dardi firoqingdin yurokim tah-batah qondur,
Ko‘zum yoshlik, dilim g‘amlik, chu rangim kahrabo ermish.

Bu olamda mani mundog‘ giriftori balo qilding,
Qiyomat qozisi bo‘lsang, g‘am-u hasrat guvoh ermish.

Tamomiy olim-u zohid qulig‘a tuhfasin olsa,
Kuyub hayron bo‘lib oshiq niyozi oh-u voh ermish.

Na ayshi Jannati Rizvon, na parvoyi chaman bulbul,
Kezib olam aro yig‘lab so‘rog‘i dilrabo ermish.

Namoz-u taqvisin zohid qilur olam aro mashhur,
O‘gurub subhasin tinmay ishi doim riyo ermish.

Agar Mahshar kuni, Mashrab, ko‘ngulni sof etay dersan,
Tasadduq aylagin joning ul asno podsho ermish.

* * *

Agar har bandaga Xalloqi olam rahnamo bo‘lmish,
Shafoatgar Mahsharda Muhammad Mustafo bo‘lmish.

Sharobi antahuro chashmayi Kavsar nasib etgay,
Kishikim do‘stdori chor yori bosafo bo‘lmish.

Bo‘lub diydorjo‘yon oshiqi sodiqlaring, ammo,
Chekib dard-u balolar tolibi dardi balo bo‘lmish.

Yoshim-u ro‘yi zardimni ko‘rub holimg‘a rahm ayla,
Muhabbat o‘tig‘a kuyub yurak-bag‘rim ado bo‘lmish.

Qarong‘u kechalarda, Mashrabo, yig‘lab duo qilg‘il,
Ki Rahmonir-Rahiym otlig‘ gunohlarg‘a davo bo‘lmish.

* * *

G‘am-u darding rafiq aylab mudom oh urganim behroq,
Nadomatda to‘kub yosh, vasling izlab yurganim behroq.

Jahon maydonida yurgan, muhabbat o‘tig‘a kuygan,
Suyar qullar izini ko‘zlarimga surganim behroq.

O‘shal Majnuni hayrondek yurak-bag‘rim oqib ko‘zdin,
Sanamni hajrida sahro-vu cho‘lni kezganim behroq.

Muyassar bo‘lmasa Jannat ichinda davlati diydor,
Bihishttin kechibon Do‘zax ichinda kuyganim behroq.

Xazon bo‘lmay gulistoni bahori umr, ey Mashrab,
Sahar vaqtida bulbuldek fig‘onlar qilganim behroq.

* * *

Bir boqishinga jumlayi jonona tasadduq,
Shahlo ko‘zunga oqil-u devona tasadduq.

Gar pardasini ochsa-vu dilbar manga boqsa,
Mash’al yuziga man kabi parvona tasadduq.

Soqiy bo‘lubon sunsa qadah noz ila har dam,
Ul g‘amzasig‘a sog‘ar-u paymona tasadduq.

La’li labidin jur’ayi mayni tilab oldim,
Dur tishlariga gavhari durdona tasadduq.

Yusuf sifat ul jilva qilib kelsa qoshimg‘a,
Man o‘rgulayin, Ka’ba-vu butxona tasadduq.

Joningni agar ber desa ul dilbari ra’no,
Qurbon bo‘layin, yo‘lida hamona tasadduq.

Mujgon o‘qig‘a qilsa bu jonimni nishona,
Jonim berayin, tirig‘a mardona tasadduq.

Gulgun kiyibon chiqsa o‘shal dilbari ra’no,
Majnun bo‘lubon o‘rgulayin yona tasadduq.

Va’da qilibon aydi: “Jamolimni ko‘rarsan,
Vahdat mayidin ichki, bu paymona tasadduq”.

Mashrab sari zulfung tarasa, rashki kelodur,
Zulfing toridin bodi sabo, shona, tasadduq.

* * *

Lomakonning shahrida oshiqni shaydo qildi ishq,
Anbiyo-vu avliyolarni huvaydo qildi ishq.

Mustafoning nuridin yozildi shamsi vaz-zuho,
Nuriga sajda qilib, ma'nini paydo qildi ishq.

Jilvasini ko'rsatib zohirda elga rang-barang,
Or-u nomusdin kechib olamg'a g'avg'o qildi ishq.

San eshit ul dam Zulayxo necha yil chekti alam,
Yoshini o'n to'rt qilib, ko'r ko'zni bino qildi ishq.

Yoshi yetmishga yetib sotturdi o'zni Boyazid,
Ma'rifat bozorida, ko'rgil, ne savdo qildi ishq.

Shayx Shibliy, shayx Attor ul "Anal-haq" suhbatin
Qurdi, ichdi bodani, Mansurni dordo qildi ishq.

"Kufr aytti!" deb Nasimiy terisini so'ydilar,
Go'sht-u po'stin so'zlatib olamga go'yo qildi ishq.

Shayx San'ondin bo'lub to'rt yuz murid sohibkamol,
Ko'rdi tarsozodani xukbon-u tarso qildi ishq.

Bildi-yu eshitti Mashrabning qarori yo'q ekan,
Zohirin go'yo qilib, botinin bino qildi ishq.

* * *

Ne dimog‘im bor edi marg qildi mundog‘ bedimog‘,
Yonmag‘ay toat bilan Haq amridin o‘chgan chirog‘.

Koshki xokimga boshdin ko‘zagar dast urmasa,
Arzanega arzimas yo‘l ustida singan tavog‘.

So‘filarning mazhabida har zamon Mahshar erur,
Bizga chun Mahshar yaqin, g‘ofillariga ertarog‘.

Chunki dunyoda ziyoda shoxdur, jisming abas,
To bu sarmodin amon topmay samar bermas bu bog‘.

Holi mag‘rur jumla dastor-u fashiga manmane,
Tong-la Mahshar bo‘lsa ma’lum qaysi bulbul, qaysi zog‘.

Bu havolarni saringdin kanda qil, Mashrab, bu kun.
Chun Azozilning havosi gardaniga bo‘ldi dog‘.

* * *

Asli bilsang hujrayi dilga shariatdur chirog‘,
Bechirog‘ hargiz qadam qo‘ymas bu yo‘lda aqli sog‘.

Dil ko‘targin mardsan gardi taalluqdin bu kun,
Toki kesmay shoxidin hargiz samar bermas bu bog‘.

Gardaningdin langari Shayton hanuz tushguncha yo‘q,
Ey xari lang cholushungni chust qo‘y, yur ilgarog‘.

Umrum o‘tti, vo darig‘o, maqsud hosil qilmadim,
Yo‘l xatar keldi, bu yo‘lda oh uray, manzil yirog‘.

Zindalikda qadri umrungni bilib toatda bo‘l,
Bas, mabodo qo‘rqaman qo‘ldan tushib singay tavog‘.

Haq Taolo doimo mandin rizo bo‘lsun desang,
Osmonga yetsa boshing, bo‘lma hargiz baddimog‘.

Har suxandin daftar ochma bexabarning oldida,
Ma’rifatdin bexabar har yerda bo‘lsa kar qulog‘.

Bo‘lma nodonlarga hamdam, Mashrabo, qadring ketar,
Majlisi nodonlardin dur bo‘lmog‘ yaxshirog‘.

* * *

Nafsi sarkash muddaosidin Xudo bersun panoh,
Bul zamona muttakosidin Xudo bersun panoh.

Hirqayi bechora kiymoqlikmu rohi bandalik?
So‘fining dalqi riyosidin Xudo bersun panoh.

Jomayi malla kiyib qilg‘on ishi hiyla-vu makr,
Shayxi noqis xonaqosindin Xudo bersun panoh.

O‘zlari komilsifat, har luqmasi haqqi sag‘ir,
Yurtni ul sohibduosidin Xudo bersun panoh.

Lof urar “Abdoli vaqt — man!” deb, so‘zida ma’ni yo‘q,
Bul zamona rahnamosidin Xudo bersun panoh.

Mard lashkar yo‘sinida qo‘liga tasbeh olib,
Shayxning rangin asosidin Xudo bersun panoh.

Muttaqqiylik da’vi aylab, o‘zlarini pir tutub,
Oxiri vaqt porsosidin Xudo bersun panoh.

Bul qalandar jandasining torida zunnori yo‘q,
Boshig‘a kiygan kulosidin Xudo bersun panoh.

Mashrabi sho‘ridaning qilgan duosin qil qabul,
Ul saharxezning duosidin Xudo bersun panoh.

* * *

Ishqingda sani bo‘ldi yurak ham jigarim xun, —
Ey ko‘zlari bodom,
Furqat o‘ti ayladi bu ko‘z yoshimni Jayhun, —
Bergil manga bir jom.
Har kun tegadur ko‘ksima ming tiyri malomat, —
Hargiz xabaring yo‘q,
Xursand qilasan o‘zgani ko‘rsang mani purxun, —
Ul ham manga badnom.
Jonon biladur ishq o‘tini jonima solg‘ach, —
Evoh, netayin man.
Daryoyi ko‘ngul yoshini ul ayladi homun, —
Bo‘ldi manga ehrom,
Ko‘yungda sani bormu manidek yana bir qul, —
O‘lgincha jafokash?
Bormi(y)du jafo iqlimida man kabi Majnun? —
Jamshid ila Bahrom?
Ichgay sani deb xasta bu Mashrab xuni zardob, —
Ruxsori aning zard,
Rahm aylag‘ilu holima, bergil mayi gulgun, —
Qilmay mani nokom

* * *

Ko‘z uchi bilan dilbari ra’no manga boqti, —
Hayron bo‘la qoldim,
Yuz noz-u karashma bila yor qoshini qoqti, —
Sarson bo‘la qoldim.
“Jonimni olur bo‘lsang ol!” deb yoniga bordim, —
Kuldi: “Nari tur!” deb,
Bexud qilibon boshima savdosini soldi, —
Nolon bo‘la qoldim.
Aydimki, yana: “O‘rgulayin, qoshima kelsang”, —
Yuzini o‘gurdi,
Hushum ketibon ko‘zdagi yosg qon bo‘lib oqti, —
Giryon bo‘la qoldim.
Boskan izini ko‘zuma surttum nola aylab: —
“Dilbar qaydasan?” deb,
Chiqmadi sado, ishq o‘tini jonima yoqnti —
So‘zon bo‘la qoldim.
Oh urdimu aydimki, “Sani qayda toparman —
izlab?”. Dedi : “Sabr et!”
Hech qolmadi sabrim, jigarim suv bo‘lib oqti, —
Tobon bo‘la qoldim.
Mashrabga sahar yori shirin so‘z qotib o‘tti, —
Jondin kecha qoldim,
Devona qilib, jonim olib, billah(ki) yiqti, —
Qurbon bo‘la qoldim.

* * *

Ey moh, netay, ishqing o‘ti ayladi rasvo, —
Devona bo‘lubman,
Siynam kuyadur ishq o‘tida sanga ne parvo, —
Parvona bo‘lubman.
Ul damki o‘sh al moh yuzini bir yo‘li ko‘rdum, —
Chun xob-u xayoldek,
Nayrangi raqib o‘ldimu yo taqdiri Olloh, —
Begona bo‘lubman.
Man bandayi miskin yana g‘amnok-u hazinman, —
Sen pushti panohim.
Ummidi tarahhum bila man sanga, nigoro, —
Farzona bo‘lubman.
Furqatda kezib kecha-vu kunduz mani mahjur, —
G‘am dashtida doim,
Faryod-u fig‘on birlan chekib nola bilan oh, —
G‘amxona bo‘lubman.
Mashrab holini so‘rg‘ali olamda kimi bor, —
Kim dodig‘a yetgay?
Yo‘qdir bu buzug‘ dilni so‘rar mahrami dono, —
Mastona bo‘lubman.

* * *

Ul husni jamolingga bu olam chidayolmas, —
San xurshidi tobon,
Nogah kishi hech shahri vujudingga tusha olmas, —
Purfitanayi davron.
Bilmamki nechuk zot sani qildi muhayyo, —
Ey shami'i dilafruz,
Naqqosh bu naqshinggaki tashbih eta bilmas, —
Go'yo guli xandon.
Beparda agar chehrayi ruxsoringni ko'rsa, —
Bo noz-u pur ishva,
Jonim mani ming gard boqishingga nega bo'lmas, —
Ey sham'i shabiston.
Yuzumni qo'yub xoki rahingda berayin jon, —
Orzuyi ko'nguldur,
Bosgan qadaming tufrog'ini gardi topilmas, —
Man besar-u somon.
Bechora bu Mashrab kezibon topmadi izlab, —
Hayrona bo'lubman,
Hoziq tabibim, aylamasang jon chiday olmas, —
Bul dardima darmon.

* * *

Bul xasta vujudimni mani o'rtadi butkul, —
Ul zulfi parishon,
Ul gul yuzinig ishqida man vola-vu bulbul, —
Ul g'unchayi xandon.
Bir rahm qilib so'rmadi xolimni nechuk deb, —
Ul orazi gulgun,
Yuz va'da qilib birga vafo qilmadi bir yo'l ,—
Ul va'dasi yolg'on.
Parvonasifat ishq o'tida kuysam ajab yo'q, —
Bul dard-u alamdin,
O'tlar tutashur qilsa nigoh olama bir kun, —
Ul otashi javlon.
Ishqing o'tiga kuydi, na aylayki, bu jismim, —
Ovvozayi husnungki solib olama g'ulg'ul, —
El barchasi hayron.
Sansiz na qilay ushbu qarong'u jahon ichra, —
San-san manga mahvash,
Jonimni beray ayla qabul, ey mahi tobon, —
Jonim sanga qurbon.
Bir necha mahaldur anga man rozi dil aydim, —
Devonayi Mashrab,
Berahm ekan qoshima ul kelmadi bir yo'l, —
Ul zolimi davron.

* * *

Vaslingga yetay deb, sanamo, fikri g‘amim bor, —
Bir necha zamondur,
Hijron-u, firoq-u, alam-u, dardli dilim bor, —
Bag‘rim to‘la qondur.
“Vallayl” o‘qub ishtiyoqim sanga tushubdur, —
Hargiz xabaring yo‘q,
Xasratli yurak, dard-u malomat vatanim bor, —
Hajring chu yomondur.
Goh Majnun o‘lub dasht-u biyobonga chiqarman, —
Hamrohlarim ohu,
Goh Layli bo‘lub husni latofat chamanim bor, —
Xush gulshani jondur.
Gohi boshima toj qo‘yubon shoh bo‘larman, —
Ul davlati vasling,
Bul turfa ajab faqr eliga saltanatim bor, —
Jamshidi zamondur.
Ishq mazhabida savm, salot, but hama maqbul, —
Hargiz anga shak yo‘q,
Zohidlar aro toat-u taqvo xijilm bor, —
O‘z yo‘lum omondur.
Layli sanamim ko‘rdimu jonim bera qoldim, —
Oson qutulay deb,
Devonaligim holati Majnun asarim bor, —
Ishq yo‘li yomondur.
Bir kecha dedim: “Ey sanamo, qoshima borg‘il”, —
Yor aydi: “Sabr qil!”
Aydi: “Netayin, yonima, oh, shum raqibim bor, —
Ul bilsa yomondur”.
Tasdiqi so‘zum birdur, vale ikki emasdur, —
Vallohu billoh,

Ammoki xaloyiqqa ajab ikki tilim bor, —
Bul sirri nihondur.
Vaslingga yetay deb yana bul xastayi Mashrab, —
Doim jadal aylar,
Yig‘lab yugurib kecha-vu kunduz talabim bor, —
Ko‘ksim to‘la qondur.

MURABBA'LAR

* * *

Borsang salom ayt, ey korvonim,
Mazlum-u ojiz qolg'on onamg'a.
O'g'li uchun ham ko'p yemasin g'am,
G'am-u motamda qolg'on onamg'a.

Uchti xayolim parvoz aylab,
Kirdim adamg'a damsoz aylab,
Noma yuborgach takror aylab,
Shom-u saharlar giryon onamg'a.

Jazbi jununim lashkarkashimdur,
Taroji rohat doim ishimdur,
Sayd aylamoqg'a ojiz qushimdur,
Denglar payomim hayron onamg'a.

Yor-u begona jabri taraqqi,
Urdi alanga axyoli barqi,
Ayting payomim, jism o'tqa g'arqi,
Ishq o'ti birlan kuyg'an onamg'a.

Sulton Sotaqxon qildim ziyorat,
Ko'z yoshi birlan qildim tahorat,
Bo'lsun imorat, ro'zi Qiyomat,
Xirmoni hayrat etkon onamg'a.

Bodi sabog'a qildim payome,
Onamga borsang qilg'il salome,
Subhdin yiroqdur o'g'lungni shome,
Duo ijobat bo'lg'on onamg'a.

Ey korvonim, borsang Namangon,
Bechora Mashrab o‘g‘lingdu hayron.
Onam ko‘rubon aytg‘ilki chandon,
Pir xizmatig‘a solg‘on onamg‘a.

* * *

Hamd-u sanolar aytay Xudoga
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
Yetgaymu dodim nozuk adoga,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Shum toleyimdin ko'rdum jafoni,
Zolim raqiblar ko'rdi vafoni,
Holim so'r emdi, bergil davoni,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Bulbuldayinkim faryod etarman,
Ishq daftarini bunyod etarman,
Ko'nglumni bir dam man shod etarman,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar.

Qachon visoling bo'lg'ay muyassar,
Ishqingda kezdim ham bahr-u ham bar,
Dard-u alamga to'ldi ko'ngullar,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

G'am bahri qildi mavjini bunyod.
Ishqingda qildim ming oh-u faryod,
O'tti nigorim chun sarvi ozod,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Hajr ahli keldi tutti yoqamdin,
Bag'rim tilindi paykon-u g'amgdin
Faryod etarman ushbu alamdin,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

Sham'i firoqing ko'ksimda yondi,
Ko'z yoshim oqib bag'rimga tomdi,
G'aflatda qolgan Mashrab uyondi,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?

MUXAMMASLAR

* * *

Ishqingda yonmas oshiq devona bo‘lmag‘uncha,
Sham’ingga kuymagay ul parvona bo‘lmag‘uncha,
Bog‘lab belin bu yo‘lda mardona bo‘lmag‘uncha,
Boshg‘a olib malomat afsona bo‘lmag‘uncha.
Sevmas sadafin sarrof durdona bo‘lmag‘uncha.

Sansiz manga, nigoro, ikki olam kerakmas
Taxt-u baxti Sulaymon, manga xotam kerakmas,
Xizr umri zindaligi manga ul ham kerakmas,
Sansiz o‘lay, duo qil, manga bul dam kerakmas,
Jon-u tanim qolmadi begona bo‘lmag‘uncha.

Arshing kuyar ohimdin tong-la bo‘lsa Qiyomat,
Ins-u malak titrashib aytur “Nechuk alomat?”
Hur-u g‘ilmon, bihishting etishurlar nadomat,
Chiqsa ohim uchquni hech kim qolmas salomat,
Qolmas molik Do‘zaxing so‘zona bo‘lmag‘uncha.

Tushti boshimg‘a ishqing, larza qilib yig‘ladim,
Taqdir azal shundog‘ deb, belim mahkam bog‘ladim,
Oshiq ishi qattig‘ deb, oh-u vohlar ayladim,
Darding behad zo‘rladi, dargohinga yig‘ladim,
Rahm aylamas nigorim giryona bo‘lmag‘uncha.

Oshiq bo‘lsang tun-u kun jonni qurbon aylag‘il,
Dog‘i furqat dardidin doim afg‘on aylag‘il,
Zulfi chinlar kufrini zinhor imon aylag‘il,
Hajr-u mehnat jafosi tegsa pinhon aylag‘il,
Joningga jon ulashmas, jonona bo‘lmag‘uncha.

Nomus ketmas Hech kimdan ishqqa qadam qo‘ymasa,
Adham sifat dunyoni to pushti po urmasa,
Vosil bo‘lmas vaslig‘a yolg‘uz o‘zin sevmasa,
Rozi bo‘lub qazoga har o‘tig‘a kuymasa,
Topmas dilbar so‘rog‘in jo‘yona bo‘lmag‘uncha.

Vaqti bahor may ichgil, bilsang ishrat g‘animat,
Soqiy, sungil qadahni, fursat, sihat g‘animat,
Zohid aytur, yoronlar, tasbeh, toat g‘animat,
Mashrab qalandaringga dard-u mehnat g‘animat,
Ko‘rmas ma’shuq yuzini afsona bo‘lmag‘uncha.

* * *

Xudoning yodi birlan o‘tgan umrungni g‘animat de,
Vale beyodi Haq o‘tgan nafasni san qiyomat de,
Jahonning rohatini balki san o‘zungga mehnat de,
Bu dunyo lazzatini kimki tark etti bahimmat de,
Shafoatdin umeding bor bo‘lsa, tinmay Ahmad de.

Ato birlan anodin kechtilar, ummatni tuttilar,
Bu osiy ummat uchun doimo xunoba yuttilar,
Jahon lazzotidin chun Mustafo dilni sovuttilar,
Bu foniy dunyodin “Vo ummatim!” deb Ahmad o‘ttilar,
San ham ummatdu(r)san jon-u diling birlan Muhammad de.

G‘ami ummat uchun dunyoda rohat ko‘rmay o‘ttilar,
Jahong‘a keldilar xobi farog‘at ko‘rmay o‘ttilar,
Bu osiy ummat uchun bir halovat ko‘rmay o‘ttilar,
Ki ummatdin digar dunyoni ko‘zga ilmay o‘ttilar,
San ham ummatdu(r)san jon-u diling birlan Muhammad de.

O‘shal ro‘zeki Hazrat Qoba qavsaynoga bordilar,
Hijob-u pardani tashlab Xudo birlan gapurdilar,
Hamadin kechtilar, Ahmad tilab ummatni oldilar,
Bihishtga g‘ayri ummat kirmayin deb va’da qildilar,
San ham ummatdu(r)san jon-u diling birlan Muhammad de.

Tamomi molim-u jonim Muhammadning fidosidur,
Imonning ravnaqi ul nuri Ahmadning ziyosidur,
Nabi-yu avliyolar — jumla ul Shohning gadosidur,
Haqiqat bahrining Ahmad duri qimmatbahosidur,
San ham ummatdu(r)san jon-u diling birlan Muhammad de.

Kel ey Mashrab, bularga aytib o‘t na’ti Hazratni,
Dil-u joning bilan yod aylagil doim Muhammadni,
Ki shoyad ro‘zi qilg‘ay tong-la Mahsharda shafoatni,
Duo qildi: “Iloho, mag‘firat qil jumla ummatni”.
San ham ummatdu(r)san jon-u diling birlan Muhammad de.

* * *

Ey musulmonlar, netay, man yordin ayrilmisham,
Fitna chashm-u sho'x-u xushraftordin ayrilmisham,
Bulbuli sho'ridaman gulzordin ayrilmisham,
Qoshlari yo, ko'zlari xunxordin ayrilmisham,
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Ul bahori husnidin oxir judo bo'ldum, netay?
G'am bilan mehnat qo'lida mubtalo bo'ldum, netay?
Vasl shohidin judo bo'lg'on gado bo'ldum netay?
Dardi furqatga giriftori balo bo'ldum netay?
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Har pari bo'lg'on bilan andog' shakarguftor emas,
Xanda aylab gul masallik, sarvi xushraftor emas,
Lablaridin jon bag'ishlab, ko'zlari xunxor emas,
Kecha-kunduz bu dilimga g'amdin o'zga yor emas,
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Gul xazon bo'ldi-yu bulbulg'a guliston qaydadur?
Bu ko'ngul taxtig'a o'lturmoqqa sulton qaydadur?
Moh tal'at bo'ldi g'oyib, nuri iymon qaydadur?
Haqni botildin ayirmoqqa suxandon qaydadur?
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Bog'i olam gullari ul husng'a shaydo erur,
Kechani kunduz qilurg'a gavhari yakto erur,
Sho'x-u tannoz-u jahon ichra ajab barno erur,
Furqatida zor yig'lar, ko'zlarim daryo erur,
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Saydi domingg‘a solib ketting na deb, ey shohboz?
Man sani qaydin toparman izlasam, ey sarvinoz,
Sarvi xushraftor eding, faqr eliga dilnavoz,
Mahv etibsan Mashrabi devonani, ey beniyoz,
Bir pari tal’at shakarguftordin ayrilmisham.

* * *

Qanotsiz bulbulidurman, uchib gulzor topmayman,
Saning holing nechuk deb so‘rgudek g‘amxor topmayman,
Ko‘ngul dardiga darmon bo‘lgudek dildor topmayman,
Bu olamda o‘zumdek siynasi afgor topmayman,
Bu dahri bevafoda mahrami asror topmayman.

Quloq sol, ey sitamgarkim, so‘ray sandin g‘amim pinhon,
Nechuk avvalda berding san manga bul va’dayi yolg‘on?
Xaloyiq ta’niga qo‘ydung mani oxir, san ey jonon,
Firoqing dashtida labtashna erdim, zor-u sargardon,
Labing zilolidin paymonayi sarshor topmayman.

Bo‘lub Majnuni hayroning boshim olib ketib har dam,
Saning vaslingni yod aylab, fig‘on-u dod etib har dam,
Judoliq sharbatin bir zahri qotildek tatib har dam,
Muhabbat jomidin bir no‘sh etib, jondin kechib har dam,
Analhaq aytibon Mansur yanglig‘ dor topmayman.

Yamon fe’lim ko‘rub xalqi jahon mahrum qo‘yar nomim,
O‘tar behudalik birlan oxirda jumla ayyomim,
Mubaddal bo‘lmadi hech subhi vaslida bu g‘am shomim,
Misoli bulbuli sho‘rida, Mashrab, yo‘qtur oromim,
Qo‘nay desam chamanda bir guli bexor topmayman.

MUSADDASLAR

* * *

Ne g‘urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin,
Mudom motamda qoldim, bo‘lmadim dilshod dastingdin,
Tamomi xonumonim bo‘ldi chun barbod dastingdin,
Qafasdin bo‘lmadimkim, qumridek ozod dastingdin,
Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Dilimning quvvati, ruhi ravonimdin ayirdilar,
Ko‘zimning oqi yanglig‘ mehribonimdin ayirdilar,
Azizim, hamdamim, oromijonimdin ayirdilar,
Jahon gulzorida ul gulistonimdin ayirdilar,
Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Chamanda bulbuli sho‘ridadurman, oshyonim yo‘q,
Misoli chug‘zdek vayronalarda ham makonim yo‘q,
Vafolig‘ yor deb chiqti, jasadda balki jonim yo‘q,
Azizimdin judo bo‘ldum, boshimda soyabonim yo‘q.
Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Manidek g‘amda qolg‘on, dilparishon o‘lmasun hech kim,
Ko‘zi chun termulub yo‘llarda hayron o‘lmasun hech kim,
Bahori gulshani umri zimiston o‘lmasun hech kim,
Bu dunyo diydasig‘a torikiston o‘lmasun hech kim,
Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Umidim bor, yetkurgaymusan xurshidi matlabni,
Saodat burjidin ul sham’i iqbolimg‘a kavkabni,
Ko‘targaysan boshimdin ikki olamda qaro shabni,
Yetushturg‘aymukin himmat yo‘lig‘a xasta Mashrabni,
Hama obod bo‘ldi, bo‘lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

* * *

Ey pari, yuz ko‘rsatib ming noz ila boqqanmusan?
Xirmani umrimg‘a ishqing o‘tini yoqqanmusan?
Mehridek husnungga zulfung abrini yopqanmusan?
O‘zga yuzga boqma deb, ko‘zumga mix qoqqanmusan?
Qatl eturg‘a qasd etib bag‘rimg‘a tig‘ chopqanmusan?
Aylanib har yona g‘amzang o‘qini otqanmusan?

Sunbul-u rayhon sochar har dam parishon kokulung,
Barchani bulbul qilur ul toza ochilgan gulung,
Mast etar ag‘yorni lab jomidan gulgun muling,
La’li marjonlar to‘kar ko‘z maxzanidin bulbuling,
Iltifoting maxzanidin topmadi mahzun quling,
Tole’yimg‘a lutf-u ehson eshikin yopqanmusan?

Shodlik manga yiroqdur, maskaning mayxonadur,
Tun-u kun ishrat mayidin ko‘zlaring mastonadur,
La’lgun may tobidin yuzungda ming durdonadur,
Jon umid aylab o‘shal durlar uchun parvonadur,
Dard-u mehnat toshidin ko‘nglum mani vayronadur,
Notavon ko‘nglimg‘a har dam dog‘lar bosqanmusan?

Qo‘lda shakli tirnog‘ing iydi hilolimdur maning,
Kim anga hayronligim daf’i malolimdur maning,
Ko‘zni giryon husnunga qilg‘on xayolimdur maning,
Itlaring sonida o‘lmaklik kamolimdur maning,
Tanda har yon o‘qlaringkim navniholimdur maning,
Ko‘nglum olib o‘rtamoqg‘a jonga o‘t yoqqanmusan?

Mandin o‘ldung ne uchun, ey dilrabo, oshufta hol?
Barcha el ko‘ngul qushung tutmoq uchun aylar xayol,
Lola yanglig‘ yuzlaringdur, qoshlaring oydek hilol,
Dam-badam suv o‘rnig‘a la’ling to‘kodur jomi bol,
Sarv shoxin har tarafg‘a moyil etgandek shamol,
Jilva aylab qayrilursan ximchayi larzonmusan?

Xo‘b yaroshur, ey nigorim, boshing uzra qarqarang,
Ushbu ziynatlar bilan bul notavonga bir qarang,
Tarki zulm et lahzaye rahm ayla, ey shohi farang,
Qorasi xo‘bdur qoshingga o‘sma birlan surmarang,
Turfa nozik gul yuzungdur kifriking sanchib xadang,
Barcha mahvash ishq aro qul, husn aro sultonmusan?

Boda ichsang gul ochilg‘ondek qilursan xandalar,
Jon topar qah-qah unungdin qaytadan jonkandalar,
Tiyri g‘amzangdin yo‘lungda har taraf afkandalar,
Barcha zebolar sani ko‘rsa bo‘lur sharmandalar,
Layli-yu Shirin kabi ko‘yingda yuz ming bandalar,
Barcha yuzni nopadid etgan mahi tobonmusan?

Qatl uchun kiygan to‘ningni gul bilan tikkanmudur?
O‘lturub boq har taraf andin sochilg‘on qonmudur?
Har biri guldek yuz ochib san kabi jononmudur?
Tig‘ ursang qochmayin qolg‘an quling nodonmudur?
Noz-u g‘amzang tiyg‘i birlan o‘lmag‘an ham jonmudur?
O‘tmusan yo gulmusan yo la’lmusan, marjonmusan?

Otashin la’li mayidin jur’aye qildim talab,
Va’da qilding lutf-u ehsondin beray deb labbalab,
Boqmading, bilmam gunohim, ko‘z uchi birla qarab,
Bul ajab mahrumluqlar bizga bo‘ldi ro‘z-u shab,
Ne sababdin quvlading man xasta qulni tashnalab?
Aytg‘il Tangri uchun, chinmu so‘zung, yolg‘onmusan?

Jonni yuz ming pora qildi, dilrabo, nozing saning,
Elni qurbon aylamakdur kunda andozing saning,
O‘ldururga, tirgizurga yo‘qtur anbozing saning,
El so‘zingdin jon topar — jondurki alfozing saning,
Sharh qil, jonon, nadur husnungga parvozing saning?
O‘rgulay, ey dilrabo, yo jonmusan, jononmusan?

Qatl etar har kunda ming bechorani kofir ko‘zing,
Kecha ishrat birla, qon to‘kmoqda o‘tgay kunduzing,
Qaysi shohni haddi man’ etmoqqa — hokimsan o‘zing,
Lahzada yuz ming kishiga jon ato aylar so‘zing,
G‘unchadek og‘zing ochib,
Mashrab qulungni tirguzing,
O‘ldirursan, tirguzursan — Isoyi davronmusan?

* * *

Ey g‘unchayi navxezi gulistoni malohat.
Ey toza niholi chamanoroyi nazokat.
Zulfi siyahing fitna-vu, xol-u xating — ofat,
Yo‘lingda tegar boshima ming sangi malomat,
Maqbulsan, ey dilbari xush lahja bag‘oyat,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Ul xoliki kunji labi jonona tushubdur,
Jon olmoq uchun ko‘zlari mastona tushubdur,
Hindubachaye mulki Sulaymona tushubdur,
Ul chohi zanaxdoniga bir dona tushubdur,
Chun Yusufi Kan’onki bu zindona tushubdur,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Gulg‘unchayi nozik badanim, lolauzorim,
Shamshod qadim, siym tanim, chashmi xumorim,
Husn mulkini sultoni o‘zing — shohsuvorim,
Kel oldima, jon sadqa qilay sanga nigorim.
Ham sabr-u qaror qolmadi ham dilda madorim,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Husnung varqida o‘qudum turfa ajib xat,
Yokim yasamishlar tabaqi la’l-u zabarjad,
Raftoring ila qomating, ey to‘biyi xushqad,
Bir shevayi noz ila agar nek-u agar bad,
Jonim berayin zulfi siyohingga mujarrad.
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Ey mug‘bacha, marg‘ublig‘ing haddin o‘tubdur.
Ovozayi husnung hama olamni tutubdur,
Gul’uzori jamolingga gul-u lola butubdur,
Mashshotayi taqdir sani xush yasatubdur,
Yuzing ko‘rub Odam toqi Jannat unutubdur,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Bul turfa xiromi qilibon necha tamanno,
La’lingga yozilgan xati sabzang guli ra’no,
Qoshing qalam-u sham’i jamoling chamanoro,
Bul tarzi jamolingga qilibsan mani shaydo,
Kuydim, mani yod etmading, ey mahvashi zebo,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Davron eli bul tarzi nigohingga tasadduq,
Ohuyi Xo‘tan chashmi siyohingga tasadduq.
Jononayi Chin zulfi dutohingga tasadduq,
Bag‘dod ila Rum tarfi kulohingga tasadduq,
Man ham bo‘layin ro‘yi chu mohingga tasadduq,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Har dam mani bechora qilib dod ila afg‘on,
Ko‘yingda yurubman necha yil besar-u somon,
Ul sarv qading yodila qumri kabi nolon,

Qurboning o‘lay, muncha mani qilma parishon,
San jumla jahon sarvari, jononayi davron,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

Kokullaring halqasini oy ko‘rubman,
Jon rishtasin har torig‘a barjoy ko‘rubman,
Kipriklaring o‘qlarini yoy ko‘rubman,
Gisularing sunbulini barpoy ko‘rubman,
Mashrabni o‘zum oshiqi xudroy ko‘rubman,
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam jonima rohat!

MUSAMMAN

* * *

San aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Qadam bu yo‘lga durust qo‘yki rahnamo chorlar,
Duo talab kishini sohibi duo chorlar,
Bu yo‘lning rahravini yaxshi peshvo chorlar,
Qiyomat kunida har kimni oshno chorlar,
Hamisha muntaziri bo‘lki, podsho chorlar,
Xudo talab kishini oxiri Xudo chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Nishoni bandalik uldurki, ahli toat bo‘l,
Mudom ko‘shishi qilg‘il payravi shariat bo‘l,
Hamisha xoksor-u sohibi tariqat bo‘l,
Umedvori duri ul bahriyi haqiqat bo‘l,
Xudoga tashlab o‘zungni g‘ariqi rahmat bo‘l,
Ki jon-u dil bila sa’y et Rasulga ummat bo‘l,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Hazor shukr, Xudo qilmadi bizni Barsiso,
Misoli Bul’ami Bouridek ahli havvo,
Juhud-u armaniy qilmadi, yana tarso,
Ki ummat etti Ahmadga, mo‘min etti Xudo,
Yana chu qildi bizni g‘arqi mag‘firat daryo,
O‘shandog‘ oyati lotaqnato bizga guvoh,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Hamadin ilgari xalq etti Ahmadi Xudo,
Tufayl Hazrat hama xalq bo‘ldi, kulli ashyo,
Ki Arsh-u Kursi, Lavh, Qalam-u bul Arz-u Samo,
Yaratdi qismi xokdin bu Odam-u Havvo,

Usjudu, dedi, malak qildi amrini barjo,
La'in bo'ldi judi bori bilan qaddi duto,
Sen aslo g'am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Azaldin xalq etib qildi farishtadin a'zam,
Aning uchun Xudo lutf bilan qildi karam,
Tufayli Siz yaratildi u hazrati Odam,
Ki rashk qildi bizdin, ul La'inga tushti g'am,
Kuyar hazor Jahannam tushsa ustiga soyam,
Charoki soyayi Arshda Rasuldur hamsoyam,
Sen aslo g'am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Hamadin ilgari g'arqi bahri rahmatmiz,
Ki ahli Do'zax emasmiz, ahli Jannatmiz,
Xudoning bandasimiz, loyiqi saodatmiz,
Hazor shukur qiling, mo'min, Rasulga Ummatmiz,
Ki ahli sunnat-u ham payravi shariatmiz,
Nechuk saodat erur sohibi bu davlatmiz,
Sen aslo g'am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Nazar qil aslinga avvalda mis emang, zarsan,
Azalda, bahri haqiqatda durri gavharsan,
Nazarda mazhari gulsan, ki koni javharsan
Ki, qo'yma hamdini tildin qabuli Akbarsan,
Hamisha shukr qil, ey, ummati Payambarsan,
Abubakr-u Umar, Usmon Aliga chokarsan,
San aslo g'am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Harami xosiga doim bo'lay desang mahram,
O'zungni urg'il-u yig'la Shuaybdek har dam,
Jahonni barham urib ket misoli ul Adham,
Bu yo'lda shod-u g'am birlanki bo'lmag'il hamdam,

Jahoni ko‘hnada turmay ketibdurlar Odam,
Safarning mashg‘uli bo‘l, bog‘la raxtingni, ey beg‘am,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Topib davr obi nadomatga parvarish gilmiz.
Aningchun g‘am-u hasrat bo‘lubtur hosilimiz,
Teshildi nashtari g‘amdin butun emas dilimiz,
Fig‘on-u nola qilurmiz, chamanning bulbulimiz,
Ki nuh falakka yetib andin o‘tib g‘ulg‘ulimiz,
Bihishtning tovusimiz, Arsh bo‘ldi manzilimiz,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Ne g‘amdur bizga chun ozodayi alast kelduk,
Ki qavmi digar ermasmiz, Haqparast kelduk,
Sharoban tahuroni ichibon chu mast kelduk,
Bihishtda hur-u qusurlarg‘a hamnishast kelduk,
Alastlikmiz agarchi munda mast kelduk,
Nabiyning xizmatida jumla dast badast kelduk,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.

Rasulning na’tig‘a umrini aylab ado Mashrab,
Safoyi qalb topib, bo‘ldi dilbino Mashrab,
U xonadonig‘a qilib jonin fido Mashrab,
Sabab bul erdi shahid bo‘ldi purbalo Mashrab,
Xudoning oldida yig‘lab bu dodxoh Mashrab,
Tamomiy ummatig‘a bo‘ldi xunbaho Mashrab,
Sen aslo g‘am yema, ey banda, Rabbano chorlar,
Shikasta ummatisan, tong-la Mustafo chorlar.


MASNAVIY

Ishq topti Hazrati Odamg‘a joy,
Zor-u zor yig‘lab Havo deb urdi voy.
Ishq Dovudni chunon xushxon qilib,
Necha savtda xonishi Qur’on qilib.
Ishqi aylab Zikriyoni zokiri,
Arra birlan kesti jumla kofiri.
Ishqi aylab Hazrati Ayyubni xam,
Qurtqa yem qildi necha tortti alam.
Ishqi aylab Ibrohimni korini,
Otashi Namrud topib gulzorini.
Ishq Ismoilni ozmoish uchun,
Jonidin kechurdi qurbonlash uchun.
Ishqi Ya’qubni chunon ko‘r ayladi,
Olami odamg‘a mashhur ayladi.
Ishq Yusufni qilib chohga asir,
Chun Zulayxo ishqidin bo‘ldi basir.
Ishq Yunusg‘a bo‘lubon hamdamiy,
Chun balig‘ qornida bo‘ldi beg‘amiy.
Ishq bo‘ldi Hazrati Musoga soz,
Ko‘hi Tur ustini qildi joyi roz.
Ishq Muso qo‘lig‘a berdi aso,
Gohi ko‘fruk bo‘lidi goho ajdaho.
Zarrayi ishq Hazrati Vays ul-Qaran,
Boshig‘a tushti-yu bo‘ldi xushman(d).
Zarra ishq Mansurni beroh ayladi,
Dorning ustida ma’vo ayladi.
Zarrayi ishq Boyazidg‘a bo‘ldi do‘st,
Do‘stlug‘ini oldi, qoldi mag‘z-u po‘st.
Zarra ishq Ibrohim Adham ayladi,
Toj-u taxt-u saltanatni tashladi.

Ishq tushti Robi'aning jonig'a,
Yurmadi ul nafsining farmonig'a.
Zarra ishq Harqonig'a bo'ldi nasib,
G'arq bo'ldi bahri rahmatga kirib.
Zarrayi ishq Naqshbandg'a qo'shulub,
Arsh-u Kursi lahzada yuz cho'rgulub,
Zarra ishqni Shamsi Tabriziy topib,
Po barahna, sar barahna charx urib.
Zarraye ishqni topdi Mavlonoyi Rum,
Qiyl-u qol barbod qildi ham ulum.
Zarraye ishq tushti San'on boshig'a,
Dinini barbod berdi to'qson yoshig'a,
Zarra ishq Mashrabg'a bo'ldi poydor,
Qatrayi may ichg'ali bo'ldi xumor.

SO‘FI OLLOYOR





"SABOT UL-OJIZIN" ASARI HAQIDA

XVII–XVIII asr turkiy ilmiy-ma'rifiy adabiyotining yirik vakili So'fi Olloyor 1663-yili Kattaqo'rg'ondagi O'tarchi qishlog'ida Olloquli xonadonida tug'ilgan. O'tarchi qishlog'i Kattaqo'rg'on shahridan oqib o'tuvchi Nahripay daryosi yoqasidagi Saripultepa qishlog'iga tutash bo'lgan hududda joylashgan.[1] Ma'rifatli xonadonning farzandi sifatida So'fi Olloyorning ongli faoliyati Abdulazizxon (1645–1681), Subhonqulixon (1680–1702), Ubaydullaxon II (1702–1711) va qisman Abulfayzxon (1711–1747) xonlik qilgan davrlarga to'g'ri keladi. "Tuhfatul ahbob" tazkirasida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqilsa, So'fi Olloyor 1696-yillardan keyin Hoji Muhammad Habibulloh va Xalifa Navro'z Keshiy xizmatiga kelib, mujaddidiya-naqshbandiya suluki ta'limotini o'rganishga kirishgan. U Xalifa Navro'z ko'rsatmasiga binoan, Kesh madrasalaridan birida ham ta'lim olgan.

So'fi Olloyorning ilmiy-adabiy merosi turli manbalarda turlicha qayd etilsa-da[2], ammo fanga ma'lum va qo'limizda mavjud asarlari to'rtta. "Murod ul-orifin" asarida So'fi Olloyor o'zining asarlari qanday ketma-ketlikda yaratilganini aytib o'tgan: "Do'stlar maslahati bilan "Maslak ul-muttaqin", so'ng "Sabot ul-ojizin", so'ngra "Maxzan ul-mute'in" yozilganidan keyin din muhiblari

[1] *Qarang:* "Kattaqo'rg'on: kecha va bugun". (Mualliflar guruhi.) Samarqand, 1994.

[2] "Sabotul ojizin". Shayx Muhammadsaid Turkistoniy tahqiqi. "At-taraqqiy", Damashq, 1967-y. 3-4-betlar. Hoji Po'latqori. Sabot ul-ojizin. T.,"Mehnat", 1991, 6-bet; Meliqul Xanjar. Vaxshivor va So'fi Olloyor. Termiz, "Jayhun", 1993, 15-bet; Ibrohim Haqqul. So'fi Olloyor — mutasavvif adib. To'plam. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Tehron–Toshkent, 2005, 29-bet; Sayfiddin Sayfulloh. Fatvo va taqvo kitobi. T., "Fan", 2005, 4-bet; Ravshan Mirzayev. So'fi Olloyorga zamon boqajak.T., "Fan", 2007, 17-bet; Inoyatullo Suvonqulov. Ko'zing ibrat bilan och. Samarqand, 2011, 5-bet.

e'tiqodga muvofiq, tasavvuf va hidoyat yo'li haqida bir kitob yozishimni iltimos qildilar". Demak, "Murod ul-orifin" asari So'fi Olloyorning oxirgi, to'rtinchi kitobidir.[1] So'fi Olloyor bu asarlarini 1700–1724-yillar oralig'ida yozgan. Shu davrlarda Kattaqo'rg'on, Samarqand, Buxoro, Cho'nqaymish, Kesh, Nasaf, Qoratikan kabi shahar va mavzelarda turli fursat istiqomat qilgan. Umrining oxirgi damlarini Vaxshivor qishlog'ida kechirib, 1724-yili shu qishloqda olamdan o'tgan.

"Sabot ul-ojizin" ("Ojizlar saboti") kitobi qariyb uch asr mobaynida madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan, boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom e'tiqodni shakllantirish dasturi sifatida tan olingan asardir. Shuning uchun ham ayrim manbalarda qisqartirib "Sabot", xalq orasida "So'fi Olloyor" degan nom bilan tanilgan bu asarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari turkiy tilda so'zlashuvchi dunyo mamlakatlari bo'ylab keng tarqalgan. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida asarning jami 132 ta nusxasi bo'lib, shulardan 79 tasi qo'lyozma, 53 tasi toshbosmadir.

1680 baytlik "Sabot ul-ojizin" asari har biri alohida mavzu bilan ajralib turuvchi 81 ta manzuma — she'riy tizmadan tashkil topgan.[2] Kitobning tarkibiy tuzilishini undagi ayrim tashqi va ichki belgilaridan kelib chiqib, shartli ravishda shunday tasnif qilish mumkin: aqida ilmiga oid mavzular bayoni, hikoyatlar, munojotlar, nasihatlar. Hazaji musaddasi maxzuf bahrida, *mafoilun mafoilun faulun* (v– – –v– – –v– –) vaznida bitilgan "Sabot ul-ojizin" asari mazmun va tuzilishiga ko'ra aqoid kitobi bo'lib, unda aqida masalalari bilan birga sof insoniy fitrat va axloqiy fazilatlar go'zal hikmatlar, ibratli hikoyatlar orqali bayon qilingan.

Rashid Zohidov,
filologiya fanlari doktori, professor

[1] To'plam. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Tehron–Toshkent, 2005, 46–47-betlar.

[2] Raqamlar ilmiy-tanqidiy matn tarkibidagi baytlar va bo'limlar asosida keltirilyapti.

SABOT UL-OJIZIN

Hamd

Sano lil xoliqi g'abrou aflok,
Yaratti qatrayedin gavhari pok.

Samovot uyini tutdi muallaq,
Jahona hukmini ko'rsatdi mutlaq.

Qilib g'abro madorin zimmayi hut,
Bani Odamg'a andin qism etar qut.

Padid etdi jahon ichra favosil,
Qilur har fasl turluk nash'a hosil.

Ajab sun'u, ajab ahkomi taqdir,
Qilur bir qursdin olam ko'zin ser.

Iroda qilsa ul Hayy-u tavono,
Qilur bir lahzada bilmasni dono.

Safiy tufrog'in etgach, jon ila jism,
Nechukkim, ayladi donoyi har ism.

Xalos etsa birovni Rabbul aflok,
Qolur tog' ostida, andin chiqar pok.

Nechukkim, tutdi to'fon dasht-u tog'i,
Va lekin bo'lmadi ho'l Nuh oyog'i.

Xalilulloh uchun yondurdilar nor,
Qadam qo'ymay o'shal o't bo'ldi gulzor.

Baliq qornida bir sohib karomat,
Chila[1] o'ltirdi-yu, chiqti salomat.

[1] Mazkur so'z aslida forscha "chilla", ya'ni qirq (40) sonini anglatib, vazn e'tibori bilan matnda "chila" deb talaffuz qilinyapti.

Kalim ilgindagi qutlug‘ asoye,
Gahe ko‘fruk edi, gah ajdahoye.

G‘araz qudratnamolig‘ erdi, ey do‘st,
Vagarna erdi bir qad cho‘bi bepo‘st.

Agar amr aylasa, kavnayn barpoy,
Bo‘lur bir pistaning po‘chog‘ina joy.

Dedilar, hazrati Ruhul aminni,
Qanot yozsa, tutar ro‘yi zaminni.

Aningdek Jabroile sidra parvoz,
Muhammad yengida aytur edi roz.

Agar qilsa birovning haqlig‘in fosh,
Shahodat bergusi gahvorada yosh.

Aziz etsa qay-u qulni o‘shal shoh,
Agar choh ostig‘a tushsa topar joh.

Sulaymon xizmatida qildi parvoz,
Hisobin bilmagan shohin-u shohboz.

Vale bir mushtpar hudhud edi payk,
Dedi sultonig‘a: “Oriy-u labbayk”.

Madad qilsa Xudoye olamoroy,
Habib etsa ishorat, ayrilur oy.

Kalimin chehrasin qilmas uchun zard,
Chiqardi lahzada Nil ostidin gard.

Kishining ro‘zisin gar qilmasa kam,
Yetar har yerda mehnat qilmasa ham.

Nechukkim, hazrati Solih uchun fosh,
Bolalig‘ teva tug‘di hukmidin tosh.
Yubordi ro‘ze Maryama malakdin,
Masiyha moida tushdi falakdin.

Azalda har kishini aylasa sa’d,
Xalil o‘g‘lidek etsa sodiqul va’d.

Agar zabh etsalar, qaytarmag‘ay qosh,
Ko‘runmas bosh aning oldida bir mosh.

Kima bersa jaholat xamridin jom,
Bihisht oldig‘a kelsa, bosmag‘ay gom.

Yetar rahmat suyi ko‘k kavkabina,
Yetushmas qatraye gumroh labina.

Ko‘rung Bu Tolib ila Bu Lahabni,
Ulug‘ daryo labinda xushk labni.

Agarchi o‘t bila suvda bo‘lur farq,
Chiqardi suv makonidin nechuk barq?

Agar chandiki, sham’ o‘tdin bo‘lur jam’,
Qaro suvdin qilur ko‘z nuridek sham’.

Qay-u bir qudratin qilmoq kerak yod,
Erur qosir uquli odamizod.

Hazrat Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam sifatlarining bayoni

Durudi beadad hodiyi ding‘a,
Rasuli “rahmatan lilolamin”g‘a.

Xudoning do‘sti muxtorul qurayshiy,
Mudom ummat uchun talx erdi ayshi.
Emas mavjud aningdek gavhari pok,
Dalil uldurki, kiydi toji “lavlok”.

O‘shal shohanshahikim, sham’i dindur,
Aning parvonasi Ruhul Amindur.

Dedi Ma’bud aning otin “Muhammad”,
Maqomatig‘a hargiz yetmadi had.

Tushurmay yer yuziga soyasini,
Yeturdi Arsh uyiga poyasini.

Qadam bosqon manozil erdi pur atr,
Sahobul abyaz erdi boshida chatr.

Jamoli ne’mati matlubi kavnayn,
Kamolidin muyassar “qoba qavsayn”.

Sharofat mundin o‘tmas — sunnat-u farz
Yurusa to xuruji Dobbatul arz.

Hama dindin bo‘lubdur dini bolo,
Guvohi hazrati Vojib Taolo.

Aning avsofini yo‘q intihosi,
Nag‘u, yetmas desa vasfin Xudosi.

Xudoning rahmati bo‘lsun damodam
Aning avlodig‘a, as’hobig‘a ham.

“Sabot ul-ojizin” kitobining yozilish sababi

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqidot-u furu' qurbi mahbub.
Anikim, ko'rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar: "Gar duo qilsa eranlar.

Bitilsa turkiy til birla aqida,
Ko'ngullar bo'lsa andin oramida".

Tamalluq qildilar chun bir necha yor,
Qalam tortay, Xudo bo'lsun madadkor.

Va lekin aylayin so'zlarni ijmol,
Manga yo'qtur mufassal qilg'ali hol.

Mane bechora, chunki omidurman,
Giriftori malomat domidurman.

Erurman bandalarning sarniguni,
To'lay yor-u birodarlar zabuni.

Agar chandiki, bo'lsam mag'zi yo'q po'st,
Ishorat qildilar, chun bir necha do'st.

Alarning so'zlarin buzmay mane zor,
Savod etdim necha manzuma nochor.

Aqida so'zlarini qildim isbot,
Munga qo'ydum "Sabot ul-ojizin" ot.

O'zimdek xastalar bo'lg'aymu deb shod,
Nasoyihdin ham andak ayladim yod.

Nasihat tinglamas dil saxt, mahjub
Ko'karmas tosha yog'mur yog'sa ham ko'b.

Olloh taoloni tanimoq bayoni

Nedur qulluq ani mushtoqi bo‘lmoq,
O‘zidin foni Haqg‘a boqi bo‘lmoq.
Tonimog‘ Tangrini tonmog‘ havodin,
Keyin turmog‘ fa’oli noravodin.

Bo‘yinsunmog‘, yugurmog‘ “qil!” demishda,
Qazog‘a rozi bo‘lmog‘ barcha ishda.

Umid etmog‘ o‘shal qudratli Shahdin,
Yonardin xavf etib, yonmog‘ gunahdin.

Yaqin bilmog‘, jamoat e’tiqodin,
Keyin solmog‘ muxolif ijtihodin.

Aqida bilmagan shaytona eldur,
Agar ming yil amal deb qilsa, yeldur.

Uyolma ma’rifatni o‘granurdin,
Tanur joying bo‘lur, qolsang tanurdin.

Uyolmasdur talab amrini olg‘on,
Qolur yaxshi uy olmog‘din uyalg‘on.

Olloh taoloning birligi bayoni

Xudovandiki, birdur beshak-u rayb,
Ravo yo‘qdur anga o‘rtoq ila ayb.

Aning farmonidin hech kim qutulmas,
Tavonodur hamisha, o‘zga bo‘lmas.

Erur ul barcha olamning Xudosi,
Aning yo‘q ibtidosi, intihosi.

Erur hozir hamisha, yo‘q makoni,
Anga qilg‘on emas sabqat zamoni.

O‘zi beshibhdir ham benamuna,
Ravo ermas anga chun-u chiguna.
Ko‘ngilga kechsa, ko‘zga tushsa har shay,
Erur andin munazzah Xoliq-u Hay.

Udur hokimki, hukmin o‘zga etmas,
Aning zotig‘a hech kim aqli yetmas.

Farishtalar, nabilar yetmadilar,
Bo‘yinsundilar-u fikr etmadilar.

Vale fikr et, Xudoning qudratig‘a,
Ajoyib ishlarig‘a, san’atig‘a.

Olloh taoloning sifatlari bayoni

Subutidur aning sakkiz sifoti
Sifat zoti emas, na g‘ayri zoti.

Hayot-u, ilm-u, qudrat ham basar, sam’,
Iroda va kalom, takvindur, ey sham’.

Hayot ulkim, tirikdur, o‘zga bo‘lmas,
O‘lar har zi nafas, hargiz Ul o‘lmas.

O‘zini zotidin haydur o‘shal shah,
Va lekin jism ila jondin munazzah.

Kerakmasdur Xudog‘a hech qay-u shay,
G‘anidur barcha olamdin o‘shal Hay.

Emas muhtoj hech ishga Haq Taolo,
Yubormag‘il ko‘ngilni shib-u bolo.

Agar munda yuborursan ko‘ngilni,
Solur shayton ko‘ngilga o‘zga yo‘lni.

Sifotining biridur ilm, yoro,
Erur donoyi g‘ayb-u oshkoro.
Xaloyiqdin kichikdur yo ulug‘dur,
Bo‘libdur har na ish yo bo‘lg‘ulug‘dur.

Turushdur yo yurushdur xayr-u shardin,
Na kim, tegsa anga naf’-u zarardin.

Ko‘ngilga kechsa qaysi holi pesha,
Emas po‘shida ilmidin hamisha.

Bilur har kimda bo‘lsa ma’rifatdin,
Biri qudrat erur sakkiz sifatdin.

Nafslik yo nafssiz, bud-u nobud,
Ne kim ikki jahonda bo‘lsa mavjud.

Zarardur, naf’dur yo xayr, shardur,
Yaqin bilgil, qazo birla qadardur.

Xaloyiqning jami’i fe’l-u qavli
Emas bir zarra betaqdiri Mavli.

Iroda aylagach, Xalloqi olam
Har ishni “bo‘l!” dedi, bo‘ldi o‘shal dam.

Na etsa erki bor-u, qudrati bor,
“Qo‘li birla yaratti” dema zinhor.

Tilingni saqla mundog‘ qavli baddin,
Xudovandim munazzahdur jasaddin.

Kalomi haqdakim “yad” ayladi yod
Aning bir vasfidur, ey odamizod.

Aimma bildi Qur’on ma’nisin tuz,
Ko‘ngilni qo‘ymag‘il, san har qay-u yuz!

Basar ham sam' aning vasfi bilo shak,
Basar ma'nisi — ko'rmak, sam' — eshitmak.
Nekim mavjud erur dunyo-vu dinda,
Falakdin yuqori, zeri zaminda.

Eshitmak, ko'rmagi beshubha-vu rayb,
Erur birdek hamisha zohir-u g'ayb.

Eshitmak, ko'rmagidur qudratidan,
Quloqdin, ko'zdin ermas, bilgil, ey tan.

Quloq, ko'z bandag'a hojat erur, bas
Xudo hech qaysining muhtoji ermas.

Tirilsang oxiratda, ey xaridor6
Xudoyim ko'rsatur do'stlarg'a diydor.

Vale ko'rmakni bechun-u chunon bil,
Jihatsiz bil, mislsiz, bemakon bil.

O'shalkim bildirur beshakligini,
Bilur ul yaxshi ko'rsatmakligini.

Bilur har odamiyning bo'lsa esi,
Kalom ermish sifotining birisi.

Kalomi hodis ermasdur, qadim bil,
Ani ayg'on so'zi bekom-u betil.

Xaloyiq so'zlamas bekom-u tilsiz,
Xudo muhtoj emas, hech ishga hargiz.

Bitilsa yo o'qilsa, olsa el yod,
Bular hodis erur, ey odamizod.

Xudoyimni kalomin yaxshi bil boz,
So'zini zotida yo'q harf-u ovoz.

Nakim maxluqida bor ersa, ey shah,
Xudovandim erur andin munazzah.
Sifotining birisidur iroda,
Muni bilgan kishi yetgay muroda.

Qadalsa bir tikan yo tushsa bir qil,
Irodasiz emas hech ish, yaqin bil.

Agar mo‘re qo‘yar yer ustig‘a po,
Vagar bir zarracha qum bo‘lsa bejo.

Bulardin yo kichikdur yo ziyoda,
Emasdur hech nimarsa beiroda.

Sifotining birin takvin demishlar,
Xudodin xalqa ro‘zi barcha ishlar.

Yarattikim nechuk sizni-yu bizni,
Taqi xalq etdi bizni fe’limizni.

Agar chandiki qo‘ymas erkimizga,
Beribdur ixtiyori juz’i bizga.

Munosib ish erur yo nomunosib,
Ani qilmoqg‘a banda bo‘ldi kosib.

O‘shancha ixtiyori juz’idin boz,
Topar banda jazo ko‘p qilsa yo oz.

Nakim rizqeki, bo‘lsa shiybu bolo
Yaratibdur ani Vojib Taolo.

Haromidin vale man’ etdi bizni,
Beribdur ixtiyori juz’imizni.

Xudo rozi emas isyonimizg‘a,
Rizosidur aning ehsonimizg‘a.

Kishi: “rozi” desa, isyon qilurg‘a,
Aimma hukmidur kofir bo‘lurg‘a.
Xudo zulm etmadi hech bandalarg‘a,
Vale tuz yo‘lni ko‘rsatdi alarg‘a.

O‘shal xalqiki, tuz yo‘ldin toyarlar,
Alar o‘z jonlarig‘a zulm etarlar.

Azob etsa bu olam yo u olam,
Erur bul adl, ey farzandi odam.

Nafssiz xalq erur yo zi nafsdur,
Aning o‘z mulkidur hech zulm emasdur.

Agar afv aylasa, O‘z fazlidur ul,
Budur sidqing-u ixlosing, budur yo‘l.

Yetar biz omilarga buncha bilsak,
Tutub mahkam bo‘yunsunsak, egilsak.

Jamoat ahli sunnat tuzgan erlar,
Dedilar: “Turfa nozikdur bu yo‘llar”.

Ulug‘ yo‘lni qo‘yib o‘lguncha, ey yor,
Qadam qo‘yma, toyar yerlarg‘a zinhor.

Iymonning bayoni

Xudodin har na keldi, rost bilding,
Tiling birla yana iqror qilding.

Musulmonlig‘ yo‘lida buldir iymon,
Muni bilmas kishi Tong-la pushaymon.

Yaqin bilgilki, iymon bo‘lmag‘ay kam,
Erur birdek, ziyoda bo‘lmag‘ay ham.

Bu so‘zdur ahli sunnatni tariqi,
Jadal etdi bu so‘zda har fariqi.
Bo‘lur ammo amal zoyid-u nuqson,
Topar yaxshi amaldin ujra inson.

Amal aylang va lekin aymog‘aysiz:
“Amaldin doxili jannat bo‘lurmiz”.

Ani amrin dil-u joning bila ol,
Amal qil ham O‘zining fazlina sol.

Nasib etsa bihisht O‘z fazlidin bil,
Amalga ittiko qilmay, amal qil.

G‘araz ulkim, amalga bo‘lma mag‘rur,
Amal qilg‘il, amalga banda ma’mur.

Amal qilmoqdin ahli istifoda
Dedilar: “Nuri iymondur ziyoda”.

Vagarna bo‘lmas iymon zoyid-u kam,
Aqida buldur, ey farzandi odam.

Amalning naf’i ham iymon bilandur,
Qachon yolg‘uz amal qilg‘on bilandur.

Na’uvzu billah, iymonsiz kishini
Qabul etmas Xudoyim hech ishini.

Agarchi yaxshilar a’molin etsa,
Tasadduq yer yuzini molin etsa.

Riyozat birla bo‘lsa erta-vu kech
O‘shalkim sidqi yo‘qtur – qilg‘oni hech.

Bo‘lur do‘zax aning oxir makoni,
Qutulmas hargiz andin jism-u joni.

Agar iymon ato qilsa kishiga,
Berur ujra ani xo‘b qilmishiga.
Agar chandi kaboir qilsa behad
Tamug‘da qolmas iymonlig‘ muabbad.

Ilohi, osiymiz, bechoradurmiz,
Havoyi nafs ila ovoradurmiz.

Qo‘noqmiz bir kecha dunyoyi hecha,
Na ishlar kechadur bizdin bu kecha?!

Bu tunda tut butun iymonimizni,
Saboh qutqor tutundin jonimizni.

Ko‘ngil sanduqina bir bebaho dur
O‘zung rost aylading, yo Koshifaz Zur.

O‘shal dur qasdina shaytoni badbaxt
Tushubdur ko‘p havoxohi bilan saxt.

Agar bo‘lsang maning holimga homiy,
To‘zar kuldek aduvlarni tamomi.

Agar Sen saqlasang rahmat yo‘lidin,
Aduv qul kelsa, na kelgay qo‘lidin.

Yana iymonda aydi ahli tahqiq:
“Xudodindur hidoyat birla tavfiq”.

Xudoning fe’li ul maxluq emasdur,
Kishi hargiz ani maxluq demasdur.

Dedilar ma’rifat birla ul iqror
O‘shalkim bandasini fe’lida bor.

Nechukkim bandani xalq etti Mavli,
Taqi maxluq erur fe’li va qavli.

Erur bir ma'nida iymon-u islom,
Buni bilsa kerak, har xos-u har om.
Aimma qavlini berk ushla zinhor,
Jadalni naf'i yo'q bo'lsa, na darkor.

Farishtalarga va nozil qilingan kitoblarga iymon keltirish bayoni

Maloikkim erurlar olami g'ayb,
Hama Haq bandasidur beshak-u rayb.

Alar forig' erur ichmak-yemakdin,
Yomon qilmoq, qabohat so'z demakdin.

Tishi ermas alarning vasfi, er ham
Bilo shahvat yaratti Shohi olam.

Alar barcha Xudoning toatida,
Emas g'ofil alar hech soatida.

Agarchi barchasi toat sirishta,
Muqarrab ba'zidin ba'zi farishta.

Musulmonlar o'qur Qur'onki holo,
Erur barcha kalomi Haq Taolo.

Taqi Payg'ambarimizdin burun, bil,
Xudovandim kutubki, qildi nozil.

Yubordi har qay-u payg'ambarig'a,
Ki iymon keltiribdurmiz barig'a.

Barisi Haq Taoloning kalomi,
Muni bilsa kerak, har xos-u omiy.

Kalomi vasfidur, ey odamizod,
Qilib erdim sifoti bobida yod.

Payg‘ambarlarga iymon keltirish bayoni

Sanov-u hamd qudratlig‘ Xudog‘a,
Ki iymon keltirubmiz anbiyog‘a.

Alarning avvali kim Odam erdi,
Muhammad barchasig‘a xotam erdi.

Barisi Tangrini suyg‘an qulidir,
Barisi jannati rizvon gulidur.

Xudoning hukmini har fe’l-u so‘zga,
Nabilar qilmadi bir zarra o‘zga.

Yetushmas hech valilar jolarig‘a,
Yetushmas balki xoki polarig‘a.

Alardur zurriyoti Odami xok,
Gunahdin anbiyoni barchasi pok.

Alardin ba’zi ishki qildilar naql,
Qilur ta’vilini No‘moni boaql.

Ul ish qasdan emasdur anbiyodin,
Alarg‘a lag‘zishi podur xatodin.

Alar qasd ila hargiz qilmadilar,
Buyurg‘on amridin ayrilmadilar.

Bori daryoyi rahmatda edi g‘arq,
Rasul ila Nabida bo‘ldi bir farq.

Barisi Tangridin tobti xitob ul,
Nabig'a shart emas, ammo kitob ul.
Rasulig'a erur shart, e nek-u nom
Vale bo'ldi barig'a vah-yu ilhom.

Nabidur har Rasul anglag'uvchi bo'l,
Va lekin har Nabi ermas Rasul ul.

Dedilar porayi mo'min bolasi:
"Erur bir ma'nida har ikkalasi".

Salaf kim ayladi lutf-u inoyat,
Erur avvalg'isi mashhur rivoyat.

Bashar payg'ambarin Sultoni a'dal,
Malak payg'ambaridin qildi afzal.

Bu so'zdur mazhabi sunnat jamoat,
Alar har ne dedi, qilg'il itoat.

Dedilar: ommayi farzandi odam,
Malakning ommasidin fazli ko'p ham.

Kitobi "Kofiy"kim[1] pur bosafodur,
Dedi: "Omma bu yerda atqiyodur".

Basharda varna chandon beamaldur,
Bahoyimdek erur, bal ham azalldur.

Payambarning bori odil-u a'dal,
Va lekin ba'zisidin ba'zi afzal.

Savob-u rutbada afzal erur hol,
Musoviydur nubuvvat birla irsol.

[1] Fiqhiy mavzudagi "Al-Vofiy" kitobining sharhi. Muallifi Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Hofuziddin Nasafiy (vaf. hij. 710\1310-y.)

Barining mehtarini Mustafodur,
Habibi Haq, nigini anbiyodur.

Rasulullohning me'rojlari bayoni

Muhammadkim erur afzali asdaq,
Erur beshak shabi me'roji barhaq.

Haramdin masjidi Aqsog'a nogoh,
Olib borg'anidur oyatda ogoh.

Ham Aqsodin samog'a bordi ul nur,
Bu so'zning sidqig'a axbor mashhur.

Samodin yuqori har qaysi jog'a,
Inoyat ayladi ul bosafog'a.

Bariga sidqimiz, iqrorimiz bor,
Emas hech qaysi ish Tangrig'a dushvor.

Maqomi sidra-vu najm-u malakni,
Bihisht-u Arsh-u Kursi, no'h falakni.

Agar bir kechada ko'rsatsa, ne kam,
Va gar bir damda ko'rsatsa, ne shak ham.

Nechuk hukm aylasa, qodir Xudodir,
Charovu chun demak, quldin xatodur.

Yaqin bilgil, aning me'rojin, ey yor,
Tani birlan edi, ham erdi bedor.

Habibin har nechuk qilsa sarafroz,
Xudoning rahmati ko'pdur, emas oz.

As'hobi kirom bayoni

Sahobayi nabidur barchasi haq,
Yomon yo'lda emas, hech qaysi mutlaq.

Erur har qaysisi najmi hidoyat,
Xudo xalq o'g'liga qilg'on inoyat.

Bihishtiydur alardin qat'i o'n yor,
Bashorat berdi ul sultoni abror.

Abu Bakr-u Umardur so'ngra Usmon
Alidur, Tolhadur ham Abdurahmon.

Zubayr-u, Bu Ubayda bo'ldi axbor,
Sa'id-u, Sa'ddur ayg'on bu o'n yor.

Muhammadkim edi hodiyi olam,
Bashorat berdi uch farzandig'a ham.

Birisi Fotimadur ham xatira,
Hasan birla Husayn ikki nabira.

Nabilar so'ngidin bilgil, batahqiq,
Ki inson afzali — Bu Bakr Siddiq.

Ki andin so'ng Umardur so'ngra Usmon,
Ki andin so'ng Ali beshubha, ey jon.

Erur bu to'rti ummatning nigini,
Shafoatxohimizning jonishini.

Rasul aydi: "O'gursam dunyodin yuz,
Xilofat bo'lg'ay o'ttuz yilg'acha tuz".

Ul o'ttuz yilda shoh erdi u to'rt er,
Alar vaqtida bo'ston erdi har yer.

Alardin so‘ngra hech olim-u odil
Qila olmas alardek adli komil.

O‘shal to‘rt erga Ahmad yori erdi,
Bihishti ma’rifat gulzori erdi.

Rasulullоh tariqin erta-vu kech,
Sari mo‘yi taxalluf qilmadi hech.

Nechuk bo‘lsun xilof ul chori sa’da,
Payambar qildi o‘ttuz yilg‘a va’da.

Alarning vasfini hech soni yo‘qdur,
Tamom aytay desam, imkoni yo‘qdur.

Sahobaning barisi pok dindur,
Barisi rahnamoyi rohi dindur.

Kishi bo‘lsa Nabining suhbatida,
Gumon yo‘qtur alarning qurbatida.

Alardin so‘ngra hech kim jolarig‘a,
Yetushmas balki xoki polarig‘a.

Sahoba ba’zisi kim Murtazog‘a,
Taxalluf ayladi ul bosaxog‘a.

Savob erdi ul erlarni murodi,
Xato bo‘ldi banogoh ijtihodi.

Xato qilg‘on bilan yozdi demasmiz,
Jamoat ahlidin ozdi demasmiz.

Aimma — ahli sunnat kim edilar:
“Xatoyi mujtahid ma’fu” dedilar.

Xatog‘a balki tobtilar savobe,
Bu so‘zdur ahli sunnatning javobi.

Bitibdur "Majma'ul ashyo"da, ey sham',
Xatodin balki qaytib erdi ul jam'.

Imomat bayoni

Imome shart bo'ldi har diyora,
Hududi shar', to turg'ay qarora.

Yurutgay, to shariatning qiyomin,
Taqi qilg'ay yomonlar ehtimomin.

Agar chandiki sulton bo'lsa fosiq,
Buyursa ish shariatga muvofiq.

Qilurmiz jon-u dil birla itoat,
O'zi bo'lsa agarchi beqanoat.

Emasdur shart, imom ul bo'lsa ma'sum,
Qilibdur shart, ammo shi'ayi shum.

Musulmon, oqil-u, er inson —
Imomat sharti bo'ldi, ey musulmon.

Ravodur iqtido fojirg'a qilsang,
Hadisi Mustafodur, yaxshi bilsang.

O'qusang yaxshilarni keynida lek,
Savobi beadaddur, xislati nek.

Bilurmiz barcha mas'hi mo'zani haq,
Nechukkim qildi ta'yin shohi asdaq.

Avliyo karomati bayoni

Erur barhaq karomat avliyodin,
Inoyatdur valiylarg'a Xudodin.

Karomat xoriqi odat erur ism,
Bo‘lubdur xoriqi odat necha qism.

Nabidin xoriqi odatni ta’yin,
Dedilar “mo‘jiza”, e tolibi din.

Nubuvvatdin burunni derlar irhos,
Muni bilsang kerakdur, ayyuhannos.

Agar solih kishidin bo‘lsa har goh,
Karomatdin bo‘lur beshakk-u ashboh.

Ko‘runsa bu avom mo‘min ishidin,
Ma’unatdur o‘shal ayg‘on kishidin.

Agar ko‘rsatsa mundog‘ kofir inson,
Ul istidroj erur monandi shayton.

Vale ul orifi billoh bo‘lsa,
Yomon ishdin qo‘li ko‘toh bo‘lsa.

Avomirni hamisha qilsa ul qul,
Taqi “qilma” deganni qilmasa ul.

Yaratqon Tangrini qo‘rqunchidin nez,
Qay-u shubha degondin qilsa parhez.

Taqi lazzat bilan shahvatga, ey yor,
Fo‘r-u ham ketmasa ul yaxshi kirdor.

Bu ta’riflar kishiga bo‘lsa sodiq,
Valiydur ul aqoidga muvofiq.

Shariatsiz kishi uchsa havog‘a,
Ko‘ngil qo‘ymang aningdek xudnamog‘a.

Havog‘a uchsa monandi chibindur,
Ani hodiy dema shaytoni dindur.

Shariatsiz kishi gar yutsa o‘tni,
Havo o‘rtasida minsa bulutni.

Qachon topg‘on erur qurbat idini,
Valiy bilmang taqi andog‘ kadini.

Bo‘lubdur mundog‘ ishlar kofiriydin,
Nechukkim bo‘ldi sehri Somiriydin.

Eshitgil bul, ki Fir’avn amridin Nil,
Quyidin yuqorig‘a oqdi beqiyl.

Muni bilgilki Hindustonda holo,
Ucharlar kofiri sannosi bolo.

Shariat hukmin etmay istiqomat,
Taajjub ishlari bo‘lmas karomat.

Shariatni kishi kim tutsa xo‘b pos,
Karomat mundin o‘tmas, ayyuhannos.

Xilofi nafs — istikmoli toat,
Bo‘lurmi andin ortiq xarqi odat.

Kishi desa valiyni g‘aybdondur,
Na’uvzu billah, ul so‘z ko‘p yomondur.

Nabi ham bilmagay ushbu ravishdin,
Magar bildirsa Tangrim ba’zi ishdin.

Xudoning xossasidur ilmi g‘aybi,
Bu so‘zning bo‘lmag‘ay bir zarra raybi.

Yaqin bil, g‘ayb ishidin folbinlar,
Xabar bersa, agar yo ahli jinlar.

Kishi chin desa ul botil so‘zini,
Bo‘lib kofir, qaro qilg‘ay yuzini.

Na'uvzu billah, andog' mu'taqaddin,
Xudoyim saqlag'ay bu ra'yi baddin.

Yaqin bilgilki, ba'zi nomusulmon,
Demish: "Vaqtiki qurbat tobsa inson,

Ko'tarur Haq shariat hukmin andin!"
Bo'lur yuzi qaro mundog' degandin.

Bu botil so'z erur qavli malohid,
Shariatga erur ul firqa johid.

Shariatga kishi kim bo'lsa munkir,
Gumon yo'qdur, bo'lur albatta kofir.

Kishi bo'lmas muqarrab anbiyodin,
Alar bezor erur ujbu riyodin.

Ko'tarilmadi o'lguncha alardin,
Xudo hargiz ko'tarmas o'zgalardin.

Hikoyat

Muhammadkim muhabbat koni erdi,
Habibi Haq, rasul sultoni erdi.

Ketar vaqtida andog' bo'ldi holi,
Vuzu' aylarga yo'q erdi majoli.

Eshitti chun azone bobashorat,
Dedi: "Yo Oisha, qildir tahorat".

Tahoratdin so'ng ul shohi ulul azm,
Jamoatg'a borurg'a ayladi jazm.

Qadam bosmay turib, ketti o'zidin,
Araq saylon edi guldek yuzidin.

O‘ziga keldi, boz etdi tahorat,
Yana qo‘ptiki, to topqay jamoat.

Qadam bosmay turib, ul sohibi roz,
O‘zidin ketti darmon yo‘qidin boz.

Aningdek Mustafo qo‘rqunchidin ul,
Vuzu’ qildi, o‘zidin ketdi uch yo‘l.

Nafas chiqquncha, to qutlug‘ tanidin,
Xilof etmadi bir qil ayg‘onidin.

Suyuklik bandasi, to bo‘lsa mahram,
Bo‘lur qo‘rqunchi ortuq, ishrati kam.

Agarchi anbiyo beshak omondur,
Muborak dillari xavf ila qondur.

Vale ummat agar g‘avsi zamondur,
Eson ketmog‘i oxir dargumondur.

Agar olam yorug‘dir san sababdin,
Quyoshdek titra doim xavfi Rabdin.

Kerak oliy qadamni xavfi ko‘prog‘,
Biyik yerdin yiqilg‘on qolmag‘ay sog‘.

Ulug‘ tutmas kichikdek mazhabin keng,
Teva toymog‘i ermas qo‘y bila teng.

Tavahhumlik bo‘lur af’oli xo‘bning,
Safarda xavfi ko‘brog‘ moli ko‘bning.

Tavahhumdin yirog‘ g‘aflatli banda,
Ketar g‘ussa bilan g‘am uxlag‘onda.

Ajal bayoni

Qay-u qulg‘a ajalning vaqti yetsa,
Qutulmas har nechakim hiyla etsa.

Keyin qolmas ajal, ey ibni Odam,
Yetushsa soate yo ilgari ham.

Kishining ilgida ham o‘lsa har jon,
Ajal birla o‘lubtur bilsa inson.

Qay-u bois bilan har jon o‘lubtur,
Ajaldindur, qazo andog‘ bo‘libtur.

Azobi qabrning bayoni

Azobi qabr kofirlargadur chin,
Ko‘rar go‘rning azobin ba’zi mo‘min.

Bitik ko‘p nusxayi mashhur ichinda,
Kelur ikki farishta go‘r ichinda.

So‘rar: “Kimdur Xudo birla rasuling,
Nadur derlar, yana dining-u yo‘ling?”

Agar kirsa farishtalar g‘azabdin,
Chiqar o‘t burnidin, og‘zi-yu labdin.

Agar haybat bilan qilsa nazora,
Bo‘lur g‘amgin ko‘ngullar pora-pora.

Degay: “E odamiy, buldur sanga joy!”
Javobin bermasang, “voy” ustiga “voy”.

Urarlar gurzi birlan ul iki yor,
Eshitur ins-u jindin o‘zga jondor.

Alarning zarbiga tob etmagay tog‘,
Nechuk toqat qilur, bir musht tufrog‘.

To‘lar do‘zax soridin qabr ichi dud,
Pushaymon anda hargiz qilmag‘ay sud.

Inoyat aylasa, Donoyi asror,
Kirar go‘rga muloyim ul iki yor.

Degaylar kirsalar: “Xavf etma mandin”,
So‘rarlar mehribonlig‘ birla andin.

Agar bersang javobe bosavobe,
Ochar jannatdin ul manzilg‘a bobe.

Qorong‘u go‘r bo‘lur andoq farahnok,
Jahonning shavqi yodingdin chiqar pok.

Ko‘ngilda g‘ussa qolmas bir chigitdek,
Yotursan yangi uylangan yigitdek.

Ki mundin so‘ngrag‘i ne’matlarini,
Xudodin o‘zga kim bilgay barini.

Munojot

Ilohi, bandaman, bechoradurman,
Havoyi nafs ila ovoradurman.

Erurman barcha nuqsonimg‘a iqror,
Musulmon o‘g‘li qilmas ishlarim bor.

Erurman bandalarni sarniguni,
To‘lay yor-u birodarlar zabuni.

Maningdek osi(y) bo‘lg‘aymu jahonda,
Gunohim zohirimdan ko‘p nihonda.

Netay, chun ayni aqlim beziyodur,
Amal ham yo‘q, agar qilsam riyodur.

Agarchi man yomon qul poy to farq,
Bo‘libman ma’siyat daryosig‘a g‘arq.

Vale sodiq erurman birligingga,
Tayonibman Sani g‘ofirligingga.

Lahadga kirsa bu yolg‘uz g‘arib bosh,
O‘gursa yuz hama qavm-u qarindosh.

Tahayyur bo‘lsa joni g‘am sirishta,
Yetushsa so‘rg‘oli ikki farishta.

San oson etmasang andog‘ savoli,
Nechuk kechgay g‘arib bandangni holi?

Desa: “Man robbuk” iki abdi dargoh,
Tilimga jori(y) qilg‘il: “Rabbim — Olloh!”

Agarchi osi(y)dur, yo Rab, bu banda,
O‘zing bandam degil, “Rabbim” deganda.

Agar sen qilmasang, qulluq otin jud,
Maning “qulman” deganimdan nechuk sud?

Ilohi, lutf qil, munda va anda,
Mani banda etib, berkit bu banda.

Agar chandiki go‘rsiz o‘lsa inson,
So‘rolur, albatta, beshakk-u nuqson.

Agar daryoda o‘lsun yo osilsun,
Azob etsa, bani Odam na bilsun.

Daranda Odam o‘g‘lin qilsa xo‘rok,
Gumon yo‘qtur, so‘rar qornida, ey pok.

Agar banda mu’azzab bo‘lsa anda,
Qolur tuymay bu ishni ul daranda.

Nechuk qilsa erur Qodir-u Nosir,
Bu yerda bandasining aqli qosir.

Na kim aydi Xudoying yo payambar,
Ani mahkam tutub, fikr etma digar.

Qiyomatning haqlig‘i bayoni

Qiyomat haq erur, ey odamizod,
Xudo Qur’on ichinda qildi ko‘p yod.

Bo‘lur qudrat bilan tufrog‘imiz tan,
Kirar jon qaytadin beshubha-vu zonn.

Taning har turli bo‘lg‘on bo‘lsa barham,
Qilur burnog‘idek Xalloqi olam.

Xudo hech yerda yo‘qni ayladi bor,
Yaratsa qaytadin, ermas bu dushvor.

Udur qodir, nechukkim hukm qildi,
“Tiril!” degach, hama olam tirildi.

Yig‘ar Mahshar yerinda barcha jonni,
So‘rar bandasidin yaxshi-yomonni.

Har ishni ko‘p qilibdursan va yo oz,
Hisobin ham tilar ul bandadin boz.

Xudo har bandasig‘a qilsa oson,
Javobin bergusi banda o‘shal on.

Agar qatig‘ tutar banda hisobin,
O‘zi bilg‘ay anga solg‘on azobin.

Bilur garchi jami’i holimizni,
Yuborur nomayi a’molimizni.

Yuborsa nomani rahmat yo‘lidin,
Kelur noma u qulning o‘ng qo‘lidin.

Qizil yuzluk bo‘lub ul ham sarafroz,
Suyungandin qilur ul banda ovoz:

“O‘qung nomamni, ey turg‘on xaloyiq,
Kelibdur noma ixlosimg‘a loyiq!”

Behishti oliya bo‘lg‘ay makoni,
G‘ariqi rahmati Haq jism-u joni.

Agar noma kelur bo‘lsa g‘azabdin,
Kelur orqasidin yo dasti chapdin.

Qaro yuzluk bo‘lub, sharmanda ul qul,
Tutarlar ham solurlar bo‘ynig‘a g‘ul.

Taqi zanjir etarlar gardanig‘a,
Tarahhum bo‘lmag‘ay yolborg‘anig‘a.

Bo‘lur turluk mashaqqatlar havola,
Qilurlar jonibi do‘zax kashola.

Ilohi, qo‘rqadurman hazratingdin,
Umidim ko‘p erur G‘affor otingdin.

Yig‘ilg‘onda yomon-u yaxshi banda,
Qulingni qilmag‘il sharmanda anda.

Agar a’molima solsam ko‘zumni,
Sazovori alam derman o‘zumni.

Agar altofinga boqsam, Ilohim,
Umidim ko‘p, bag‘ishlangay gunohim.

Agar San yopmasang, ey Olimi g‘ayb,
Bo‘lur tong-la muayyan soni yo‘q ayb.

Ilohi, mag‘firat muhtojidurman,
Saning keng rahmatingdan rojidurman.

Umidlar ko‘p erar andog‘ sharafdin,
Yuborsang nomamizni o‘ng tarafdin.

Hijobi afv yopsang aybimizg‘a,
Duri rahmatni solsang jaybimizg‘a.

Ilohi, qo‘rqadurmiz jonimizdin,
Yuborma nomani so‘l yonimizdin.

Umidlik bandadurmiz ham haroson,
Hisobimizni ul kun qilg‘il oson.

Talattuf birla so‘rg‘il korimizni,
Qaro qilma u kun ruxsorimizni.

Agarchi nomunosibman, yomonman,
O‘zing ayding: “Qulimg‘a mehribonman”.

Agar chandiki bo‘lsam zishti badkor,
Habibing ummatiman, qul otim bor.

Tarozuyi Qiyomatni bayoni

Tarozu haq erur ro‘zi Qiyomat,
Aning sidqig‘a nozil bo‘ldi oyat.

Bilur Tangri agarchi holimizni,
Tarozug‘a solur a’molimizni.

Qilur ogoh qulin qilmishlarig‘a,
Yetushmas aql Egamning ishlarig‘a.

Tarozu borig‘a iqrorimiz bor,
Nechuk erkonig‘a ne korimiz bor.

Ilohi, qil og‘ir mezonimizni,
Salomat tut, bizing iymonimizni.

Sirotning haqlig‘i bayoni

Jahannam uzra bir ko‘pruk erur oh,
O‘shal ko‘pruk Sirot otlig‘ guzargoh.

Qilichdin tez erur, qildin inichka,
Pushaymonlar o‘shal kun tushkay ichka.

Ajab hayron bo‘lur farzandi odam,
Qadam qo‘ysa, aning osti jahannam.

Agar qaytay desa, qo‘ymas muakkil,
Bo‘lur farzandi odam holi mushkil.

Muayyan ko‘rsalar, xalq ul tab-u tob,
Bo‘lur jon vahmi birla zahralar ob.

Yuraklar qon bo‘lib, ko‘zlar to‘kar yosh,
U manzildin qutulg‘aymu g‘arib bosh?

Fig‘onlar qo‘pqay avlodi bashardin,
Kim o‘tkay, kim yiqilg‘ay ul guzardin.

Inoyat qilsa, ba’zi odamizod,
O‘tar andin yashindek, ba’zi chun bod.

O‘tar ba’zisi andin yugruk otdek,
O‘tar qurbig‘a loyiq ba’zi har yak.

O‘tar ba’zi musulmon toya-toya,
Yetar “Oxir” degan ishratli joya.

Qadam qo‘ysa, yiqilur ba’zi inson,
Ilohi, aylagil ul Kunni oson.

Agar o‘tkarmasang andin salomat,
Quling rasvo bo‘lur ro‘zi Qiyomat.

Bilib, tasdiq etib, bu ko‘p xatarni,
Bu miskin qo‘ymadi isyon etarni.

Munojot

Ilohi, bandani sohib nadam qil,
Siroti shar’ uza sobit qadam qil.

Hidoyat piriga topshur qo‘lumni,
Inoyat ko‘yiga keng qil yo‘lumni.

Ma’osiy loyig‘a toydirma poyim,
Behishti ma’rifatni ayla joyim.

Agar chandiki behaddur gunohim,
Salomat qil xatarlardin, Ilohim.

Karamlik Podishoho, Kirdigoro,
Rahimo, mag‘firatlik Bir-u boro.

Agarchi soni yo‘q isyon qilibmiz,
Umid ulki, sani Vohid bilibmiz.

Ilohi, birligingni hurmatidin,
Salomat qil u ko‘pruk mehnatidin.

Kavsar hovuzining bayoni

Qiyomatda Payambar havzidur haq,
Sifotin qildi ta’yin shohi asdaq.

Suyi ul havzni sutdin erur oq,
Isini mushkdin ham dedi behroq.

Aning ulug‘ligi bir oyliq yo‘l,
Muni albatta qil ko‘nglinga ma’qul.

Asaldin balki suchuk ta’mi aning,
Ichirsa gar erur Haq mehriboning.

Dame su ichsa andin har musulmon,
Yaqin bil, suvsamas hargiz ul inson.

Xudovando, nasib etkaysan andin,
Umidi ko‘p erur bandangni Sandin.

Payg‘ambarlar shafoatining haqlig‘i

Xudo izni bilan haqdur shafoat,
Qilurlar anbiyo-vu ahli toat.

Shafoatkim, musulmonlarg‘adur sud,
Va lekin bo‘lmag‘ay beizni ma’bud.

Xudo izn aylasa, ro‘zi Qiyomat,
Suyuklik bandasi aylar shafoat.

Qiyomat kun ajab shiddatli kundur
Aning qattig‘lig‘i az had fuzundur.

U kunning haybatidin beshak-u rayb,
Bo‘lur ko‘k pora-pora, tog‘-u tuz g‘ayb.

Zamin avtodi barcha ko‘hi sangin,
Bo‘lur Haq xashmidin chun pashmi rangin.

O‘shal shiddatga yer-ko‘k qilmasa tob,
Nechuk toqat qilur bir qatrayi ob?!

Bo‘lur xam g‘am bilan xurdoni zebo.
Dalilim: “Yaj’alul vildona shiybo”

Bo‘lur bir-birga dushman, do‘st deganlar,
Magar taqvo yo‘lida g‘am yeganlar.

Havo misdek qizir, yer ham temurdek,
G‘azab qilg‘on kishi bo‘lg‘ay ko‘murdek.

Kelur nayza bo‘yi xurshidi tobon,
Xijolat teriga g‘arq ul biyobon.

Bo‘lur o‘z holi birlan odamizod,
Kelur ko‘nglig‘a qilg‘on ishlari yod.

Agar Haq yopmasa, jurm aylag‘on joy,
Guvohlik bergusi, bil, dast ila poy.

Qabohatlik amallar tushsa ko‘zga,
Ilojin kim bilur, Hazratdin o‘zga.

Muhammadkim, erur Haqning habibi,
Ma’osiy dardining hoziq tabibi.

Belin himmat qurig‘a bog‘lab ul er,
Hama “nafsiy” desa, ul “ummatiy” der.

Hama o‘z nafsiga bo‘lsa giriftor,
Muhammad ummati miskin uchun zor.

Agar bo‘lsa ematurg‘on bola gum,
Topilg‘onda nechuk javlon qilur um(m).

Ming andog‘ onadin ko‘brog‘-u behrog‘,
Muhammaddur g‘arib ummat uchun dog‘.

Oqar daryo bo‘lur ul muhtaramdin,
Shafoat shiri pestoni karamdin.

Qilur Haq izni birlan har taraf jo‘sh,
Nasib etgan u daryodin qilur no‘sh.

Nasiba etmagan farzandi odam,
Qolur andog‘ ulug‘ yammdin qurug‘ fam.

Kishi bilmas Qiyomat dashtida, oh,
Bu qullarni degaymu “ummat” ul shoh.

Agar “ummat” desa, xush davlat-u baxt,
Yo‘q ersa, osi(y)larg‘a ish bo‘lur saxt.

Agar “ummat” desa, “nurun alo nur”
Yo‘q ersa, osi(y)larg‘a ish bo‘lur zo‘r.

O‘shal sultonki do’iyan ilalloh,
G‘arib ummat uchun dog‘ erdi, valloh.

Bu ummatlar ajab zisht etdi holin,
Yopar bid’at bilan sunnat jamolin.

Bahoyimdek ishi ichmak, yemakdur,
Quruq til birla “ummatmiz” demakdur.

Ilohi, lutf qil munda va anda,
Yig‘ilg‘onda yomon-u yaxshi banda.

Ilohi, lutf qil hasratli soat,
Habibingdin nasib etkil shafoat.

Ayirma yaxshilarni orasidin,
Yiroq etma habibing qorasidin.

Behisht va do‘zaxning bayoni

Erur jannat-u do‘zax holo mavjud,
Yaratibdur ani xalqig‘a Ma’bud.

Ko‘ngilg‘a solma, ey aqli piyoda:
“Sig‘ar ul ikki manzil qaysi joda?”

Agar amr aylasa, kavnayn barpoy,
Bo‘lur bir pistani po‘chog‘ina joy.

Kirar do‘zaxg‘a kofir, qayta o‘lmas,
Azobi saxtdin hargiz qutulmas.

Hamisha qolmag‘ay iymonli banda,
Tutar oxir qo‘lin imoni anda.

Agar afv etsa, osomi kaboir,
Degil joyiz, Udur G‘ofir-u Sotir.

Sag‘iradin agar tutsa Xudovand,
Degilkim erk Aingdur, ey xiradmand.

O‘zi Qodir, O‘zi G‘ofir Xudodur,
Qulig‘a har na hukm etsa, ravodur.

Na’uvzu billah, istihloli isyon,
Olur mo‘min kishidin nuri iymon.

Behisht ichra kishikim, bo‘lsa doxil,
Bo‘lur anda hama maqsudi hosil.

Tirikdur doimo, andin so‘ng o‘lmas,
Alamdin, huzn-u g‘amdin zarra bo‘lmas.

Hamisha aysh ila ishratda banda,
Ko‘ngilga kechmag‘on ishratlar anda.

Agar jannat bilan do‘zaxni avsof,
Qilurg‘a jam’ bo‘lsa, qof to qof.

Ado bo‘lmas iki manzil sifoti,
Ani yaxshi bilur Tangrimni zoti.

Iki manzil sifotin soni bo‘lmas,
Alar ahli bilan hech foni bo‘lmas.

Bitibdur shorihi “Avrod” ani,
Ki bo‘lmas Arsh-u Kursiy, Ruh foni.

Fano bo‘lmas dedi Lavh-u Qalam ham,
Aqida buldur, ey farzandi Odam.

Munojot

Ilohi, e’tiqodi pok birlan,
Mani og‘ishta qilg‘il, xok birlan.

Dilim sodiq tilimg‘a bo‘ldi qoil,
Bu so‘zdin qilmag‘il, bir zarra moyil.

Xudovando, O‘zingni hurmatingdin,
Karim-u G‘ofir-u Sattor otingdin.

Bu miskinlarg‘a mo‘min ism qilding,
Jamoat ahli sunnat qism qilding.

O‘shal otdin ayirmag‘il hamisha,
Agar chandiki bo‘lsak jurmpesha.

Malak kelsa jasaddin olg‘ali jon,
Qilur shaytoni mal’un qasdi iymon.

Qilurda joni shirin jismdin naql,
Aziz jon achchig‘idin kam bo‘lur aql.

Ko‘ngil shohbozini qilmoq uchun sayd,
Qilur har yonda shayton hiyla-vu kayd.

Madad San qilmasang ul damda, yo Hay,
Urar tirnog‘imizga ul la’in nay.

Xudovando, tirikda, jon chiqarda,
Lahadda, hashrda, ko‘prik o‘tarda.

Jami’i yerda mo‘min otimizdin
Ayirma sidqimizni zotimizdin.

Hamisha nafs ila shayton kaminda,
Mani ozg‘urmag‘il dunyo-vu dinda.

Tilokim bul, ayo Subbuh-u Quddus,
Qulingni qilmag‘il rasvo-yu ma’yus.

Xudovando, yongildim, turfa yozdim,
Shayotin makri birlan yo‘ldin ozdim.

Pushaymonman parishon o‘tkan ishdin,
Bahor-u tiyramoh-u yoz-u qishdin.

Yomon ishdin hama uzvimni pok et,
Ko‘ngil mulkin maqomi dardnok et.

Yana sharmanda qilma qayta boshdin,
Uyotlig‘ qilmag‘il dastor-u fashdin.

Munojot etdi Olloyore miskin,
Qabul etkaysan, ey Dorandayi din.

Telim uzr ayg‘oli, ey Koshifi roz,
Tilimni ming tilim qilsam erur oz.

Uyotlig‘man vale yo Olimas sir,
Qani uzr ayg‘oli, yuz mingidin bir.

Emasman tuz, karam xoninda yeb tuz,
Kerak tuzlarga qo‘ysam har qay-u yuz.

Tila aydim, tila har matlabing bor,
Dedi, haqdur o‘zi Donoyi asror.

O‘shal beh xavf etib borur yerimdin,
Terim xijlat bila oqsa terimdin.

Ojizlik va shikastalik bayoni

O‘tar dunyoda Olloyor ma’yub,
Muningdek yurganingdin o‘lganing xub.

Yomon nafsing sani o‘tdek tutashdi,
Gunohing bora-bora haddin oshdi.

Bila olmam, ayo noqobil avqot,
Nechuk jonsan, nechuk tansan, nechuk zot?

Bahoyimsan, bashar, devonasan, sog‘,
Gunohing oldida arzancha yo‘q tog‘?

Muxannasmusan, er, bolig‘musan, yosh,
Yuzing qattig‘, tiling achchig‘, diling tosh?!

Fi’oling nomuborak, tal’ating shum,
Humoyi baxting o‘z ka’bing bila bum.

Nakim san ahd qilding, bo‘ldi yolg‘on,
Qani sandek gunoh ostida qolg‘on?!

Yiroq tushting nag‘u, qurbatli yo‘ldin,
Yubording rishtayi toatni qo‘ldin.

Nakim qilding jahonda erta-vu kech,
Riyo birla ul ishni aylading hech.

Belingni bog‘la mahkam, bo‘lma mafluj,
Ko‘zung och, karvone qildilar ko‘ch.

Yotib g‘aflat qarosin surma yuzga,
Yedi xalq o‘z g‘amini sandin o‘zga.

Musohiblarki hamahd erdi munda,
Ketarlar boqiy uyga kunda-kunda.

Ko‘rarsan qofilani o‘tkanin fosh,
Ko‘tarmassan xatarlik uyqudin bosh.

Ko‘zing oldidagi begona-vu xesh,
Safar raxtini bog‘larlar pas-u pesh.

Vale sen xamri g‘aflatdin bo‘lub kayf,
Yotursan necha rasvolig‘ bilan, hayf.

Ulug‘lardin, kichiklardin bayakbor,
Ketarlar xonayi maqsadg‘a nochor.

Agar sandin kichiklar tutsalar roh,
Yotursanmu hanuz, ey aqli ko‘toh?!

Banogoh karvon Sultoni yetsa,
Sanga asliy vatanning hukmin etsa.

Ulug‘ yo‘lga kirarsan xoh, noxoh
Na qilg‘aysan vale beto‘shayi roh?!

Ajab yo‘l, uqbaye har bir qadamda,
Jami’i korvone bahri g‘amda.

Xususan yo‘lda bir vahshatli uy bor,
Kirar yolg‘iz boshing ul uyga nochor.

Ayirib karvondin qo‘ndirurlar,
Qizil guldek yuzungni so‘ldirurlar.

Aziz jismingga ne’mat xora bo‘lg‘ay,
Qaro yer ostida bechora bo‘lg‘ay.

Yuz alvon birla so‘z ayg‘on suchuk til,
Demas farmondin ortiq birgina qil.

Lahad qurti agar kelsa yegoli,
Qani, ul damda darmon “kish” degoli?!

Yetushsa so‘rg‘ali ikki farishta,
Na qilg‘ay, bandayi hasrat sirishta?

Magar Tangri Taolo qilg‘ay imdod,
Vagarna qayda yetkay dod-u faryod.

Yaqin bilgil, muni, ey bandayi zor,
Xudodin o‘zga yo‘q hech hokimi kor.

Nag‘u, qulluqqa bog‘lasang belingni,
Sanosi birla sabz etsang tilingni!

Lahaddin barcha odam o‘g‘li tursa,
Bo‘lib bir korvon Mahsharga yursa.

Va lekin har kishi o‘z motaminda,
Bo‘lur oxirgi savdosi g‘aminda.

Xudo qilsa nido: “Ey bandayi zor,
Na keltirding, na turluk qilmishing bor?

Tan-u teringda totliq jon yarattim.
Bahoyim qilmadim, inson yarattim.

Hamisha ayladim tarbiyatingni,
Nag‘u qilding parishon niyatingni?

Sani soldim musulmonlig‘ yerina,
Qani shukr etganing mingdin birina?

Tamom a’zolaringni solim ettim,
Arig‘ zotim bilurg‘a olim ettim!

Sug‘ordim obi ne’matdin tishingni,
Qani, ayg‘il mango qilg‘on ishingni?!”

Na bergaysan javobin, ey tan oroy,
Bu hasratdin fig‘on, ey ro‘siyoh, voy.

Erur boshdin ayog‘ing barchasi ayb,
Magar afv aylagay, Donandayi g‘ayb.

Yana kelsa nido, andin bilinglar:
“Yomonlar yaxshilardin ayrilinglar!”.

Musulmon o‘g‘lida turfa yomonsan,
Yomonlar o‘rtasida begumonsan.

Yomonlig‘ni magar Donandayi roz,
Yopub qo‘shqay saodat ahlina boz.

Vagarna san jahon rasvosidursan,
Xaloyiq ichra fitna boshidursan.

Tilingda xalq aro tasbih-u tahlil,
Va lekin botining tazvir ila hiyl.

Tilingda xalq ichinda va’z ila dars,
Va lekin botiningda oncha yo‘q tars.

Kiyibsan xalq aro faqrona malbus,
Va lekin botiningda nanggu nomus.

Yo nar xunsamusan qavlingda yonar,
Uhuding naxli hargiz bermadi bar?

Ko‘rar ko‘zga ajab so‘finamosan,
Nihonda nafs itiga mubtalosan.

Magar rahmat bilan Donoyi asror,
Gunohlaringni afv etgay bayakbor.

O‘shal g‘amlik ko‘ngulni aylagay shod,
Nekular o‘rtasida aylagay yod.

Kishi to shar qilur savdosi toshar,
Na’uvzu billah, ulkim haddin oshar.

Bashar bo‘lsang, qo‘y af’oli ba sharni,
Abas o‘tkarmagil isna asharni.

Yoshing yetkon sari fe’ling sani yosh,
Ko‘zing yoshi qani, ey mag‘zi yo‘q bosh?!

Qanoat ma’danig‘a och ko‘zing, och
Tama’ bo‘yi ko‘runmay, bo‘yidin qoch.

Sochilmasdin burun sochg‘il o‘zingni,
So‘rulmasdin burun so‘rg‘il o‘zingni.

Qazilmay yer sanga, qayt ozg‘aningdin,
Yozilmay uqdalar, yon yozg‘oningdin.

Baqodur dema, ayshi bebaqoni,
Yoqoni tut, ajal tutmay yoqoni.

Makon etkon yeringdur muxtalit loy,
Nasihat go‘sha olsang, go‘sha qil joy.

Yonib aysh-u tarabdin, ista Rabdin,
O‘zin bilgan qachon qolg‘ay talabdin.

Musanifni vasiyatlari

Man o‘lsam, ey jami’i mahrami roz,
Mani o‘zga o‘lukdek qilmang e’zoz.

Xas-u xor ustiga tashlab tuting xor,
Bahoyim jismidek mandin qiling or.

Bo‘sag‘o ustiga tashlab tanamni,
Kafan aylang churuk pirohanimni.

Nakim kirgan-u chiqg‘on tepsun o‘tsun,
Mazallat gardi xokin sepsun o‘tsun.

Mango hayf etmangizlar tutmag‘on bo‘z,
Agar chandiki mardum qilsalar so‘z.

Yuboring tez boraturg‘on yo‘limg‘a,
Mabodo qolmag‘aysiz shumlug‘img‘a.

Ko‘zungizdin chiqormang qatrayi yosh,
Janozam orqasidin otingiz tosh.

Oyog‘imdin tutib sudrang lahadga,
Na uchun qilmading qulluq Ahadga?!

Ko‘zumning suvratin vayron etinglar,
Qaro tufroq ila yakson etinglar.[1]

Agar chandiki man bo‘lsam gunohkor,
Duo-vu zorig‘a sizlar bo‘ling yor.

Deyingiz: “Parvardigoro, Kirdigoro,
Rahimo, mag‘firatlik Bir-u boro.

[1] Ushbu oxirgi bayt “Sabot ul-ojizin”ning eng qadimiy nusxalaridagina mavjud.

Olib kelduk Sango qochg‘on qulingni,
Xatolar bobini ochg‘on qulingni.

Kelibdur, hiylasi yo‘qdur ketarga,
Tili yo‘qdur bu qulni uzr etarga.

Gunohi ko‘p, boqar ruxsorasi yo‘q,
Bo‘yinsunmoqdin o‘zga chorasi yo‘q.

Agar bersang jazo, qodir Xudosan,
Vagar afv aylasang, San podishosan.

Ilohi, barcha oting hurmatidin,
Arig‘ zoting, sifoting hurmatidin.

Bu qochg‘on bandaga qilg‘il tarahhum,
Agarchi qildi qulluq rishtasin gum.

Muhammad otli do‘stung hurmatidin,
Nasib et oxiratning rohatidin.

Hama o‘tgan rasuling hurmatidin,
Jami’i yaxshi qullar hurmatidin.

Agar chandiki, bandangdur bad af’ol,
Raxi isyona savbi mag‘firat sol.

Muhabbat ahlining asrori uchun,
Raxi zard-u dili xunbori uchun.

G‘azo qilg‘on eranlar joni uchun,
Shahidlarning muborak qoni uchun.

Ulug‘larning soqoli oqi uchun,
Yigitlarni dili mushtoqi uchun.

Ojuzlarni oqarg‘on boshi uchun,
Yetimlarni ko‘zini yoshi uchun.

Shikasta bevalarni dardi uchun,
Asir xalqini ohi sardi uchun.

Agar chandiki, yo‘q ilginda hech shay,
Bu qochqon qulni rasvo qilma, yo Hay!”

Na bo‘lg‘ay bu duolardin Xudoyim,
Bu qochqon bandag‘a o‘tkay jaroyim.

Har bir ishda yetuk ustoz istamak bayoni

Kel e tolib, bu dundin yuz o‘girsang,
Tariqi ka’bayi maqsuda yursang.

Qadam qo‘ysang agar bul vodiyg‘a,
Qo‘lungni topshur avval hodiyg‘a.

Ajab yo‘ldir, aning poyoni yo‘qdur.
Xatarlik yerlarining soni yo‘qdur.

Talab qilg‘on o‘shal rohi adamda,
Halokat chohidur har bir qadamda.

Ajab yo‘ldir, tamomi mehnat-u ranj,
Va lekin har qarishda bir nihon ganj.

O‘shal ganji nihon yotqon zaminda,
Muhayyodur qaroqchilar kaminda.

Agar bo‘lmasa yo‘l boshlag‘uvchi pir,
Solur bo‘ynunga nogoh domi tazvir.

Agar bo‘lmasa bir sohib karomat,
Emas mumkin kishi yetgay salomat.

Qachon har pir bilur qutlug‘ yo‘lungni,
Topib er yaxshisin topshur qo‘lungni.

O‘shal pireki, erning eri bo‘lg‘ay,
Tariqat beshasining sheri bo‘lg‘ay.

Taxalluf qilmasa hech shar’ ishidin,
Tama’lik bo‘lmasa hargiz kishidin,

Olib qo‘lg‘a chirog‘i ilmi zohir,
Ulumi botiniyda bo‘lsa mohir.

Fano bo‘lsa tan-u jondin to‘loydin,
Qutulsa mosivodin lutfi Haydin.

Qay-u ermish fano bo‘lg‘on nishoni,
Takabbur bo‘lmasa miqdori doni.

O‘zining nafsini ul bilmasa pok,
Bo‘lib qulluqda aytsa: “Mo abadnok”.

Agarchi bo‘lmasa forig‘ ishidin,
O‘zin kam tutsa har mo‘min kishidin.

Eshitmasa kishi hech “man” deganin,
O‘zi ham bilmasa foni ekanin.

O‘zi aytsa: “fano bo‘ldum”, emasdur!
Fano bo‘lg‘on kishi hargiz demasdur.

O‘zining boshini sotsa o‘zi qul,
Qachon oqil kishi bergay anga pul.

Agar ro‘ bersa ham ba’zi makoshif,
Ishonmasdur anga hech mardi orif.

Agar ko‘rgan bilan o‘zdin ketibdur,
“Etibsan” deb ani shayton yetibdur.

Bu kunni tush bila tush qilma, ey xom,
Bayon qilmoq bila qolg‘onini shom.

Agar kam bo‘lsa ko‘rmakdin maxofat,
Yetar axshom sabo bu tushdin ofat.

O‘zin ayg‘on kishi albattadur xom,
Valoyat taxtiga bosqon emas gom.

Agarchi har kecha ko‘k bo‘lsa tavfi,
Kerak burnog‘idin ko‘b bo‘lsa xavfi.

Mabodo g‘irrayi tushsa ko‘ngulg‘a,
Bu g‘irra boshlasa ofatli yo‘lg‘a.

Bo‘lur holatlik er albatta xomush,
Agar yetilsa may hech qilmag‘ay jo‘sh.

Ko‘tarmas un valoyatlik xiradmand,
Sado chiqmas u naydin bog‘lasa qand.

Demas har kimga asrori haqoyiq,
Agar topilsa ganj, ixfosi loyiq.

Kishi uchqon bilan so‘yi samovot,
Tavarru’ qilmayin bo‘lmas kamolot.

Valiy uldur, chiqorsa mosivoni,
Havodindur talab qilmoq havoni.

Nabiy tab’iyyatidur rishtayi hub,
Vara’ qilmoq kamoloti taqarrub.

Agar fildek erur manhiy va gar qil,
Vara’ as’hobi ayturlar: “Hazar qil!”

Agarchi ko‘p erur pinhon sujudi,
Ko‘rinmas zarracha orif vujudi.

Agarchi zohir-u botin desa dars,
Saqar oldida turg‘ondek qilur tars.

Aningdek hodiyg‘a qilsang itoat,
Saodatdur, saodatdur, saodat.

Gadoyi ko‘chayi dargohi bo‘lsang,
Umid ul, mulki dilni shohi bo‘lsang.

Kishi qilsa xilofi hukmi shar’iy,
Ani jinni degil yo mardi sar’iy.

Agar suv ustida yursa o‘shal kas,
Degil: “Chandon bo‘lur suv ustida xas”.

Havog‘a uchsa monandi chibindur,
Ani hodiy dema, shaytondindur.

Ko‘ran ortiq emasdur, ko‘rmagan kam,
Kim atqo bo‘lsa, “indalloh”dur akram.

Kerak tobe’g‘a matbu’i mukammil,
Ulug‘ tandin bo‘lur paydo ulug‘ zill.

Kerak ko‘p tolib ichra bir nek-u roy
Yorutmas muncha yulduz bo‘lmasa oy.

Uluv himmat yigitlarga kerak pir,
Kamonsiz uchmagay ko‘b bo‘lsa ham tir.

O‘shal jundeki, harb olatin osar,
Agar bo sar yurusa, yovni bosar.

Sog‘altur telbani piri zabardast,
Quyunning sho‘rishin daryo qilur past.

Aningdek hodiy amrin qo‘yma zinhor,
Shayotin shattalar ayrilsang, ey yor.

Tushib shoh ilgina boziy qochar boz,
Bo‘lur zog‘larga boziy, ey sarafroz.

Bu ta'riflarga sodiq bo'lsa piring,
Va lekin bo'lmasa ravshan zamiring.

Erur nuqson o'zungdin ko'rma andin,
Bo'lur sa'y albatta "pirman" degandin.

Piring farmonidin qilsang taxalluf,
Taassufdur, taassufdur, taassuf.

Muhabbat sharobini piri komildin ichmak bayoni

Kel, e soqiy, ikavlon aylaling shurb,
O'shal shurbeki, xalq andin topar qurb.

Sharobe berki, dil andin bo'lur sohv,
Qilur bir muddaodin o'zgani mahv.

Agar Fag'furi Chindur, Qaysari Rum,
Muhabbat ahlini oldida ma'dum.

Muhabbat jomidin topsa kishi bahr,
Na qilsun mulki moli Movarounnahr.

Ko'ngil mulkeki, bir oliy sifatdur,
Muhabbat ganji bog'i ma'rifatdur.

Rizoyi hazrati Ma'bud o'shanda,
Jami'i istagan maqsud o'shanda.

Aningdek mulkni sultoni bo'lsang,
Na hojat yer yuzini xoni bo'lsang.

Agar xardalcha bo'lsa mehri ag'yor,
Bo'lur botin ko'zing mahjubi asror.

Nechukkim, zarracha xas tushsa ko'zga,
Qilur albatta ko'rmaklikni o'zga.

Solik qazog‘a rozi va balog‘a sabrli bo‘lmog‘ining bayoni

Kel e soqiy, muhabbat jomidin may,
Xaridor ilgina bergil payopay.

Xaridor ul erur juz niyati fard,
Ko‘ngil ko‘nglakina yuqtirmag‘ay gard.

Qay-u holatda bo‘lsa ertav-u kech,
Xilofi hukmi mahbub etmagay hech.

Bu yo‘lning barchasin tay qilg‘on erlar,
Rizo bermak maqom a’losi derlar.

Agar boshinda yursa osiyo sang,
Rizo jo‘yanda hargiz bo‘lmag‘ay tang.

Agar har kunda ichsa zahr ayog‘in,
Suyukluk bandasi chatmas qabog‘in.

Kishikim roziliq nominda bo‘lsa,
Qilur shukr, ajdaho kominda bo‘lsa.

Rizo ayvonida topqon kishi jo,
Demas “vo” bobi ofat bo‘lsa ham vo.

Agar mag‘zi diling ayrilsa yo po‘st,
Yig‘ini yig‘, agar chin qulsan, e do‘st.

So‘nar g‘am tushsa har ozoda erga,
O‘char o‘t tushsa xasdin xoli yerga.

Xudo amrig‘a oqil g‘am yemasdur,
Demas gardun qilur gar dun emasdur.

Egam hukmig‘a har kim bo‘lsa mamnun,
Ko‘tarmas un agar boshin qilur un.

Bu tog‘ga sursalar, tashlab u tog‘din,
Sanodin o‘zga chiqmas aqli sog‘din.

Agar qindur vagar ming qilsalar qin,
Qachon tushkay chin erning ko‘nglina chin?

Qay-u holat bilan jon bo‘lsa tanda,
Bo‘lar shokir hamisha rozi banda.

Ulug‘ yo‘ldin adashqon necha beaql,
Qilur erlardin u yolg‘onchilar naql:

“Kishikim, oshiqi diydori Haqdur,
Muhabbat ahli birlan hamsabaqdur.

Na hojat o‘zgacha toatlar andin!”
Bo‘lur yuzi qaro mundog‘ degandin.

Buyurg‘onig‘a har kim bo‘lsa munkir,
Gumon yo‘qtur, bo‘lur albatta kofir.

O‘shal xalqeki, ko‘p beaql emishlar,
Xudoning dushmanin oshiq demishlar.

Dil-u jon birla bo‘lg‘on oshiqi zor,
Xilofi hukm qilmas zarrayi kor.

Buyurg‘on ishlarini shod-u g‘amda,
Qilur birdek farog‘atda, alamda.

Agar to‘ldirsalar yerning yuzini
Qizil tillo bilan, solmas ko‘zini.

Balo o‘qi qadalsa, urmag‘ay oh,
Qilich boshig‘a kelsa, buzmag‘ay roh.

Kishikim, qilsa oshiqlikni lofin,
Qilurmu hech ma’shuqi xilofin.

Hikoyat

Musulmoneni yuz cho‘b urdi bir dun,
O‘shal ozodadin hech chiqmadi un.

Dedi bir nozire: “Qo‘b, hokima bor”.
Bu aydi: “Hokimim hozirdur, e yor!”

Tan-u jon barchasi amloki Rabdur,
Maqosid istamak bizdin ajabdur.

Tolibi Haq uldurki, jahon savdosidin mosivo bo‘lsa

Kel e ko‘ngil, jahon savdosidin kech,
Qadam g‘am kishvarig‘a urmag‘il hech.

Jasad qolmasdin ilgari nafasdin,
Havo ko‘b qilmag‘il, kechgil havasdin.

Dari tavba ochuqda ista maqsud,
Ish o‘tkan so‘ng pushaymondin nechuk sud.

Egil tezroq Xudoning toatig‘a,
Keyin qo‘yma bu damni soatig‘a.

Yigitlikda ajab xush xavf-u zori,
Yog‘inliq kelsa xo‘b yilning bahori.

Ko‘zidin yosh agar qo‘rqib to‘kar yosh,
Durri rahmat bo‘lur har yoshig‘a chosh.

Mabodo tavba qilmasdin burunrog‘,
Ajal kelsa, ketarsan tavbasiz dog‘.

O‘lumni doimo yoningda bilgil,
Aning ilgin giriboningda bilgil.

O‘limning soqisin peshonada bil,
Labingni doimo paymonada bil.

Ajal tortib turubdur yoy bilan o‘q,
Yoshunur yer, qochar darmonimiz yo‘q.

Ko‘toribdur qilich bizga solurg‘a,
Kishi bilmas, qo‘yarmu dam olurg‘a.

Bilursan yo‘q bu dunyoning baqosi,
Qadam qo‘yg‘on yeringdur jar yaqosi.

Taajjub mundin o‘tmas, jar labinda
Bani odam hanuz o‘z matlabinda.

Qadam daryo yuzinda — ro‘yi xasda,
Hanuz avlodi odam ming havasda.

Sahar bo‘lsa, nido aylar farishta:
“Eshit, ey odamiy, g‘aflat sirishta!

Sani xalq aylagan Sultoni g‘olib,
Hamisha bandasidin tavba tolib”.

Egamning mag‘firat daryosidur jo‘sh,
Ajabdur bandasidin g‘aflat og‘ush.

Egamdin lutf-u rahmat bobin ochmoq,
Ajabdur bandasidin muncha qochmoq?!

Yotursan tobakay, emdi uyang‘il,
Dil-u joning bila Hazratg‘a yong‘il.

Nakim qilmishlaringdin tavba qilg‘il,
Boshing ko‘b yuqori qilma, egilg‘il.

Agar yer yuzining sultoni bo‘lding,
O‘lum changolig‘a oxir tutulding.

Agar topsang hayoti hazrati Nuh,
Qilur bir kun o‘lum joningni majruh.

Agar topsang hayoti Xizr-u Ilyos,
Ketarsan bu jahondin ayyuhannos.

Agar topsang tiriklikni du bora,
Sanga yo‘qdur o‘lumdin o‘zga chora.

Nadur tavba demoq — yonmoq gunohdin,
Tuzuk yo‘lg‘a yurumak o‘zga rohdin.

Xudo dargohida chun aylading ahd,
Ani sindurmag‘il, nafs aylasa jahd.

Agar “tavba” demak chiqdi tilingdin,
Na sud, ul bo‘lmasa jon-u dilingdin?!

Dil-u jon birla qilg‘onning nishoni,
Yana qilmasa tavba qilg‘on oni.

Agar chin yonasan, tormosh bu yona,
Tahi poyonadur, toyrilma yona.

Nadam nurin ko‘ngildin qilma g‘oyib,
Agar toib erursan, ketma toyib.

O‘lar bir ahd ila bir xayli bo‘lsa,
Agar chandiki, ishrat mayli bo‘lsa.

Ko‘ngil tasdiqi reshadur, amal — shox,
Ulug‘i tavbadur, sindurma gustox.

Siniq shox zarbi birla zaxm olib asl,
Mabodo bo‘lmag‘ay xushk oxiri fasl.

Jarima chirki birlan zohir-u sir,
Bo‘libsan kir, nadam daryosig‘a kir.

Robi'a hikoyati

Eshitkil, Robi'aning ashkin, ey shoh,
Birovning chodiriga tomdi nogoh.

Dedi: "Yuv chodiringni, ey qarindosh,
Qizil qondur ko'zimdin sachrag'on yosh.

Uyotlig' osiyadin, ey guziyda,
Bo'libdur qona tabdil obi diyda"

Agarchi Robi'adur mar'a bizzot,
Eranlar qo'ydilar "tojur rijol" ot.

O'zin sudrab Haramg'a joni birlan,
Yetushdi yetti yilda yoni birlan.

Aning sha'nindagi kasb-u kamolot,
Adaddindur berun azvoqi holot.

Munungdek yig'lasa andog' nek-u roy,
Bizingdek ro'siyahning holig'a voy.

Hamisha zavqimiz aysh-u kulushga,
Yetushmas erta qilg'on tavba tushga.

Munojot

Ilohi, lutf qil, man mubtalog'a,
Tushubdurman biyoboni balog'a.

Yotibman yuz tuban isig'da suvsob,
Kishi yo'qdur tomizg'ay qatrayi ob.

Qurub qonim, yetibdur labga jonim,
Tushubdur yerga og'zimdin zabonim.

Maziyyot[1] ahli atrofimdadur pur,
Umidlikman hanuz, yo Koshifaz zurr.

Karam bahridin, ey sultoni Vahhob,
Ato qilsang mango bir jur'ai ob.

Saodat quvvatin qilsang inoyat,
Rafiqim bo'lsa tavfiq-u hidoyat.

Berib sinmas asoyi tavba qo'lg'a,
Talab dardi bilan solsang bu yo'lg'a.

Tavarru' zodi bo'lsa qo'ynimizda,
Ubudiyyat tanobi bo'ynimizda.

Yurutub yaxshilar kezgon subulni,
Rizo mulkiga qo'ndursang bu qulni.

Muningdek ishlar, ey Donoyi asror,
Sango oson erur, gar bizga dushvor.

Ko'toribman umid birlan bilakni,
Xudovando, qabul etkil tilakni.

Erur jovid lutfung bahridur jo'sh,
Erur biz chun xatogar, San xatopo'sh.

Agarchi barcha ishim bo'ldi ma'yub,
Mani aybimni lutfing yopmog'i xub.

Kamtarinlik haqida mav'iza

Kel e nafs, ochmag'il ko'z har qayona,
Yo'q ermish e'timod ushbu zamona.

[1] Bu so'z "Hidoyatut tolibin"da baziyyot (بذيات) deb noto'g'ri keltirilgan.

Muyassar bo‘lsa tillodin sanga taxt,
O‘zungdin pastga zinhor aymag‘il saxt.

Agar bersa jahon sultonlig‘i dast,
Kishi o‘z holini bilmak kerak past.

Agar rutbang erur a’loyi ofoq,
Yiqilg‘on xastalarning holig‘a boq.

Bu rif’at birla ko‘kni ko‘r hamisha,
Yuzidur yer sori, ey yaxshi pesha.

Agar chandiki o‘rnung bo‘lsa aflok,
Quyoshdek o‘p turib ruxsorayi xok.

Agar dunyoda bo‘lsang zo‘r boz-u,
Vale anda qurug‘lug‘dur tarozu.

Taraf mo‘reki, sanda quvvati fil,
Musulmonlig‘da anga marhamat qil.

Agarchi ul oyoq ostidadur xor,
Xudo maxluqidur, og‘ritma zinhor.

Takabbur qilmag‘il, ey bema’oniy,
Faloniy o‘g‘lidurman deb faloniy.

Agar oldingdagi qul bo‘lsa voliy,
Ko‘ngilni kiynasidin ayla xoliy.

Burung‘i holig‘a qilma nazora,
Ani Tangrim aziz etsa, na chora?!

Ishonma otag‘a, qolma talabdin,
Qiyomatda so‘rulmasdir nasabdin.

Hasab favqi nasabdur, ey nek-u hol,
Yipak to‘ndin o‘tar xo‘b ishlagan shol.

Qoracha o‘g‘li xo‘ja o‘g‘lidin kam,
Mu’allam bo‘lsa sayyiddin o‘tar ham.

Agar sohib nasab tuzdur ishiga,
Na so‘z ikki xosiyyatli kishiga.

Agar qilsang safar dorulhayota,
Xo‘b ota bor dema, tormosh xo‘b ota.

Agarchi Nuh edi hodiyi inson,
Tug‘ubdur andog‘ erdin nomusulmon.

Agarchi Nuh o‘g‘lin arzin etdi,
Xudodin “laysa min ahlik” eshitdi.

Abu Tolibki ammdur Mustafog‘a,
Ota erdi Aliyyul Murtazog‘a.

Kichikdin Mustafog‘a erdi mushfiq,
Va lekin bo‘lmadi dinda muvofiq.

Diyonatsiz o‘shalkim bo‘ldi nobud,
Payambar shafqati ham qilmadi sud.

Aning hukmidadur idbor-u iqbol,
Tikondin gul chiqordi, zahrdin bol.

Xalilulloh edilar Ozar o‘g‘li,
Taqi Lut nabiydur Hozar o‘g‘li.

Hasud etgan kishi dun-u dag‘aldur,
Bu bir so‘z xalq aro eski masaldur:

“Chirog‘iniki, Haq yondurdi qo‘ydi,
Ani kim “puf” dedi, soqoli kuydi”.

Xudoning sun’idin ko‘rduk karashma,
Bir eski yerdin oqti yangi chashma.

Ani band etkali oldi birov bel,
Muni g‘arq ayladi nogoh kelib sel.

Agar tore kishi zulm etsa, tortar.
Vale mazlum deganning ajri ortar.

Musulmoniyg‘a bo‘lma hech mukobir,
Borur jo bir erur, ey nafsi jobir.

Tushurma naf’i yo‘q ranjish miyona,
Sani eltar ziyona toziyona.

Tirik yurguncha zolim o‘lgani xo‘b,
Gunohdin har necha kam bo‘lg‘oni xo‘b.

Hajjoj hikoyati

Musulmoneg‘a bir kun aydi Hajjoj:
“Duoyi xayr uchun bizga qo‘lung och!”

Duog‘a qo‘l ko‘tardi ul nek-u hol,
Dedi: “Yo Rab, bu zolim jonini ol!”

Dedi Hajjoj o‘shal mardi Xudog‘a:
“Tiling bordi nechuk mundog‘ duog‘a?”

Dedi Hajjojg‘a ul mardi nek-u sayr:
“Sanga ham barcha mo‘minlargadur xayr.

Gunohing kam bo‘lur, o‘lsang agar tez,
Ketar zulming alarni boshidin nez”.

Tama'din tiyilish haqida

Kel, e ozoda, bo'l himmat bilan yor,
Tama' zindonig'a bo'lma giriftor.

Bir igna bo'lmasa dunyo ishidin,
Ur istig'no, tama' qilma kishidin.

Xudoying har na bersa, qil qanoat,
Yurakni qilma minnatdin jarohat.

Yugursang kunda bir kavdiy uchun chand,
Buxoro o'lkasidin to Samarqand.

Badaxshondin ko'tarsang yuz sori tosh,
Bahosi Balx ichinda bo'lsa bir mosh.

Agar boshi bilan choh qazsa banda,
Ko'zining yoshicha suv tobsa anda.

Agar qozsa arig', kiprik bila mard,
Anga bir xo'shaye jo' qilsa Parvard.

Bu mehnat birla tobsang parchayi non,
Kishining minnatidin uldur oson.

Qidirg'on birla rizqing qidri toshmas,
Ketar qadring, qadardin hargiz oshmas.

Tavakkul ganjidin, ey yuz o'girgan,
Buyurganga muxolifdur bu yurgan.

Ola bo'lgan ola yurgandin ortiq,
Ko'mulgan termilib turgandin ortiq.

Agar tosh chaynasa, eldin chiqib tosh,
Kishiga egmagay himmatli qul bosh.

Tama' nonig'a lab ochg'uncha, o'l och,
Minan o'tidin uchqundek bo'lib qoch.

Agar qorni biror to'ymasa qarni,
Kishiga aymag'ay er banda sirni.

Tama'lik siyladin behdur silingan,
Tilangandin erur oson tilingan.

Tama' qilma toparga zar nigorin,
Bu zar mehri buzar dinning hisorin.

Kishini matlabi siym o'lsa yo zar,
Xalilning otasi ham bo'lsa ozar.

Musohib bilmagil dunyo xasimin,
Nasimi ma'rifat ista, na siymin.

Emaklab tushsa, ketsa et bila po'st,
Tama' qilma kishidin to'sha, ey do'st.

G'araz dunyo bo'lub, ey odamizod,
Aziz umringni hargiz qilma barbod.

Kishining xizmatida bog'lasang qo'l,
Jilovida yugursang bir qadam yo'l.

Bu yurmakdin fano kechganing ortiq,
Bu ne'matdin "zaqqum" ichganing ortiq.

Va lekin tegsa xos erning jilovi,
Saodatdur, diling dardig'a dovi.

Aningdek erni dargahinda qish-yoz,
Aziz umringni o'tkarsang erur oz.

O'shal erning erikim beriyodur,
Qadam tufrog'i ko'zga to'tiyodur.

Aningdek bandani bo‘lsang gadosi,
Na davlatdur, Xudoyimning rizosi.

Aning bir donasidur xirmani zar,
Dame suvdur ul erdin mushk-u anbar.

Saodatlik murid ul Haq rahinda,
Bo‘lur yo‘lboshchisining dargahinda.

Na rasvo pir erur nafsi uchun xor,
Muridi eshikida yursa ul zor.

Hayo yo‘q, sharm yo‘q hargiz alarda,
Bitiklik hodi(y)lardin nusxalarda.

Kecha-kunduzga kimning quti yetsa,
Harom ermish o‘zini soyil etsa.

Nabiy aydi, Qiyomat bo‘lsa, ey do‘st,
Tama’girni yuzida bo‘lmag‘ay po‘st.

Bilay desang bu so‘zni, ista “Mishkot”
Tama’ birla kechirg‘on hayf avqot!

Savbon hikoyati

Ajab mard erdi Savbon atqiyoda,
Ul otliq erdi bir kun, el piyoda.

Qo‘lidin yerga qamchi tushdi nogoh,
Tushub oldi o‘zi ul ko‘ngli ogoh.

Yoronlar aydi ul pokiza xulqa:
“Na bo‘lg‘ay erdi amr etsang bu xalqa?!”

Dedi Savbon: “Tama’din bo‘lmag‘ay deb,
“Olib bergil!” — demakni ko‘rmadim eb”.

Yomonlar suhbatidin qochib, yaxshilar suhbatida bo‘lmoqning bayoni

Kel e tolib, ko‘zing ibrat bilan och,
Muhabbatsiz kishidin qush bo‘lub qoch.

Muhabbat ahlining jo‘yoni bo‘lg‘il,
O‘shalkim uchradi, qurboni bo‘lg‘il.

Kishining ko‘nglikim begona bo‘lsa,
Erur dushman agar hamxona bo‘lsa.

Muhabbatsizki bo‘ldi har qay-u zot,
Agar farzandi shirindur, erur yot.

Muhabbat bo‘lmasa har kimda, ey xayr,
Otang bo‘lsa erur begona-vu g‘ayr.

Aqorib yurmasa ko‘ngli oqorib,
Qo‘lingdin kelsa hech o‘ltirma borib.

Agar begonayening dog‘i bo‘lsa,
Anga sarf et, ko‘zungning yog‘i bo‘lsa.

Jigarbanding yuroking go‘shasidur,
Aning mehri Qiyomat to‘shasidur.

Aningdek yor ila chun aylading ahd,
Ichursa zahr, ani bilmak kerak shahd.

Tilosa bo‘rkni, bermak kerak bosh,
Agar jon istasa, qaytarmag‘il qosh.

Agar bo‘lsun desang yengil og‘irlar,
Chiqib bir yona, tob, biryon bag‘irlar.

Qilur suhbat asar, ey tolibi roh,
Munungdek joriy bo‘ldi odatulloh.

Nakim tuz koniga tushsa, bo‘lur tuz,
Ki andin o‘tsa necha kecha-kunduz.

Agar chandiki, noqobillig‘ing bor,
Nekular jam’idin ayrilma zinhor.

Agar chiqsa yipakning jam’idin los,
Bo‘lur g‘arqi siyohiy, ayyuhannos.

O‘zin qilsa qay-u mis nuqrag‘a zamm,
Qo‘yar mis otini xalq o‘g‘li dirham.

Olur suhbatda bir-birdin kishi bahr,
Agar ko‘p chashma bir bo‘lsa, bo‘lur nahr.

Jamoatdin o‘zungni qilma mumtoz,
Chopar ko‘p to‘pdin ayrilg‘on qusha boz.

Galaga bo‘ri chopsa, ey faloniy,
Qay-u ayrilsa, avval tishlar ani.

Yurusang yakka, dev boshingni yanchar,
Qaroqchi to‘pdin ayrilg‘onni sanchar.

Xudoning rahmati bo‘lsa jamoat,
Erur rahmatdin ayrilg‘on shanoat.

Na ul jam’eki, g‘aflat ahli bo‘lg‘ay,
Bahoyimdin ziyoda jahli bo‘lg‘ay.

Alarning suhbatin bil zahri qattol,
Buzar ko‘p suhbatin, bil, bir bad af’ol.

Kerak suhbat eli bir tan-u bir rang,
Baras bar ro‘yi noxon bo‘lsa ham nang.

Agar kelsa muzirr, nafrat qil andin,
Yilondin bezarar bo‘lmas, yel andin.

Dev hikoyati

Dedi bir devi hosid yana birga:
"Borib kayd et falon fohishli yerga".

Dedi: "Ul firqadin forig' bo'l, ey yor,
Alardur bir-biriga rahbari nor.

Bilibdur zohiriy dushmanlarin do'st,
Emas hojatki, kirsam rag bila po'st".

Dunyodin tajarrud bo'lmoqlik haqida

Kel e solik, o'zingni yo'lg'a solding,
Ulug' himmat asosin qo'lg'a olding.

Agar qolmay desang kirgan yo'lungdin,
Tajarrud davlatin berma qo'lungdin.

Keyinga boqmag'udek bo'lsa banda,
Yetar maqsudig'a tez izlaganda.

Agar boqsang keyin bu tog'-u cho'lda,
Maboda qolmag'aysan o'rta yo'lda.

Mashaqqat bo'lmasa, sung'on bo'yinda,
Beh andin bo'lg'oni yerning quyinda.

Ibodat bandaning manzuri bo'lsa,
Beh ul erdinki, uyda huri bo'lsa.

Va lekin etmasa shahvat judolig',
Ko'ngilg'a tushsa qasdi kadxudolig'.

Diyonat istagudekni talab qil,
Agar topilmasa, kunjida xab qil.

Agar zangiy bachadur, ko‘zlari ko‘r,
U kim, mastura bo‘lsa, bil ani hur.

Agar chandiki, bo‘lsa bandazoda,
Ani sohib nasabdin ko‘r ziyoda.

Tilining uzuni — sharm-u hayosi,
Yuzining oqidur — erning rizosi.

O‘shal xotunki, nomahram nazardur,
Agar shams-u qamardur — mochaxardur.

Agar chandiki, buzrukzodadur ul,
Yaqin bil, to‘rt oyoqlik modadur ul.

O‘shal xotunki, yoshurmas yuzini,
Ki nomahramg‘a ko‘rsatur o‘zini.

Ani man’ etmas erdur behamiyyat,
“Xulosa”da erur mundog‘ saviyyat.

Bog‘ayrat er bo‘lur rozi qazog‘a,
Yubormas ahlini to‘y-u azog‘a.

Bo‘lur rozi qora yerga tiqarg‘a,
Qachon rozi bo‘lur uydin chiqarg‘a.

G‘araz, ey bandalar, nozir bo‘lunglar,
Yomon yo‘l firqag‘a hozir bo‘lunglar.

Bani Odamda bordur bir fariqa,
Tutarlar o‘zlarin ahli tariqa.

Alar shar’i Nabiyning dushmanidur,
Alarning oti ya’ni “ravshaniy”dur.

Alar o‘zlarig‘a orif qo‘yib ot,
O‘qurlar omiylarg‘a yaxshi abyot.

Va lekin aytishur behuda ma'ni,
O'zining yo'lig'a solmoqqa ya'ni.

Alarda bo'lmag'ay hech yaxshi niyyat,
I'yol-u ahlida bo'lmas hamiyyat.

Jami'i jonivorlar tushsa ko'zga,
Hamiyyatlik bo'lur to'nguzdin o'zga.

Alarning fe'lidur to'nguzg'a o'xshash,
Shariat munkiridur, og'zig'a tosh.

Alarning fe'lini kim yaxshi bildi,
Bo'lib kofir, yonar o'tg'a yiqildi.

Bo'libdur ham taqi bir firqa paydo,
Oti mo'min vale nafsiga shaydo.

Yig'arlar porayi bo'yni yo'g'onni,
Solurlar o'rtag'a qiz-u juvonni.

Agarchi "ravshaniy" ermas bu avbosh,
Vale bu ish shariat hukmidin tash.

Bitibdur Bul Hasan ul yaxshi banda,
Kitobi "Tanbihuz zollin" ichinda.

Bu ayg'on firqalar zollu muzilldur,
Shariat ahli bu eldin xijildur.

Inonsun deb taqi bir necha beaql,
Qilurlar Xoja Ahmaddin muni naql.

Xudoning do'sti bo'lsa Xoja Ahmad,
Qilurmu hech muningdek bid'ati bad.

Shariatda edi ul ofitobe,
Qolibdur bizga ul erdin kitobe.

O‘shal sulton bitibdur balki anda,
Chiqar mundog‘ fariq oxir zamonda.

Aningdek firqa mal’uni Xudodur,
Alarning fe’li sunnatdin judodur.

Bu ishlar beshak-u rayb, ey musulmon,
O‘shal qutbi zamong‘a erdi yolg‘on.

Qay-u erdinki, naql etsa bu ishni,
Inonmang zinhor andog‘ demishni.

Valiy bo‘lsa, ulug‘ yo‘ldin toyarmu,
Xilofi shar’i Payg‘ambar etarmu?

Aning sha’ninda yolg‘ondur bu af’ol,
Agar chin bo‘lsa, ermas sohibi hol.

Valiy bilmasmiz ul ayg‘on kishini,
Qilib o‘tkan ekan shayton ishini.

Olib borsa kishi ahli i’yolin,
Ko‘tarur behamiyyatlik vabolin.

Harom ishniki, toat bilsa inson,
Qilur bu e’tiqodi nomusulmon.

Birodarlar, bilinglar rohi Haqni,
Tuting dushman o‘shal ayg‘on firaqni.

Qiyomat kun qo‘shilsa, jon ila tan,
Qo‘par har er o‘zini do‘sti birlan.

Hikoyat

Payambar dorida bir ko‘r gadoyi,
Tilar erdi kelib chizi Xudoyi.

Turub erdi qaroshib ba’zi azvoj,
G‘azab birlan qarodi shohi me’roj.

Dedilar: “Ey shahanshohi qaboyil,
Biz andin qochmaduk, ko‘r deb bu soyil”.

Alarg‘a aydi ul sultoni abror:
“Agar ko‘r bo‘lsa ul, sizlarda ko‘z bor!”

Alar “biz bilmaduk”, deb zori qildi,
Guharlar ko‘zlaridin joriy qildi.

Na so‘z Payg‘ambar azvojig‘a, ey xok,
Alar erdi jami’i shubhadin pok.

Taajjub fitnalikdur bu zamona,
Tushubdur erlar ahvoli yomona.

Xiradmando, eshit mandin necha pand,
Bu so‘zga bo‘lmadim omil agar chand.

Zamona xotunini yo‘lg‘a solmoq,
Erur oson bu ishdin jang qilmoq.

Uzulmas solmani bo‘ynunga solma,
Agarchi olmadur ruxsori, olma!

Dame ayshiki, bo‘lg‘ay oxiri sard,
Ani xushlab, qabul etma uzun dard.

Bola deb solmag‘il joning balog‘a,
Bola birlan bo‘lursan mubtalog‘a.

Musulmon oli bo‘lsang olma olin,
Agar olsang qabul etma vabolin.

Qo‘yub Tangri taoloning rizosin,
Nechuk tandur qilur zan muddaosin.

Agar bor olg‘oningning yaxshi holi,
Dema xotun, degil dinning kamoli.

Xush ul zan, bilmasa behuda derni,
Suchuk lafzi bilan shod etsa erni.

Agar o‘n yil uyida bo‘lmasa un,
Uni chiqmas uni ayturg‘a bir kun.

Bilur er oldida dodak o‘zini,
Vagar yuz tepsa, qaytarmas yuzini.

Agar o‘ysa ko‘zin kulfat bila sho‘y,
Turib uydin chiqorg‘a aylamas o‘y.

Sirin fosh aylamas gar g‘amda bo‘lsun,
Agar tang bo‘lsa aytur, “bo‘lsa bo‘lsun!”

Agar zanni muningdek bo‘lsa xishti,
Ani bilgil bu dunyoni bihishti.

Ilikka tushsa mundog‘ nozanin gul,
Degil, bu sandadur bo‘sanda, man qul.

Saroyi oxiratning zodidur ul,
Inoyat gulshanining bodidur ul.

Qaro dema, qara xush fe’l-u xo‘yi,
Nekudur na ko‘cha ko‘rsa, na ko‘yi.

G‘animat ko‘r, topilsa xulqi xush ko‘r,
Balodur joninga mohi suxan sho‘r.

Oqizur oqlig‘in, gar kelsa tilga,
Qizil deb olmag‘il, badxo‘ qiz elga.

Yomon bo‘lsa, na’uvzu billah, andin,
Ziyondin o‘zga hech kelmas yomondin.

Yomon xotun shayotin qamchisidur,
Qo‘lung bog‘laguchi arg‘amchisidur.

Du olam nori bo‘lsa, nori ketsun,
Ko‘zung ko‘rmasga shum diydori ketsun.

Agar ul ketmasa, san ket olib bosh,
Ko‘tarib yurmagil, tog‘din og‘ir tosh.

Hikoyat

Nek-u zoteg‘a aydi bir nek-u xo‘y:
“Erursan bul’ajab munqodayi sho‘y?”

Dedi: “Qasdim mani Tangrim rizosi,
Bitar bu o‘rtada er muddaosi.

Iki toat muyassardur bir ishda,
Nechuk sunmay bo‘yun amr aylamishda?!”

Rasulullohga ergashmoq va shayxi komil istamakning bayoni

Kel e so‘fi, umid etsang safodin,
Qarish chiqma tariqi Mustafodin.

Amal qil, ittiko qilmay amalga,
Tavakkul aylagil azza va jallga.

Amal qilmay safo bo‘lmas ko‘ngilda,
Oyog‘siz hech kishi yurmadi yo‘lda.

Qachon qo‘lsiz kishi bo‘lg‘ay shinovar,
Shinovarman desa, hech qilma bovar!

Solibdur ahli sunnat rohi omma,
Bu yo‘ldin chiqmag‘il o‘zga maqoma.

Dema, tutdum falon buzruk ishini,
Qo‘ya ko‘rma Nabini qilmishini.

O‘shal buzrukki, sohib himmatidur,
Rasulullohning xos ummatidur.

Nabini qilg‘onidin qilmag‘ay tosh,
Agar chandiki, bo‘lsa ko‘z bila qosh.

Shariat hukmidin tashqi riyozat,
Emas toat, qabohatdur, qabohat.

Amal qilmoq uchun kirsang bu yo‘lg‘a,
Kerakdur sham’i ilm albatta qo‘lg‘a.

Qorong‘uda qadam qo‘ysang yozarsan,
Agar ko‘z bo‘lmasa, yo‘ldin ozarsan.

Erur chunki ajoyib purxatar roh,
Qadam qo‘ysang, oyog‘ ostidadur choh.

Tuzuk yo‘l deb qadam o‘tru solursan,
Quduqg‘a tushganing tuymay qolursan.

Ko‘zung gar bo‘lmasa, ey aqli hushyor,
Asokashsiz qadam hech qo‘yma zinhor.

Agar olim so‘zin xo‘b tutsa omil,
Ani omiy dema, de “mardi komil”.

Udur johil — bilib murshid o‘zini,
Quloqg‘a olmag‘ay olim so‘zini.

Diyonat bexidur ilmi aqoid,
Tamursiz shoxa su bermak na foyid?!

Bu mahkam tub shajarni shoxi — a’mol,
Libosi bo‘ldi taqvo, mevasi — hol.

Ajab asleki, far’i fissamodur,
Chiqorur hodiyi ilm rahnamodur.

Biduni ilm agar qo‘ysang anga poy,
Toyib ketsang sani ahvolinga voy.

Ilikka domani hodiyyi ilm ol,
Chiqib shoyad yegaysan mevayi hol.

Ajabdur yerdag‘i turg‘on a’mog‘a,
Uzotur ilgin asmori samog‘a.

Zaife aysa: “Befiqhi zaruriy
Muyassardur manga toat sururi!”.

O‘quy bilmasa zohir lafzi Qur’on,
Nechuk tafsirini bilgay ul inson?

Agar mag‘zin olibdur mardi tohir,
Nechuk qoldi ko‘runmay qishri zohir?!

Erur din ilmi chun zardol-u, ey do‘st,
Mulazzazdur aning ham mag‘zi, ham po‘st.

Birodarlar, budur bu qulning arzi,
Valiy bo‘lg‘aymu, qilg‘on tarki farzi?!

Erur fiqhi zaruriy farzi ayni,
Yomondur turfa nodonlig‘ni shayni.

Bu tark uzra bo‘lur tarki faroyiz,
Nechuk bo‘lg‘ay valiy, tingla aroyiz?!

Agar ul bilmasa ilmi aqoid,
Bo‘lur ul akbari osoma oid.

Aningdek telba kasni, ey nek-u zot,
Valiy bilma, agar ko‘rsang kushufot.

Yumub ko‘z, uyquda ko‘rgan bila kas,
Valiy bilmas ani mardi suxanras.

Bu ko‘rmakdin o‘zin bilsa ziyoda,
Degil, otdin tushub, bo‘ldi piyoda.

Burung‘i holidin qildi tanazzul,
Tushar sarkashli qulning bo‘ynig‘a g‘ul.

Na yaxshi yor, o‘zin ko‘rsa gunohkor,
Bo‘lur ko‘rgan sari qo‘rqunchi bisyor.

Agarchi bo‘lsa ko‘b pinhon sujudi,
Ko‘runmas zarracha orif vujudi.

Hayov-u ilm-u hilm-u judi bo‘lsa,
Rizoyi Haq ani maqsudi bo‘lsa.

Aning ixlosi qulluq bo‘lsa-u bas,
Riyodin bo‘lmasa, ko‘nglida bir xas.

Jami'i ishlarin solsa Xudog'a,
Qo'lin topshursa bir hodiy rizog'a.

Shayx Basriy hikoyati

Imomi ahli sunnat Shayx Basriy,
Umid uldurki, jannat bo'lsa qasri.

Aning bor erdi bir omiy muridi,
Va lekin tunda erdi kashf-u dudi.

Muridi kelmadi bir necha ayyom,
O'zi topdi ani ul shayxi islom.

Dedi ul omini qilmoq uchun ol:
"Manga asroring ayg'il, ey nek-u hol"

Dedi: "Hargahki, xufton kelsa qarshi,
Yetarman lahzada ayvoni Arshi.

Maloikdek bo'lib Arsh ichra mumtoz,
Xudo birlan uzun shab aytaman roz".

Dedi: "Borsang o'shal manzilg'a chun bod,
Bu miskin otini ham aylagil yod".

Yana kechaki, ul manzilga yetdi,
"Hasan" otin tilig'a joriy etdi.

Buzulg'on ko'rdi arshi dilkushoyin,
Najosatxonayeda ko'rdi joyin.

Yaqin bildi, muni shayton qilib kayd,
Qilur erkan ani har kechasi sayd.

Inobat qildi borib, qayta boshdin,
Muyassar qildi ilm otlig' quyoshdin.

Buzar botilni tuz olimni oti,
Fakayf, ul yerda hozir bo‘lsa zoti?!

Arig‘ ilm-u amaldur rahbari hol,
Bu ikki bol bila uchqon ichar bol.

Agar bo‘lmasa ilming, ey sabuksayr,
Bilur boling vaboling barchasi xayr.

Agar bilsang nek-u af’oli baddin,
Na’uvzu billah, andog‘ mo‘taqaddin.

Mav’iza

Kel e oqil, buyursang aqling ishga,
O‘zungdin ketmagil dono demishga.

Agar bolo chiqib, ketsang o‘zungdin,
Yiqilg‘oysan toyib yerga yuzungdin.

O‘zin dono tutib, kibr aylamoqdin,
Na chobuklar yiqildilar oyoqdin.

Agarchi har kecha dil maxzanina,
Boqarsan ko‘p turib, ko‘bturma siyna.

Agar chandiki, bo‘lsang qutbi abror,
Degil, ne donishim, ne don ishim bor!

Niholi mehnating bersun desang bar,
Rizoyi Haq uchun ilm et muyassar.

Agar yog‘ingda bo‘lsa gil riyosi,
Qachon bo‘lg‘ay chirog‘ingni ziyosi?!

Agar holi riyodin xoli ermas,
Haqiqat ul kishining holi ermas.

O‘qur bo‘lsang, o‘q ur nafsing ko‘zina,
Qara chin ko‘z bila Mus’haf yuzina.

Muhaqqiq olim uldur, odil o‘lsa,
Na ko‘b jo dil yugurtib, jodil o‘lsa.

Jadaldin qol, ki qil ustindadir qol,
Yiqitsang yo yiqilsangdur zabun hol.

Vujudung uqbasi ermas alosha,
Tal osha kelgan o‘lturmas talosha.

O‘qurdindur g‘araz Tangri rizosi,
Na ul ilmeki, bo‘lg‘ay xalq izosi?!

Yonib kelganda mehnat sham’i, ey yor,
Yonib tutma havo bodig‘a zinhor.

Zamona xalqi aksar tolibi qadr,
Bo‘lay deb sadri majlis, qon qilur sadr.

O‘qubdursan agar xolis ma’oni,
Yurak qoni bilan osori qani?

Agar qilding muyassar ilm ishidin,
Oyog‘ing bosma egri ko‘r kishidin.

Bilib o‘z dushmaningni qilmading harb,
Ko‘rib o‘tqa o‘zing solmoq, nechuk zarb?

Muvofiq ilmiga qilsa ishini,
Degil arbobi ilm andog‘ kishini.

Tavarru’ shahrida, ey mardi koriy,
Kerakdur albatta qori vaqori.

Hikoyat

Bitibdur "Jomi'i Mishkot" ichinda,
Nabiydin so'rdi bir so'rg'uvchi banda:

"Yomonlarning yomoni qaysi inson?"
Javobin bermadi anga o'shal on.

Uch ayg'on so'ng javobin berdi oni:
"Yomon olim yomonlarning yomoni!"

Taqi aydi o'shal hamrozi mahbub:
"Erur xo'bning xo'bi ham olimi xo'b!"

Dedi Payg'ambari olamg'a hodiy:
"Erur do'zaxda bir shiddatli vodiy.

Jahannam kunda to'rt yuz qatla andin,
Panoh istar Xudoyi Zulminandin".

O'shal vodiyni "Jubbul huzn" atodi,
Riyolik qorilar joyi u vodiy.

Xudovando, yirog' etgil riyodin,
Ayirma sidq-u ixlos-u ziyodin.

Mav'iza

Kel, e zohid, qo'lungdin berma toat,
Ziyod et toating soat basoat.

Uyag'lig' pesha qil, xavf et tama'din,
Riyozat ayla taqvo-vu vara'din.

Farog'at birla hech oshiq yotarmu,
Kishi rohat elin oshiq atarmu?

Agar qul xojasin jo'yanda bo'lsa,
Yotarmu yo'lda oshiq, banda bo'lsa.

Yegil kam, kecha turmoqdin yesang g'am,
Bo'lur ish kam, agar ko'b to'lsa ishkam.

Egam ahd etsa: "Fatlubniy tajidniy"
Qo'yarmi yaxshi banda bu jahd-u jidni.

Arig' jisming agar bo'lsin desang sog',
Sanoch og'zin san och, albatta kamrog'.

Riyozat mevasidur misli yong'og',
Agarchi zohiri shax, botini yog'.

Maishat avvali narm, oxiri qahr,
Yilonning tashi yumshog'dur, ichi zahr.

Belingni bog'lagil xizmatga chun nay,
Shakar to'ldursa shoyad qalbinga Hay.

Riyozat xokig'a har kecha ur bosh,
Yurak qon bog'lasa, la'l atanur tosh.

Bilur oqil bu dunni sijni badbo'y,
Baland uy istasang, nafsing ko'zin o'y.

To‘shab qalin, yopib bid’at “jamol”in,
Qo‘yubsan boshinga bolin vabolin.

Tila nafsing tila toatga kam-kam,
Magar bo‘lg‘ay egilmas gardani xam.

Ko‘zingdin ayla g‘aflat uyqusin dur,
Va lekin bo‘lmag‘il toatga mag‘rur.

Agarchi bo‘lsang ahli ilm-u zuhhod,
Takabbur qilmag‘il, aslingni qil yod.

Takabbur aylamoq shayton fi’oli,
Yig‘i-yu zoridur odamni holi.

Riyozat birla ham ochsang ko‘zungni,
Azozildek ulug‘ tutma o‘zungni.

Agar yerni yuzina aylasang dars,
Takabbur qilmag‘il, bo‘lg‘il Xudo tars.

Saning kirgan yo‘lung turfa uzog‘dur,
Oroda soni yo‘q band-u tuzog‘dur.

Ajab yo‘ldur aroda ko‘b xatar bor,
Kishi bilmas, chibin yetgaymu, shunqor?

Kishi bilmas, bu ummon ostida fosh,
Javohir pora qiymatdurmi yo tosh?

Agar chandiki, gavhar poradursan,
Yaqin bil, bandasan, bechoradursan.

Hamisha bandadindur zori qilmoq,
Na haddur boshini yuqori qilmoq?!

Tavozu'lik bo'lub, tutg'il o'zing kam,
Shajarkim, mevalik bo'lsa, bo'lur xam.

Terakkim, ul ko'tardi yuqori bosh,
Samarsiz bo'ldi, ko'rdungmi ani fosh?!

Kishikim, xoki rohdur, beriyodur,
Qadam tufrog'i ko'zga to'tiyodur.

Ketar damda to'loydin past o'tar kun,
Sabo chiqsa bo'lur olamdin ustun.

Na bo'lg'ay qatradek tutsang o'zing gum,
Guhar bo'lsang, taqilsang toji mardum.

Agar fayz istasang, qilma takabbur,
Buyukg'a oqmag'ay bahr o'lsa ham pur.

Agar tutsang tariqi Mustafoni,
Yomon ko'ydur takabbur, kuydur oni.

Og'ir tutdi o'zini sangi xora,
Talab bozorida kirmas shumora.

Kichik bildi o'zining holini dur,
Bahosidur xaridor oldida pur.

Igirmish jazbi ishq ishkasta kasni,
Yig'ar girdob aksar xor-u xasni.

Agar nafsing hamisha tutmasang kam
Durust ixlos birla, bo'lmag'ay xam.

Hikoyat

Azize komileni johili xom,
Qabiha lafzi birlan berdi dashnom.

Tutub saqolini ul mardi xushxo‘y,
Der erdi o‘z taniga: “Ey xunuk ro‘y!

Saning rasvolig‘ingni erta-vu kech,
O‘zum ayg‘ong‘a bovar qilmading hech.

Bu mo‘mindin eshitib keltur insof,
“Nekular ahliman”, deb urmag‘il lof!”

Ana insof, ana xulq, ey birodar,
O‘zingni aybinga san yopma chodar.

Agar san qilmasang nafsing shikasti,
Yetar soqolinga har kunda dasti.

Tavakkul bayoni

Kel e oshiq, ko‘ngilni aylagil bir,
Tariqi ka’bayi maqsudinga kir.

Nechuk bo‘lg‘ay debon andisha qilma,
Tavakkul ayla, o‘zga pesha qilma.

Tavakkul bandani yo‘ldoshi bo‘lsa,
Ajab ermas qaro tosh oshi bo‘lsa.

Agar himmat kishining yori bo‘lsa,
Ajab yo‘q jazralar bozori bo‘lsa.

Yetar oxir tavakkul aylagan qul,
Tavakkul qil, tavakkul qil, tavakkul.

Erur bir ixtiyori juz’i sandin,
Talab qilg‘oninga yetkurmak Andin.

Agar tutsa Xudo qul xotirin pos,
Chiqar har go‘shayedin Xizr-u Ilyos.

Agar bitkarsa Mavlo qul ishini,
Qilur mushfiq ko‘rungan har kishini.

Agar lutf aylasa, bo‘ston bo‘lur cho‘l,
Olov o‘rtasida paydo bo‘lur yo‘l.

O‘tarda ajdar og‘zin sursa poying,
Ziyon etmas, omon etsa Xudoying.

Egam “Qum!” dedi, ul qumdin qo‘pub chust,
Muhabbat qumqumidin qil o‘zing shust.

Buzug‘ yerda yotib bo‘lmas ishing beh,
“Makonan toyyiban fazhab biavnih”.

Agarchi bo‘lsa sanda ahl-u farzand,
Yarotibdur alarni ham Xudovand.

O‘zi qildi alarni jism ila jon,
Berur albatta jon bergan Xudo non.

Aziz jon chiqmasa qoliblaridin,
Kamaymas ne’mati Haq lablaridin.

Sanog‘lig‘ umrdin to jon tuganmas,
Yaqin bilgil, og‘izdin non tuganmas.

Agar daryo tubida bo‘lsa joying,
Bahona birla yetkurgay Xudoying.

G‘araz, har qayda, ey farzandi odam,
Sanog‘liq ro‘zi hargiz bo‘lmag‘ay kam.

Vujudung xor-u xoshoki qolindur,
Yolinsang ham havo o‘chmas yolindur.

Minib himmat buroqin chiq qolindin,
Yolin mahkam tutub, sachrat yolindin.

Yetibdur soli umrung, ey tabah hol,
Tavakkul soli maqsad bahrina sol.

Kirib jon bahrina, ey nafsi zolim,
Dema, solim maning yetgaymi solim.

Yetar-yetmasligidur hukmi Rabda,
Eranlar shartidur o‘lmoq talabda.

Tavakkulni talab qil, odamizod,
Yugurgil ka’bayi maqsudg‘a chun bod.

Kirib yo‘lg‘a, ko‘rub a’lom-u osor,
Uzun bar deb gumonbar bo‘lma zinhor.

Bu bormoqda agar barmoq solur sher,
Qachon qaytar tavakkul aylagan er.

Xatardin ahli himmat xira bo‘lmas,
Agar el tira tutsa, tiyra bo‘lmas.

Tavakkuldin kishi kim olsa bahra,
Qachon zahra urar, g‘arq o‘lsa zahra.

Yema ro‘zi g‘amin hech yerda, ey yor,
Kim asroring bilur, Ul yaxshi asrar.

Xudog‘a qilsa har kim xo‘b tavakkul,
Na yerda bo‘lsa, zoye bo‘lmas ul qul.

Abdulloh ibn Muborak hikoyati

Muborak o‘g‘li bir kun ozg‘ishib roh,
Ajoyib suvsag‘onda ko‘rdi bir choh.

Kechurdi ko‘nglida: “Topildi matlub,
Agar dalv-u rasan bo‘lsa edi xo‘b”.

O‘shal damda bir oh-u keldi suvsab,
Toshib chiqdi quduqning og‘zig‘a ob.

Ul ichgan so‘ng o‘shal shah bordi chahga,
Yetar-yetmasda ul suv tushdi tahga.

Dedi: “Yo Rab, berursan ohuga ob,
Manga bermassan, ey sultoni Vahhob!”

Nido keldi o‘shal vajhi hasang‘a:
“Diling ketdi sani dalv-u rasang‘a.

O‘shal ohuki ko‘rdung, chiqti bar(r)ga,
Tavakkul qilmadi mandin digarga”.

Eshitib bul nidoni bo‘ldi behush,
Ichidin qulzumi zavq ayladi jo‘sh.

Muhabbat jomi ho‘l qildi tomog‘in,
Tiriklikda unutdi suvsamog‘in.

Edi avvalda ham er atqiyoda,
Yuz oncha himmati bo‘ldi ziyoda.

Mane miskin tavakkul bobida dog‘,
Tushubdur himmatim kundin zabunrog‘.

Hamisha nafsi zishtim mubtalosi,
Maningdek bormu hech mo‘min bolosi?

Ilohi, bahri rahmatdin qilib ser,
Mane xunsag‘a erlar nash’asin ber.

Erurman aqli yo‘q, idroki yo‘q qul,
Na tamkin bor, na himmat, na tavakkul.

Gila bottim, gila qilmam kishidin,
Ko‘rarman barcha o‘z nafsim ishidin.

Bu mo‘minlar ichida bir baloman,
Buzuq yo‘ldin chiqolmay mubtaloman.

Bo‘lubman g‘arq bahri iztiroba,
Xarob o‘lmish tushub nafsi xar oba.

Erur ko‘nglumda ko‘b rozi nihoni,
Yuzum yo‘qdur turub ayturg‘a oni.

O‘zungsan Olimus sirril xafiyyot,
Muayyandur sanga majmu’yi niyyot.

Agar qaytarmasang royim varodin,
Qutulmasman muningdek mojarodin.

Agarchi soni yo‘q bu qul gunohi,
Giriftori g‘azab qilma, Ilohi!

Darvishlik bayoni

Kel e darvish, agar darvish atonding,
Tariqat ahli nek andish atonding.

Agar oting xilofi bandalikdur,
Qiyomat kun nechuk sharmandalikdur!

Qurug‘ ot birla o‘tgan hayf avqot,
Uyong‘il, bo‘lma mag‘ruri qurug‘ ot.

Qurug‘ yurma, qurug‘ dasti ajalda,
Solur nogoh gumon etmas mahalda.

O‘zungdin ketma ixlosi avoma,
Suyunma noma kelmay yaxshi noma.

Kishi ruda kirib gar yursa ro‘da,
Qachon vosil bo‘lur durri shuhuda?

Sivoni nafy ekanin aylab isbot,
Tavakkul bahrina bot, ey ko‘ngil bot.

Na bo‘lg‘ay, kirsa qo‘lg‘a durri maqsud,
Vagarna suvda yurgandin nechuk sud?

Ko‘ngil Haq fayziga bo‘lsun desang chok,
Ki avval martaba – halqingni qil pok!

Yema zarra harom og‘ishta nondin,
Bo‘lur chohe najas bir qatra qondin.

Agar osh manhi bo‘lsa, ko‘z yumub osh,
Vagarna tong-la qorningdin chiqar tosh.

Erur xardalcha manhi zahri qotil,
Qilur bir qatra may xum suvni botil.

Harom oz bo‘lsa ham ko‘bdur yomoni,
Sammoni bo‘lsa ham bilgil samm oni.

Bitiklik “Shir’a”da, ey lobisi dalq,
Faroyiz a’zamidur pokiyi halq.

Qay-u toatki, ul marzoyi Rabdur,
Yaqin bil, quvvati luqma sababdur.

“Kifoyayi Sha’biy”da bul bitildi,
Rasulullоh so‘zidin naql etildi:

“Arig‘siz luqma birlan qilsa toat,
Qabul ermas o‘shal qilg‘on ibodat”.

Xudoning man’ini nafs istaganda,
Agar bir zarrasin tark etsa banda.

Ibodatlarki, bo‘lg‘ay ins-u jindin,
Bu ayg‘on bandalik afzaldur andin.

Agar tark etsa zarra shubha, ey yor,
Dedi, yuz hajdin ortiq, ey nek-u kor.

Risolayi Abullays ichra mazkur,
Nabiydin qildi naql ul ma'dani nur:

"Libosida harom og'ishta bo'lsa,
O'shal og'ishtasi bir rishta bo'lsa.

O'shal to'n birla o'tkargan namozi,
Qabul ermas" — dedi ul bahri roziy.

Siyom ila agarchi o'tsa kunlar,
Qiyom ila kechursa barcha tunlar.

Riyozat birla o'tkarsang ba har kayf,
Arig' bo'lmasa luqmang, mehnating hayf.

Manohiy rangidin oshing bo'yog'lig',
Bu yog'lig' osh ila hayf ul uyog'lig'.

Faroyiz a'zamin qilg'on kishi tark,
Muhabbat bo'yini qaydin qilur dark.

Oting chiqti ibodat ahli xalqa,
Egurding halqa, shubha solma halqa.

Ko'nulsun tan desang, zuhd ayla pesha,
Ochilsun ich, desang, pok ich hamisha.

Agar og'zingdadur boli vaboliy,
Degil uldur hamim, ey mardi holiy.

Agar manhiy emas bo'lsa ba'iding,
Bo'lur ko'p va'dalik iyding va'iding.

Agar qilsa kishi lima valima,
Giriftor o‘lmag‘il ranji alima.

Taomeki, agar anda xatardur,
Yaqin bil, lujjayi o‘tdin batardur.

Agar bo‘lsa harom ul luqmayi shum,
Ani ne’mat dema, de zahri zaqqum.

Nadur zaqqum, erur ta’zibi saxti,
Jahim aslinda butkargan daraxti.

Jami’i zahr hargiz bo‘lmas andog‘,
Yeganni qorni qaynar mis qozondog‘.

Ichining bori pora-pora bo‘lg‘ay,
Ilojin topmag‘ay, bechora bo‘lg‘ay.

Ilohi, ko‘nglumizni begumon et,
O‘shal sharmandaliklardin omon et.

Hikoyat

Eshitgil Ahmadi Hanbalga bir yavm,
Dedi bir beva zan: “Ey hodiyi qavm!

Chirog‘im yo‘qtur aslo, ey ulug‘ narx,
O‘gurur erdim oyni borida charx.

Furu ketti jahon ayvonidin moh,
Xalifa o‘tti mash’al birla nogoh.

Ani ravshanlig‘ida chust-u cholok,
O‘gurdim bir-iki yo‘l charxim, ey pok.

Manga ul rishtam, ey qutbi zamona,
Javob ayg‘il, halol o‘lg‘aymu yana?”

Imom aydi: “Bu g‘aflat olaminda,
Nechuk zansan muningdek din g‘aminda?!”

Zaifa aydi: “Ey maqbuli vofiy,
Maning hamzodim erdi Bishr(i) Xofiy”.

Eshitti Bishr otin, ko‘zdin to‘kib ob,
Dedi: “Sizga ravo yo‘q, ey durri nob!”

Aningdek mar’aning tufrog‘i, ey meh,
Bizingdek yuz ming erning qonidin beh.

Darig‘o, er otin bulg‘ab yuribmiz,
Imoma bir abas chulg‘ab yuribmiz.

Lachak ortuq bizing dastorimizdin,
Eranlar or etar kirdorimizdin.

Havas bozorida, ey mayli ko‘p nafs,
Yemak birla qilibsan gardaning g‘afs.

Sanga sud aylamas bu jismi varming,
Qilib sharr ming, biror kelmasmu sharming?!

Bo‘lub sharmandalik daryosiga g‘arq,
Yomon-u yaxshini farq etmagan farq.

Suchuk tillik bo‘lmoqni bayoni

Kel e obid, o‘zingni aylag‘il xok,
Harom-u shubhadin halqingni qil pok.

Ochuq qo‘llik, kushoda yuzli bo‘lg‘il,
Muruvvatlik, muloyim so‘zli bo‘lg‘il.

Bu xislatlar muvofiq bo‘lsa sanda,
Umid ulkim, Xudoyim desa banda.

Musulmon o‘g‘lida bo‘lsa suchuk til,
Olib kelsa bo‘lur bir qil bila fil.

Suchuk lafzi bilan mo‘re xiradmand,
Solur zo‘r ajdohoni og‘zig‘a band.

Suchuk til bo‘lsa qaysi muhtaramg‘a,
Solur ko‘kdag‘ini zeri qadamg‘a.

Suchuk lafzi bilan beharb-u bezarb,
Birovni keltirurlar sharqdin g‘arb.

Eranlar olmayin bir igna qo‘lg‘a,
Solurlar necha gumrohlarni yo‘lg‘a.

Suchuk tildur ajab ganji muazzam,
Ato qilg‘on bilan hech bo‘lmag‘ay kam.

Dema harfeki, bo‘lsa bema’oniy,
Agar til harzalik bo‘lsa, til ani.

Kalidi ganji ma’nikim zabondur,
Anga bir nuqta ko‘b bo‘lsa ziyondur.

Qilur qattig‘ takallum o‘ng ishing chap,
So‘zing tiklab, ko‘ngil buzg‘uncha tik lab.

Agar so‘z jona paydo qilmasa so‘z,
Ani so‘z demagil, e majlis afro‘z.

Agar so‘rsang ulug‘larning ishini,
Nabot et til, na bot og‘rit kishini.

Sovuq ayg‘uncha, ey xalqi zamona,
Zabona xavfidin muhr et zabona.

Chu No‘mon muhrida bul erdi maktub:
“Qulil xoyra va illo faskut”, ey xo‘b.

Sovug‘ so‘zdin bo‘lur iymon qorong‘u,
Zarardin o‘zga yo‘qtur, naf’i bir mo‘.

Ba har joye tilingni saqla zinhor,
Kishi tilning yomonidin bo‘lur xor.

Yomon til gohi sorg‘artur yuzungni,
Tuban boshingni, telmurtur ko‘zungni.

Yomon til ikki olamda zarardur,
Gahe isyon, gahe xavf-u xatardur.

Yomon til shumlig‘iki, jong‘a urg‘ay,
Gahe jondin o‘tub, iymong‘a urg‘ay.

Musulmon o‘g‘lig‘a yaxshi qiliq qil,
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.

Og‘izdin soch, yerinda durri ma’ni,
Agar bo‘lmasa, xomush ayla ya’ni.

Agar bo‘lmasa sanda so‘zga yetmak,
Na davlatdur sukut etmak, eshitmak.

Eshit, ammo qay-u so‘z bo‘lsa behroq,
Quloqingg‘a ani halqa qilib toq.

Quloq, ko‘zdin, qo‘lungdin, polaringdin,
So‘rar tong-la tamom a’zolaringdin.

Eshitsang naf’i yo‘q so‘z, ey nek-u zot,
Ani hech go‘sha olmay, go‘sha chiq yot.

Kishi sanchiq so‘z aytsa, san chiq andin,
Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin.

Hazrati Luqmon hikoyati

Nasihat qildi farzandig‘a Luqmon:
“Sanga johil kishi bahs etsa, ey jon!

Javob ayg‘il anga shirin-u yumshog‘,
Magar bo‘lg‘ay jaholat xamridin sog‘.

Agar naf’ etmasa, qilma i’oda,
Bo‘lur ayg‘on sari jahli ziyoda.

Anga sud etmasa aymog‘ savobi,
Sukut etmakdur andin so‘ng javobi”.

Ikki mo‘min bir-birig‘a xayr qilmog‘i

Kel e mo‘min, hamisha xush inon bo‘l,
Musulmon bo‘lsa har kim mehribon bo‘l.

Ochilg‘aysan ani ko‘rganda guldek,
Tavozu’ ayla xizmatkor quldek.

Sarig‘ yog‘dek anga bo‘lg‘il muloyim,
Suchuklikni asaldek ayla doim.

Tut ul do‘stingni sut ustida qaymoq,
Aziz joningcha ko‘rgil, balki behroq.

Xudoning buyrug‘idin toysa nogoh,
Birodarlik o‘shaldur — qilsang ogoh.

Birodar jismiga jondek yugursang,
Talattuf birla ul yo‘ldin o‘gursang.

Talattuf birla ulkim bo‘lmasa tuz
Suchuklik rishtasini ilgidin uz.

Agar chandiki, qilsang mehribonlig‘,
Sani yaxshi so‘zing bilsa yomonlig‘.

Tiling zaxmi bilan qilg‘il jarohat,
Uyolib shoyad etkay istibo’at.

Agar til zaxmi anga qilmasa kor,
Qo‘lingdin kelsa, zarb ayla nochor.

Bularni barchasidur mehribonlig‘,
Tarahhumdur anga ermas yomonlig‘.

Bu sa'y etkon bilan hech bo'lmasa tuz,
Ko'rarda oshinolig' rishtasin uz.

Vale botinda shog'il bo'l duog'a,
Aning ahvolini solg'il Xudog'a.

Kishi kim bo'lsa mo'minlikda mavsuf,
Erur vojib u qulg'a amri ma'ruf.

Ko'zi yo'q mo'mine borur edi roh,
Nazar qilding, ani oldidadur choh.

Xabardor etmasang, uldur xiyonat,
Qay-u insof erur, qaysi diyonat?!

Fig'on-u dod o'shal biyno qulidin,
Agar qaytarmasa do'zax yo'lidin!

Kishi yopsa quduq og'zig'a chodar,
Nechuk dersan aningdekni birodar?!

Va lekin amri ma'ruf aylagan mard,
O'zi bo'lg'ay amallik sohibi dard.

Agar omir emas rosix ishiga,
Qachon ta'sir etar o'zga kishiga?

Bizingdek sharmi yo'q, insofi yo'q jism,
Boshinda mag'zi ma'ni yo'q quruq ism.

Ishimizdur riyo-vu hiyla, tazvir,
Qilur ayg'on so'zimiz kimga ta'sir?!

Ko‘zni haromdin yummoqni bayoni

Kel e mo‘min, agar tarsanda bo‘lsang,
Ko‘zingni saqlag‘il, har qanda bo‘lsang.

Quyi bo‘lsun hamisha nuqtayi chashm,
Mabodo bo‘lmag‘ay bolo tushub xashm.

Nazar qilg‘uncha bad, ey nafsi ma’yub,
Tushub ko‘z nuqtasi ko‘r bo‘lg‘oni xo‘b.

Saodatdur nazar bo‘lsa qadamda,
Tajovuz aylagach, bo‘lsa nadamda.

Agar qon chashma bo‘lsa chashma, ey meh,
Xatarlik yerga tushgandin erur beh.

Na xushdur diydayi tarsanda bo‘lsa,
Vagarna kosasidin kanda bo‘lsa.

Xatardin yum ko‘zing i’lon-u xifa,
Nechukkim yumdi qo‘rqub Bu Hanifa.

Yurakim sof erur, deb urmag‘il lof,
Alarcha bo‘lmag‘aysan, keltur insof.

Qaroring qo‘ymasang, eltib qaroring,
Olur shayton zimomi ixtiyoring.

Baqosiz ma’siyatlarga baqosiz,
Nechuk o‘z joningizg‘a o‘t yoqosiz?!

Banogoh tushsa nomahramki ko‘zga,
Ikinchi boqmag‘il zinhor u yuzga.

Ikinchi chunki shahvatdin xatardur,
“Nihoya”kim kitobi mo‘tabardur.

Dedi kim boqsa nomahram yuziga,
Quyarlar tong-la qo‘rg‘oshin ko‘ziga.

Bitibdur “Shir’a” da ul sohibi bazl,
Kishikim qilsa nomahram bila hazl.

Aning har bir so‘ziga, ey xiradmand,
Bo‘lur do‘zaxda to ming yilgacha band.

Agar ul iltizom etsa haroma,
Taqi ul nusxada tortildi xoma.

Qiyomat kuniga dodgir etarlar,
Ani shayton bila zanjir etarlar.

La’in shaytonki, bo‘lg‘ay dushmani shax,
Aning birla bo‘lur madxuli do‘zax.

“Xulosa”-u “Xizona”, “Sharhi Avrod”
Bitibdur balki chandon nusxada yod.

Juvon xotunki, nomahram emishdur,
Salom etmak anga mone’ demishdur.

Berib bo‘lmas javob, aytsa salome,
Erur avrat aning savti kalomi.

Juvon xotunki, avrat bo‘lsa ovoz,
Qabohatdur kishikim bo‘lsa damsoz.

G‘araz, e odamiy, saqla o‘zungni,
Ki nomahram sari solma ko‘zungni.

Ki nomahram sari boqg‘uncha beqil,
Beh ulkim, ko‘zlariga tortsalar mil.

Bu dunyo mili o‘tgay bir zamonda,
Qiyomat milidin tutg‘ay omonda.

Qiyomat kun ajab, shiddatli kundur,
Gunohkor odam o‘g‘li sarnigundur.

Qizar ko‘k, farqi sar issig‘da chun tos,
Bo‘lur sargashtalar parvonadek nos.

Tegar o‘tdek oyog‘ ostida tufrog‘,
Bo‘lur yungdek zamin ustidagi tog‘.

Bo‘lur ko‘p xalq o‘zining jonidin ser,
Bu g‘amdin toki go‘daklar bo‘lur pir.

Yoshurmoq bo‘lsa qaysi ro‘siyohlik,
Ilik so‘zlab, oyoq bergay guvohlik.

Tamom a’zolari da’vo qilurlar,
Xaloyiq oldida rasvo qilurlar.

U kun da’vosini hech daf’i bo‘lmas,
Pushaymon bo‘lgay, ammo naf’i bo‘lmas.

Aningdek voqealardin burunrog‘,
O‘zungni ayla g‘aflat xamridin sog‘.

Pushaymon bo‘lsang ul qilmishlaringdin,
Dil-u jon birla yonsang ishlaringdin.

Na bo‘lg‘aykim, qabul etsa Xudoyim,
Qiyomat shiddatin qilsa muloyim.

Qay-u qulni Xudoyim qilsa mamnun,
Bo‘lur yo‘lboshchisi Payg‘ambar ul Kun.

Boshinda soya bo‘lg‘ay Arshi a’zam,
Farishtalar ko‘ngil bergay damo-dam.

Inoyat nomasin qo‘lg‘a olurlar,
U Kunni o‘tganin tuymay qolurlar.

Ilohi, ayla muxlislar bilan yod,
Bu qulni aylagil, ul Kundin ozod.

Shayx Bistom hikoyati

Qarig‘on pallasida Shayx Bistom,
O‘zidin soate ketti bir axshom.

O‘ziga keldi ersa, aydi ahbob:
“Nag‘u bo‘ldung munungdek, e durri nob?”

Dedi: “Bolig‘ bo‘lur holatda bir roh,
Ko‘zumga bir jamila tushdi nogoh.

Yonib bori digar soldim nigohim,
Chiqib erdi esimdin ul gunohim.

Esimga tushdi holo ul nazora,
Yuragim bo‘ldi qo‘rqub pora-pora”.

Muborak og‘zidin ko‘p tomdi qoni,
O‘shal xavf ila oxir chiqti joni.

Munungdek yig‘lasa andoq nek-u roy,
Bizingdek ro‘siyahni holig‘a voy.

Hamisha zavqimiz aysh-u kulushga,
Yetushmas erta qilg‘on tavba tushga.

O‘tar dunyo ishin tutdik muqaddam,
Gunoh ayniqsa ko‘b, qo‘rqinchimiz kam.

Xudovando! O‘zungsan Olimi g‘ayb,
Mane miskindadur hech soni yo‘q ayb.

Gunohi benihoyat bandadurman,
Bu ko‘b sharr manda chun sharmandadurman.

Abas birla qo‘lumdin ketti vaqtim,
Amal mehrin yoshurdi abri maqtim.

Jarimam beadad bo‘lsa agar chand,
Hijobi mag‘firat yop, ey Xudovand.

Yuvib rahmat bilan vajhim qarosin,
Nasib et barcha ne’matlar sarasin.

Xudoni ne’matlarig‘a fikr aylamoqni bayoni

Kel e ozoda, voqif bo‘l ko‘ngilg‘a,
Ko‘ngil yo‘lboshchidur qurbatli yo‘lg‘a.

Tafakkurning qushin hech qilma g‘ofil,
Palag‘da bo‘lmag‘ay to bayzayi dil.

Tafakkur murg‘i doim bo‘lsa damsoz,
Umid uldurki, andin uchsa shohboz.

Aningdek boz ilikka aylasang qayd,
Ko‘ngil qushlarini qilsa bo‘lur sayd.

Ko‘ngil har goh salohiyatda bo‘lsa,
Topar banda qay-u niyatda bo‘lsa.

Hama a’zo ra’iyatdur, ko‘ngul — shoh,
Omonlig‘ bo‘lg‘usi shoh adlidin roh.

Agar sulton o‘zi qilsa yomonlig‘,
Qachon bo‘lg‘ay raiyatda omonlig‘.

Ko‘ngil jo‘sh etmasa, ko‘z bo‘lmag‘ay nam,
Chiqarmu suv quruqg‘a toshmasa yamm.

Eshitgansan ani — dildur nazargoh,
Nazargohdur ko‘ngil, bir bo‘lsa har goh.

Yugursa ul ko‘ngilkim, har tarafga,
Qachon loyiq bo‘lur mundog‘ sharafga?

Ko‘ngil darsini derlar, xush sabaqdur,
Tamomi ma’rifatdur, ganji Haqdur.

Ko‘ngil darsin savol etdim bir erdin,
Talattufdin dedi: “So‘rma bu yerdin.

Bila olmang bu sharbat totmaguncha,
O‘zungni yaxshilarga qotmaguncha”.

Agar Oni unutsa, banda one
Tirik ermas, agarchi bo‘lsa jone.

Ko‘ngil burjida g‘aflat illati pur,
Davom uldur — davom etsa tazakkur.

O‘shal damni “nadam” der ahli ma’ni,
Og‘izdin chiqsa g‘aflat birla ya’ni.

Ko‘ngul Anda hamisha, qo‘l ham isha,
Qachon bo‘lg‘ay muningdek yaxshi pesha.

Bandayi mo‘min ishqda haris bo‘lmoqni bayoni

Kel e sodiq, harisi ishqi Haq bo‘l,
Ko‘ngil yoroni birlan hamsabaq bo‘l.

Agar kezsang tariqi ma’rifatni,
Muyassar aylasang turluk sifatni.

Maqomoti haqiqat aylading tay,
Ko‘ngilda bo‘lmasa juz’ xullati Hay.

Burung‘idin ziyoda dar talab bo‘l,
Agar daryolar ichsang, xushklab bo‘l.

Bu yo‘lning chunki hech poyoni yo‘qtur,
Agar yetdim desang, imkoni yo‘qtur.

Degil har lahza: “Ollohumma zidni”
Dedi Haq chunki: “Fatlubni tajidni”.

Talab amrin eshitsa, banda Rabdin,
O‘zin bilgan qachon qolgay talabdin?

Nabidin yo‘q kishini qurbi bolo,
Ani aydi “habibim”, Haq taolo.

Anga ham aydi Haq: “Qul Robbi zidni”
Qo‘yarmu o‘zgalar bu jahd-u jidni?!

Suchuk jon sharbati, to bo‘lsa labda,
Kerakkim, bandasi bo‘lsa talabda.

Belingni quvvati borda olib bel,
Ko‘ngil bog‘in sug‘or, o‘tmay turib sel.

Yetar yo‘l yurgali, holoki, holing,
Yuruy ko‘r, bir kuni ketgay majoling.

Yururga bo‘lmasa vaqtiki darmon,
Emakla, qolmasun to ichda armon.

Emaklar quvvati ham ketsa qo‘ldin,
O‘zingni sudra hargiz qolma yo‘ldin.

Yetushmas sudralurg‘a ham majoling,
Ko‘zing tik yo‘lg‘a to yetguncha holing.

Ko‘zung ham yetmasa, bo‘lsun ko‘ngilda,
Bu matlab birla jon chiqsun bu yo‘lda.

Agar mundog‘ talabda chiqsa joning,
Ulansa boqig‘a bu jism-u foning.

Umid uldur — Xudoyim desa banda,
Tilagan maqsadingni bersa anda.

O‘limni yod etmakning bayoni

Kel e xoif, o‘lumni yodin etgil,
Ketar manzilni iste’dodin etgil.

Labin termay turib marqad labin xalq,
Qo‘yarmusan tafakkur bobini g‘alq.

Yig‘ib hiyma vahima qilmay anda,
Yotibsan ustida g‘aflatli banda.

O‘lumni o‘qi turg‘ondur suyonib,
U yonib o‘rtamay, qochg‘il uyonib.

Uyonmasdin burun o‘rtansang, ey qul,
Mabodo bo‘lmag‘ay kull ishlaring kul.

Burung‘a bodi g‘am esmay burunrog‘,
O‘zingni qil havas sakronidin sog‘.

Yopushmasdin burun so‘ngakinga po‘st,
O‘lum birla o‘zingni aylag‘il do‘st.

Yaqin bil, kimni ko‘proq aylasang yod,
Bo‘lur do‘stung sani, ey odamizod.

Bilur har odam o‘g‘li bo‘lsa uyg‘og‘,
Vatanning aslisidur bizg‘a tufrog‘.

Yaqin bilg‘il, jahoni purxatarg‘a,
Kelibmiz necha kun savdo etarg‘a.

Yetushgach ushbu shahri muhtarafga,
Torildi karvone har tarafga.

O‘zin bilganlarikim, yo‘lg‘a soldi,
Hiyalsiz naqdi umrin qo‘lg‘a oldi.

Urub yaxshi do‘konlar uzra boshin,
Muyassar qildilar toat qumoshin.

Qilib savdolarini chobak-u chust,
Safar raxtini bog‘lab, qildilar rust.

Qachon yuk qo‘y desa, tayyor erur zod,
Kirarlar yo‘llarig‘a xurram-u shod.

Va lekin karvondin ba’zi inson,
Ko‘rar bul foni uyni bog‘i xandon.

Ko‘rub yaxshi ani naqsh-u nigorin,
Unutqaylar o‘shal kelgan diyorin.

Quloq solg‘ay tag‘anni-yu navog‘a,
Ko‘ngil bergay havas birla havog‘a.

Ajab makkoradur dunyoyi foni,
Ming alvon jilva birlan aldar oni.

O‘shal makkorakim, solsa qo‘yung‘a,
Suyungandin kirar shayton o‘yung‘a.

Kirar inson ani yolg‘on so‘ziga,
Yugurtur surmayi g‘aflat ko‘ziga.

Gahi uyg‘onib uyni aylasa yod,
Talattuf birla der: “Ey odamizod,

Oshuqma, bir kuni savdo qilursan,
Bu kun gar bo‘lmasa, tong-la qilursan”.

Bu ol ila o‘sha makkorayi din,
Ado qilg‘ay jami’i naqdi umrin.

Ado qilg‘och, bisoti umrini pok,
Berur ruxsat qoshidin chust-u cholok.

Urar sili va der: “Ketgil bu yerdin,
Degay, bezor erurman sandek erdin”.

Nazar qilmas fig‘on-u nolasig‘a,
Urar shatta ani dunbolasig‘a.

Amiri korvon ul damda yetgay,
Anga asl vatanning hukmin etgay.

Fig‘on aylar, ketarni bilganim yo‘q,
Ketarg‘a to‘sha paydo qilg‘anim yo‘q.

Fig‘on sud aylamas, ammo u kasga,
Qachon muhlat qo‘yarlar bir nafasga.

Qo‘yulmay erkig‘a sudrab yoqadin,
Chiqorurlar jahoni bebaqodin.

Keyin qaytay desa, bo‘lmas majoli,
Ketar asli vatanga dasti xoli.

Budur, ey odam o‘g‘li, hasbi holing,
Boshingdin oncha o‘tgan moh-u soling.

Qulaqqa tiqma g‘aflat lattasini,
Yema shaytoni mal’un shattasini.

Suyunma, gar seni dunyo suyubdur,
“Suyubman” deb, ko‘zunga qum quyubdur.

Kima ko‘rsatdi bul foni vafoni,
Azaldin dushmani jon bilgil oni.

Umrning foniyligi bayonida

Kel e mo‘min, yaqin bilding ketarni,
Hisobi umri besomon o‘tarni.

O‘tar dunyo uchun bo‘lma giriftor,
O‘lumsa yig‘mag‘il monandi kaftor.

Agar dunyoga hirsing bo‘lsa fajsan,
Najosatni yig‘arg‘a kalhamajsan.

Esiz, umring najas yig‘moq rahinda,
Qolursan bir kuni oxir tahinda.

O‘ramchidek hamisha tor etarsan,
Qanoatsizliging izhor etarsan.

Qilursan rishtayi joning bila qayd,
Magasdek, mo‘rdek qilmoq uchun sayd.

Supursa sohibi xona bayakbor,
O‘ramchi ham ketar, ham sayd-u ham tor.

Qolibsan tanga deb, ahvoli tanga
Mashaqqatlar boshingda ranga-ranga.

Yugurma jiyfa ko‘b yig‘moqqa yil-oy,
Bo‘lay deb boy, bisoting bermagil boy.

Yaqin bilgil shuni, ey sohibi hol,
Haris ermas ziyod etgon bila mol.

Haris uldur, agar dunyoyi foni,
Yig‘ay desa muhabbat birla oni.

Agar bo‘lsa kishida moli sahli,
Ko‘ngul bersa erur dunyoning ahli.

Bisotida bir arpa qursi bo‘lsa,
Ani dun ahli bil, gar hirsi bo‘lsa.

Kishining ko‘nglida bu foni bo‘lsa,
Erur dunyo eli bir doni bo‘lsa.

Agar bir qulda yuz xarvori zardur,
Agar bo‘lmasa mehri, bezarardur.

Agar ming ko‘za tillo tushsa ko‘za,
Qachon davlat bilur, ahli dil o‘za.

Qayudur mehri yo‘q erning nishoni,
Buyurg‘on joyig‘a sarf etsa oni.

Desa, mehrim yo‘q, ammo tutsa mahkam,
Erur yolg‘onchi ul farzandi odam.

Kishi molinki, beehson yemasdur,
Xudoning fazlidur, dunyo emasdur.

Dema dunyo, chirog‘i oxiratdur,
Xudoyimdin nishoni mag‘firatdur.

Bizoat bo‘lsa ham kam, ayla infoq,
Uzumdur bargi kam razdin suchukroq.

Kerak ahli karam xalq etgali jam’,
O‘zini dambadam kam etsa chun sham’.

Kishining e’tiqodi bo‘lsa solim,
Demas, go‘r-u kafanlikdur bu molim.

Ne g‘am, iymonli qulning o‘lganida,
Tanida bo‘lmasa uch gaz tanida.

Salomat o‘lsa imoni bilan kas,
Agar oriy ko‘mulsa, ori bo‘lmas.

Karamlik bandasi gar bo‘lsa cho‘lda,
Ichar yer bo‘lmasa bir zarra qo‘lda.

Qo‘pub o‘lturg‘ali qolmay majoli,
Halokat pallasig‘a yetsa holi.

Agar ko‘z yoshicha suv tobsa anda,
Qilur yarmini sarf o‘zga banda.

Topilsa luqmaye jon-u jigardin,
Darig‘ etmas ani yor-u digardin.

Karamlik bandag‘a yolg‘uz yegan osh,
Bo‘lur xok og‘zida, balki bo‘lur tosh.

Shakar no‘sh etsa yolg‘uz, topmag‘ay bahr,
Bo‘lur qon og‘zida, balki bo‘lur zahr.

Qaro suv ichsalar ikki birodar,
Ko‘rar sharbatcha, balki obi Kavsar.

Iki hamdil yesa, bir luqma nondin,
Suchuk bilgay asaldin, balki jondin.

Kishi nondek qilur ehsonda xo‘yin,
Olur tanur ichinda obro‘yin.

Qizil yuzluk bo‘lib chiqqan zamoni,
Tushar xalq og‘zig‘a ehsoni oni.

Kulub mehmon qoshig‘a chiqg‘il, ey qul,
Shajar mevadin oldin ko‘rsatur gul.

Agar ehson etar bo‘lsang, eshit harf,
Ani ham joyig‘a qilmoq kerak sarf.

Bilib ber joyig‘a kaddi yaminni,
Ziroat aylama, sho‘ra zaminni.

Yomon yerga ani sarf etma bori,
Bo‘rini yirtorig‘a berma yori.

Nafsi shum bayonida

Kel e kas, bo‘lma aknun tobeyi nafs,
So‘lur axshom sabo bu gardani g‘afs.

Hama toatlaring xo‘bi-yu sofi,
Yaqin bilsang, erur nafsing xilofi.

Qo‘yar kajlikka doim nafsi bad yuz,
Qachon u tuz yonar, yolborsang o‘ttuz.

Erur nafsing dimog‘i turfa yellik,
Qachon ellik qilur, yolborsang ellik.

O‘zung past aylasang, nafsing zabardast,
Boshing chaynab solur chun ushturi mast.

Burung‘a bodi kibr esmay burundin,
Burunduq sol anga, qo‘pmay o‘rundin.

Riyozat bandig‘a berkit oyog‘in,
Ko‘tarma boshidin taqvo tayog‘in.

Yiqilib qolmagudek ber yemishni,
Ziyoda ayla kam-kam qattig‘ ishni.

Qo‘yub andozayi holicha yukni,
Ibodat yo‘lig‘a ko‘ndur bu lukni.

Bu mehnat birla ul ammorayi dun,
Na bo‘lg‘ay, mutmainna bo‘lsa bir kun.

Semiz ko‘b qilma bu tishlar itingni,
Quturib yormag‘ay nogoh betingni.

Yilonni asrading necha yil oni,
Ulug‘ bo‘lg‘on sari o‘sti ziyoni.

O‘tubdur qo‘l bila bo‘ynin tutardin,
Xatardur kuch qilib boshing yutardin.

Yetibdur qo‘yg‘oli ko‘ksin yuzunga,
Kima dersan, o‘zung qilding o‘zunga.

Dilo, qo‘b, holi ham tutma o‘zung sust,
Belingga bog‘la himmat fo‘tasin rust.

Tavakkul sayfini sidq ilkina ol,
Qil ichni xolis, andin so‘ng qilich sol.

Taajjub bilma fazli bebahodin,
Xalos etsa muningdek ajdahodin.

G‘araz — mundog‘ aduvni qilma farbeh,
Agar kelsa qo‘lungdin qat’i sar, beh.

Semursa nafs agar ichmak-yemakdin,
Yuz oncha et olur yaxshi demakdin.

Yana yuqori o‘tmakdin olur bahr,
Bu nafsi johila dunyoyi badqahr.

O‘tarman deb, o‘tarda bo‘lmag‘il shod,
“O‘tung” deydur, o‘tung olg‘ay bu jallod.

Kishi bilsa rizo shahdini zavqin,
Bilur birdek majolis taht-u favqin.

Turar o‘z holida bisyor-u kamda,
Yurushin buzmag‘ay hech shod-u g‘amda.

Kishi ko‘rsa Xudodin juzv-u kullni,
Bilur xayriyat ul izzat-u zullni.

Erur holoki, tavba bobi maftuh,
Yomon nafsingni qilg‘il tobeyi ruh.

Agar nafsing sani yetmish boshingdin,
Na bo‘lg‘ay foida, yetmish yoshingdin.

Agar nafsing murodin istamaksan,
Agar saksanga umring yetsa, sak san.

Azal kundin agarchi xavfi yo‘qsan,
Agar to‘qsonga yetsang, ko‘ngli to‘qsan.

Azaldin qilsa kimning ko‘nglini resh,
Degay o‘n besh yoshin ko‘b, balki o‘n besh.

Banda ahdida turmog‘i bayoni

Kel e sodiqki, qilding sidq lofin,
O‘lancha qilmag‘il va’da xilofin.

Xilof etgan zabunlardin zabundur,
Bu dunyo-vu u dunyo sarnigundur.

Xaloyiq oldida ko‘tah zabondur,
Xudo dargohida andin yomondur.

Xilof etsang agar ayg‘on so‘zungdin,
Ko‘tar erkaklik otini o‘zungdin.

Dodak qiyg‘ochi dastoringdin ortuq,
Saning yo‘q bo‘lg‘oning boringdin ortuq.

Chiqarmag‘il og‘izdan qilmas ishni,
Qilurman dema, qo‘ldin kelmas ishni.

Og‘izdin chiqsa so‘z, qaytarmag‘il qosh,
Agarchi ketsa ham, ul so‘z uchun bosh.

Kerak, erman deganni va’dasi tuz,
Agar tuz bo‘lmasa, andin ko‘ngil uz.

Yaqin bilgilki, tuzlikdin asoni,
Eranlar oldilar o‘ng qo‘lga oni.

Xususan tuz kerak, er e’timodi,
Bo‘lurmi egri hech masjid imodi?

So‘zin buzg‘on kishi buzmasmu iymon,
U kimsa birla qilma ahd-u paymon.

So‘zin buzg‘on kishini yaxshi erlar,
Qusib, qayta ani ichgancha, derlar.

Qay-u toyyib kishi ichgay qayidin,
Tiriksan, qolmag‘il ahding payidin.

Mabodo uzsang aqvoling uqudin,
To‘kulub qolmag‘ay yig‘g‘on nuquding?!

Ismoil alayhissalom hikoyati

Aning sodiqlig‘in, ey odamizod,
Qilibdur bir hikoyat qilg‘uchi yod.

Borur erdi o‘shal shah bir tarafga,
Yo‘luqti mo‘mine ul bosharafga.

Dedi: “Tursang bu yerda, ey nek-u kor,
Uyimda, ya’ni ba’zi ishlarim bor.

Borib kelsam, qo‘shulsam sizga minba’d”.
“Turay” — deb va’da qildi sodiqul va’d.

“Kelurman” — deb qoshidin ketgan ul kas,
Unutdi va’dasin to bo‘ldi kelmas.

Qilibman va’da deb, ul sohibi roz,
U yerda olti yil o‘lturdi qish-yoz.

O‘shal va’da unutqonning guzori,
Yetushdi olti yildin so‘ngra bori.

O‘shal va’da uchun turg‘onni bildi,
Uyat bodi bilan tutdek to‘kuldi.

Og‘izdin daftari a’zorin ochdi,
Durri ashkin oyog‘ ostig‘a sochdi.

Zabihulloh anga lutf etdi chandon,
Edi chun g‘uncha guldek bo‘ldi xandon.

Suchuk tilni anga sarf etdi chun bol,
Ana va’da, ana afv-u, ana hol.

Kishini va’dasikim, bo‘lmasa rost,
Muhabbat ahdin andin qilma darxost.

Ishonma ayg‘onig‘a, ey xiradmand,
Agar chandiki, ul yod etsa savgand.

So‘zin buzg‘on kishi, buzmasmu iymon,
O‘lumsa birla qilma ahd-u paymon!

Agar tuzluk bila barpo bo‘lursan,
Alifdek jon ichinda jo bo‘lursan.

Agar kaj bo‘lsa af’oling bu dundek,
Qolursan, balki qon ostinda nundek.

Qilich boshinga kelsa, ayma yolg‘on,
O‘lumdindur batar, chunki uyolg‘on.

Agar yolg‘onchiliqda o‘tsa oting,
Qiyomat kun nechuk bo‘lg‘ay uyoting?

Najas murdor emas yolg‘onchiliqdin,
Musulmonliqda sharm et, bu qiliqdin.

Shariat hukmi birla, ey nek-u roy,
Gahe chin so‘zni ham ko‘nglunga qil joy.

Namimani yomon aydi shahi din,
Suxan chin bo‘lsa ham bo‘lma suxanchin.

Yaxshi hamroh bayonida

Kel e ozim, agar bo‘lsang safarda,
Rafiqe tob tariqi pur xatarda.

Kerakdur er ko‘ngullik yaxshi hamroh,
Rafoqatg‘a yaramas har qay-u doh.

Nechukkim, mag‘zini jonda tutar po‘st,
Muhabbat yo‘lida andog‘ kerak do‘st.

O‘zin qul, yorini sultoni bilsa,
O‘zini tan, rafiqin joni bilsa.

Oyog‘ig‘a agar tegsa tikone,
Qadalg‘ancha ko‘ziga ko‘rsa oni.

Sovuq yel tegsa yo‘ldoshin yuziga,
Agar qo‘ldin kelur, olsa o‘ziga.

Ango keldi degan tiri balog‘a,
Qilib jonin sipar, tutsa arog‘a.

Yomon yo‘ldosh erur chun mori af’i,
Zarardin o‘zga yo‘qdur zarra naf’i.

Tutub doim yilonni quyrug‘ini,
Nechuk dil jam’ etarsan buyrug‘ini?

Yomon bo‘lmay va lekin bo‘lsa nomard,
Qurug‘ surat erur, qilg‘il ko‘ngil sard.

O‘lukdur, bo‘lmasa har kim-da gurda,
Tirilmasdur ko‘targ‘on birla murda.

Emas erning nishoni rishu olat,
Nishoni himmatu g‘ayratu holat.

Sa’id va Sa’d hikoyati

Sa’id-u Sa’d qildi ahdi yori,
Safar bo‘ldi alarning ixtiyori.

Dil-u jondek edi, ul iki ogoh,
Qazodin oqdilar daryoga nogoh.

Birisin tutdi mallohe, o‘shal hol,
Dedi: “Qo‘yg‘il mani, yorim qo‘lin ol”.

Muni qo‘ydi, ani chun tutdi mazbut,
Bu ham aydi: “Mani qo‘yg‘il, ani tut”.

Tamosho qil alardan ahdi yori,
Ana qavli durust erlarni holi.

Xavf-u rajo xususida

Kel, e tan, bo‘l hamisha iltijoda,
Davomul umr bo‘l, xavf-u rajoda.

Ko‘tarma hech rajo-vu xavfdin ra’s,
Yaqin bil, kufrdur, ham amnu, ham ya’s.

Saning oldingda paydodur iki yo‘l,
Biri o‘ng qo‘l sori borg‘ay, biri so‘l.

Kishi bilmas Qiyomat dashtida, oh,
Ketar banda iki yo‘ldin qay-u roh?

Agar sonsiz ato qilsa Xudoying,
Bihishti Adn eshigin sursa poying.

Qarish yo‘l qolsa jannat etgali tavf,
Burung‘idin ziyoda aylagil xavf.

Na’uvzu billah, ul borg‘an yo‘lungdin,
Agar qaytarsa, ne kelgay qo‘lungdin?!

Agar do‘zax labinda bo‘lsa poying,
Umid uzmaki, G‘ofirdur Xudoying.

Ajab ermas, agar qaytarsa andin,
Nasib etsa, bihishti jovidondin.

Agar ustungdagi yetti tabaqni,
Kezib dars aylasang, yetmish sabaqni.

Maloikdek agar parrandadursan,
Yaqin bilgilki, oxir bandadursan.

Sani oting-u zoting banda bo‘lsa,
Nechuk xavf aylamang, jon tanda bo‘lsa.

Erur qulning ishi — qo‘rqunch-u zori,
Qabul etmak Egamning ixtiyori.

Agar afv etmasa, bechoradursan,
Qay-u yo‘l desa, anda boradursan.

Hikoyat

Muhammadkim shahi dunyo-vu dindur,
Sifoti “rahmatan lil olamin”dur.

Zamin-u osmonning xalq-u xayli,
Yaratildi o‘shal erning tufayli.

O‘qurda bir kuni Tangri kitobin,
O‘qudi anda do‘zaxning azobin.

Ul oyat vahmidin ketdi o‘zidin,
Yiqildi yerga ul damda yuzidin.

Sahoba har qay-u bir hola bo‘ldi,
Zamin-u osmon dar nola bo‘ldi.

Zamondin so‘ng ko‘zini ayladi boz,
Sahoba aydilar: “Ey mahrami roz,

Sani xalq afzali qildi Xudoying,
Muhayyo bo‘ldi jannat ichra joying.

Sifoting “rahmatan lil olamin”dur,
Xudodin muncha qo‘rqunching nadindur?”

Dedi: “Garchi rasuli juzv-u kullman,
Nechuk xavf aylamay, zeroki qulman”.

Agar yuz ming bashorat bersa Boriy,
Kerak quldin o‘shancha xavf-u zoriy.

Kishining ism-u zoti bo‘lsa banda,
Bo‘lurmu forig‘iyyat qul deganda?!

Xudoning rahmatidin umidvor bo‘lmoq bayoni

Kel e tan, bermagil vaqtingni qo‘ldin,
Yuri daryoyi rahmatga bu cho‘ldin.

Gunohim ko‘b erur deb, bo‘lma ma’yus,
Ajab ermas, agar afv etsa Quddus.

Dil-u jon birla tavba qilsang, ey yor,
Magar lutf aylagay, Donoyi asror.

Agar lutf aylasa, Sattori olam,
Bitar bir lahzada kori du olam.

Abasdin emdi yig‘ lab, titra yig‘lab,
Tila jon-u dilingdin rahmati Rab.

Havoni past etar ashking nujumi,
Kavokibdur shayotinning rujumi.

Yurak yog‘in ketar bo‘lsun desang boz,
Qilur ko‘z yog‘ini ich yog‘ini oz.

Na davlatdur, kelib aybingga sharming,
Dili garming agar ayrilsa gar ming.

Xudoning xavfidin bir qatrayi ashk,
Azozil oldida chandon bo‘lur rashk.

Saodatlik kishi yeb doimo g‘am,
Ko‘zin Haq xavfi birla qilsa shabnam.

G‘araz, uzma umid, ey tolibi roh,
Dedi: “la taqnatu min rahmatilloh”.

O‘tulmas chirki shirk, ey mardi solik,
O‘tar lutf aylasa, “mo duna zalik”.

Hikoyat

Eshitgil, fosiqe yondi gunahdin,
Pushaymon bo‘ldi ahvoli tabahdin.

Qilur erdi yomon nafsin malomat,
Gunohdin muddate erdi salomat.

Yomon nafsi taqozo etdi yona,
Yomonliq orqasidin ketdi yona.

Sahargohe, uyondi ul gunohsoz,
Pushaymon bo‘ldi qilg‘on fe’lidin boz.

Bo‘lub erdi dil-u joni bila narm,
Va lekin qildi buzg‘on ahdidin sharm.

Yo‘q erdi zahrasi tavba qilurg‘a,
Yaqin yetdi yuroki yorilurg‘a.

Nidoye keldi Hotifdin o‘shal hol:
“Keyin boqma, o‘zungni ilgari sol.

Hamisha mag‘firat daryosidur jo‘sh,
Dame obe o‘shal daryodin et no‘sh.

Agar chandiki, buzding ahdi basta,
Necha tavba etib, qilding shikasta.

Dil-u joning bila chun aylading oh,
Erur tavbang saning maqbuli dargoh!”

Eshitdi bul nidoni marhamatnok,
Urub na’ra, yaqosin ayladi chok.

O‘zidin o‘tdi va ujbu riyodin,
Xudoyim qildi oxir avliyodin.

Tarahhum bandaga ko‘bdur Xudodin,
Umid uzmak ravo ermas gadodin.

Yaqin bil, garchi g‘ofirdur Xudovand,
Ango ham bo‘lma mag‘rur, ey xiradmand!

O‘tar deb yotmag‘il qong‘a bo‘yonib,
Uyonib lutfiga o‘ltur suyonib.

Agarchi lutfi ko‘bdur, qahri ham bor,
Boshing gar ko‘kka yetsa, qulsan, ey yor.

Sening oldingdadur chandon xatardin,
Nechuk g‘ofil bo‘lursan xavf etardin?!

Inoyat qilsa Haq o‘lgan zamoning,
Uzulsa nuri iymon birla joning.

Javobi qabrni bersang chu behroq,
Qiyomat kuni qo‘bsang, yuzlaring oq.

Tarozug‘a og‘ir kelsa savobing,
Agar o‘ng ilginga kelsa kitobing.

Jahannam ustidin o‘tsang salomat,
Behishti jovidon qilsa karomat.

Bulardin o‘tmayin, ey odamizod,
Nechuk forig‘ yurursan, xurram-u shod?

Jahon kulgu yeri ermasdur, ey qul,
Magar bu kull xatardin otlasang, kul!

Qazog‘a rozi va balog‘a sabr aylamak bayoni

Kel e banda, o‘zungni sol Xudog‘a,
Qazog‘a rozi bo‘l, sabr et balog‘a.

Yaqin bil, banda bo‘lsa asli isming,
Xudoning mulki bo‘lsa jon-u jisming.

Aningdur mol-u mulk-u, har na bori,
Nechuk qilsa, O‘zining ixtiyori.

Bo‘yunsung‘il nechukkim, qilsa farmon,
Bo‘lurmu bandada hujjat-u darmon?

Kishi kim bo‘lmasa rozi qazog‘a,
Agar sabr etmasa, kelgan balog‘a.

Agar shukr etmasa, Haq ne'matig'a,
Qachon loyiq bo'lur banda otig'a?

Xudog'a har ishing qilsang havola,
Bo'lur jannat bu o'lturg'on qavola.

Ko'ngilda qolmag'ay dunyo g'amidin,
Olursan bahra har o'tgan damidin.

Qay-u qulg'a muyassar bo'lsa bu hol,
Agar og'u ichar, bilgay ani bol.

Xudoning ganjidin bul bo'lsa yaxshi,
Rizojo' qul ani ko'rmasmu yaxshi?

Hikoyat

G'ulome oldi Abdullohi Ansor,
Dedi: ey qul, otingni ayla izhor.

Dedi: ey xoja, sen qo'ysang qay-u ot,
Maning otim o'shaldur, ey nek-u zot.

Dedi: ey qul, sevarsan qaysi xo'rak?
Dedi: sandin ne tegsa behdur, ey pok.

Dedi: qaysi kiyim ko'nglungda marg'ub?
Dedi: san qaysini bersang o'shal xub.

Dedi: ey qul, nadur kasbing-u koring?
Dedi: har qaysi bo'lsa ixtiyoring.

Dedi: bori qilursan qay hunardin?
Oquzdi ashkin ul qul chashmi tardin.

Dedi: ey yaxshilarning shahriyori,
Bo‘lurmi qul deganning ixtiyori?!

Agar amr aylasang, har qaysi yuzga,
Nadur choram, bo‘yunsunmoqdin o‘zga.

Eshitdi xoja ul qulning so‘zini,
Yiqildi yerga, urdi o‘z-o‘zini.

Yaqosin chok etib der erdi anda:
“Ey Abdullohki, ko‘rdung fe’li banda.

O‘zungni sol Xudog‘a juzu kulldin,
Tariqi bandalik o‘rgan bu quldin”.

Faqirlarni haqir ko‘rmamak bayoni

Kel e nozir, musulmon bo‘lsa har yor,
Nazar qilma haqorat birla zinhor.

Faqirni bilma kam dunyo elidin,
Hadis keldi Payg‘ambarning tilidin.

Dedi: “Al-faqr-u faxriy” ya’ni ul shoh,
Nechuk ortuq bilursan hashmat-u joh?!

Amaldur yaxshi qullarning kamoli,
Vara’dur hashmat-u johu jaloli.

Emas dunyosi bo‘lg‘on birla mahbub,
Hisobi Oxirat kam bo‘lg‘oni xub.

Agar beh bo‘lsa bo‘lg‘on birla moli,
Ki Qorun bo‘lg‘ay erdi ahli holi.

Quvondi necha kun dunyo uyig‘a,
Yubordi moli birla yer quyig‘a.

Agar dunyosi yo‘qdin bo‘lsa er xor,
Payambarg‘a Bilol bo‘lmas edi yor.

Muhammadkim, nabiylarg‘a edi toj,
Ato qildi Xudo ul kecha me’roj.

Maqomi Sidrag‘a yetdi u banda,
Bilol na’lini savti keldi anda.

Baloyi foqaga sabr etgan inson,
Diyonat mulkidadur mardi mardon.

Agar chandiki, bo‘lsang bebizoat,
Sulaymonsan agar qilsang qanoat.

Qanoatdur ko‘ngillarning safosi,
Qanoat barcha illatning davosi.

Qanoatkim, tabibi har kasaldur,
Qanoat ahlig‘a og‘u asaldur.

Birovning hukmi yetsa sharqdin g‘arb,
Birovning boshig‘a mo‘re qilur harb.

Ajal jallodi ko‘ksin aylag‘ach chok,
Qilur har ikkisin birdek qaro hok.

Birovning nuqra-vu tillosi mulmul,
Birov ko‘rgani yo‘q umrida bir pul.

Muni muflis demas, tong-la ani boy,
Bo‘lur har qaysig‘a zeri lahad joy.

Birov o‘tkardi umrin aysh ila fosh,
Birov totqoni yo‘q og‘zi to‘la osh.

Ajal jon achchig‘in ko‘rsatgach andak,
Bo‘lur har ikkalasi ko‘rmagandak.

Birovda bo‘lsa doim mehnat-u dard,
Birovning kulfati bo‘lmasa bir gard.

Alar bo‘lsa o‘lumning mubtalosi,
Bo‘lur hech ko‘rmagandek har ikkalosi.

G‘araz, bu so‘zdin, ey farzandi odam,
Yema hargiz o‘tar dunyo uchun g‘am.

Xiyonatdin yiroq bo‘lmoq bayoni

Kel e komil, kamol etsang diyonat,
Kishiga qilmag‘il hargiz xiyonat.

Xiyonatkim kelur qo‘ldin-u ko‘zdin,
Oyog‘din, uzvi pinhondin-u so‘zdin.

Muni bilgay jami’i odamizod,
Emas hojatki bir-bir aylasam yod.

Xiyonatkim, erur paydo ko‘ngildin,
Muni angla, diyonat berma qo‘ldin.

Nakim tushsa ko‘ngulga yo ko‘zunga,
Ravo ko‘rmasang ul ishni o‘zunga.

Ravo ko‘rsang musulmoneg‘a oni,
Muni derlar xiyonatning yomoni.

Qay-u ishga rizo bo‘lsang ko‘ngulda,
Agarchi qilmasang, bo‘lding u yo‘lda.

Erur isyon rizosi chunki isyon,
Rizoyi kufrdur — kufr, ey musulmon.

Musulmon o‘g‘lini ko‘rsang ko‘zungdek,
Zararda, naf’da bilsang o‘zungdek.

Qay-u qulni munungdek bo‘lsa holi,
Budur beshak musulmonlig‘ kamoli.

Agar chandiki, bo‘lsa shubhayi kam,
Ravo ko‘rsang ani o‘z nafsinga ham.

Ravo ko‘rma musulmoneg‘a zinhor,
Agar ko‘rsang banogoh, ayla izhor.

Xususan, bermagil taqvolik erga,
Mug‘ilon sepmagil, rayhonli yerga.

Taqiyning ko‘nglidur dorussiyonat,
Siyonatxonag‘a qilma xiyonat.

Agar topilsa ne’mat oldig‘a soch,
Vagar bo‘lmasa, og‘zing uzr uchun och.

Agar ming xalta bersang, xalta ko‘b zar,
Sango andin nechuk sud, ey birodar.

Agar bersang arig‘din qatrayi ob,
Erur chandon savob, ey gavhari nob.

Kishiga bersa kim moli haromi,
Umid etsa savob, ul mardi omi.

Bo‘lur kofir umid etgan ul inson,
Bilib, olib, duo qilg‘on ham ul on.

Xiyonatning birikim, bo‘ldi mavsuf,
Bilib, qilmasa har kim amri ma’ruf.

Vagar nahy etmasa munkar ishini,
Xiyonatlik degil, andog‘ kishini.

Birov yo‘l bilmayin yuzlansa cho‘lga,
Bilib san solmasang gar yaxshi yo‘lga.

Qay-u insof erur, qaysi diyonat,
Erur andog‘ ulug‘ buxl-u xiyonat.

Agar oldingda tifle bo‘lsa nogoh,
Yonar o‘tg‘a tusharin bilsang ogoh.

Uzatmas bo‘lsang anga dasti altof,
Nechuk bo‘lg‘ay musulmonlig‘da insof?!

Jami’i bandayi mo‘min sarosar,
Erurmiz bir-birimizg‘a birodar.

Birov chiqsa tariqi Oxiratdin,
O‘gursa yuz maqomi mag‘firatdin.

Agar ko‘rsatmasa yo‘l ko‘rgan inson,
Baxillik mundin o‘tmas, ey musulmon.

Sen ayg‘on so‘ngra tuz bo‘lmasa holi,
O‘zining bo‘ynig‘a bo‘lg‘ay vaboli.

Ochibdursan birodarlikni bobin,
Topibsan amri ma’rufning savobin.

Agar kelmasa qo‘ldin yo tilingdin,
Yomon ko‘r ul ishin jon-u dilingdin.

Juvonmardlik nishoni

Kel e inson, agar bo‘lsang chin erdek,
Og‘irlik pesha qil dunyoda yerdek.

Agar tepsa sani har qaysi mavjud,
Ziyon qilma, taqi yetkur anga sud.

Yuraking qilsalar ohan ila chok,
Chiqar oldig‘a turluk ne’mati pok.

Agarchi olama sandin tegar naf’,
O‘zingdin qilma tufrog‘ otini raf’.

Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil,
Yomonliq aylaganga yaxshiliq qil.

Kishi tosh ursa bosha, ey xujasta,
Kulub boqg‘il yuzig‘a, misli pista.

Bu sindurmoqg‘a diltang o‘lma zinhor,
Umid uldurki, xush ko‘rgay xaridor.

Oyoq ostida qoldim deb, dema voy,
Bo‘lur chin kosa, ko‘b tepku yesa loy.

Agar dushmang‘a do‘stlug‘ qilsang izhor,
Boshing yorg‘on kishilarni desang yor.

Rizo mulkida tamkin aylagan nos,
Jafo olmosi tegsa, qattiq olmas.

Demas osib ani, xalq ursa osib,
Va yo mehnat jiboli yotsa bosib.

Jaholat ahli qilmas kina tarkin,
Qachon dar kin bo'lur, gar bo'lsa dark in.

Agar rozi, yesa ming zarbayi yad,
Duoni hargiz ango qilsmag'ay bad.

Zararga rozi bo'lmas hargiz akmal,
Hidoyat birla tavfiqin tilar bal.

So'lur kin gardidin holat jamoli,
Ketur gardin, kerak gar din kamoli.

Uhud tog'ida bo'lg'on muhoraba

Uhud tog'ida Payg'ambar tishini,
Shahid etdi yana yetmish kishini.

Ajab kun tushdi mo'minlar boshig'a,
Umar keldi Payambarni qoshig'a.

Dedi yig'lab: "Ayo sultoni abror,
Duo qilg'il, qirilsun ushbu kuffor!"

Va lekin qilmadi ul da'vati bad,
Hidoyatga duo qildi Muhammad.

O'shal ro'zeki, anbuh erdi kuffor,
Abu Sufyon-u Xolid erdi solor.

Ijobat bo'ldi Payg'ambar duosi,
Musulmon bo'ldilar har ikkalosi

Ul ikki er bilan ko‘b ahli tug‘yon,
Uhud kofirlari bo‘ldi musulmon.

Chu Xolid oldi dinning shahdidan bahr,
Musulmon bo‘ldilar ilginda ming shahr.

Iroq ila Damashq-u, Xittayi Shom,
Abu Sufyon qo‘lida topti Islom.

Muhammad oldi olam xulqi xushdin,
Muyassar qilmadi oltun kumushdin.

Agar san mardi sohib himmatisan,
Rasulullohning xos ummatisan.

Tutarsan jon ila fe’li nabiyni,
Qilursan har mahalda payravini.

Hikoyat

Bahoul haqqi vad dini toba masvoh
Ovoneg‘a yo‘luqdilar banogoh.

Ovon bir so‘z dedi, ul banda bir so‘z,
Avon qo‘ydi yomonlig‘ ko‘yiga yuz.

Yuzig‘a soldi qamchin mardi g‘oliy
Qizil qon bo‘ldi sunbuldek soqoli.

O‘shal qonlik soqolin oldi qo‘lga,
Dedi: “Yo Rab,
muni sol yaxshi yo‘lga.

G‘azab qilma ango, qilg‘il inoyat,
Muhimmi uxraviysin qil kifoyat”.

Bu so‘zni angladi, ul mardi bebok,
O‘zin tashlab, yaqosin ayladi chok.

Yuzini yerga surtib, nola qildi,
Ko‘zining yoshini chun jola qildi.

Olib himmat asosin, kirdi yo‘lg‘a,
Qo‘lin topshurdi ul himmatli qulg‘a.

Xudo ul bandaga qildi inoyat,
Necha kun o‘tmayin topti valoyat.

Ana xulq-u, ana hilm-u, ana hol,
Ana davlat, ana nusrat-u iqbol.

Ana himmat, ana xullat, ana kor,
Ana tab’iyyati sultoni abror.

Yomonlarning ishidur kina tutmoq,
Musulmonlik — yomonlikni unutmoq.

O‘zining nafsini kam aylagan qul
Qilur qancha jafo kelsa tahammul.

Va lekin bul tahammul aylagan nos
Hamiyatda kerak chun qattig‘ olmos.

Hamiyat bobida o‘tkarmagay mard,
Agar chandiki, ul ish bo‘lsa bir gard.

Hamiyat qaysidur bilsang bata’yin,
Nazar ayla kitobi mujtahidin.

Eshon So‘fining yoronlariga vido qilganlari

Birodarlarki, bizga qildingiz ahd,
Olurmiz deb muhabbat jomidin shahd.

Topilmas bandada siz istagan hol,
Ochilmas osiydin siz ayg‘on ishkol.

Talab qilmang, bu noqisdin karomat,
Kushufot-u, maqomat-u, alomat.

Bila olmam nihoniy tarbiyatdin,
Olib erdim ilik nafsoniyatdin.

Pushaymonman parishon o‘tkan ishdin,
Bahor-u tiyramoh-u yoz-u qishdin.

Pushaymonman ilik olg‘onlarimg‘a,
Tama’ nonig‘a qo‘l solg‘onlarimg‘a.

Boring emdi, yoronlar, har qayona,
Yurunglar bir mukammil er tayona.

Qurug‘ qo‘l olg‘onimdin dar izoman,
Azize istangiz, sizdin rizoman.

Mani deb qolmangiz o‘z koringizdin,
Uyotlig‘man sizing ruxsoringizdin.

Bohall aylang, kelib ketgoningizga,
Yelib-yugrib umid etgoningizga.

Kechurmas bo‘lsangiz man quldin, ey qavm,
Mening holimg‘a mushkuldur, sabo yavm.

Tonib mandin, tanib avra' kishini,
Tutung mahkam aning qutlug' ishini.

Kerak murshid degan, monandi ummon,
Muborak botini pur durri marjon.

Jaholat dashtidin kim kelsa suvsob,
Aning zohir suvidin bo'lsa serob.

Agar bo'lsa kishi kim tolibi dur,
Cho'mub boting'a, jaybin aylasa pur.

Demang, topilmag'ay bu nash'alik kas,
Jahon ayvoni kengdur, xoli ermas.

Topilg'onda munungdek lujjayi xos,
Qani, ixlosi ko'b himmatli g'avvos?!

Cho'mub olg'oy ilikka durri maqsud,
Vagarna qo'l solib, qochmoq nechuk sud?

Agar siz topsangiz bir yaxshi shahni,
Xabardor aylangiz man ro'siyahni.

Qilay man ham yuzin ko'nglum ziyosi,
Qadam tufrog'ini ko'z to'tiyosi.

Na bo'lgay siz birodarlar payidin,
Manga ham bersalar vahdat mayidin.

Eshon So‘fining farzandlarig‘a nasihat qilg‘onlari

Tavallom uldur, ey farzona farzand,
Nigohdoring sani bo‘lsun Xudovand.

Ko‘zumni ravshani Siddiq Muhammad,
Yiroq bo‘lsun ko‘zingdin diydayi bad.

Eshit, man xastadin bir necha qavli,
Yigitlikka sani yetkursa Mavli.

Yomon yurma, yomon andisha qilma,
Otangdek ro‘siyohlik pesha qilma.

Yaratg‘on Tangrig‘a qilg‘il tavakkul,
Tama’ qilma kishidin birgina pul.

Tama’ bir parcha bo‘lsa qilmag‘il roy,
Bo‘lur bir parda yuzdin parda bejoy.

Yuzungdin parda kam-kam tushmasun past,
Hayodin oriy yuzning ori bo‘lmas.

Tama’ birla semurgon nafsi g‘ammoz,
Agar og‘zin tilar bo‘lsang, tilar boz.

Niqobi sharm ochilmasdin burunrog‘,
Ani berk ayla, har yoqdin taqib bog‘.

Qanoat qil, malomat mulki bo‘lma,
Otangdek xalq-u elga kulki bo‘lma.

Payambarlar fi’olidur qanoat,
Anga vobastadur majmuyi toat.

Belingni bog‘la mahkam bandalikka,
Otangdek qo‘yma yuz sharmandalikka.

Sharorat ahlining payvandi bo‘lma,
Havo birla havasning bandi bo‘lma.

Kichiklikdin ibodatga bo‘yun qo‘y,
Qiyomatning o‘yun qilsang, o‘yun qo‘y.

Ajab xushdur, kichiklikdin bo‘lub sog‘,
Bu kulmog‘ni qo‘yub, g‘amdin bukulmog‘.

Shabobe to‘ksa ko‘zdin har shab obi
Ani aynin degil, rahmat sahobi.

Riyo gardini yuqturma etakka,
Otangdek bo‘lma tobe’ nafsi sakka.

Tavozu’din ko‘tarma yuqori bosh,
Takabbur qilmag‘il chun tuxmi xashxosh.

Takabbur xotiringg‘a kelsa filhol,
Azozil qissasini yodinga ol.

Ko‘ngilning manzilin qil go‘shayi faqr,
Qiyomat zodi qilg‘il to‘shayi faqr.

Jahonning hirsidin qilg‘il o‘zing dur,
Otangdek bo‘lmag‘il dunyoga mag‘rur.

Umid etgon ko‘zumning nuri bolam,
Otangdek bo‘lmag‘il rasvoyi olam.

Agar chandiki, bo‘lsang qo‘l-qanotlig‘,
Xudo dargohida bo‘l miskin otlig‘.

Urug‘lig‘man dema, tong-la o‘rug‘ bor,
Hisob-u, nomav-u, vazn-u, so‘rug‘ bor.

O‘zingni ayla ko‘b, bo‘lg‘on sari xub,
Necha “man ko‘b” deganlar bo‘ldi mankub.

Bo‘lub xesh-u taboring birla mag‘rur,
Dema “man zo‘r” agar din bo‘lsa manzur.

Bu dunyodin agar o‘tsang qurug‘ lab,
Ko‘ngilga solma hargiz yodi mansab.

O‘tar dunyoda har kim bo‘lsa dinlik,
Bo‘lur mansabdin ortuq xo‘shachinlik.

Ajab ofat erur johi zarofat,
Shar ofatni bila ko‘rma sharofat.

Bilib dunyo maqomin g‘ayri ma’mur,
Bo‘lur ziyrak “vazirak” otidin dur.

Ko‘tarsang boshg‘a ar tug‘, bo‘lma ortug‘,
Bo‘lur ma’lum sabo ursa malak bug‘.

Xudodin har ne kelsa, aylag‘il sabr,
Otangdek qilmag‘il, o‘z nafsinga jabr.

Xudoning amrig‘a qilg‘il itoat,
Ziyod et toating soat-basoat.

Muhabbat fo‘tasini bog‘la belga,
Otangdek umringi o‘tkarma yelga.

Havas dunyoda qilma muhtaramlik,
Vale bo‘l holinga loyiq karamlik.

Agar uch kunda topsang parchayi non,
Yema yolg‘uz ani, yarmin qil ehson.

Agar bir yilda paydo bo‘lsa bir pul,
Yemas yolg‘uz Xudoni istagan qul.

Ketarni bilsa har kim joyi tanga,
Yemas tanga g‘amin bu nafsi langa.

Jahon mehrin ko‘ngildin ayla zoyil,
Otangdek bo‘lmag‘il dunyog‘a moyil.

Ishingni aylag‘il kun-kundin aqvo,
Xudoni suyganidur ahli taqvo.

Agar taqvo ishin qilsang boixlos,
Degay, shoyad, sani Haq “bandayi xos”.

Agar bo‘lsun desang, jon-u diling jam’,
Vara’ oyin bo‘lub, ilm oyin et sham’.

Agar ilm-u amal bir bo‘lsa rangi,
Har oyina ketar oyina zangi.

Agar topsang Xudo dargohida qurb,
Muhabbat kosasidin bersalar shurb.

Saharlar qo‘b, ko‘tar dasti duoni,
Tila munglug‘ ato birla anoni.

Xotimatul kitob

Kel Olloyor, so‘z ko‘toh qilg‘il,
Belingni bog‘la, azmi roh qilg‘il.

Qaro sangdur saning asling qarasang,
Beribdursan riyo qoni bila rang.

O‘lum to‘foni bu sirni qilib fosh,
Agar ich bo‘lmasa, sud aylamas tosh.

Qarib jisming qariyb bo‘lding havasga,
Nechuk sharmandalik san tusli kasga?!

Oqardi soch, nadomat ashkini soch,
Yaqong ushla, dahani ma’zirat och!

Yoling oqi asar qilmadi holo,
Uyola yur, boqib har dam uyola.

Havo birlan tuzuk ish qilmading hech,
Bo‘lubdur kech, havas bozoridin kech.

Sango aydi o‘shal piri ko‘hansol:
“Agar qol ahlida topilmasa hol.

Amalkim aylag‘ay o‘z qoli birlan,
Qolur izzat-u hurmat oli birlan.

Bo‘lur ortuq havas birlan havosi,
Erur hol ushbu illatning davosi”.

Qalam qilding, qaro ko‘nglungni qil oq,
O‘shal erning so‘zin halqa qilib toq.

O‘zung qilmay ko‘ngil bozorini tay,
Kishiga so‘zlamak, to chand-u tokay.

Agar bo‘lsa ko‘ngulning ixtiyori,
Na bo‘lg‘ay, qolsa mandin yodgore.

Bitibsan forsiy tilda kitobe,
Tamom anda masoyilning javobe.

Hama fatvo-vu taqvoning bayoni,
O‘n ikki mingdan ortuq bayti oni.

Deding shayi qalili turkiy tildin,
Kech emdi, albatta, bu qol-u qildin.

Agarchi yaxshi so‘z qandu shakardur,
Xatosidin vale xavf-u xatardur.

Xatosi bo‘lmag‘ay ayg‘on so‘zungni,
Tazarru hokig‘a surg‘il yuzungni.

Xudog‘a zori qilg‘il, erta-vu shom,
Ishingni puxta qilg‘il, qolmag‘ay xom.

Hijobi mag‘firat yopgay xatog‘a,
Sazovor aylag‘ay turluk atog‘a.

Munojot

Xoliqo, qoilman o‘z nuqsonima,
Ko‘b jafo qildim o‘zimning jonima.
Zoti pokingdan inoyat bo‘lmasa,
Hech ishonchim yo‘q amal qilg‘onima.

Xoliqo, qildim fioli gandani,
Qilmag‘il rasvo mane sharmandani.
San agar rahmat niqobin yopmasang,
Aybi ko‘b, nuqsoni ko‘btur bandani.

Xoliqo, to‘kdum ibodat tosini,
San tuzarsan bandaning kam-kosini.
Qullaring bulg‘ansa isyon loyig‘a,
Oquzarsan mag‘firat daryosini.

Xoliqo, qildim gunohi behisob,
Tong-la san so‘rsang,
ne bergayman javob?
Man ocharman jurm-u isyon chehrasin,
San yoparsan afv-u rahmatdin hijob.

Xoliqo, qildim gunohi beadad,
Jon berur holatda San bergil madad.
Nafsi shayton ilgidin qutqarmasang,
Bo‘ldi mushkil holimizg‘a, yo Ahad.

Xoliqo, yo avvalo, yo oxiro,
Nafsi shayton jonima bo‘ldi balo.
Garchi Olloyor o‘tarchidur yomon,
Qo‘ymag‘il dushman qo‘lunda mubtalo.

Xoliqo, po ishlarim bosh aylagil,
Xirmoni rahmat manga chosh aylagil.

Munda tavfiqim — chirog‘im qo‘lga ber,
Anda iymonimni yo‘ldosh aylagil.

Xoliqo, afv ayla o‘tgan yoshima,
Yaxshi qullarni ato qil qoshima.
Go‘r ichinda kelsa iki so‘rg‘uchi,
Anda san rahm ayla yolg‘uz boshima.

Xoliqo, hayf o‘tdi moh-u solimiz,
Bo‘lmadi nofe’ iyol-u molimiz.
San hisobimizni oson etmasang,
Ro‘zi mahsharda ne kechgay holimiz?!

Xoliqo, ko‘nglumda dunyo-vu duni,
Man erurman bandalarning ozg‘uni.
Garchi bandang munda bo‘lsa ro‘siyah,
Yuzlarin oq aylagil Mahshar kuni.

Xoliqo, yorliqo xalqi omani,
O‘rtada mandek maosiy xomani.
Hashrda har kimga kelsa bir bitik,
Anda bergil, o‘ng qo‘lumg‘a nomani.

Xoliqo, tutdum farog‘at xobini,
Istadim doim jahon asbobini.
Garchi Olloyor erur g‘arqi gunoh,
Och anga o‘lganda rahmat bobini.

Xoliqo, kam ayladim ko‘yi amal,
Yaxshilardek yurmadim so‘yi amal.
San karam birla Qiyomat dashtida,
Aylagil og‘ir tarozuyi amal.

Xoliqo, diydamga ashki zori ber,
Ko‘ngluma doim muhabbat yori ber.

Obi Kavsardin mani serob etib,
Ham manga ko‘fruk o‘tarda yori ber.

Xoliqo, lutf ayla jannatun na’im,
Qilmag‘il hargiz giriftori jahim.
Man gunohlik qul erurman, San g‘ofur,
Man xatolik bandadurman, San karim.

Xoliqo, tuz aylagaysan rohimiz,
Mustajob etgil duo-vu ohimiz.
Tong-la hayron bo‘lsa xalq o‘z holig‘a,
Mustafoni qil shafoatxohimiz.

Xoliqo, lutf et gadoyi zoringa,
Bandadurman roziman har koringa.
Mag‘firat daryosig‘a g‘arqob etib,
Ko‘zlarim shoyista qil diydoringa.

Xoliqo, umr ayladim foniy bilan,
Emdi bandang zor aylar joni bilan.
Garchi Olloyor erur zor-u zabun,
Jonni ol nuri imoni bilan.

MUNDARIJA

Mashrab

Mashrab sog'inchi *(Karomat Mullaxo'jayeva)* 4
G'azallar 10
Murabba'lar 275
Muxammaslar 279
Musaddaslar 286
Musamman 292
Masnaviy 295

So'fi Olloyor

"Sabot ul-ojizin" asari haqida *(Rashid Zohidov)* 298
Sabot ul-ojizin 300



MASHRAB

SO'FI OLLOYOR

8-jild

Adabiy-badiiy nashr

Arab yozuvidan ko'chiruvchi *Jaloliddin Yusupov*
Mas'ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 28,0. Nashriyot-hisob tabog'i 19,54.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 76-1/22 Buyurtma raqami № 22-287

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

M 34 Mashrab. So‘fi Olloyor [Matn]: nazm / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Karomat Mullaxo‘jayeva, Rashid Zohidov. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 448 b.
ISBN 978-9943-8722-5-7

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MASHRAB
SO‘FI OLLOYOR

